

BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI

29-NOYABR 2023-YIL



Toshkent-2023

**“Boshlang‘ich ta‘lim tizimini takomillashtirishning dolzarb masalalari”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ishchi
guruhi tarkibi**

T/r	FISh	Lavozimi
1.	M.Badalova	ishchi guruh rahbari, A.Avloniy nomidagi MTI ilmiy-tadqiqot bo‘lim mudiri, iqtisodiyot fanlari nomzodi
2.	J.Karimov	ishchi guruh a‘zosi, A.Avloniy nomidagi MTI buxgalteriya hisobi va marketing bo‘limi, bosh hisobchi
3.	A.Ibragimov	ishchi guruh a‘zosi, A.Avloniy nomidagi MTI ilmiy-tadqiqot bo‘lim mudiri, iqtisodiyot fanlari nomzodi
4.	X.Botirov	ishchi guruh a‘zosi, A.Avloniy nomidagi MTI ilmiy-tadqiqot bo‘lim mudiri, yuridik fanlar nomzodi
5.	E.Alkarov	ishchi guruh a‘zosi, A.Avloniy nomidagi MTI ilmiy-tadqiqot bo‘lim mudiri, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
6.	C. Palvannazirov	ishchi guruh a‘zosi, A.Avloniy nomidagi MTI ilmiy-tadqiqot bo‘lim mudiri
7.	D.Yusupova	ishchi guruh a‘zosi, A.Avloniy nomidagi MTI ilmiy-tadqiqot bo‘lim mudiri, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
8.	A.Boboqulov	ishchi guruh a‘zosi, AKT va texnik ta‘minot bo‘limi boshlig‘i
9.	M.Jumaniyozova	ishchi guruh a‘zosi, matbuot kotibi

To‘plamga kiritilgan maqola va tezislardagi dalil, raqam va ma‘lumotlarning togriligiga mualliflar mas‘uldirlar

KIRISH SO‘ZI

*Ismailov Abduvali Abdumalikovich,
A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi
metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti rektori,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etadi”, deb ta’kidlashlari Davlat va Prezidentimiz tomonidan yosh avlod tarbiyasiga naqadar katta e’tibor qaratilayotganidan dalolat beradi. Hozirgi kunda respublikamizning barcha ta’lim muassasalarida o‘quvchi-yoshlarning yuksak ma’naviyatli, mustaqil va erkin fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari, zamonaviy ilm-fan yutuklarini puxta o‘zlashtirishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgani, jahon standartiga javob beradigan o‘quv xonalari, axborot-kommunikatsiya, zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan ta’minlanganligining guvohi bo‘lish mumkin. Respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimi yaratilgan bo‘lib, boshlang‘ich ta’lim jarayoni o‘quvchi shaxsining rivojlanihi, atrof-olamni idrok etishi, bilimlarni o‘zlashtirishi, malaka va ko‘nikmalar, ilmiy tasavvurlarning hosil bo‘lishida muhim bosqich hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagi ijodiy faoliyatning har qanday kurtaklari ta’lim-tarbiya, faoliyatdan tashqarida kamol topa olmaydi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida bolalalardagi yashirin iste’dodlarni yuzaga chiqarish, kichik maktab yoshidan boshlab o‘z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o‘tkir zehni, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkazish garovi bo‘lib hisoblanadi. Bu Davlatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri – har tomonlama barkamol insonni voyaga yetkazish g‘oyasiga mos keladi. Shuning uchun ham mazkur yo‘nalishga e’tibor qaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Boshlang‘ich maktabda bolaning barcha keyingi bilimlari uchun zamin yaratiladi, shuning uchun bu poydevor mustahkam bo‘lishi lozimdir.

Boshlang'ich maktabni tugatgandan so'ng, deyarli barcha o'quvchilar yozish va hisoblashning asosiy ko'nikmalarini o'zlashtiradilar. Ammo bu borada bolalalarda muloqot va muomala madaniyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati, kreativlik fazilati, guruhda ishlash (jamoani his qilish) ko'nikmalarini rivojlantirishga ham jiddiy e'tibor qaratish lozimdir. Ushbu bosqichda maktab o'quvchilarining keyingi ta'lim traektoriyasini aniqroq rejalashtirish muhimdir. Shu vazifalarni amalga oshirish maqsadida A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan tashkil etilgan "Boshlang'ich ta'lim tizimini takomillashtirishning dolzarb masalalari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida boshlang'ich sinflarda ta'lim mazmunini takomillashtirish yo'llari, tizimni takomillashtirishda ilg'or milliy va xorijiy tajribalar, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishning samarali shakl va metodlari, boshlang'ich ta'lim tizimini takomillashtirishda PIRLS xalqaro tadqiqotining roli, boshlang'ich sinflarda o'qituvchi va ota-onalar hamkorligini amalga oshirishning huquqiy asoslari kabi dolzarb masalalar yechimi o'z aksini topdi va ushbu konferensiya materiallari to'plamida tanlab olingan ilmiy maqola va tezislar jamlandi.

Ibraimov Xolboy Ibragimovich,
Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston
pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti direktori,
pedagogika fanlari doktori, professor

BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHISINING DARS JARAYONIDA QO'LLAYDIGAN METODI – TA'LIM SIFATINING ASOSIY OMILIDIR

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining dars jarayonida qo'llaniladigan metodlarning o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, muallif ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning asosiy omillarini ko'rsatib bergan.

Kalit so'zlar: Ta'lim sifati, boshlang'ich ta'lim, metod, jarayon, samaradorlik, axborot texnologiyalari, mustaqil ta'lim, noan'anaviy darslar samaradorligi.

Malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri – bu ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdir. Ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini ta'minlashda moddiy omillar bilan bir qatorda pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarlik darajasi, salohiyati ham muhim ahamiyatga ega. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish hamda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishda o'qitishning zamonaviy usullari, shakl va vositalari, texnologiyalari, mustaqil ta'limning noan'anaviy metodlari muhim o'rin tutadi.

Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida dars beradigan o'qituvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarida o'z bilim va malakalarini oshirish ustida shug'ullanmasliklari, kutubxonalarda mustaqil ta'lim olish uchun kerakli adabiyotlarning yetishmasligi, axborot texnologiyalaridan unumli foydalana olmasliklari natijasida o'qituvchilarimizning o'z metodikalari yaratilmagan.

Ushbu muammoni ijobiy hal qilish uchun o'qituvchilarining dars mashg'ulotlarni tashkil etishda innovatsion yondashuvni (ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etish: ya'ni ta'lim oluvchilarni o'qituvchi xoxlagandek bosim ostida, rejalashtirilgan dasturdan chiqmagan xolda, ta'lim beruvchi xoxlagan metod, shakl va vositalar asosida emas balki ta'lim oluvchiga olinishi zarur bo'lgan manbalarni ongli ravishda o'zlashtirish ishtiyoqini uyg'otish, ichki va tashqi motivatsiyani sifatli bilim olishga yo'naltirish, bunda ta'lim oluvchi sub'ekt sifatida o'z o'rniga ega xolda izlanuvchiga aylanishi zarur. Shuningdek, bunday yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonida faol va samarali qo'llanilayotgan metodlarning ko'plab turlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos didaktik imkoniyatlarga ega. Manbalarni nazariy o'rganish, xorijiy mamlakatlar va mintaqa pedagoglarining ilg'or ish tajribalarini o'rganish natijasida ayni vaqtda ta'lim jarayonida quyidagi faol metodlardan keng foydalanilayotganligi aniqlandi: rolli o'yinlar, ishbilarmonlik o'yinlari, amaliy treninglar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, namoyish yoki himoya (taqdimot), videotahlil kabi metodlar.

Qo'llanilayotgan metodlarning barchasi muayyan darajada didaktik imkoniyatga ega. Biroq, ularning barchasi birdek samarali foyda bermasligi mumkin. Binobarin, ushbu metodlar mohiyati va ularni qo'llash shartlariga muvofiq ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, madaniy masalalarni muhokama qilish, shuningdek, til xususiyatlarini yoritishda yuqori va past samaradorlikni berishi ta'lim amaliyotida o'z isbotini topgan. Shu sababli ta'lim turi, o'rganilayotgan fan va mavzu yo'nalishi, g'oyasi, ko'lami va boshqa jihatlariga ko'ra metodlarni to'g'ri tanlay olish maqsadga muvofiqdir.

Dars jarayonida foydalanatgan metodlar qachon o'z samarasini beradi. Qachonki o'qituvchi qator shartlarga rioya qilsa: Jumladan, o'quvchilarga nazarda tutilayotgan metod mavzusi, mazmuni haqida ma'lumot berish, shartlari bilan tanishtirishda ko'rsatmalarining qisqa, aniq va tushunarli bo'lishiga e'tibor qaratish; rollar taqsimlangandan so'ng tayyorlanish uchun aniq vaqt (reglament)ni belgilash; kutilayotgan natijani aniqlashtirish; mentalitetimizga moslashtirish, asosiysi mashg'ulot davrida kommunikativ jarayonni samarali tashkil etish lozim.

Manbalarda turli nomlar bilan nomlanuvchi metodlarning 30 ga yaqin turlari qayd etilgan. Ularning har biri muayyan g'oyaga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni, o'rganilayotgan mavzuga ijodiy yondashuvni yuzaga keltiradi. Shu sababli ularning o'rinli, maqsadga muvofiq tanlanishi va qo'llanishi muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy sharoitda axborot texnologiyalarining jadal rivoji va zarur ilmiy, ilmiy-metodik adabiyotlar bilan izchil tanishib borish imkoniyatining mavjudligi o'qituvchilarga o'z ustlarida ishlashga imkon yaratadi. O'z ustida ishlash, kasbiy bilim va malakalarini oshirib borishga yo'naltirilgan faoliyat bevosita individual malaka oshirish mohiyatini ifodalaydi.

Individual malaka oshirish bu – bozor iqtisodiyoti sharoitida xodimning o'z malakasini mustaqil ravishda uzluksiz oshirib borishini taqozo etuvchi, xodimning raqobat sharoitida o'z ish o'rnini, obro'-e'tiborini saqlab qolishi va yuksaltirishi uchun mustaqil harakat qilishini talab etuvchi ta'lim jarayonidir. Individual malaka oshirish har bir mutaxassisning bilim, ko'nikma va malakalarini tezkorlik bilan doimiy chuqurlashtirish, yangilash hamda madaniy saviyasini kengaytirib borishiga yo'naltirilgan faoliyatdan iborat, uning harakatlantiruvchi kuchi – uzluksiz mustaqil mutolaa va o'z-o'zini rivojlantirish dasturiga ega bo'lish hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida samarali foydalanish mumkin bo'lgan didaktik imkoniyatlarga ega ko'plab metodlar mavjud bo'lsa-da, biroq ular har doim ham o'rganilayotgan mavzuga mos kelavermaydi. Buning ko'plab sabablari mavjud. Jumladan:

- nazariy ma'lumotlar va amaliy masalalarni yorituvchi manbalar yetarli darajada mavjud emas (aksariyat manbalarda sof nazariy masalalar yoki mohiyatini to'la anglash qiyin bo'lgan rasm, tasvir va sxemalarning berilishi, noaniq texnologiyaning tasvirlanishi o'quv materialini mohiyatining o'quvchilar tomonidan yetarli darajada o'zlashtirilmashligiga olib keladi);

- aksariyat mualliflar amaliyotda o'zlari asoslagan tuzilmalarning tasvirlari yoki o'yinlarni taqdim etishda-da, biroq ularning yosh, yetarli darajada kasbiy malakaga ega bo'lmagan o'qituvchilar foydalanishlari uchun qulay bo'lishiga erishishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ymaydilar;

- turli sharoitlarda ham samarali foydalanish mumkin bo'lgan interfaol metodlar mazmunini yorituvchi manbalar, odatda, keng ommaga mo'ljallanmagan bo'ladi;

- ta'lim jarayonida metodlardan foydalanishda o'quvchilarning yosh davri, ularning fiziologik va psixologik xususiyatlari, o'quv sinfining holatini inobatga olishga e'tibor qaratilmaydi;

- sinf xonalarining holati va joylashishi o'yinni tashkil etish shartiga javob bermaydi.

Shu sababli o'rganilayotgan mavzuning yo'nalishi, mohiyatiga mos keluvchi, shuningdek, mavzu mohiyatini to'laroq va aniqroq ochib berish imkoniyatiga ega metodlarni tanlashga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Metodlarni tanlash o'quvchilarga yetkazib berilishi kerak bo'lgan o'quv materialini va ta'lim maqsadiga bog'liq. Didaktik xarakterdagi metodlarni to'g'ri tanlay oladigan, ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay oladigan o'qituvchining pedagogik mahorati yuqori bo'lishi bilan birga u o'z navbatida tajribali bo'lishi lozim.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish, ular o'rtasida o'zaro bahs-munozara va faol tortishuvlarni yuzaga keltirish, shuningdek, ularning nima uchun "tortishayotganliklari (bahslashayotganliklari)"ni tushunib yetishlari uchun o'qituvchi metodlarning umumiy mohiyati to'g'risidagina ma'lumot berib qolmasdan, shu bilan birga uni tashkil etish qoidalari, shartlarini aytib o'tishi, o'quvchilarning individual xarakteridan kelib chiqqan holda yondashishi, zarur o'rinlarda maslahat hamda ko'rsatmalarni berishi, ta'lim jarayonining har bir bosqichida amalga oshiriluvchi vazifalarni tushuntirishi va bosqichlar ketma-ketligini tasvirlashi darsning samarali bo'lishi nita'minlashini malaka oshirish kurslarida amaliyot orqali yetkazish kerak.

Yuqoridagilarga asoslanib, shuni aytish joizki, dars jarayonida metodlardan samarali foydalanish hamda yaxlit, umumiy ta'lim jarayonini boshqarish o'qituvchidan tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishni, alohida faollik ko'rsatishni, topqir, qat'iyatli bo'lishni talab etadi. Shu bilan birga u muayyan harakat tezligiga ega bo'lishi, ma'lum pozitsiyada tura olishi va o'quvchilarga birdek ta'sir ko'rsata olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-son qarori. Toshkent sh., 2020-yil 6-noyabr.
2. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped.fan. nomz. ... diss. – T.: 2002. – 276-b.
3. Boshlang'ich ta'lim fanlari bo'yicha standart tekshiruv ishlari to'plami // Tuzuvchi-mualliflar: A.I. Kalontarov va boshq. – T.: Ma'rifat-madadkor, 2002. – 415-b.
4. Davletshin M.G. Boshlang'ich ta'limning psixologik omillari // Xalq ta'limi tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yangi avlodini tayyorlash muammolari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 1996. – 132-134-b.
5. X.Ibraimov, M.Quronov. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: "Sahhof", 2023.
6. X.I. Ibraimov Organizatsiya samostoyatelnoy raboty studentov v usloviyax sifrovizatsii vuzovskogo obrazovaniya // Nauka i obrazovanie segodnya. – 2020. – №. 7 (54). – S. 74-75.
7. Ibraimov, X., Abdullaeva Sh. "Pedagogika nazariyasi (darslik)." – T.: Fan va texnologiya 288 (2008).

Alkarov Elyor Maxmudovich,
*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti
Raqamli ta'lim texnologiyalarini va statistikasi
takomillashtirish ilmiy-tadqiqot bo'limi mudiri,
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)*

“UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH TIZIMIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARINING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH”

***Annotatsiya:** Maqolada axborot texnologiyalarini qo‘llagan holda o‘qitish va tarbiyalashga bo‘lgan innovatsion yondashuvlar, uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonlarining axborot ta‘minotini takomillashtirish, maktabgacha va maktab ta‘limi tizimi pedagoglarini, jumladan boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning innovatsion axborot-didaktik shakllari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Axborotli jamiyat, globallasuv, uzluksiz pedagogik ta‘lim, masofaviy ta‘lim, uzluksiz kasbiy rivojlantirish.*

Insonning axborotli jamiyatda yashash tarzining tubdan o‘zgarishi, axborotli jamiyat vujudga kelishi bilan paydo bo‘lgan ilmiy-texnika va ijtimoiy taraqqiyotning voqe‘liklari, ularni zamonaviy ta‘lim mazmuniga, ta‘lim tizimlarining ko‘lami va rivojlanish darajasiga mos kelmasligiga olib keldi.

Ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohotlar u yoki bu darajada kadrlar tayyorlash jarayonlarining axborot ta‘minotini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyojni belgilaydi. Axborotlar ularni saqlash, qayta ishlash va yetkazib berish, axborot texnologiyalarini qo‘llagan holda o‘qitish va tarbiyalashga bo‘lgan yondashuvlar ko‘pchilik ilmiy tadqiqotlar va davlat dasturlarida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi.

Axborot texnologiyalarini uzluksiz pedagogik ta‘lim tizimiga tatbiq qilish yildan yilga keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Axborotlashtirish jarayonida pedagogik hamjamiyat tomonidan ko‘p sonli axborot resurslari ishlab chiqilmoqda. Amalda qo‘llanilayotgan o‘quv, ilmiy va metodik ishlanmalarning ko‘pchiligi elektron shaklga o‘tkazildi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, telekommunikatsiyalar va kompyuter tarmoqlari axborot resurslariga kirish va yig‘ishning butunlay yangi imkoniyatlarini yaratdi. O‘qitishning turli shakllari bilan birgalikda va birlikda ta‘limni takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda, ta‘limning yangi shakllari – masofaviy ta‘lim rivojlanmoqda. Lekin pedagog malaka oshirishning qaysi shaklini tanlamasin, uning samaradorligi, natijada, mustaqil ishlarning ko‘lami, mustaqil o‘qish bilan aniqlanadi. Mustaqil ta‘lim, ongning yuqori rivojlanish darajasiga, pedagog kadrlarning o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini ijodiy amalga oshirishga bo‘lgan ehtiyojiga tayanadi.

Hozirgi kunda XXI asr yuksak texnologiyalar zamoni, tafakkur asri, yalpi axborotlashuv asri, globallashuv davri deb ta'rif etilmoqda.

Globalashuv – insoniyatning ongu shuuri, tafakkuri samarasi sifatida vujudga kelgan jahon miqyosidagi umumiy jarayon, u chegara va hududlarni bilmaydigan, tuzumlarni tan olmaydigan, uzluksiz kuchayib va rivojlanib borayotgan jarayondir. Ana shunday globallashuv davrida har qanday davlatning rivojlanishi, uni rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o'rin olishi, birinchi navbatda davlatning intellektual salohiyati, yosh avlod ta'lim tarbiyasi va umuman zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimiga bog'liqdir.

Innovatsion jarayon deganda yangilikni yaratish, o'zlashtirish, undan foydalanish, uni tarqatish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan majmual faoliyat tushuniladi. Ta'limda innovatsion jarayonlarni amalga oshirish esa ta'lim sifatini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini izchil rivojlanishi ta'lim tizimini butun jahon ta'lim muhiti talablariga javob berishi zarurligini taqozo etmoqda. Ta'limda axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masofaviy ta'limning yuzaga kelishiga sharoit yaratdi.

Pedagogik innovatika (yangilik kiritish, innovatsiya) – ta'lim muassasasining faoliyatiga nisbatan barqaror yangilik elementlarini kiritib, uning rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishiga samarali ta'sir etuvchi maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirishdir. Innovatsion pedagogik texnologiyalar aynan ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilar (tinglovchilar)ga muayyan fan (mavzu) bo'yicha bilim berish va shaxsni shakllantirishga qaratilgan o'qitishning zamonaviy axborot-didaktik shakllari va axborot-kommunikatsion texnologiyalar majmuidir. Ta'limning innovatsion axborot-didaktik shakllari – ta'lim oluvchining qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim tarbiya mazmunini, ta'lim maqsadiga mos ravishda loyihalash hamda pedagogik, axborot-kommunikatsion uslublar, shakllar va o'qitish usullarini tadbiiq etishga yo'naltirilgan psixologik, umumpedagogik, didaktik va shaxsiy uslubiy tartiblar asosida amalga oshiriluvchi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir tizimidir (K.K).

Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi kadrlarini, jumladan boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini uzluksiz rivojlantirishning innovatsion axborot-didaktik shakllari – yuqori darajadagi samaradorlikni ta'minlovchi, pedagogik qonuniyatlar, maqsadlar, prinsiplar, mazmun, shakl, uslublar, o'qitish vositalari va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan hamda tarbiyalash usullaridan tashkil topgan loyihalash va mos ravishda ushbu texnologiyani amaliyotda qo'llash tizimidir.

Adabiyotlar tahlili asosida, amalda tatbiiq qilingan yoki nazariy yondashuvlar ko'rinishida tavsiflangan uchta asosiy turdagi axborot-ta'lim muhitini ajratish mumkin: bilimlarni taqdim etishga yo'naltirilgan muhitlar, bilimlarni olish bo'yicha mustaqil faoliyatga yo'naltirilgan muhitlar, muhitlarning aralash turi.

Axborot-ta'lim muhitining birinchi turi – o'rganilayotgan bilim sohasining ichiga ta'limning muayyan metodikalari kiritiladigan apparatli-dasturiy model bilan bog'liq. Odatda bular yuqori darajada tuzilmalashtirilgan o'qitish muhitlari bo'lib, ularda ta'limning xarakteri va yo'nalishi, ta'lim oluvchining imkoniyatlari va ishtirok etish

shakllari aniqlangan, ta'limga qo'yilgan pirovard maqsadlarga ketma-ket yaqinlashish amalga oshiriladi.

Bunday muhitni yaratishda kognitiv yondashuv keng qo'llaniladi, uning asosida inson bilimining ichki tuzilmasiga, o'rganilayotgan predmetning tizimli-tuzilmaviy xossalari tayanish yotadi.

Bu turga asosida ta'lim oluvchining bilish faoliyati modellari yotadigan, o'zgaruvchan individuallashtirilgan ta'lim jarayonini amalga oshirishga yo'naltirilgan intellektual va adaptiv o'qitish muhitlarining ko'pchiligi taalluqlidir.

Ikkinchi turdagi muhitlarni qurishning asosiga ularning faoliyatli, konstruktivistik xarakteri qo'yilgan. Muhitni tushunish mazmuniy masalalarni yechish jarayonida bilimlarni egallash konsepsiyasiga tayanadi. Bunday qarashga muvofiq, axborot-ta'lim muhitida o'qitish bilimni chiqarib olish, konstruksiyalashga yo'naltirilgan faol jarayondir. Bunday turdagi muhitlar ta'lim beruvchi uchun ham, ta'lim oluvchi uchun ham ochiq bo'lib, mazmuni to'ldirish va unga o'zgartirishlar kiritish, o'zining muhitdagi o'quv faoliyati natijalarini taqdim qilish imkonini beradi. Bunday muhitdagi kommunikatsion jarayonlar o'qitishning didaktik, metodik va tashkiliy tomonini ta'minlaydi va ta'lim jarayonining markaziy elementi bo'lib xizmat qiladi.

Biz tomonimizdan olib borilgan ko'pchilik adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, axborot muhitini yaratish uchun bir necha tashkiliy-texnologik yondashuvlardan foydalanish mumkin. Lekin eng katta samaraga bilimlarni boshqarishning korporativ portaldan foydalangan holda erishiladi.

Pedagog kadrlar uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil qilishning milliy va xorijiy nazariyasi va amaliyotini tahlil qilish asosida yuqorida ko'rsatildiki, bu talablarga uzluksiz ta'limning maxsus tamoyillarini va o'qitishning andragogik modelini o'z ichiga olishi lozim bo'lgan yangi shakl sifatida qurilgan tashkiliy-didaktik tizim javob berishi mumkin.

Shu bilan birga, ta'limiy talablar har doim ham malaka oshirish tizimiga bo'lgan aniq buyurtma sifatida shakllantirilmaydi, ko'p hollarda pedagoglar uzluksiz kasbiy rivojlantirish muassasalari tomonidan o'zlarida mavjud bo'lgan kadrlar, resurslar va pedagog kadrlar ehtiyojlari to'g'risidagi tasavvurlardan kelib chiqib taklif etgan amaldagi dasturlar va kurslar to'plami bilan cheklanishga majburlar.

Ta'kidlash lozimki, uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida maqsadlar, mazmun va ish shakllarini zamonaviylashtirish lozimligi allaqachon tan olingan. Boshqacha qilib aytganda, malaka oshirish tizimi pedagoglarni kasbiy mohirlashtirish jarayonini uzluksiz kuzatib borish tizimiga moslashishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Айзенберг А.Я. Самообразование: история, теория и современные проблемы. – М.: Просвещение, 1986. – С. 128.

2. Алферова Г. А. Формирование у будущего учителя готовности к непрерывному образованию: Автореф. Дис... Канд. Пед. Наук. Волгоград, 1998. – С. 27.

Ismailov Abduvali Abdumalikovich,
A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti rektori, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Badalova Maksuda Umarovna,
A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot instituti ITB mudiri

“4K” KOMPETENSIYALARINING MOHIYATI VA BAHOLASH USULLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada “4k” kompetensiyalari (muloqot va muomala madaniyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati, kreativlik fazilati, guruhda ishlash (jamoani xis qilish) kabi kompetensiyalarning mohiyati ochib berilgan va diagnostik, formativ va summativ baholash metodlari orqali mazkur kompetensiyalarni baholashning yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *soft skills, kompetensiya, muloqot va muomala madaniyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati, kreativlik fazilati, guruhda ishlash (jamoani xis qilish).*

Metodlar: *abstraksiya, qiyosiy tahlil, ilmiy xulosa.*

Respublikamiz ta'lim sohasi mutaxassislari XXI asrning eng asosiy to'rtta kompetensiyalarini “4k” ni (muloqot va muomala madaniyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati, kreativlik fazilati, guruhda ishlash (jamoani xis qilish) kabi kompetensiyalar rasosida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu kompetensiyalar barcha kasblarni mukammal egallash, mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish uchun jiddiy ahamiyatga ega. Ish beruvchilar bilan muloqot jarayonida shu ma'lum bo'layaptiki, *soft skills* ya'ni, barcha kasblarni egallashning asosi bo'lgan – hayot davomida paydo bo'ladigan muammolarni hal qilish, boshqa insonlar, hamkasblar bilan til topishib, ishlab ketish malakalarini shakllanganligi ularning eng asosiy talabiga aylangan. Ushbu malakalarni qandaydir o'quv kurslarda yoki treninglarda shakllantirib bo'lmaydi, bu malakalar bolalikdan, butun hayot davomida shakllanib boradi. Ayniqsa, ushbu malakalarni shakllantirishga boshlang'ich sinfdan jiddiy ahamiyat berish zarur.

Zamonaviy “4k” kompetensiyalari o'quvchilarda metapredmet (bu aniq soha bo'yicha bilim va malakalar emas balki, umumiy ko'nikmalardir) ya'ni, matematika darsida bola nafaqat masala yoki misol yechadi balki, berilgan masala, misolni to'g'ri yechish shartlarini tahlil qilishni, kerakli ma'lumotlarni izlab topishni, savollarni aniqlashtirishni va berishni bilishi nazarda tutiladi. Ushbu maqolada bevosita muloqot va muomala madaniyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati, kreativlik fazilati, guruhda ishlash (jamoani xis qilish) kompetensiyalarini, baholash tizimi xususiyatlarini umumiy va qisqa ko'rib chiqamiz.

Baholash bu – o‘quvchilarning axloqiy va aqliy rivojlanishiga hamda ularning hayotiy zarur bo‘lgan kompetentliklar egallashiga qaratilgan bilim faoliyatini o‘lchash, talqin va tahlil qilish, shuningdek, ta’lim sifatini yaxshilash maqsadida davlat ta’lim standarti talablariga ushbu faoliyat natijalarining muvofiqligini aniqlash uchun o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ota-onalar bilan qayta aloqa o‘rnatish jarayonidir.

E’tiboringizga quyidagi baholash tizimlarining qiyosiy tahlilini havola etamiz:

<i>An’anaviy baholash tizimining xususiyatlari</i>	<i>Zamonaviy baholash tizimining xususiyatlari</i>
Fanga yo‘naltirilgan	Kompetensiya va malakalarga yo‘naltirilgan
Ko‘p ma’noli va yagona to‘g‘ri javobi bor savollardan foydalaniladi	Mantiqiy fikrlashga asoslangan har xil turdagi savollar, savollarga javob berishda o‘quvchilarning hatti-harakatlarini kuzatish imkoniyati mavjud. Bunda o‘quvchining o‘zini tutishi, javob natijasi ahamiyatidan kam bo‘lmaydi
Bilimni baholash va o‘lchashga ahamiyat beriladi	Keng ko‘lamli kompetensiyalarni baholashga va o‘lchashga yo‘naltirilgan
Qog‘ozga yozilgan test materiallari taqdim etiladi	Turli shakldagi test topshiriqlari taqdim etiladi, bunda, o‘yin metodlari hamda raqamli texnologiyalardan ham foydalaniladi
Barcha o‘quvchilar bir xil turdagi test yechadilar	O‘quvchilar testing turli qismlarini bajaradilar, baholash esa yagona shkala asosida amalga oshiriladi
An’anaviy ya’ni, hozirgi kunda o‘z ahamiyatini yo‘qotgan test nazariyasiga asoslaniladi, unda faqatgina tahliliy yondashuvga tayaniladi	Zamonaviy tahlil usul va uslublaridan, baholashning zamonaviy nazariyasi, tuzilmaviy modellashtirishdan foydalaniladi
Fanning o‘zlashtirilishi va takomillashuvining o‘nlab yillik tadqiqoti natijalariga tayaniladi	Zamonaviy bilim, malaka va ko‘nikmalar rivojlanishi, kompetensiyalarni o‘zlashtirilishi bo‘yicha tadqiqotlar natijalari o‘rganiladi hamda tatbiq etiladi

Ta’limda baholashni qachon, nima uchun va qanday qo‘llashni tushunish muhim. Quyida baholash turlari va ularning differensial ta’limda qo‘llanishini ko‘rib chiqamiz.

Oldindan baholash o‘quvchi bilim olishining boshlang‘ich nuqtasini, shuningdek, ta’limda yutuqlarga erishish uchun o‘quvchida rivojlantirish zarur bo‘lgan kompetent-

liliklarni aniqlashga yordam beradi. Dastlabki baholash o'quvchilarning qiziqishlari va ta'limdagi afzalliklar haqidagi xabardorlikni rivojlantirish uchun foydali. Bu ma'lumot sinfda o'quv guruhlarini shakllantirish (guruhlar yaratish) va o'quvchini qiziqtirgan sohadagi o'quv materialini yoki unga muvofiq bo'lgan matnlarni tanlash uchun kerak. Dastlabki baholash diagnostik baholash deyiladi.

Diagnostik baholash o'quvchi taraqqiyotini baholash uchun ishlatiladi – o'quv yili mobaynida o'qituvchi o'quvchi kompetentliklari shakllanganligining boshlang'ich darajasi bilan erishilgan natijalarni solishtiradi. Diagnostik baholash natijalari tavsiflar ko'rinishida qayd qilinadi, tavsiflar umumlashtiriladi hamda o'quvchi uchun o'quv vazifalari va o'qituvchilar uchun ta'lim vazifalari qo'yish yo'li bilan ta'lim taraqqiyotini mukammallashtirish hamda tuzatishlar kiritish uchun xizmat qiladi. Diagnostik baholash odatda o'quv yili, o'quv bo'limi boshida yoki mavzu o'rganishning birinchi mashg'ulotida o'tkaziladi. Baholashning ushbu turi ham o'qituvchiga, ham o'quvchiga mavjud vaziyat haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lish va tayanish kerak bo'ladigan talablarni belgilash imkonini beradi.

Diagnostik baholash zarurati:

- a) o'quvchilarning har xil tayyorgarlik darajasi bilan;
- b) mazmunni o'zlashtirishdagi ketma-ketlikni ta'minlash bilan;
- c) rivojlanishga muvofiq holda o'quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos bo'lgan o'qitish va o'qish jarayonini oldindan ko'rish kerakligi bilan aniqlanadi. O'qish malakalarini yoki tilni bilish darajasini baholovchi bir standartga keltirilgan testlar, shuningdek, noformal o'yinlar yoki mashqlar diagnostik baholash vositalari bo'lishi mumkin.

Formativ baholash material o'zlashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini (ish bajarish sur'atini, mavzuni o'zlashtirish yo'llarini va h.k.) hisobga olgan holda o'quvchilar taraqqiyotini aniqlash uchun, shuningdek, muvaffaqiyatga erishish uchun tavsiyalar ishlab chiqish maqsadlarida qo'llaniladi. O'qituvchi formativ baholashdan o'qitishni o'z vaqtida to'g'rilab turish, rejalashtirishga o'zgarishlar kiritish uchun, o'quvchilar esa – o'zlari bajarayotgan ish sifatini yaxshilash uchun foydalanadi. O'quvchining taraqqiyoti ta'lim sohalari doirasida o'qitish maqsadlariga qo'shilgan ma'lum natijalarga erishish sifatida, o'quvchi tomonidan bajarilgan aniq bir ish asosida aniqlanadi.

Formativ baholash – bu o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi qayta aloqaning uzluksiz jarayoni. Qayta aloqa og'zaki va yozma, formal va noformal bo'lishi mumkin. Bu o'quv maqsadiga erishish uchun kelgusidagi xatti-harakatlarni to'g'rilash maqsadida o'quvchilarning yutuqlari haqida muntazam ma'lumot olish jarayoni. U o'qituvchiga bilimni o'zlashtirishning joriy darajasini xolisona baholash, o'quv materialini yetarlicha o'zlashtirilmaganini diagnostika qilish imkonini beradi va kelgusida ta'lim jarayonini yaxshilashga yordam beradi. Formativ baholash o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirishga, mustaqil o'quv malakalarini, shaxsiy ta'lim uchun javobgarlikni shakllantirishga yordam beradi. Og'zaki savol-javob, kuzatish, mazmun tuzilishiga topshiriq, taqdimotlar, portfolio, guruhda ishlash, ijodiy topshiriqlar, o'zini o'zi baholash va o'zaro baho berishlar baholashning ushbu turi vositalari bo'lishi mumkin.

Summativ (yakuniy) baholash mavzu, bo'lim, to'liq kursni o'rganish yakuni bo'yicha bilimlar, malakalar, ko'nikmalar, kompetentliklarning shakllanganlik darajasini aniqlash uchun mo'ljallangan. Summativ baholash tekshirish ishlarining har xil turlarini bajarish natijalari bo'yicha o'tkaziladi: test, nazorat, laboratoriya, tadqiqot ishlari; bayon, esse, loyiha, og'zaki taqdimot, imtihon, ijodiy topshiriqlar va h.k.

Baholashning har qanday turidan foydalanish aniq ifodalangan mezonlar ishlab chiqishni ko'zda tutadi. Ular tushunish uchun oson tilda ifoda qilingan va o'quvchilarga tushunarli bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – 102 b.
2. Downing James P., Sreative Teaching: Ideas to Boost Student Interest, Englewood, Solo.: Teacher Ideas Press, 1997. – 225 p.
3. Zinovkina M.M. Mnogourovnevoye neprerivnoye kreativnoye obrazovaniye v shkole // Konsept. – 2012. – № 9 (sentabr). – ART 12116. – 1,0 p. l.
4. Rou A.Dj. Kreativnoye mishleniye. / Per. s angl. Ostrovskiy V.A. – M.: NT Press, 2007. – 176 s.

Sanakulov Xamrakul Rizakulovich,
Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'limda
matematika va uni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri,
p.f.n.professor

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Annotatsiya: Maqolada Oliy ta'lim muassasalarida talabalar tomonidan amalga oshirilayotgan fan asoslarini amaliyotda qo'llash samaradorligini oshirish maqsadida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning sifat va samaradorligini oshirishning muhim jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ijtimoiy pedagogika, ijodiy shaxs, metodik ko'nikmalar, individual yondashuv, "Tabiiy fanlar".

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning sifat va samaradorligini oshirishning muhim jihatlari, talaba-yoshlarning yosh xususiyatlariga ko'ra, o'qish faoliyati davomida mustaqil fikr yuritish, maqsad va vazifalarni belgilab olishga nisbatan jiddiy munosabatda bo'lishga qaratilgan. Shuning uchun ham talaba-yoshlarga ijtimoiy munosabatlarning huquqiy me'yorlarini singdirish muhimdir.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar tomonidan amalga oshirilayotgan fan asoslarini amaliyotda qo'llash samaradorligini oshirish uchun quyidagi shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etadi:

- talabalarda ijtimoiy pedagogikaga oid madaniyatning shakllanishiga zamin hozirlash;
- yuqori malakali boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlash, balki shaxs manfaatlarini qondirishga, ishonchni qaror topishiga erishish;
- fan asoslarni o'zlashtirishga bo'lgan ichki ehtiyoj va qiziqishning yuzaga kelishini ta'minlash;
- me'yoriy hujjatlarga nisbatan hurmatni qaror toptirish; ko'nikma va malakalarni shakllantirish, talabalarda ilmsizlikka qarshi kurashish tuyg'usini tarbiyalash.
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'qituvchilarning ijodiy shaxs sifatida rivojlanishiga metodik tayyorgarligi yo'nalishlarini ishlab chiqish.

Bu masalalarni hal etishda ilg'or g'oyalar barcha fanlari mazmunida o'z aksini topishiga e'tibor qilish, jumladan, matematik faktologiyani gumanitar sohalar bilan boyitish, matematik ma'lumotlarga ko'p sonli misollar topib, tabiiy fanlarning abstraktligining tevarak dunyoda namoyon bo'lishi, insonlarning, ayniqsa o'qituvchilarning amaliy faoli-

yati bilan bog'lash, tabiiy fanlarda va uning tarixida mavjud, ammo, afsuski, hamma vaqt ham yuzaga chiqavermaydigan ko'pgina go'zal, yorqin, qiziqarli hodisalarni o'rganishni ta'minlaydi. Demak, kasbiy, xususan, metodik ko'nikmalar va malakalarni shakllantirishda tabiiy fanlar fanlari bo'yicha amaliy mash'gulotlar va uning didaktik jihatdan to'g'ri tashkil qilinishi mantiqan va ijodiy fikrlashga, hodisa va faktlarni tahlil qilishga o'rgatadi, mustaqil ishini yo'lga qo'yib turishga yordam beradi, o'quv faoliyatiga samaradorlik, o'qishga - shaxsiy mazmun, butun o'quv-bilish faoliyatiga - hayrixoh intellektual - emosional xarakter beradi.

Konsepsiyamizning asosiy yo'nalishlaridan biri boshlang'ich maktab "Tabiiy fanlar" fani mazmuniga muqobil bo'lgan "Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi" kursining mazmunini aniqlash; metodik va matematik ta'limlarning bir-biri bilan bog'liqligini aniqlash; o'quvchilarni tabiiy fanlarga o'rgatishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan individual yondashuvni amalga oshirish; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan matematik ilmiy izlanish metodlarini egallash; o'quvchilarga yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishini ta'minlovchi matematik materiallarni tanlashga bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'rgatish; o'quvchining ijodiy shaxsini rivojlantirish asosi bo'lgan atrof-muhit haqidagi yaxlit tasavvurni shakllantiruvchi malakaning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi masalalarini o'z ichiga oladi.

"Tabiiy fanlarni o'rgatish metodikasi" fani bo'yicha dastur yangilandi, unga mos respublikamizda birinchi bor "Tabiiy fanlar o'qitish metodikasidan laboratoriya mash'gulotlari" o'quv qo'llanmasi yaratildi. Unda ta'lim mazmunining insonparvarlashuvini o'zgarishiga monand ravishda va o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchisi ijodiy shaxsining rivojlanishiga qaratilgan boshlang'ich ta'lim va ilg'or o'qitish g'oyalari bilan sug'orilgan bo'limlar kiritilgan. Laboratoriya-amaliy yo'l bilan yangi bilimlarni egallash uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari topshiriqlar bajarilishining muayyan uslublarini qo'llab, ularning maqsadga muvofiq ekanligini, ta'sirchanligini, ko'rgazmaliligini va ishonchliligini angelaydi va bolalar bilan ish olib borganda ular mazkur tamoyillarga rioya qiladi. Bolalarning izlanish xatti-harakatlarini ularning individual xususiyati, sub'yektiv tajriba, obrazli mushohadaga asoslaydi.

Boshlang'ich sinf yoshidagi bola dastlabki ijodiy xususiyatlari bor bo'lgan o'qitish sub'yekti sifatida qaraladi. Boshlang'ich sinf o'quvchisini ijodiy shaxs sifatida rivojlantirish ijodiy mushohada sifati yoki komponentlari shakllanishining sensitiv davrlarini hisobga olishni talab qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisiga tabiiy fanlarni o'rgatishda individual yondashuvni talabalar tomonidan o'zlashtirib olish har bir ijodiy shaxs rivojlanishning maksimal samarali yo'lini tanlashda kafolat bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilarga tabiiy fanlarni o'qitishning psixologik-pedagogik asoslarini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan bilish o'quvchilarda mushohada qilish operatsiyalarini rivojlantirish, o'quvchilarga fikrlash va o'rganish usullari bilan bog'liq bo'lgan muammolariga nisbatan o'qituvchilarning ongli yondashishga imkon beradi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchisini ijodiy shaxs sifatida rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ba'zi bir muhim bo'lgan boshlang'ich matematik tushunchalar o'quvchi-

larga to'g'ri mushohada qilish ko'nikmalarini shakllantirishga, alohida olingan masalalar toifasini yechish metodikasiga o'rgatish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisiga yangi materialni yaxlit tasavvur etish, tushunish va yuzaga chiqarishni ta'minlovchi matematik materialni tanlash quyidagilarga asoslanadi:

- obyektни tekshirib ko'rish usullari yordamida uni ko'p rejali, ko'p qirrali tasavvur qilishga, topshiriqlarni bajarishda tahlilning turli xil mezonlarini ishlatishga o'rgatish;

- obyektini hayolan o'zgartirishga qaratilgan topshiriqlarni ishlab chiqish va tanlashga, yangi siymoni yaratishga (tushuncha sathida tasavvurlash) o'rgatish;

- boshqa predmetlardan ma'lumotlar olishni nazarda tutuvchi, faoliyatning turli usullaridan foydalanishni, fikr yuritishning to'g'ri va teskari yo'nalishini birgalikda ishlatilishini talab qiluvchi, turli holatlarni ko'rib chiqishni nazarda tutuvchi, amalga oshirishning turli usullarini taxmin etuvchi topshiriqlarni yaratishga o'rgatish;

- o'quvchilar bilan ishlashda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga hayotiy narsalardan (real predmetlardan) hajmga ega geometrik modellarga, bunday modellardan mavhum geometrik figuralarga o'tishni amalga oshirishni, fazoviy figuradan va uning yo'yilmasi yordamida o'rganish, taqlid qilib bo'lmaydigan faoliyat shakllarini rivojlantirish;

- o'quvchilarni hayoliy operatsiyalarga, fikrlash usullariga, yangi ma'lumotlar olish maqsadida tadqiq etish usullariga, refleksatsiyani rivojlantirishga, ya'ni bolalar ega bo'lgan ma'lumotlarga olib kelgan harakatlarni anglab olishga o'quvchilarni o'rgatishga tayyorlash.

Har bir darsda o'quvchilarni rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega bo'lish uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari asosiy fanlardan tashqari matematik bilimlarning aniq sohasini norasmiy bilishlari taqozo etiladi. Norasmiy bilim haqida gapirganimizda, tanlangan tabiiy fanlar bo'limini nafaqat erkin bilish, balki uning professional ahamiyatini tushunish, amaliy yo'nalishini anglash, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'rganilgan materiallar to'plami bilan tanishtirish maqsadga muvofiq ekanligiga ishonish nazarda tutiladi. Maxsus kurslarning jamlamasi tabiiy fanlarni o'rgatish asosiy kursining tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi. Qo'shimcha kurslar mavzusini aniqlashda biz tabiiy fanlar boshlang'ich kursi mazmuni tahliliga, boshlang'ich ta'lim fakultetidagi tabiiy fanlar kurslari mazmunining tahliliga, tabiiy fanlarni o'rgatish metodikasi va tabiiy fanlar kurslarining yangilanishi va to'ldirish tendensiyasiga, Davlat ta'lim standartlarini hisobga olishga, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyati tahliliga asoslanamiz. Tanlov fan darslarida o'qituvchi vaqtga uncha bog'lanmagan bo'ladi va o'quvchilar o'zlarini erkinroq tutishadi va bir-biri bilan kommunikativ aloqada bo'ladi. Biz tomondan ishlab chiqilgan tanlov fanlar va tanlov kurslar talabaga kerak bo'lgan metodik-matematik tayyorgarlikni egallashga yordam beradi. Yaratilgan tanlov fanga bo'lgan talablar quyidagilardan iborat:

1. Yangi materialni o'rganishda tabiiy fanlar kursining dasturiy materialiga asoslanish lozim.

2. Tanlov fan negizida yetakchi matematik g'oyalarning biri yotishi kerak.

3. Tanlab olingan asosiy g'oya boshlang'ich maktab uchun ahamiyatli bo'lishi lozim.

4. Tanlov fanning mazmuni talaba uchun kasbiy ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

5. Tanlov fanning mazmuni amaliy yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

6. Tanlov fanda bilimning boshqa sohalari, shu jumladan, matematik sikldan uzoq bo'lgan sohalar bilan bog'liqligi ko'rib chiqilishi lozim.

7. Tanlov fanning mazmuni nafaqat faktik materiallar ma'nosida, balki talabani metodik-matematik tayyorlashda aqliy harakatlar (aqliy operatsiyalar, fikrlash usullari, bilim faoliyati usullari), boshqa metodik usullar (matematik tushunchalarga misollar keltirish maqsadida qo'llanmani yaratishga qaratilgan yo'riqnoma, o'yin elementlari, "yoki-yoki" holatlarni qo'llash va boshqalar) muhim ro'l o'ynashi kerak.

8. Tanlov fanni o'zlashtirishda olingan tayyorgarlik muayyan o'quv muassasa sharoitida o'qitishning maqsadi, metodi, usullari, vositalarini amalga oshiruvchi o'quvchilar uchun mo'ljallangan ijodiy tanlov fanlarning variativ tizimini ishlab chiqishini belgilab berishi lozim.

9. Tanlov fan doirasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash ular tomonidan bakalavr va magistr diplom ishlarini muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlashi lozim.

10. Tanlov fanlarni joriy etish fikrlovchi mutaxassis, boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlashni ta'minlashi kerak.

Tanlov fanda birinchidan, boshlang'ich maktab tabiiy fanlarda geometrik materiallar ulushi kamligi, uning o'qitishga turli yondashuvlarni qo'llash va o'quvchilarning ijodiy shaxsini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lganligi bilan bog'langandir. Ayni geometrik materiallar bilan ishlashda bola tomonidan dunyoni anglashda intyitsiyaga, uning sybyektiv tajribasiga, tafakkurning obrazli komponentini rivojlantirishga asosladi. Tafakkurning obrazli komponenti asosiy bo'lib, u nazariy mushohadaning izchil maqsadli rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, integrallashgan tanlov fan tushunchasi, shu jumladan, tabiiy fanlarning boshqa bilim sohalari bilan bo'lgan aloqalari kiritilganda intyitsiya, tasavvur, fantaziya kabi bolaga xos bo'lgan tushunchalar yuzaga keladi. Shunday qilib, konsepsiyaning ayrim masalalari o'zgartirish nazariyasi, konstruktiv geometriya, nostandart masalalarni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonuni. 2019-yil 16-dekabr. www.lex.uz.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmoni. www.lex.uz.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. www.lex.uz.

4. Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori.

5. Djumaev M. I. (2023) Some Considerations of Teaching Mathematics Inuzbek Primary School. Journal of Mathematical & Computer Applications. SRC/JMCA-123. J Mathe & Comp Appli, 2023. Volume 2(2): 1-5.

6. Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori.

Mamenov Turar Iriskulovich,
*Qozog‘iston Respublikasi Maxmud Qoshg‘ariy nomidagi
maktab-litsey direktorining o‘quv-tarbiya ishi
bo‘yicha o‘rinbosari*

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA BILIM SIFATINI OSHIRISH OMILLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqoladaso‘nggi bir necha yil ichida dunyodagi maktab ta‘limi fanlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan an‘anaviy yo‘nalishdan voz kechib XXI asrga xos asosiy zamonaviy kompetensiya yoki ko‘nikmani rivojlantirish haqida bo‘lib, Qozog‘iston Respublikasida yangilangan ta‘lim dasturi o‘quv-tarbiya jarayoniga tadbiiq etilgani yoritilgan. Qilinayotgan ishlar O‘zbekistondagi islohotlar kabi ta‘lim sifatini oshirishga qaratilgani xulosa qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich ta‘lim, kompetentsiyaviy yondashuv, o‘quvchi faoliyatining formasi, bilimni qo‘llash, ijtimoiy ko‘nikmalar, o‘qitish maqsadi, darajali ta‘limni tashkil etish.*

Bugungi kunda ta‘lim mazmunini yangilash dolzarb o‘zgarishlar qatoridagi vazifalarning biri. Ta‘lim mazmunini yangilash – sifatli bilim, yorqin kelajakka asoslangan bir qator yutuqlar formulasini uzida mujassam etgan dastur va o‘quv-tarbiya jarayonini har taraflama yangi usullar bilan birlashtirishdir.

Sifatli ta‘limni amalga oshirishga tez uzgarib borayotgan dunyoda intellektual, ruhi baland, muvaffaqiyatli shaxslarni shakllantirish deb bilsak, bugungi kunda bilim berish paradigmasi “malakali insonga” yo‘naltirilgan ta‘limdan “madaniyatli insonga” yo‘naltirilgan ta‘limga o‘tishni talab etadi.

Hozirgi globallashuv zamonida XXI asr shaxslarida qanday mahorat shakllangan bo‘lishi kerak? Degan savol asosiy masalalarning biriga aylangani rost. Bu mahoratni shakllantiruvchi javobgar inson – boshlang‘ich sinf ustozlaridir. Boshlang‘ich sinf ustozlarining yelkasidagi vazifa oson emas. Endigina maktabga kelgan yosh bolalarning buyida mahorat, malaka shakllantiruvchi ham shu boshlang‘ich sinf ustozlari. Zamon talabiga mos, yangilangan ta‘lim dasturining afzalliklarini chuqur anglagan boshlang‘ich sinf ustozlari kelajakka yo‘naltirilgan o‘quvchini shakllantira oladi.

Jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq dolzarb muammolarning yechimi mustaqil fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan yangi avlodga bog‘liq. Insonning barcha mavjudotlardan yuk-sak jihati – uning fikrlash qobiliyatidir. Zotan, insonlar bir-birlari bilan o‘ziga xos o‘y-xayollari, mushohadalari, fikr yuritishlari, mustaqil fikrlash qobiliyatlari bilan ajralib turadilar. Abdulla Avloniyning asarlarida fikr tarbiyasiga oid quyidagicha talqin berilgan: “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning

diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ladiur".

Yuqoridagi fikrga tayangan holda, malakali o'qituvchi – bu yuqori darajadagi kasbiy, pedagogik, psixologik va ijtimoiy fazilatlarni birlashtirgan pedagog bo'lsa, faol o'quvchi – ertangi kun jamiyatining faol a'zovidir. 2019-yili tasdiqlangan Qozog'iston Respublikasining “Pedagog maqomi to'g'risida”gi qonunining asosiy maqsadi Qozog'iston ta'lim va ilm-fanni jahonda raqobatbardoshligini takomillashtirish va umuminsoniy qadriyatlar asosida shaxsni tayyorlash hamda fanning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga qo'shgan hissasini oshirishdir.

Qozog'iston Respublikasida 2016-yildan buyon yangilangan ta'lim dasturi o'quv-tarbiya jarayoniga tadbiiq etilib kelinadi. Dasturning asosiy maqsadi – boshlang'ich sinflardagi fanlar bo'yicha ta'lim dasturini yangilash va kriterial baholash tizimini joriy qilish orqali ustozlarning kasb mahoratlarini orttirishdir.

Dasturning asosiy vazifalari:

- boshlang'ich sinfdagi fanlar bo'yicha yangilangan ta'lim dasturining strukturasi bilan, berilgan materiallarning mazmun jihatidan qiyinligining ortib borishi bilan, mazmun va maqsadlari bilan tanishtirish;

- boshlang'ich sinfdagi fanlar bo'yicha yangilangan ta'lim dasturiga mos keladigan pedagogik usullarni tushunishi va darslarda qo'llay olishi;

- boshlang'ich sinfdagi fanlar bo'yicha yangilangan ta'lim dasturidagi o'quv maqsadlariga qo'l yetkazish uchun kriterial baholash tizimini tushunish va amalda qo'llay olishi;

- o'qituvchilarda yangilangan ta'lim dasturini amalga oshirishga kerakli ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

Yangilangan ta'lim dasturining o'ziga xos 8 ta prinsipi:

- Fan mazmuni spiral tamoyili asosida berilishi;

- O'quvchi fan mazmunini o'qiganda mavzularni yoki fanni bir necha marta takrorlaydi. Mavzular har xil toifada takrorlanadi.

- Har bir takrorlab o'qiganda fan yoki mavzuning murakkabligi ortadi, ya'ni mavzular chuqurlashib boradi.

- Yangi olingan bilim oldingi bilim bilan uzviy bog'liq va bungacha olingan axborotlar asosida beriladi.

a) Blum taksonomiyasi asosida o'quv maqsadlarining ierarxiyasi

Bilish	Aniq bir harakatni amalga oshirish
Tushunish	Harakatning mazmunini tushuntirish
Qo'llash	Olgan bilimni hayotga tadbiiq etish, qo'llash
Analiz	Harakatni ikkinchi bir harakat bilan taqqoslash
Sintez	Taqqoslangan harakatning yaxshi-yomon taraflarini aniqlash va yana taqqoslash
Baholash	O'zining dunyoqarashini, fikrini aytish

b) Bir xil o'quv va fanlararo bog'liqlikni amalga oshirish maqsadida “umumiy mavzu-

lar” ni belgilash (Boshlang‘ich sinflarda 8 ta umumiy mavzular bor, bu mavzular bir-biri bilan uzviy bog‘liq va bir-birini to‘ldirib boradi)

1 - sinf	2 - sinf	3 - sinf	4 - sinf
O‘zim haqimda	O‘zim haqimda	Tirik tabiat	Mening Vatanim – Qozog‘iston
Mening maktabim	Mening oilam va do‘stlarim	Yaxshiga yondosh, yomondan qoch	Insoniy qadriyatlar
Mening oilam va do‘stlarim	Mening maktabim	Vaqt	Madaniy meros
Bizni qurshagan olam	Men tug‘ilgan makon	Arxitektura	Kasblar olami
Sayohat	Sog‘ tanda sog‘lom aql	San‘at	Tabiat hodisalari
Urf-odat va xalq og‘zaki ijodi	Urf-odat va xalq og‘zaki ijodi	Ulug‘ shaxslar	Atrofimizdagi olamni himoya qilish
Taom va ichimliklar	Atrofimizdagi olam	Suv – hayot ko‘zi	Kosmosga sayohat
Sog‘ tanda sog‘lom aql	Sayohat	Dam olish madaniyati. Bayramlar	Kelajakka sayohat

c) Uzoq muddatli, o‘rta va qisqa muddatli rejalar orqali o‘quv jarayonini tashkil etish

Uzoq muddatli	O‘quv dasturi Fan mazmuni
O‘rta muddatli	Ish jadvali (jadvaldagi darslar) Ketma-ketlikdagi darslar tizimi
Qisqa muddatli	Yakka dars rejasi

e) O‘quvchilarning ahloqiy va ma‘naviy fazilatlarini shakllantirish natijasida salohiyatlarini oshirish

Ruhiy qadriyatlar	Ko‘nikmalar
Ijodkorlik va tanqidiy fikrlash	Tanqidiy fikrlash
Kommunikatsiyaga tushish qobiliyati	Bilimga ijodkorlik bilan yondashuv orqali qo‘llay olish
Boshqalarning madaniyati va fikrlarini hurmatlash	Muammolarni yecha olish ko‘nikmasi
Javobgarchilik	Ilmiy-tadqiqot yurgiza olish ko‘nikmasi

Sogʻliq, doʻstlik va atrofida qilargalarga gʻamxoʻrlik qilish	Oʻzaro muomalaga tushish (tilni bilish malakalarini qoʻshganda)
Umr buyi oʻqishga tayyor boʻlish	Alohida va guruhlab ishlash koʻnikmalari, ATV koʻnikmali

f) Darajali taʼlimni tashkil etish borasida mavzularning uzluksizligini hisobga olishga imkon beradigan pedagogik maqsadlarni belgilash

Til va adabiyot	Matematika va ATV	Tabiatshunoslik	Inson va jamiyat	Sanʼat	Jismoniy tarbiya
Savod ochish	Matematika	Tabiatshunoslik	Dunyotanish	Musiqqa	Jismoniy tarbiya
Ona tili	Axborot kommunikatsiya texnologiyalari		Texnologiya	Tasviriy sanʼat	
Oʻqish					
Rus tili					
Ingliz tili					

h) Boʻlimlar mazmuni va tavsiya etilgan mavzularning zamon talabiga mosligi, ijtimoiy koʻnikmalarni shakllantirishga mosligi

Kommunikativ koʻnikmalarni qoʻllash	Maktabda olgan bilimni qoʻllash
Axborot yurgizish (ATV ni qoʻllash)	Ijodkorlik bilan tadqiqot yurgizish
Guruh bilan va alohida ishlay olish	Tanqidiy fikrlash

j) Taʼlimga tizimli harakat asosida yondashuvi (oʻquv jarayonida oʻquvchilarning faol ishtiroki)

Asosiy tavsiflar	Standart oʻqitish jarayoni	Yangilangan bilim dasturi asosida oʻqitish
Oʻqitish maqsadi	Oʻquv dasturida belgilangan bilim koʻlamini uzlashtirishga qaratiladi	Oʻquvchilarni bilim olishga oʻrgatish
Oʻqituvchining roli	Boshqaruvchi, yetaklovchi, oʻqitish protsessining subʼekti	Oʻqitish protsessining tashkil etuvchi, maslahatchi, menedjer
Oʻquvchining roli	Tayyor bilimni tayyorligicha qabul qilish, oʻqitish protsessining obʼekti	Faol, izlanuvchi, oʻqitish protsessining subʼekti

Bilimni berish formalari	Tayyor holaticha, namuna ko'rsatib, matn formalari asosida	Audio-vizual, grafika ko'rinishida, tanqidiy fikrlashga yetaklovchi ko'rgazmali qurollar, interfaol usullar orqali
Bilimni qo'llash	Bilimni tekshirishga tayyorgarlik maqsadidagi topshiriqlardan foydalanish	Olgan bilimlarini aniq holatlarda qo'llash
O'quvchi faoliyatining formasi	Frontal va alohida	O'quvchi o'zi yakka holatda, juftlikda, guruhlab, jamoa bo'lib ishlash

Xulosa qilib aytganda, Qozog'iston Respublikasi o'rta ta'lim tizimiga joriy qilingan yangilangan ta'lim dasturi asosida darslarni tashkil etish birinchidan, o'quvchilarning funksional savodxonligini orttirishga, ikkinchidan, o'quvchilarning bilim olishda faolligini orttirish orqali bilim sifatini ko'tarishga, uchinchidan, juft bilan ishlash, guruh bilan ishlash orqali o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarining shakllanishiga, to'rtinchidan, o'quvchilarning dunyoqarashining kengayishiga va beshinchidan, o'quvchilarda XXI asrda kerakli bo'lgan ko'nikma va malakalarning shakllanishiga asos bo'la oladi. Shuning uchun ham Qozog'istonda yangilangan ta'lim "Hayot bilan bog'liq ta'lim" deb ham ataladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qozog'iston Respublikasida o'rta ta'lim mazmunini yangilash borasida boshlang'ich sinf fanlari bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish kursining ta'lim dasturi MAN / Ikkinchi nashr/ 2015 y.
2. Qozog'iston Respublikasida Ta'limni rivojlantirishning 2016-2019 yillarga mo'ljallangan ta'lim dasturi.
3. Ustozlar uchun qo'llanma. Birinchi toifa. / Ikkinchi nashr/ 2014 y.
4. Qozog'iston Respublikasi Ta'lim va fan ministrligi bl. Altynsarin nomidagi Milliy Ta'lim Akademiyasi "Nazarbaev Intellektual maktablari" hamda umumta'lim maktablari o'qituvchilari uchun kriterial baholash Astana 2020 y.

Darvishxo'jayev Abdurashid Abdulxakimovich,
A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish
va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti,
katta ilmiy xodim

O'QITISH UCHUN SARFLANAYOTGAN VAQTNING O'QUVCHILAR O'ZLASHTIRISHIGA TA'SIR DARAJASINI BAHOLASH

Annotatsiya: Ma'lumki, o'quvchilarning fanni o'zlashtirish samaradorligiga ta'sir etuvchi ko'pgina omillarga mavjud, jumladan, o'qitish uchun sarflanayotgan vaqt. Ushbu omilning ta'siri boshqalariga nisbatan qay darajada? Maqolada TIMSS 2019 xalqaro tadqiqoti taqdim etgan ma'lumotlarni qayta ishlash orqali ishtirokchi mamlakatlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy fanlarni o'zlashtirishidagi yutuqlari o'qitish uchun sarflanayotgan vaqt orqali tasniflangan va xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: TIMSS, boshlang'ich ta'lim, tabiiy fanlar, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar, xorijiy tajribalar.

Sifatli ta'limni tashkil etish bir muncha murakkab jarayon bo'lib, bunda juda ko'p omillarni hisobga olish zarur bo'ladi. Davlat ta'lim standartining to'g'ri qo'yilishi, o'quv dasturlarining mazmuni va uzviyligi, darsliklar sifati, baholash mexanizmining mukammalligi, pedagog kadrlar salohiyati, ularning o'z ishidan qoniqishi, ta'lim muassasasining moddiy-texnik ta'minoti, zamonaviy boshqaruv, fuqarolarning ta'limga va o'qishga bo'lgan munosabati, uydagi ijtimoiy-iqtisodiy muhit, jamiyatdagi va maktabdagi ijtimoiy-siyosiy holat kabi juda ko'p omillar bor-ki, ularning ta'lim sifatiga bo'lgan ta'siri qay darajada ekanligini baholash nafaqat nazariy, balki, asosiysi amaliy tadqiqotlar orqali aniqlanishi juda muhim. Chunki, ta'lim siyosatining yangicha qiyofaga kirib borayotgan jamiyat o'zgarishlaridan ortda qolib ketmasligini doimiy ta'minlab turadigan islohotlar samaradorligi ayni shu bahoning aniqligiga juda bog'liq.

TIMSS tadqiqoti taqdim etgan xulosalar va ma'lumotlardan foydalanib, u yoki bu omilning ta'lim sifatiga ta'sir darajasi haqida qo'shimcha o'rganishlar olib borish mumkin. Masalan, boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishga ajratilgan yillik dars soatlari hajmining ta'lim sifatiga ta'siri boshqa omillarga nisbatan qay darajada? Ya'ni, **ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi barcha omillar fonida fanga ajratilgan yillik dars soatlari hajmining ta'sir salmog'i qanday?**

TIMSS tadqiqoti o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlardan 4 va 8-sinf gacha o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilimlarni belgilab beradigan o'quv dasturi, aslida sinxonalarida nima o'qitilayotgani va amalda o'quvchilar nimani o'rganganliklarini tadqiq

qiladi [1]. Shuningdek, so'rovnomalar orqali o'quvchilar, ularning ota-onalari (yoki va-siylari), o'qituvchilari, maktab direktorlaridan ularning uyidagi va maktabdagi faoliyati hamda matematika va tabiiy fanlarni o'qitishdagi shart-sharoitlar haqidagi ma'lumotlar-ni to'playdi.

TIMSS ning 8-sikli hisoblangan TIMSS 2023 tadqiqoti natijalari 2024-yil yakuniga qadar e'lon qilinishi rejalashtirilgan bo'lib, ayni vaqtda TIMSS 2019 hisobotlari ommaga taqdim etilgan. Hisobotda nafaqat tadqiqot natijalari, balki, mamlakatlarning ta'lim si-yosatiga oid to'plangan muhim ma'lumotlar ham berilgan. Jumladan, yuqorida qo'yilgan savolga yechim topish uchun zarur bo'lgan ishtirokchi mamlakatlar 4-sinf o'quvchilari-ning tabiiy fanlarni o'zlashtirish darajasi bo'yicha tadqiqot natijalari ("Mamlakatlarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha yutuqlari" bo'limida) va o'quvchilarga tabiiy fan-larni o'qitishga sarflangan umumiy yillik vaqtga oid ma'lumotlar ("Sinf (mashg'ulotlar) konteksti" bo'limida) bayon etilgan (qarang [2]).

TIMSS 2019 ning 4-sinf o'quvchilarini baholashida 58 ta mamlakatlar va 6 ta bench-mark qatnashchilar ishtirok etishdi [2]. O'rganish obyekti sifatida ishonchli ma'lumotlar-ni taqdim eta olgan 52 ta mamlakatlarni olamiz.

Quyidagi jadvalda maktab direktorlari va o'qituvchilarning so'rovnomalardagi javob-lari asosida aniqlangan yillik umumiy o'quv soatlari, tabiiy fanlarni o'qitishda sarflangan umumiy vaqt (astronomik soatlarda) hamda tadqiqot qamroidagi o'quvchilar tomoni-dan erishilgan yutuqlar keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

TIMSS 2019 tadqiqotida ishtirok etgan mamlakatlar 4-sinf o'quvchilari uchun o'quv dasturida bo'yicha ajratilgan dars soatlari va tadqiqot natijalari to'g'risida ma'lumot

№	Mamlakatlar	Yillik jami dars soatlari	Tabiiy fanlar bo'yicha		
			O'qitishga sarflangan vaqt (soat)	Yillik jami dars soatlariga nisbatan, %	O'quvchilar natijalari (ball)
1	2	3	4	5	6
1	Ummon	1016	120	11,8 %	435
2	Birlashgan Arab Amirliigi	1034	119	11,5 %	473

№	Mamlakatlar	Yillik jami dars soatlari	Tabiiy fanlar bo'yicha		
			O'qitishga sarflangan vaqt (soat)	Yillik jami dars soatlariga nisbatan, %	O'quvchilar natijalari (ball)
1	2	3	4	5	6
27	Norvegiya (5)	868	65	7,5 %	539
28	Slovakiya Respublikasi	784	64	8,2 %	521

3	Bahrayn	1012	118	11,7 %	493
4	Ispaniya	869	110	12,7 %	511
5	Turkiya (5)	1001	109	10,9 %	526
6	Portugaliya	887	104	11,7 %	504
7	Qatar	1011	101	10,0 %	449
8	Chili	1186	97	8,2 %	469
9	Yaponiya	904	92	10,2 %	562
10	Xitoy Taypey	953	86	9,0 %	558
11	Singapur	1009	84	8,3 %	595
12	Amerika Qo'shma Shtatlari	1106	83	7,5 %	539
13	Xorvatiya	859	82	9,5 %	524
14	Kanada	951	80	8,4 %	523
15	Eron Islom Respublikasi	627	78	12,4 %	441
16	Quvayt	899	78	8,7 %	392
17	Serbiya	794	77	9,7 %	517
18	Avstriya	759	76	10,0 %	522
19	Shvetsiya	653	75	11,5 %	537
20	Montenegro	854	75	8,8 %	453
21	Bosniya va Gersegovina	851	74	8,7 %	459
22	Daniya	1043	74	7,1 %	522
23	Italiya	1098	73	6,6 %	510
24	Finlyandiya	694	71	10,2 %	555
25	Koreya Respublikasi	746	71	9,5 %	588
26	Saudiya Arabistoni	1056	66	6,3 %	402

29	Litva	725	59	8,1 %	538
30	Kosovo	777	59	7,6 %	413
31	Shimoliy Makedoniya	818	58	7,1 %	426
32	Gruziya	750	57	7,6 %	454
33	Germaniya	842	56	6,7 %	518
34	Vengriya	833	56	6,7 %	529
35	Polsha	737	55	7,5 %	531
36	Albaniya	729	54	7,4 %	489
37	Marokash	752	54	7,2 %	374
38	Armaniston	1081	54	5,0 %	466
39	Ozarbayjon	689	53	7,7 %	427
40	Avstraliya	731	53	7,3 %	533
41	Latviya	1015	53	5,2 %	542
42	Chexiya Respublikasi	763	51	6,7 %	534
43	Malta	849	51	6,0 %	496
44	Kipr	930	51	5,5 %	511
45	Rossiya Federatsiyasi	663	48	7,2 %	567
46	Fransiya	820	47	5,7 %	488
47	Qozog'iston	732	40	5,5 %	494
48	Yangi Zelandiya	917	40	4,4 %	503
49	Shimoliy Irlandiya	947	38	4,0 %	518
50	Bolgariya	700	37	5,3 %	521
51	Gollandiya	1049	35	3,3 %	518
52	Irlandiya	925	34	3,7 %	528


Izoh: - mamlakatlar o'qitishga umumiy sarflangan yillik vaqtning (4-ustun) kamayish tartibida joylashtirilgan;

- 3 va 4-ustunda keltirilgan ma'lumotlar manbasi: Science Curriculum and Instruction (Instructional Time in Science. Exhibit 13.2) (qarang [3]);
- 6-ustunda keltirilgan ma'lumotlar manbasi: Science Grade 4 (Average Science Achievement. Average Achievement and Scale Score Distributions. Exhibit 2.1) (qarang [4]).

Jadvaldagi tabiiy fanlarni o'qitishda sarflangan umumiy vaqt va o'quvchilar yutuqlari o'rtasidagi munosabatni osonroq idrok etish maqsadida ushbu raqamli ma'lumotlarni diagramma ko'rinishida ifodalaymiz (1-diagramma):


1-diagramma

TIMSS 2019 tadqiqotida ishtirok etgan mamlakatlar 4-sinflar o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitish uchun sarflangan o'quv yili davomidagi umumiy vaqt va ularning yutuqlari o'rtasidagi munosabat



Diagrammada tabiiy fanlarga oid o'qitish uchun sarflangan umumiy vaqtning ortib borishiga mos holda o'quvchilar o'zlashtirish yutuqlarining o'tib borishiga oid qonuniyat o'zini yaqqol namoyon eta olmayapti. Diagrammaga u ko'rsatayotgan xulosalarni yanada aniqlashtirish, shuningdek, mamlakatlarni o'quvchilarining o'zlashtirish darajasi va o'qitish uchun sarflayotgan vaqtlari bo'yicha tasniflash maqsadida trend chiziqlari va tegishli o'rtacha qiymatlar bo'yicha o'qlarni o'tkazib tasvirlaymiz (2-diagramma):

TIMSS 2019 tadqiqotida ishtirok etgan mamlakatlar 4-sinflar o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitish uchun sarflangan o'quv yili davomidagi umumiy vaqt va ularning yutuqlari o'rtasidagi munosabat



Izoh: o'rganilayotgan mamlakatlar bo'yicha tabiiy fanlarni o'qitishga sarflangan vaqtning o'rtacha qiymati 69 soat, TIMSS 2019 shkalasi bo'yicha o'rtacha o'zlashtirish 501 ball (TIMSS 2019 da ishtirok etgan barcha mamlakatlar uchun 500 ball);

- va – o'rtacha o'zlashtirish baliga nisbatan yuqoriroq ball to'plagan mamlakatlar;
- va – o'rtacha o'zlashtirish baliga nisbatan kamroq ball to'plagan mamlakatlar;
- va – o'rtacha sarflangan vaqtga nisbatan kamroq vaqt sarflagan mamlakatlar;
- va – o'rtacha sarflangan vaqtga nisbatan ko'proq vaqt sarflagan mamlakatlar.

Trend chizig'i joylashuvidan ko'rinib turibdiki, haqiqatdan ham o'qitish uchun sarflangan vaqtning oshirilishi o'quvchilar o'zlashtirishiga kuchli ta'sir etuvchi omil bo'la olmaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, o'qitish uchun sarflanadigan vaqt u qadar ahamiyatsiz degani emas, o'quvchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar vaqtining ortishi o'quvchilar bilimni ortishiga olib kelishi shubhasiz, albatda. Bu shuni anglatadiki, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi bir qator omillar ichida o'qitish uchun sarflangan vaqt dominant bo'la olmaydi, ya'ni o'qitish uchun sarflanadigan vaqtni ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida qarash kerak emas. Balki, 2-diagrammani o'rtacha qiymatlar o'qlari hosil qilingan maydonlarida joylashgan mamlakatlarni o'rniga asoslanib, ularning ta'lim siyosati bo'yicha taqqoslama o'rganishlar olib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin, Editors. TIMSS 2019 Assessment Frameworks. // TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College and International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). 2017. – 130 p.
2. Ina V.S. Mullis Michael, O. Martin, Pierre Foy, Dana L. Kelly, Bethany Fishbein. TIMSS 2019 International Results in Mathematics and Science. // TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education and Human Development, Boston College and International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). 2020. – 590 p.
<https://timssandpirls.bc.edu/timss2019/international-results/>
3. Science Curriculum and Instruction (Instructional Time in Science. Exhibit 13.2: Instructional Time Spent on Science). IEA. TIMSS & PIRLS International Study Center; Boston College. Lynch School of Education and Human Development.
https://timss2019.org/reports/wp-content/themes/timssandpirls/download-center/classroom/T19_Ch13-science-curriculum-instruction.pdf .
4. Science Grade 4 (Average Science Achievement. Average Achievement and Scale Score Distributions. Exhibit 2.1: Average Science Achievement and Scale Score Distributions). IEA. TIMSS & PIRLS International Study Center; Boston College. Lynch School of Education and Human Development.
https://timss2019.org/reports/wp-content/themes/timssandpirls/download-center/achievement/T19_Ch2-achievement-science-4.pdf

Hamid Botirov Hakimovich,
A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot instituti Ijtimoiy fanlarni o'qitish va kasbga yo'naltirish metodikalarini takomillashtirish ilmiy-tadqiqot bo'lim mudiri, yuridik fanlar nomzodi.

Rejapova Dilafruz Akramovna,
"Ta'lim menejmenti" kafedrasida katta o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHI VA OTA-ONALAR HAMKORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya: Maqolada "O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 3, 54-moddalari O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy Javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining 47-moddasiga ko'ra ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari – ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari bilan bog'liq hayotiy huquqiy masalalarning ayrimlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim to'g'risidagi qonun, ota-onalar, pedagog xodimlar, huquqlar.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim islohotlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Ta'limdagi o'zgarishlar nafaqat ta'lim ishtirokchilari pedagoglar, o'quvchilar, balki bu ta'lim sifatini oshirish va ushbu ta'lim sifatini farzandlarida ko'rishda manfaatdor bo'lgan ota-onalarni chetda qoldirmaydi.

Mamlakatimizda ota-onalar o'rtasida olib borilgan intervyular natijasida 50 foizga yaqin ota-onalar farzandining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini doimiy ravishda nazorat qilmaydi, balki bolaning maktabga borib kelishi va band bo'lishi ular uchun muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **77-moddasida** belgilanishicha, Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi¹.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining **3-moddasiga** ko'ra, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari - ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluv-

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Tishkent sh., 2023-yil 30-aprel.

hilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari deb belgilangan².

Bundan ko'rinib turibdiki, ota-onalar yoki boshqa qonuniy vakillari ta'lim-tarbiya jarayoni uchun mas'ul va javobgar shaxslar hisoblanadi. Shu nuqtai-nazardan agar ota-onalar ta'lim-tarbiya jarayoni uchun mas'uliyatini lozim darajada bajarmasa, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy Javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning **47-moddasiga ko'ra**, bolalarning majburiy umumiy o'rta ta'lim olishiga ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan to'sqinlik qilish tegishli tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi³.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunning **54-moddasiga ko'ra**, yetim bolalarni va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni o'qitish va ularning to'liq ta'minoti O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Bunday vaziyatda davlat tomonidan o'quvchilarni o'qitish va ularning to'liq ta'minotini huquqiy kafolatini beradi. Bu esa barcha uchun teng imkoniyatlarni yaratib beradi.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunining **51-moddasida** belgilanishicha, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari bolaning o'qishi, tarbiyalanishi, jismoniy, ma'naviy va intellektual rivojlanishi uchun mas'uldir.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va ta'lim tashkilotlari voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarni tarbiyalashda, ularning jismoniy hamda ruhiy sog'lig'ini muhofaza qilish va mustahkamlashda, shuningdek individual qobiliyatlarini rivojlantirishda ularning ota-onasiga ko'maklashadi.

Voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari quyidagi huquqlarga ega:

jismoniy, aqliy, ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarga, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga oilada ta'lim olish imkoniyatini berish;

oilada ta'lim olayotgan bolaning fikrini inobatga olgan holda uning o'qishini ta'limning har qanday bosqichida ta'lim tashkilotida davom ettirish to'g'risida qaror qabul qilish;

ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, ta'lim tashkilotlariga xayriya yordami ko'rsatish bo'yicha takliflar kiritish;

ta'lim tashkilotining ustavi va (yoki) boshqa ta'sis hujjati, litsenziyasi, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari, malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv dasturlari bilan tanishish;

ta'limning mazmuni, qo'llanilayotgan ta'lim va tarbiya usullari, ta'lim texnologiyalari bilan, shuningdek o'z bolalarining o'quv fanlarini o'zlashtirishi natijalari bilan tanishish;

ta'lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

ta'lim tashkilotini boshqarishga doir masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish.

² O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. Toshkent sh. 2020-yil 23-sentabr. O'RQ-637

³ O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksi. Toshkent sh. 1994-yil 22-sentabr.

Voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari-ning majburiyatlari quyidagicha:

O'z bolalarini insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashi;

bolalarining umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim olishini ta'minlashi;

bolalarining o'quv mashg'ulotlariga qatnashishini ta'minlash va o'zlashtirishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

o'z bolalarining intellektual, ma'naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi;

ta'lim tashkilotining ta'lim-tarbiya jarayonini tartibga soluvchi ichki tartib-qoidalariga rioya etishi;

jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan sudda maxsus vakolatlarsiz o'z bolalarining ta'lim sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'qituvchilar haqida modda qo'shildi, bu **52-moddada ko'rsatilgan bo'lib ikki banddan iborat.**

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.

Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

Shu tariqa, ustozlar huquq sohasi vakili bo'lmagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi. Konstitutsiyada nomi keltirilgan o'qituvchilardan boshqa kasb egalarining barchasi – huquq sohasi vakillari hisoblanadi. Boshqa holatlarda konstitutsiyada kasb egalari emas, sohalar haqida gap ketgan (masalan ommaviy axborot vositalari, turli jamoat birlashmalari) kabilar.

Bundan tashqari, pedagoglarning ham huquq va majburiyatlari belgilangan. “Таълим тўғрисида”ги қонунининг **45-moddasida Pedagog xodimlarga quyidagi kafolatlar berilgan:**

Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadi, o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro'sini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek o'z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi.

Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatini va ishanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'ladi.

Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatiga aralashishga, ta'lim oluvchilarning bilimlarini to'g'ri va xolis baholashga ta'sir ko'rsatishga, shuningdek ushbu pedagog xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Pedagog xodimlar quyidagi huquqlarga ega:

- o‘z sha’ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro‘cini himoya qilish;
- o‘quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, o‘qitish uslubiyotini ishlab chiqish, shuningdek tegishli o‘quv fanlari, kurslari, modullaridan foydalanish, ijodiy faollik ko‘rsatish;
- zamonaviy pedagogik shakllarni, o‘qitish va tarbiya vositalarini, usullarini erkin tanlash hamda ulardan foydalanish;
- kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish;
- o‘quv, ilmiy va uslubiy yo‘nalishlardagi axborot-resurs markazlarining xizmatlaridan bepul foydalanish;
- davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablarini, malaka talablarini, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, eksperimental faoliyatda ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish;
- ta’lim tashkilotini boshqarishda, shuningdek ta’lim tashkilotining faoliyati bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;
- kasaba uyushmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari a‘zosi bo‘lish, xodimlarining vakillari bo‘lish, fuqarolik jamiyati boshqa institutlari faoliyatida qatnashish;
- o‘z kasbiy huquqlarini va umumiy manfaatlarni ifoda etish hamda himoya qilish uchun pedagog xodimlarning jamoat birlashmalariga birlashish;
- o‘z kasbiy faoliyatiga aralashuvdan himoyalani;
- davlat sog‘liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tish (davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlari uchun);
- ta’lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish.

Pedagog xodimlarni ularning lavozim majburiyatlari bilan bog‘liq bo‘lmagan har qanday boshqa ishga jalb qilish taqiqlanadi.

Pedagog xodimlarning huquqlari bilan bir qatorda ularning majburiyatlari ham belgilangan bo‘lib, bu “Таълим тўғрисида”ги қонунининг **46-moddasida** belgilangan.

Pedagog xodimlarning majburiyatlari:

- ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha’ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro‘cini hurmat qilishi;
- o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli o‘tkazishi;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o‘qitish va tarbiyaning ilg‘or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;
- ta’lim oluvchilarning psixologik va o‘ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan shaxslarni o‘qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e‘tibor qaratishi;
- voyaga yetmagan ta’lim oluvchilar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;

ta'lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etishi;

o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi;

tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.

Pedagog xodimlarning zimmasida qonunchilikka, shuningdek ta'lim oluvchi va ta'lim tashkiloti o'rtasida tuziladigan shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Pedagog xodimlarga pedagogik faoliyatni amalga oshirishda axloq va etika normalariga zid harakatlar sodir etish taqiqlanadi.

Pedagog xodimlarning kiyim-boshiga doir talablar ta'lim tashkilotlari tomonidan belgilanadi.

Xulosa qiladigan bo'sak, demak yuqorida belgilangan pedagoglar va ota-onalarning hamda boshqa qonuniy vakillarning huquq va majburiyatlarini to'g'ri, aniq, sifatli amalga oshirilishi bevosita ta'lim sifatini oshirishga, pedagog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent sh. 2023-yil 30-aprel.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent sh. 2020-yil 23-sentabr. O'RQ-637
3. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksi. Toshkent sh. 1994-yil 22-sentabr.

Internet saytlari:

1. lex.uz
2. adliya.uz
3. pedagog.uz
4. edu.uz

Ishanxodjayev Saidaxmad,
A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti
“Ta’lim menejmenti” kafedrasini mudiri,
Yuridik fanlari nomzodi

O‘ZBEKISTONLIK MEHNAT MIGRANTLAR FARZANDLARI BOSHLANG‘ICH TA’LIM OLISSHIDAGI AYRIM MASALALAR

Annotatsiya: mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini tashkil etuvchi asoslar va uni rivojlanish istiqbollari hamda takomillashtirishga oid takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: infratuzilma, demografiya, migratsiya, mehnat migranti, test, Pedagogik kengash, appelyatsiya.

O‘zbekistonda ta’lim tizimida keng islohotlar amalga oshirilib, mazkur sohaga oid huquqiy asoslar va maktab ta’limi muassasalarining moddiy-texnik bazasi hamda ularning infratuzilmasini yaxshilanishi amalga oshirilgan ishlar ko‘lami yildan yilga ortib borayotganligi muhim hisoblanadi.

Buning asosiy sabablaridan biri bo‘lib, mamalakatimizda aholi soni so‘nggi yillarda ko‘payib borayotganligi bo‘lsa, ikkinchidan mamlakatimiz kelajagi sifatli ta’lim va ilm-fan samaradorligi bilan bevosita bog‘liqligi va mazkur sohaga davlat rahbarining doimiy e’tibori hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma’lumotiga ko‘ra, mamlakatimizda 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYo organlari tomonidan 716 885 ta tirik tug‘ilish holati qayd etilgan bo‘lib, shundan 371 597 nafari o‘g‘il bolalar, 345 288 nafari qiz bolalarni tashkil etmoqda. Taqqoslash uchun, bu ko‘rsatkich 2022-yilning mos davriga nisbatan 5,1 foizga oshgan. 2023-2024 o‘quv yili respublikamiz bo‘yicha 1-sinfga 730 mingdan ortiq bolalarni qabul qilingan.

Aholi demografiyasi ortib borishi, umumiy o‘rta ta’lim bilan aholining tegishli qatlamlarini qamrab olinish darajasini ko‘payib borishiga sabab bo‘ladi.

Aholi demografiyasini ortib borishi ichki va tashqi mehnat migratsiyasi masalalariga bevosita ta’sir ko‘rsatishi tabiiy holat hisoblanadi.

Xususan, xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan mehnat migrantlari soni **o‘rtacha 1,8 mln.** Kishini (1.785.563) ularning **514,2 ming** (28,8%) nafarini xotin-qizlar, **625,5 ming** (35,0%) nafarini yoshlar tashkil etmoqda.

Davlatlar: 1,1 mln. – Rossiya, **318,2 ming** – Qozog‘iston, **116,4 ming** – Turkiya, **57,8 ming** – Janubiy Koreya, va **233,3 ming** – boshqa davlatlar hisobiga to‘g‘ri keladi.

Hozirgi kunda turli xorijiy davlatlarga mavsumiy ish izlab borayotgan fuqarolarimiz soni tobora ortib borayotganligi shu bilan birga ularning oila a‘zolari ham olib chiqilib ketayotganligi hech kimga sir emas. Xo‘sh, bizning qonunchiligimizda vaqtinchalik

mehnat faoliyati bilan shug'ullanish maqsadida xorijga o'z oila a'zolarini olib chiqib ketgan fuqarolar o'z vatanlariga qaytib kelganlarida yashash hududidagi ta'lim muassasalarda farzandlarini ta'lim olishni davom ettirishlari bo'yicha qanday huquqiy asoslar mavjudligiga to'xtalib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yilning 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 637-sonli Qonunining **60-moddasi "Xorijiy davlatda olingan ta'lim to'g'risidagi hujjatni tan olish" deb nomlanib, unga ko'ra** xorijiy davlatda 1992-yil 1-yanvardan keyin olingan ta'lim to'g'risidagi hujjat tan olish jarayonidan o'tkazilganidan keyin O'zbekiston Respublikasining butun hududida qonuniy kuchga ega hujjat sifatida tan olinishi va xorijiy davlatda olingan ta'lim to'g'risidagi hujjatni tan olish Ta'lim inspeksiyasi tomonidan amalga oshirilishi hamda xorijiy davlatda olingan ta'lim to'g'risidagi hujjatni tan olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirining 2015-yil 2-iyundagi "O'quvchilarni sinfdan sinfga va bir umumiy o'rta ta'lim muassasasidan bos-hqasiga o'tkazish tartibi to'g'risida"gi N 13-mh nizom tasdiqlash haqida Buyrug'i qabul qilinib, uning **"Xorijiy davlatda ta'lim olgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosini O'zbekiston Respublikasidagi maktabga o'tkazish" deb nomlangan 5-bobida quyidagi asoslar belgilangan. Xususan:**

"27. Ota-onalar xorijiy davlatda ta'lim olgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan farzandini O'zbekiston Respublikasidagi maktabga o'tkazish huquqiga ega.

28. Xorijiy davlatda ta'lim olgan bolani O'zbekiston Respublikasidagi maktabga o'tkazish uchun ota-onalar tomonidan maktab direktoriga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

Ota-ona tomonidan maktab direktori nomiga ariza;

Bolaning xorijiy davlatda ta'lim olganligi haqidagi hujjatning (hujjatlarning) asli va notarial tasdiqlangan tarjimasi;

Bolaning sog'lig'i to'g'risida tibbiy ma'lumotnoma;

29. Maktab direktori taqdim etilgan hujjatlarni bir ish kuni ichida ko'rib chiqadi va bolani maktab o'quvchilari safiga qabul qilish to'g'risida buyruq chiqaradi.

30. Maktab direktori bolaning xorijiy davlatda o'qigan ta'lim dasturi maktabning o'quv dasturlariga mos kelish-kelmasligini aniqlaydi hamda fanlar bo'yicha aniqlangan farqlarni joriy yoki navbatdagi o'quv yilida bartaraf etish choralarini ko'radi.

Bolaning xorijiy davlatda ta'lim olganligi haqidagi hujjat mavjud bo'lmaganda, maktab direktori bolani uning yoshi va bilim darajasiga mos sinfga qabul qilishi lozim.

31. Bolani maktab o'quvchilari safiga qabul qilish to'g'risida buyruq chiqarilgach, uch kun muddatda sinf jurnali va o'quvchilar harakati daftariga tegishli yozuv kiritiladi".

Agarda xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqaromizning oila a'zolarida biri ya'ni farzandi xorijiy davlatda ta'lim olganligi haqidagi hujjat mavjud bo'lmasa, bunday holda ushbu munosabat qanday tartibga solinadi? Degan savol qo'yilishi tabiiydir.

Fikrimizcha, mazkur Nizomga o'zgartish va qo'shimchalarni kiritish zarur. Xususan, **"Xorijiy davlatda ta'lim olmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosini O'zbekiston Respublikasidagi maktabga o'tkazish" deb nomlangan 5¹-bobini kiritish taklif etiladi.**

Unda:

1. Ota-onalar xorijiy davlatda ta'lim olmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan farzandini O'zbekiston Respublikasidagi maktabga o'tkazish huquqiga ega.
 2. Ota-ona tomonidan maktab direktori nomiga ariza;
 3. Bolaning sog'lig'i to'g'risida tibbiy ma'lumotnoma;
 4. Maktab direktori bolaning xorijiy davlatda ta'lim olganligi haqidagi hujjat mavjud bo'lmaganda, maktab direktori bolani uning yoshi va bilim darajasiga mos sinfga qabul qilishi lozim. Bunda har o'quv yil boshida Pedagogik kengash tomonidan xorijda ta'lim olmagan bolalarni o'quv sinfiga qabul qilish uchun komissiya tuziladi va ular tomonidan uch o'quv fanidan testlar shakllantiriladi va tasdiqlanadi.
 5. Murojaatchiga testlarni (bunda savol va uning javoblari nazarda tutilmoqda) murojaat kelib tushgan kundan e'tiboran, o'n besh kun ichida, yetkazib berishi va testlarni olganligi to'g'risida tilxat olishi zarur.
 6. Test faqatgina ota-onasiga uning qonuniy vasiy va homiylariga beriladi.
 7. Testni kompyuter sinfida test olingan kundan e'tiboran ikki oy muddat ichida o'tkazilishi zarur.
 8. Testning javobi test o'tkazilgan kundayoq e'lon qilinishi va appelyatsiya uchun uch kun berishi mumkin.
 9. Appelyatsiya berilgan kundan e'tiboran, ikki ish kuni ichida ko'rib chiqilib, test qaytadan o'tkazilishi mumkin.
 10. Test natijalari salbiy bo'lganda, bola yoshiga nisbatan pastroq sinfga qabul qilinadi.
 11. Bolani maktab o'quvchilari safiga qabul qilish to'g'risida buyruq chiqarilgach, uch kun muddatda sinf jurnali va o'quvchilar harakati daftariga tegishli yozuv kiritiladi".
- Mazkur Nizomga taklif etilgan o'zgartish va qo'shimchalar ushbu soxani rivojlanishiga va ota-onalarning farzandlari oldidagi majburiyati yanada kuchaytirilishiga hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik holatini oldini olinishiga xizmat qiladi.

Tursunaliyeva Feruza Mirzaxmadovna,
Namangan viloyati Yangi Namangan tumani
63-umumiy o'рта ta'lim maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktablardagi ta'lim dasturlarida ekologiya to'g'risidagi fikr mulohazalar, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni asrab-avaylash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasiga oid qimmatli ma'lumotlar, uslubiy o'quv materiallar orqali o'quvchi va talabalarga ta'lim- tarbiya berishning usublari haqida so'z yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** Ekologik pedagogika, atrof muhit muxofazasi, ekologik ta'lim va tarbiya, huquqiy bilimlar, globallashuv sharoitida atrof muxit muhofazasi.*

“Ekologiya – hayot mamotimiz”

Sh.M.Mirziyoyev

XX asrning ikkinchi yarmida inson ongi va tafakkurining mahsuli texnik yangiliklarning rivoji, industrial jamiyatga o'tish taraqqiyot mezonini belgilab berish bilan bir vaqtda insoniyat oldida juda ko'p va murakkab muammolar yuzaga keldi, ular ta'sir doirasining miqyosi va ahamiyatiga ko'ra global muammolar nomini oldi. Buning natijasida mahalliy, mintaqaviy, umumbashariy xarakterga ega bo'lgan turli xil ekologik muammolar yuzaga kelib, insoniyat sivilizatsiyasi davomiyligiga tahdidi ortib bormoqda. Ayni vaqtda dunyo aholisining aksariyati ekotizimni buzilishi va atrof-muhitni ifloslanishi kabi ekologik muammolar insoniyat uchun katta xavf ekanligini ta'kidlamodalar.

Insoniyat hayotini tahlikaga solayotgan ekologik masalaga yondashuvni bugungi kunda kelajak istiqboli nuqtai nazaridan yoshlar ta'lim-tarbiyaning ajralmas va asosiy omili sifatida tashkil etish davr talabi bo'lib qolmoqda. O'quvchilarga ekologik tarbiyani singdirishning ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq etgan holda amaliy – tarixiy bilimlar tizimi bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlash zarur. Bu yondashuv pedagogikada ekologik madaniyatni shakllantirishning zamini bo'lib xizmat qilgan holda, ekologik ta'lim konsepsiyasiga muvofiq tabiat bilan o'zaro munosabatlarni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirishga imkon bergan holda “Ekologik tarbiya” omilining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.

“Ekologik tarbiya” atamasi pedagogikada nisbatan yangi tushuncha, biroq inson va atrof-muhit, tabiatning o‘zaro ta’siri muammosi pedagogik yondashuv tarixi davomida turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqilgan. Ekologik ta’limning hayotga tatbiq etilishi pedagogik tarixiy ta’limot yondashuvlarida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ekologik ta’lim va tarbiya jarayonini inson shaxsining shakllanishi, yaxlitligi, inson va tabiat, jamiyat va koinot birligi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilgan.

Tabiat va unga bo‘lgan munosabat bolaning yoshligidan paydo bo‘lishi haqidagi qarash va nazariyalar J.J.Russo ijodida ham alohida ahamiyat kasb etgan bo‘lib, uning nuqtai nazaricha bolaning “tabiiy rivojlanishi” tarbiyaning uchta kombinatsiyasiga, ya’ni tabiat, odamlar va jamiyatning uzviy bir-biriga ta’sir va doimiy aloqasiga bog‘liqligiga asoslanishini ta’kidlaydi. Shuningdek, ta’lim jarayonida J.J.Russoning fikriga ko‘ra bola tabiat qoidalariga rioya qilishi zarur.

Tabiiy ta’lim jarayonida bolaning moyilligi va ehtiyojlarini hisobga olinishi, ijtimoiy majburiyatlarga yo‘naltirish zarur bo‘lgan hayotiy bilimlar bilan uyg‘unlashish g‘oyasini ilgari suradi. O‘quvchining yoshiga qarab jismonan va ruhan davolang, uni har kuni tabiat bag‘riga olib chiqing, u o‘sha yerda yugursin va bir necha marta yiqilsin, bu jarayon uni tezroq turib ketishga, ya’ni hayotiy pozitsiyasini o‘zi belgilash va tiklash imkoniyatini beradi.

Tarbiya muammolarini faqatgina ta’lim muassasasi doirasida ko‘rib chiqish bir tomonlama qarash bo‘lib, bu borada to‘g‘ri qaror qabul qilishda yetarlicha asosga ega bo‘lmaydi. Shuning uchun bola shaxsini shakllantirishda atrof-muhit – tabiat, oila, ijtimoiy institutlar, davlat va nodavlat tashkilotlar, davlat siyosati va iqtisodiyoti ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib, ma’lum funksiya va vazifalarni bajargan holda ta’sir doirasi darajasida ekologik ta’lim muammolari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan maktab va atrof-muhitning o‘zaro munosabatlarini muvofiqlashtirishda tizimlilik muvozanatini ta’minlashda katta xizmat qiladi. Bunda:

- maktab ta’limi o‘z faoliyatida atrof-muhit bilan bog‘liq bo‘lgan o‘qitish tizimini amalga oshiradi;
- o‘quvchilarda atrof-muhitga qiziqish va jonli tabiatga mehr ko‘rsatish hamda uning bir bo‘lagi ekanligini singdirish borasidagi targ‘ibot va tashviqotni samaradorligini oshirish borasida zamonaviy dasturlar yaratadi;
- maktabda o‘quvchilarga nafaqat atrof-muhitni o‘rganish balki uning faol iste’molchisi ekanligini singdirish orqali, kelajakda yashab qolishning birdan-bir manbai ekanligini uqtiradi;
- maktab ta’limida jamiyat muvozanati hamda sog‘lom fikr yuritish tabiat va ekotizim mahsuli ekanligini nazariy manbalar va amaliy omillar orqali tushuntiradi;
- o‘quvchi yoshlarda atrof-muhit va ekotizm yuzasidan ilg‘or fikrlarni, zamonaviy qarash va nazariyalarni singdirgan holda ijtimoiy faolligini oshirib konservativ qarashlardan holi etadi.

Ushbu qarashlarimiz “Ekologik pedagogika” muammolarini faol rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatib, yoshlarda ekologik ta’lim va tarbiyaning yangicha qarashlarini shakllanishiga nazariy va amaliy omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

“Ekologik pedagogika” ta’limi tahlili shuni ko’rsatadiki, maktab o’quvchilariga zamonaviy ekologik ta’lim tizimini rivojlantirish uchun muhim bo’lgan bir qator asosiy yondashuvlarni aniqlash imkonini yaratib, fan dasturiga, xususan, atrof-muhitning mohiyatini va uning pedagogik ahamiyatini, ta’lim tizimidagi o’rnini asoslash, atrof-muhitning har xil turlarini o’rganish, atrof-muhit bilan pedagogik ishlarni tashkil etishning uslubiy masalalarini ishlab chiqish, “ko’rsatkichlar” va “o’lchov birliklari” kabi masalalar joy olishini taqozo etadi. Shundan kelib chiqqan holda, “Atrof-muhit pedagogikasi” konsepsiyasining tarafdorlari insonning shakllanishiga ta’sir qiluvchi tabiiy omillarni, qonuniyatlarni, tashkil etish shakllarini va usullarini, insonni ijtimoiy shakllanishining butun jarayonini doimiy integral sifatida o’rganish zarurligini ta’kidlaganlar.

Boshlang’ich ta’limning samaradorligi o’quvchilarda o’ziga xos tarzda tarkib topgan ta’limiy faoliyatning keng qamrovli darajasiga bog’liq. Bunday faoliyat nazariy bilimlarni o’zlashtirish va zarur kompetentsiyalarni egallash jarayonida o’qituvchi rahbarligida shakllanadi va muntazam rivojlanib boradi. Bunday o’quv faoliyati natijasida boshlang’ich ta’limni bitirgan o’quvchilar ob’ektiv olam jonli va jonsiz tabiatdan iborat ekanligi, insonlar esa muayyan jamiyatda yashab, faoliyat ko’rsatishi, jamiyat a’zolari o’zaro aloqadorlikda yashashi, jonli va jonsiz tabiatni hamda jamiyatni tavsiflay olishlari, tabiat va jamiyat haqidagi aniq yo’naltirilgan tushuncha va tasavvurlarga ega bo’lishlari lozim. Shu bilan bir qatorda, ular shaxsning kishilik jamiyatida tutgan o’rni va amalga oshiradigan faoliyatning ahamiyatini tushunib yetishlari zarur. Chunki, o’quvchilarga bu haqiqatni anglatmasdan turib, ularni shaxs sifatida shakllantirish, ijtimoiy turmushga moslashtirish mumkin emas.

“Tabiiy fanlarning quyi sinflarda qo’shib o’qitilishi o’quvchiga olamni bir butun tasavvur qilish, fanlarga oid mavzular kesimida loyiha ishlarini amalga oshirib, tadqiqotchilik ko’nikmalarini rivojlantirish, o’quvchilarning faolligini oshirish, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini yaxshilash, ularni ijodkorlikka yo’naltirishga xizmat qiladi”, – deyiladi. Bu kabi o’zgarishlar iqtisodiyot sohalariga xalqaro andozalar asosida mehnat bozorida ehtiyoj yuqori bo’lgan ko’nikmalarga ega kadrlarni tayyorlashi bilan o’quvchilar uchun manfaatli ekani aytilmoqda.

Zamonaviy ta’lim barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishga jarayonda ekologik ta’lim muhim o’rin tutib, bu asosan “tabiiy fanlar” va tabiatshunoslik darslari orqali amalga oshirilib, milliy dasturga asoslangan fanlar ichida o’ziga xos ijodiy yondashuvni talab etuvchi o’quvchilarda tabiiy fanlarga oid ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga yaqindan yordam beruvchi fanlar bloki hisoblanadi.

Tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv quyidagi to’rt bosqichga asoslanib amalga oshiriladi:

1. Motivatsion bosqich – o’quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularda ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy fazilatlarini o’zlashtirishga qiziqish, ehtiyoj va istakni qaror toptirishga qaratilgan jarayon.

Tarbiyaviy faoliyatning motivatsion bosqichini loyihalashda mazkur jarayon samaradorligiga erishish mumkin bo’lgan natijalar bilan erishilgan natija o’rtasidagi munosabatlarning ifodalanishi, tarbiyaviy jarayonda natijaviylikning ta’minlanishi uchun quyidagi shartlarning bajarilishi zaruriyatini taqozo etadi:

- yuksak ma'naviy fazilatlarining ahamiyati va zaruriyatining anglab yetilishi;
- tarbiya jarayoni hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonida motivlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- o'quvchilarda yuksak ma'naviy fazilatlarini egallashga bo'lgan ijobiy motivlarni shakllantirish;
- o'quvchilarda yuksak ma'naviy fazilatlarini shakllantirish uchun zaruriy va qulay shart-sharoit yaratuvchi ijodiy muhitni yaratish;
- tarbiya jarayonida hamkorlikka asoslanish;
- tarbiyalanuvchilarda yuksak ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda tizimli va refleksiv yondashuv imkoniyatlarining hisobga olish.

2. Mazmunli bosqich – o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan ma'naviy-axloqiy fazilatlarga doir tasavvur, tushuncha va bilimlar majmuini ishlab chiqish.

3. Faoliyatli bosqich – o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan ma'naviy-axloqiy fazilatlarga doir aniq vaziyatlar, faoliyat shakllarini yaratish orqali ularni amaliy faoliyatga jalb etish.

Mazkur bosqichda quyidagi muhim vazifalar amalga oshiriladi:

- 1) o'quvchilarni zarur sifatning yo'naltirilgan rivojlanishiga olib keladigan, axloqiy mazmun bilan boyitilgan real hayotiy vaziyatlarga kiritish;
- 2) o'quvchilarni rivojlantirishga qaratilgan o'z-o'zini axloqiy takomillashtirish vazifalarini ongli ravishda o'z oldiga qo'yishlariga erishish;
- 3) pedagogik ta'sir odimlovchi tavsifga ega bo'lishi, o'zida yangi, biroq hozirgacha shaxsiy tajribada sinovdan o'tgan bo'lishi lozim.

Atrofimizni o'rab turgan tabiat biz uchun shunday moslashtirilganki, tabiatdagi barcha-barcha narsalar faqatgina insonlar manfaati uchun xizmat qiladi. Ammo mana shu go'zal tabiat shunchalar nozikki, unga keltirilgan birgina oddiy zarar ham kelajakda juda katta to'g'irlab bo'lmas xatolarga olib kelishi mumkin. Mana shunday xatolarning eng kichigi bu atrof muhitni ifloslantirish, suvlarga chiqindi tashlash, o'sib turgan ekinlarni va daraxtlarni behudaga sindirish kabi yomon ishlar hisoblanadi. Bular oddiy e'tiborga loyiq bo'lmagan ishlardek tuyulishi mumkin, ammo, aynan mana shu be'e'tiborlik natijasida biz yashayotgan ekologiya qancha zarar ko'rishini yaxshilab o'ylab ko'rmog'imiz lozim. Bunday ishlar esa insonlar tomonidan Alloh bergan ne'matga, omonat qilib berilgan tabiatga hiyonatdir. Nahotki ongli qilib yaratilgan insoniyat ekologiyani ifloslantirish natijasida o'zi va kelajak avlodining salomatligiga putur yetkazayotganini anglamasa!? Axir bizlar ona tabiatni bus-butunligicha asrab kelajak avlodga yetkazib berishga mas'ul emasmizmi!?

Tabiatni muxofaza qilish tarbiyasi islom nuqtai nazarida jamiyatning katta yoshdagi a'zolari vazifasidir. Katta yoshdagi kishilar atrof-muhitni muhofaza qilish va ozodalikni asrab avaylashda yoshlarga o'rnak bo'lishlari va bu xususida tarbiya berishlari kerak bo'ladi. Bizning bobolarimiz va buvilarimiz suvga tupurma, ariqlarga chiqindilarni tupurma, ko'chalarga axlat tashlama, ko'karib turgan biror narsani nobud qilma deya uqtirgan so'zlarini doimo esimizdan chiqarmasligimiz va yoshlarga ham shularni o'rgatmoqligimiz lozim. Bundan tashqari xalqimiz orasida "Birni kessang o'nni ek" degan purma'no ibora ham mavjud. Darhaqiqat biz bugun kesgan birgina ko'chatning tabiatdagi zarari

yillar o'tib uning o'rniga ekkan daraxtimiz orqali qoplanadi. Va shunda ona tabiatning toza havosiga, ko'kalamzorligiga putur yetkazmagan hisoblanamiz.

Ekologik madaniyat madaniyatning ko'rinishlaridan biri sifatida umumiy o'z ichiga oladi inson, jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlar sohasi. Bundan tashqari, biz bunday munosabatlar haqida gapiramiz ijobiy ijodkorlikni taqdim etadi, uyg'unlashtirishga qaratilgan odamlar faoliyatining ijobiy va ijodiy boshlanishi inson, jamiyat va tabiat manfaatlari. Shu ma'noda, ekologik madaniyat odamlar faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos usuli sifatida qaraladi, maqsadi bu faoliyatni tabiat bilan uyg'unlashtirish.

Ekologiyaning muvaffaqiyatli shakllanishi jamiyat va shaxs madaniyatiga bog'liq kognitiv va ta'lim jarayoni. Aynan ekologik tarbiya ekologik madaniyatni shakllantirish omili hisoblanadi va natijada ijtimoiy-tabiiy o'zaro ta'sirni optimallashtirishda inson boshidir va oxiri, butun madaniy jarayonning dvigateli va uning shakllanishi uning ekologik madaniyati va ekologik madaniyat muhiti. Atrof-muhit bo'yicha muhandislar va texniklar olgan bilimlariga qarab, iqtisodchilar va sotsiologlar, siyosatchilar va huquqshunoslar va hokazolar o'z xalqi, insoniyat oldidagi mas'uliyatni qay darajada his qiladilar, shunga qarab (va ko'pchilik boshqa) jamiyat va shaxsning u yoki bu ekologik madaniyati shakllanadi.

“Tabiiy fanlar” dasturida 3-sinf uchun kiritilgan boblar quyidagicha:

“Tabiat”, “Tirik organizmlar”, “Organizmlarning tuzilishi”, “Hayotiy jarayonlar”, “Yashash joyi”, “Bizning sayyora”, “Tabiiy boyliklar”, “Ob-havo”, “Quyosh sistemasi va Yer”, “Yorug'lik va tovush”, “Energiya”, “Harakat”, “Kuch”.

Masalan, boblarga oid mavzularni quyidagicha tasniflash mumkin. Tabiat: o'simlik, hayvon, odam organizmi tuzilishi va hayotiy jarayonlari, Quyosh sistemasiga oid bilimlar. Materiya va energiya: issiqlik, yorug'lik, tovush, harakat. Shakl, tartib va tuzilish: jonli va jonsiz tabiat, tirik organizmlar. Masshtab va o'lchash: ob-havo, issiqlik, Yer va koinot. Barqarorlik va o'zgarish: tirik organizmlarning rivojlanishi, ob-havo, yil fasllari, yashash joyi, energiyani tejash. Shakl va funktsiya: tirik organizmlar, o'simlik va hayvonlarning xilma-xilligi, issiqlik, yorug'lik va tovush manbalari.

Tabiiy fanlarni o'qitishning asosiy maqsadi:

– olamning ilmiy manzarasi haqidagi yaxlit tasavvurni hosil qilish, ilmiy bilish usullarini o'zlashtirish va ularni zamonaviy inson qadriyatlari tizimiga kiritish. Tabiiy fanlarni o'qitishning vazifalari:

- o'quvchilarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- o'quvchilarga materiya tuzilishining birligini, universalligini, tabiat qonunlarining tub mohiyatini anglatish;
- ilmiy bilish (kuzatish, tajriba o'tkazish) metodlari, o'zlashtirilgan bilimlarni kundalik hayotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quvchilarda tabiiy-ilmiy madaniyatni shakllantirish;
- o'zi yashab turgan olamda yo'nalish olish ko'nikmalarini shakllantirish;
- shaxsning kognitiv, axloqiy, hissiy fazilatlarini rivojlantirish;
- o'quvchilarda tabiat va uni asrashga bo'lgan ijobiy fazilat (munosabat va qadriyat) larni hamda ekologik bilim va ekologik madaniyatni shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonov M.B., Rustamboev M.X., Xolmuminov J.T. va boshq. Ekologiya huquqi. T.: "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi" 2001 y.
2. Yormatov D. Norqulov A. Avazov Sh. Sultonov N. Sanoat ekologiyasi "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent 2007 y.
3. Otaboyev S. Nabiyev M. Inson va biosfera. T. O'qituvchi . 1995. 307 b.
4. To'xtayev A, Xamidov A, Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. T. O'qituvchi. 1994.
5. K. Suyarov va boshqalar. 3-sinf. Tabiiy fanlar. (2022)
6. K. Suyarov va boshqalar. 3-sinf. Tabiiy fanlar o'qituvchi kitobi. (2022)

G'oyibnazarov O'tkirjon Nosiraliyevich,
Namangan viloyati Chust tuman ixtisoslashtirilgan
maktabining Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

MASHG'ULOT JARAYONIDA JISMONIY YUKLAMALARNI BELGILASH

Annotatsiya: Ushbu maqolada sport amaliyotida "ish qobiliyati" sportchining yuksak jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligining uyg'unlashganligini anglatadi. Demak, sport musobaqalarida yuqori natijga erishish jismoniy sifatlari hamda texnik va taktik malakalarining shakillanganlik darajasiga bog'liqligi yoritilgan. sport tayyorgarligi jarayonida tezkorlik, kuch, chaqqonlik, chidamkorlik va egiluvchanlik sifatlariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq, harakatli o'yinlar asosida o'tkaziladigan emotsional muhitli darslar harakat faolligini oshirishi, bolalar kamroq charchaydilar ularning organizimi esa ma'lum funksional yuklamalarga tayyorlanib borishi muhimligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, sport va harakatli o'yinlar, ish qobiliyati, yuklama (nagruzka), jismoniy mashqlar.

Dars-mashg'ulotlarga o'quvchilarning qiziqishlarini ortirishda sport va harakatli o'yinlar uslublaridan mohirona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda o'quvchining emotsional holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, charchash alomatlarini bartaraf etgan holda jismoniy qobiliyat va yangi harakat malakalari paydo bo'ladi.

Mashg'ulot jarayonida sport o'yinlariga mos harakatli o'yinlar orqali amalga oshirishda to'plar yordamida olib borilishi samarali va yanada yuksakroq bo'ladi. Masalan "To'p uzat - o'tir", "To'p uzatib, estafetaga yugurish", "To'pga to'sib qo'y" va boshqa shunga o'xshash o'yinlar.

Shunday o'yinlardan foydalanish, muntazam qo'llash natijasida o'quvchilarning maxsus jismoniy sifatlari va texnik tayyorgarligining taraqqiy etishi sezilarli darajada ancha oson kechadi. Ish qobiliyati - bu organizm va uning organlari funksional holati hamda imkoniyatlarini yuksak darajada amalga oshirish qobiliyatidir. Ish qobiliyati "odamni muayyan faoliyat jarayonida ma'lum vaqt davomida va samaradorlik darajasida ish bajarish qobiliyatidir".

Yuklama (nagruzka), organizmning shu yuklamani ko'tara olish imkoniyati, charchash, zo'riqish, ish qobiliyati va uning tiklanish xususiyati kabi tushunchalar bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan atamalar, charchash va zo'riqish atamalarining vujudga kelish muddatini uzaytirish yoki tiklash muddatini qisqartirish yo'llarini izlash va amalga joriy etish ish qobiliyatining shakillanishiga olib keladi. Albatta, buning uchun qo'llaniladigan jismoniy va texnik-taktik mashqlar hajmi hamda shiddati sportchi organizimi shu yuk-

lamani ko'tara olish darajasidan xiyol yuqoriroq bo'lib, ko'p yillik mashg'ulot jarayonida yuklamani oshira borish to'liqsimon prinsipga asoslanishi kerak.

Yuklama deganda muayyan harakat faoliyatining mashg'ulot hajmi, shiddati, davom etishi va qaytarilish chastotasining organizimga bo'lgan ta'siri tushiniladi. Shu ta'sir natijasida organizimda yuz beradigan funksional o'zgarishlar esa, shu yuklamaning ta'sir etish darajasini belgilab beradi. Demak, yuklamaning "tashqi" (hajmi, shiddati va h.k.) Va "ichki" ko'rsatkichlari mavjud bo'ladi.

Statik yuklama o'zining hajmi va shiddati jihatidan organizimning funksional faoliyatiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Kichik hajmli, katta shiddatga beriladigan statik yuklama, masalan, yurak faoliyatiga keskin ta'sir qiladi. Yurakning ritmik faoliyatini buzadi, uning mushaklarini zo'riqtiradi, plus va nafas olish tezlashadi.

O'rtacha yoki katta hajmli va kichik shiddatda ijro etiladigan statik yuklama esa yurak faoliyatining asta-sekin moslashishga zamin yaratadi.

Sport amaliyotida "ish qobilyati" sportchining yuksak jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligining uyg'unlashganligini anglatadi. Demak, sport musobaqalarida yuqori natijga erishish jismoniy sifatlar hamda texnik va taktik malakalarning shakillanganlik darajasiga bog'liq.

Ma'lumki, ish qobilyati haqida gap ketganda, ayniqsa so'z uning sifati va samardorligiga tegishli bo'lsa, masalaning mohiyati va pirovard "mag'izi" boshqa jismoniy sifatlarning shakillangan yoki shakillanmaganligiga borib taqaladi. Ya'ni, samarali natija mos umumiy va maxsus chidamkorlik kuch, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik sifatlarini o'zida mujassam qilgan bo'ladi. Ushbu sifatlarning o'zaro uzviy bog'liqligi va ularning yuksak darajadali, integral natijasi sport mahoratining muayyan taqdirini belgilab beradi.

Maqsadga muvofiq rejalashtirilgan jismoniy tayyorgarlik mahoratini shakillantirish nihoyatda muhim omillardan biridir. Lekin sport amaliyotida har doim ham rejalashtirilgan jismoniy mashqlar muvofiq harakat sifatlarini rivojlantirishda kutilgan natijani bermaslik holatlari tez-tez uchrab turadi. Buning asosiy sabablaridan biri mashg'ulotlarda qo'llanilgan u yoki bu jismoniy mashqlarning hajmi va shiddati hamda ushbu ko'rsatkichlarni shug'ulanuvchilarning organizimiga ta'sir etish darajasi (organizimning yuklamaga bo'lgan aks javobi reaksiya) obyektiv ravishda baholanmasligidadir. Shuning uchun ham o'quv-mashg'ulot jarayonida qo'llanilayotgan jismoniy yuklama (jismoniy mashqlar)ning shug'ulanuvchilar organizimning funksional imkoniyatlariga muvofiq rejalashtirish imkoniyatini yaratadi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik tushunchasi bu-o'quvchining harakat sifatlarini har tomonlama (garmonik ravishda) rivojlanganlik darajasini anglatadi. Masalaga shu tarzda yondashish oddiy inson sog'ligini (sportchini ham) shakillantirib nuqtayi nazardan maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy voleybolda samarali o'yin ko'rsatish va yuqori natijalarga erishish faqat o'ta shakllangan jismoniy tayyorgarlik evaziga amalga oshirilishi mumkin. Voleybolchilar uchun esa jismoniy sifatlar ichida eng e'tiborlisi sakrovchanlik va sakrash chidamkorligidir. Aynan shu sifatlar aksariyat o'yin malakalarining samarali ijro etilishiga ta'sir ko'rsatadi. Lekin bunday xulosadan voleybolchilar uchun boshqa jismoniy sifatlarining

ahamiyati kamroq degan fikr kelib chiqishi mumkin emas. Aksincha, tezkor harakatlanish, kuch bilan zarba berish, ish qobiliyatini tushirmasdan uzoq vaqt malakalarni samarali bajara olish qobiliyatlari ham yetakchi o‘rin tutadi.

Shuning uchun sport tayyorgarligi jarayonida tezkorlik, kuch, chaqqonlik, chidamkorlik va egiluvchanlik sifatlariga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Chunki ushbu sifatlarning yetarli darajada rivojlangan bo‘lishi sport mahoratining samarali shakllanishiga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda, bu sifatlar sport mahoratining tez va mukammal o‘shishi uchun eng zarur poydevordir. Harakatli o‘yinlar asosida o‘tkaziladigan emotsional muhitli darslar harakat faolligini oshiradi, bolalar kamroq charchaydilar ularning organizimi esa ma‘lum funksional yuklamalarga tayyorlanib boradi.

Vertikal sakrash misolida malakali voleybolchilarning tezkorlik-kuchlilik sifatini “zarbdor” uslubda rivojlantirish imkoniyati afzal ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. “portlovchi” kuchni rivojlantirishda ushbu uslubdan foydalanish yaxshi natija beradi, lekin bunday mashg‘ulotlarni musobaqadan 10-12 hafta avval – martadan o‘tkazib turish lozim.

Voleybol elementlari bilan qo‘shib o‘tiladigan jismoniy tarbiya darsini kichik sinf o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligiga ta‘sir etish darajasini o‘rganish natijasida shunday xulosaga keldimki, aniq maqsadga yo‘naltirilgan voleybol darslari nafaqat yosh o‘quvchilarni tarbiyalashda samarali vosita bo‘lib hisoblanadi, balki voleybol to‘garagiga dastlabki tanlov asosida qabul qilish va ularning o‘yin ixtisosligini bashorat yordamida belgilab olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahkamjonov K, Salomov R, Ikramov I. “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi”- Toshkent 2008.
2. Abdullayeva H. “Mashg‘ulotlarda faol ta‘lim usullaridan foydalanish” FDU 2008.
3. Gancharova O.V. “Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish”. Toshkent 2005.

Djurayeva Perdegul Saidovna,
Navoiy viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga
o'rgatish milliy markazi dots.v/b

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI JORIY ETISHNING DIFFERENTSIAL YONDOSHUV SAMARADORLIGI

Annotatsiya: *Pedagogik konsiliumning ekspert baholash usulining bir turi ekanligi, muayyan dastur va umumiy asoslar bo'yicha o'quv natijalarini jamoaviy muhokama qilinishi, shaxsning ayrim tomonlarini jamoaviy baholanishi, inklyuziv ta'limni tashkil etishning dolzarblilik mohiyati va uning metodologik tavsiyalari.*

Kalit so'zlar: *Konsilium, tarbiya, ta'lim, pedagogik kengash, baholash, ta'lim samaradorligi.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi" hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son Qarorini⁴ ijrosini ta'minlashda barcha fan o'qituvchilari uchun Xalq ta'limi vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarining tayanch o'quv reja va namunaviy o'quv dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 236-sonli⁵ buyrug'iga asosan 5-modul sifatida "Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari" kiritilganligi munosabati bilan tinglovchilarga o'quvchilarning individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirish, rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlashda metodik yordam berish – malaka oshirish tizimimizdagi asosiy vazifalarimizdan biridir. [1; 2; 3]

Bugungi kunda yosh avlodni zamonaviy jamiyatda hayotga tayyorlash umumta'lim muassasalarida o'quvchiga ta'lim-tarbiya berishning turli bosqichlarida psixologik, emosional, jismoniy va ijtimoiy tayyorgarligini aniqlashni talab qiladi. Ushbu talablarni esa

⁴ Vazirlar Vahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son Qarorini

⁵ Xalq ta'limi vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarining tayanch o'quv reja va namunaviy o'quv dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 236-sonli

tuzatish maqsadlari va mazmuniga differentsial yondoshish bilan amalga oshirilishi mumkin, ya'ni, o'quvchilarga tabaqalashtirib (differensial) yondashish orqali diversifikatsiyasining sifat darajasi boshqacha tizim zaruratini keltirib chiqaradi. Bunday holat o'quvchining iqtidori, qiziqishi, o'zlashtirishiga ko'ra differensial tayyorgarlikni kuchaytirish va murakkablashtirish – zamonaviy maktabning global yo'nalishiga aylanadi.

Davlat ta'lim siyosatining strategik maqsadi – innovatsion iqtisodiy rivojlanish talablariga, jamiyat va har bir fuqaroning zamonaviy talablariga javob beradigan sifatli ta'limning mavjudligini oshirish - ularning psixofizik holati va rivojlanishidan qat'iy nazar, barcha o'quvchilarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlaydigan ta'lim muhitini yaratish bilan bog'liq.

Vazirlar Mahkamasining mazkur 638-son Qarori 7-bobi 44-bandida o'quvchilarning majmuaviy tekshirilishini, psixologik-tibbiy-pedagogik konsilium faoliyatini tashkil etish haqidagi fikr qayd etilgan. Ushbu faoliyat turi mohiyati va funktsiyasiga kengroq tushuncha berish – ishni to'g'ri tashkil etishimizda sifat jihatidan muhim omildir, chunki, ruhiy muhofaza qilish ishlarining eng muhim samaradorli yo'nalishlaridan biri psixo-pedagogik konsiliumdir. Olimlarning fikricha, maktab o'quvchisining hayotini o'rganish darajasini yaxshilash uchun, faqat yozma xarakteristikalar yozishga berilib ketmay, balki asosiy e'tiborni jamoadagi muhokamalarga, o'quvchi haqida o'qituvchilarning fikrini bilishga hamda eng muhimi jamoa bilan hamkorlikda o'qituvchiga yoki butun sinfga individual yondoshish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqishga qaratishi lozimdir. Yuqorida keltirilgan bunday jamoa muhokama odatda pedagogik konsilium deb ta'riflanadi.

Konsilium (lot. Consilium – kengash) degan ma'noni anglatadi. Pedagogik konsilium - ekspert baholash usulining bir turi; muayyan dastur va umumiy asoslar bo'yicha o'quv natijalarini jamoaviy muhokama qilishni, shaxsning ayrim tomonlarini jamoaviy baholashni, shaxsiy xususiyatlarning muayyan xususiyatlarini shakllantirish jarayonida yuzaga kelgan og'ishlarning sabablarini aniqlashni o'z ichiga oladi. **Konsilium** - bu psixologik xizmatning ish uslublaridan biri, o'quv-tarbiya ishlarida ishtirok etadigan shaxslarning pedagogik tashxisni shakllantirish va o'quvchiga pedagogik ta'sir choralari to'g'risida jamoaviy qaror ishlab chiqish ostida **kengash** biz bolani kuzatib borish uchun u yoki bu strategiyani amalga oshiradigan, umumiy maqsadlar bilan birlashtirilgan doimiy ishlaydigan, muvofiqlashtirilgan mutaxassislar guruhini tushunamiz. Bunday jamoada zarur: maktab direktori buyrug'i asosida quyidagi tarkibdan iborat bo'lgan Kengash tuziladi: o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari (Kengash raisi); ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari (Kengash raisi o'rinbosari); inklyuziv ta'lim sinfi va boshlang'ich tayanch korreksion sinf o'qituvchilari; psixolog; maxsus pedagog; tyutor; vrach-pediatr, (psixonevrolog), tibbiyot hamshirasi. Shuningdek, sinflarda dars mashg'ulotlarining o'z vaqtida olib borilishi, o'quv dasturlarining bajarilishi yuzasidan nazoratni maktab direktori va uning o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha o'rinbosari amalga oshirilishi; maktabda mavjud bo'lmagan mutaxassislar shartnoma asosida Kengash ishiga jalb qilinishi mumkin; o'quvchilarning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar Kengash yig'ilishlarida ishtirok etishlari mumkin; kengash o'quvchilarning o'zlashtirishi, o'quv dasturlarini bajarishi, sog'lig'i hamda psixologik holati bo'yicha o'quv yilining har choragida kamida bir marotaba yig'ilish o'tkazadi; Kengash o'quvchilarning o'zlashtirishi,

o'quv dasturlarini bajarishi, sog'lig'i hamda psixologik holatidan kelib chiqib o'quvchini inklyuziv ta'lim sinfi yoki boshlang'ich korreksion sinfning o'quvchilar safidan chiqarish yuzasidan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaga taklif kiritadi kabi 43-48-bandlarning ham mazmun-mohiyatiga muvofiq talablar ham mazkur bob yuzasidan hamohang ravishda tarkiban urg'ulanib, tahliliy tushunchalar bilan malakalaniladi.

Pedagogik kengash - pedagogik jamoa o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tashkiliy shakli bo'lib, uning doirasida o'quvchini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashni ishlab chiqish va rejalashtirish, muayyan talabalar guruhlar va o'qitish va tarbiya jarayonida parallellik amalga oshiriladi. Kengashning vazifalari: maktab o'quvchilarining xulq-atvori va ta'limidagi og'ishlarning mohiyati va sabablarini aniqlash; deviant rivojlanishni to'g'rilash maqsadida o'quv tadbirlari dasturlarini ishlab chiqish; murakkab yoki ziddiyatli vaziyatlarni hal qilishda konsultatsiyalar. Pedagogik konsilium jarayonida psixologning vazifasi o'quvchining aqliy taraqqiyoti darajasini baholashda har tomondan yondoshish zarurligini, uning xatti-harakatlarini namoyon qilishi murakkab ekanligini, undagi motvatsiyalar, o'z-o'zini baholash xususiyatlarining qay holatda ekanligini ochib berish va eng muhimi o'quvchining hayotiga bundan keyingi rivojlanishni ta'minlaydigan taxminlar (gipoteza) asosida yaratilgan dastur bilan yondoshish zarurligini his qilishga yordam berishdir.

Pedagogik konsiliumning yana bir muhim tomoni shundaki, o'quvchi shaxsiga subyektiv yondoshuv (faqat o'z "men"i orqali)dan qutilish imkonini beradi. Chunki, ba'zi bir o'qituvchilar odatda ustanovkalar ta'siriga tushib qolib, o'quvchi qanday xatti-harakat qilmasin ana shu ustanovkadan kelib chiqqan holda uni baholay boshlashadi. Psixologning pedagogik konsiliumda qatnashishi bir necha maqsadlarni ko'zda tutadi: avvalo, maktab o'qituvchilariga o'quvchining ijobiy tomonlarini albatta hisobga olgan holda uning ruhiy va shaxsiy rivojlanish xarakteristikasini ko'rsatib beradi. Ushbu xaraktaristikaning tasdig'i sifatida suhbat, kuzatish, psixodiagnostika asosida olingan materiallarni namoyon qiladi. Har bir o'qituvchini ko'rilayotgan muammoning mohiyatini chuqur tushunishga erishish lozim. Bunda, eng avvalo, o'quvchiga nisbatan bo'lgan ustanovkalarini o'zgartirishga, o'quvchi shaxsiga o'zgacha ko'z bilan qarashga, uni anglashga doir ko'nikma va malakalarni hosil qilishga erishish. O'quvchi shaxsini hurmat qilishga, faqat baho nuqtai nazaridan unga munosabatimizni tashkil qilmasdan, balki u bugungi kunda qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilishga o'rganishimiz zarurligini tushunib etishga imkon yaratadi.

Xulosa, butun pedagogik jamoa o'quvchilardagi mavjud muammolarning mohiyatini tushunishga, anglab yetishga erishish natijaviy samaradorlikni yanada mustahkamlaydi. Shunday qilib, pedagogik konsilium o'z mohiyatiga ko'ra, ruhiy muhofaza ishlarining eng muhim bo'limi hisoblanib, agar u malakali psixolog, maxsus pedagog tomonidan chuqur o'ylanib, rejalashtirilib amalga oshirilsa, ko'plab muammolarning yechim topishiga imkon beradi. Kuzatilayotgan holatlarim bo'yicha tinglovchilarga aynan ushbu Qarorning 5-bob: Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda o'quv-ta'lim jarayonini tashkil etish bo'icha 20, 21, 26, 27, 28, 31-bandilari; 6-bob: Pedagog xodimlar faoliyati va ota-onalar bilan hamkorlik bo'yicha 34, 36, 38, 40, 41, 42-bandlari; 8-bob: Moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash bo'yicha 52, 53, 54-bandlari; 9-bob: Ya-

kunlovchi qoidalar bo'yicha 55 va 58-bandlarini ijrosini ta'minlashimizda yanada yaxdillik va hamjihatlilik bilan yondashuvimiz lozimligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Shuningdek, mana 3 yildirki boshlang'ich ta'lim yo'nalishida viloyatimiz kesimida tillar kesimida o'qituvchilarimiz onlayn shaklda uzluksiz kasbiy rivojlantirish platformasida yuz foiz malaka oshirishlari natijasida va ommalashtirish tartiblaridagi o'zgarishlar tufayli umumta'lim maktablari bilan uzluksiz metodik ta'minotda uzilishlar bo'lmoqda, faqat reja asosida auditoriyadan tashqari o'quv seminar va vebinarlarimizdagina ushbu mavzu doirasida va ta'limdagi yangiliklar xususida uchrashmoqdamiz. Taklifim: offlayn shaklda ham ta'lim yo'nalishda mazkur masalaga ham e'tibor qaratilsa, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari bilan uzviylik, yangi avlod darsliklari mohiyati va inklyuziv ta'limni tashkil etishdagi metodik xizmat samaradorligi ijobiy holatda o'z aksini topadi. Misol tariqasida, tinglovchilar bilan mashg'ulotlarmizda o'qish, tarbiya va tabiiy fanlarni o'qitishda boshlang'ich ta'lim kurslarida o'quvchilarda bolalar adabiyotidan foydalangan holda ijtimoiy-emotsional ta'lim olishga oid mashg'ulot: ijtimoiy xabardorlik, inklyuzivlikni targ'ib etuvchi darslarni tashkil etishni tahliliy, tanqidiy yo'nalishlarda o'rganish, takomillashtirish, o'ylaymanki, kutilgan maqsadni shakllantiradi, hamdardlik, o'zaro hurmatni qanday namoyon qilishiga oid muayyan misollar topishlarida, sinfda iliq munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi⁶. [4].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son Farmoni.
2. Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son Qarorini
3. Xalq ta'limi vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarining tayanch o'quv reja va namunaviy o'quv dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 236-sonli buyrug'i.
4. O'zbekiston barkamollik uchun ta'lim dasturi. Bolalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha metodik qo'llanma. O'zbekiston Respubikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent. 2023

⁶ O'zbekiston barkamollik uchun ta'lim dasturi. Bolalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha metodik qo'llanma. O'zbekiston Respubikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent. 2023

Davlatjonova Mohidil Ulug'bek qizi,
*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti magistranti*

BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA ILG'OR MILLIY VA XORIJ TAJRIBALARI

Annotatsiya: *Ushbu maqola orqali O'zbekistonda ta'lim tizimi islohatlari, aynan boshlang'ich sinflarda dars jarayoni samaradorligini tizimli ravishda oshganligi, o'quv jarayonini sifatini nazorat qilish maqsadida xorijiy test sinovlarini O'zbekistonda amalga oshirishning bosqichma bosqich amalga oshganligi. Boshlang'ich sinflar dars jarayonlarini muvofiqlashtirishda milliy va xorijiy davlatlar ta'lim tizimidan foydalanish asnosida natijaga erishilganlik yoritib berildi.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, innovatsion usul, pedagogik texnologiya, kompetensiya, STEM, TIMSS, PISA, UNICEF.*


Globallashtirish jarayonida ta'lim tarbiya masalasiga e'tibor qaratish, har bir o'quvchi bilan doimiy ishlash faoliyatini yo'lga qo'yish ta'lim muassasalari faoliyatining yana bir asosiy mezonidir. Ta'lim tizimini takomillashtirish, mamlakatimizda o'quvchilar uchun yangidan yangi ped texnologiyalardan foydalanish darajasini keng bosqichga olib chiqish maqsadida milliy va xorij tajribasidan kelib chiqib bir qancha usullardan foydalanilmoqda.

O'zbekistonda ta'lim tizimini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida ham bu bo'yicha aniq rejalar belgilab olindi, xususan STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablari-ga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlari joriy etilishi belgilab olindi, xalq ta'limi tizimida o'quvchilarning bilim darajasini baholashda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro dasturlar va izlanishlar (PISA, TIMSS, PIRLS va boshqalar)da O'zbekiston Respublikasining doimiy ishtiroki ta'minlanishi rejalashtirildi.

Xalqaro baholash tadqiqotlari mamlakatimiz ta'lim tizimida:

- Ta'lim samaradorligini aniqlash
- Kuchli va zaif tomonlarni aniqlash
- o'zaro tajriba almashish va millatlararo hamkorlikni rag'batlantirish
- Ta'lim salohiyatini oshirish imkonini beradi.

TIMSS tadqiqoti (Trend in International Mathematics and Science Study) matematika va tabiatshunoslik bo'yicha 4 va 8-sinf o'quvchilarining ta'lim yutuqlarini baholash orqali ishtirok etuvchi davlatlarning matematik va tabiatshunoslik ta'limidagi yutuq va kamchiliklarni kuzatish imkonini beradi. Tadqiqotda matematika va tabiiy ilm-fan ta'limi mazmunining xususiyatlari, o'quv jarayonini tashkil etish, shuningdek, ta'lim tashkiloti, o'qituvchilar, o'quvchilar va ularning oilalari xususiyatlari bilan bog'liq omillar o'rganiladi. Tadqiqot jarayonida ta'lim muassasasida xalqaro ustuvor yo'nalishlar, eng zamonaviy baholash tartib-taomillari va tadqiqot o'tkazish texnologiyalarini hisobga olgan holda yaratilgan TIMSS doimiy ravishda noyob standartlashtirilgan usullaridan foydalanish bo'yicha boyitilib boriladi. Quyida bir nechta davlatlarning natijalari diagramma orqali ko'rsatilgan:



Dasturda qatnashayotgan davlatlar soni ham tobora ortib bormoqda, buni 2015-yildagi TIMSS tadqiqotida 57 ta mamlakat qatnashgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich ortib, 60 dan ortiq davlatni tashkil etganida ham ko'rish mumkin. TIMSS 2015 tadqiqot natijalariga ko'ra, AQSh, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarni egallagan. O'zbekiston TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda qatnashish orqali rivojlangan mamlakatlar tajribalarini milliy ta'lim tizimida qo'llash, o'z natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ladi. Tadqiqotda, O'zbekistonning 4 va 8-sinf o'quvchilari boshqa davlatlardagi tengdoshlariga nisbatan matematika va tabiiy fanlardan savodxonligi qay darajada yuqori ekani, matematika va tabiiy fanlarga qiziqish darajasi, oila tomonidan farzandlarga matematikani va tabiiy fanlarni o'zlashtirishda qanday hissa qo'shilayotgani, matematika va tabiiy fanlarni o'qitish jarayoni qanday tashkil etilgani, matematika va tabiiy fanlar o'qitish jarayonining boshqa davlatlarga nisbatan o'ziga xosligi bor yoki yo'qligi, agar bor bo'lsa, u nimalarda namoyon bo'layotgani, o'qituvchilar metodlari boshqa mamlakatlar o'qituvchilari metodlaridan nimasi bilan farq qilishi o'rganiladi.

Bundan tashqari, PISA – 15 yoshdagi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash bo'yicha yagona xalqaro tadqiqot dasturi hisoblanadi. Tadqiqotning 15 yoshli o'quvchilar orasida o'tkazilishiga asosiy sabab, OECD ga a'zo bo'lgan aksariyat davlatlarda ushbu yosh majburiy ta'lim bosqichining yakuniy davri hisoblanadi. Ushbu ta'lim standartiga asoslangan sinovlar xalqaro miqqiyosida tan olingan bo'lib, O'zbekiston ta'lim tizimiga ham kirib kelgan.

PISA tadqiqoti quyidagi xususiyatlarga ega:

- u butun dunyoda keng qamrovli va muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan dastur;
- ta'lim sohasidagi yirik, keng ko'lamlil xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri;
- tadqiqotda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan 15 yoshli (15 yosh 3 oydan 16 yosh 2 oygacha bo'lgan) o'quvchilar ishtirok etadilar;
- o'quvchilarning "mustaqil hayotga tayyorlik" darajasi, ya'ni ularning maktabda egallagan bilim va ko'nikmalaridan hayotda uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni hal etishda qay darajada foydalana olishlari baholanadi;
- o'quvchilarning funksional savodxonligi, jumladan, o'qish (matnni tushunish), tabiiy va matematik savodxonligi, shuningdek, ushbu yo'nalishlardagi hayotiy muammolarni hal eta olish ko'nikmalari baholanadi;
- tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosligi bo'yicha ma'lumot olish imkonini beradigan axborot to'planadi.

Shu o'rinda qayd etish joiz, PISA bo'yicha o'quvchilar bilimiga qo'yilgan bahoning har 50 ballga oshishi yillik yalpi ichki mahsulotning bir foizga o'sishini ta'minlashi xalqaro tajribalarda kuzatiladi.

Ta'lim dasturlari va muassasalarini akkreditatsiya qilish uchun O'zbekiston Respublikasining yetakchi xalqaro birlashmalarga kirishi ta'minlanishi ham aynan xorijiy tashkilotlar bilan birgalikdagi faoliyat uchun eshiklarni ochib berdi. Bevosita, O'zbekistonda ta'lim tizimida boshlang'ich sinflar o'qitish faoliyatini yaxshilash bo'yicha o'quv qo'llanmalar, darsliklar ishlab chiqildi. Prezidentning 2023-yilga oid Davlat dasturi to'g'risidagi Farmoni loyihasida "2023/2024 o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko'nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, tadqiqotchilik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan yangi o'quv dasturlarini amaliyotga kiritilish" vazifasi belgilangan. Xalqaro tashkilot bo'lgan UNICEF 1-3-sinflar uchun ona tili va o'qish savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar darsliklarini yaratishda ishtirok etganligini ma'lum qildi. Darsliklarni yaratishga jalb qilingan xalqaro ekspertlar dastur va o'quv qo'llanmalarini yaratishda xorijiy tajribaning inobatga olinishi, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishi, darsliklarning xalqaro standartlarga muvofiqligi haqida bayonotlar bilan chiqishdi.

Milliy o'quv dasturi asosida Respublika ta'lim markazi tomonidan UNICEF ko'magida ishlab chiqilgan 1-3 va 6, 7, 10-sinflar darsliklari;

USAID mablag'lari hisobidan yaratilgan 1-4-sinflar ona tili va o'qish savodxonligi hamda matematika darsliklari;

Maxsus ishchi guruh tomonidan 1-4-sinflar uchun yaratilgan darsliklar yaratildi.

Yangicha ta'lim texnologiyalari asosida tuzib chiqilgan darsliklar orqali boshlang'ich sinflardanoq bilim va tajribaga ega o'quvchilar ta'lim olishi yo'lga qo'yildi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy salohiyati va ma'lumot darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim metodikasini bilishi boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida zarur ko'nikmalarni shakllantirish, sifat-samaradorligini yangi bosqichga ko'tarish, o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim sifatini doimiy nazorat qilish orqali esa boshlang'ich sinflardanoq sifatli ta'limga erishish imkoniyatini yaratadi. Bu o'rinda xorij an'anasidan foydalanishning yo'lga qo'yilganligi ahamiyatlidir. Barcha umumta'lim maktablarining boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, ilg'or ish tajribalarini ommalashtirishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi
2. Komil Jalilov gazeta.uz
3. 2023 Sputnik. O'zbekiston
4. Uzbekistan Education Sector Analysis: 2021 <https://sustainabledevelopment.un.org/post2015/transformingourworld>
5. "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash". T. "Sharq" 2019. - 4- 9- betlar.

Aytmuratov Baxtiyar Turg'anbayevich,
Qoraqalpog'iston Respublikasi pedagoglarni yangi
metodikalarga o'rgatish milliy markazi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA AN'ANA VA UDUMLARGA QIZIQISH O'RG'ATISH ORQALI ULARNI MEHNATGA TARBIYALASH

Annotatsiya: *Boshlang'ich sinf o'quvchilarini an'ana va udumlarga qiziqtirish, yoshi, shaxsiy mayllari va jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularda mehnat qilishga ishtiyoq uyg'otish, ma'naviy – axloqiy sifatlarni tarbiyalash masalalari so'z etilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, tarbiya, mas'uliyat, an'ana, udum, mashg'ulot, sifatlar, ma'naviyat, mehnat tarbiyasi.*

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mehnat tarbiyasini berishda an'ana va udumlar-dan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois o'quvchilarni an'ana va udumlardan foydalanib mehnatga tarbiyalashda qilinadigan tarbiyaviy ishlarga doir mu-ammolar quyidagilarda o'z aksini topadi:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida an'ana va udumlarga qiziqish, unga ongli va kreativ yondashish, ularda mehnat qilishga ishtiyoq uyg'otish; boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy – axloqiy sifatlarni tarbiyalash; boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi, shax-siy mayllari va jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularni moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridagi kasblarga yo'naltirish.

Mehnat tarbiyasi va ta'siri ahamiyati shundaki, u shaxsning ijtimoiy kamol topis-hini tezlashtiradi, qo'lidan keladigan mehnatga barvaqt kirishgan o'quvchi mustaqilligi mas'uliyatliligi bilan ajralib turadi. Ishonch bilan ishga kirishadi, qiyinchiliklarni qat'i-yatliroq bartaraf etadi. Kattalarning mehnatiga yaqinroq bo'ladi, inson mehnati bilan yaratilgan hamma narsani chuqurroq anglaydilar.

O'quvchilar mehnatni sevishlari va mehnat qilishni bilishlari uchun qanday tadbir-larni amalga oshirish kerak? O'quvchilarda mehnat ahliga hurmat hissini qanday tarbi-yalash lozim? Bizningcha, o'quvchilarda mehnatsevarlik xususiyatlarni shakllantirishda, eng avvalo, xalqning ta'lim-tarbiya borasidagi tajribalariga, an'ana va udumlarga taya-nish maqsadga muvofiq.

Maxmud Sattorning ta'kidlashicha inson bolasi yoshligidan yaxshi va yomon odat-larning qaysisiga ko'nikib, o'rganib qolgan bo'lsa bu udum uni bir umr tark etmaydi [1]. Haqiqatan ham, ko'p asrlar davomida to'plangan an'ana va udumlardan foydalanish taj-ribasi va xulq-atvorning xalq orasida tarkib topgan oddiy me'yorlari ta'lim-tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Afsuski, o'qituvchilar bu borada ilmiy asoslangan tavsiyanomalar bilan yetarli darajada ta'minlanmagan. Vaholanki, hozirgi vaqtda an'ana va udumlarga doir materiallardan foydalanish bo'yicha tavsiyanomalar ishlab chiqishga ehtiyoj ortibgina qolmay, balki ulardan foydalanish imkoniyatlari ham kengayib boryapti. Jumladan, istalgan fan o'qituvchisi an'ana va udumlardan o'z fanining ayrim qismlari va o'lkashunoslik ishlari uchun qiziqarli, kerakli materialni topa oladi. Bu borada boshlang'ich sinf o'quvchilari birinchi navbatda texnologiya fani, tabiatshunoslik va o'qish darslari dasturlari va darsliklari kiritilgan manbalardan unumli foydalanishlari kerak.

Maktabda mehnat jarayoni amalga oshiriladigan shart-sharoitlar har xilligiga qaramay, o'quvchilarning mehnat faoliyatini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq ravishda tashkil etishning umumiy tamoyillari mavjud. Shunga asoslangan holda respublikamizda tajribali o'qituvchilarning mehnat tarbiyasida an'ana va udumlardan foydalanish tajribalarining ba'zi jihatlari tahlil etilib xulosa chiqarishga harakat qilindi.

Jumladan, ona tili o'qituvchilari mehnat an'ana va udumlarga doir o'zbek xalq maqollari bo'yicha kichik hajmda insholar yozdirib turadilar. Bunday insholar, masalan: "Mehnatning tagi rohat", "Mehnat qilgan elda aziz", "Er – ona, suv – ota, mehnat - boylik", "Yer – xazina, mehnat - kalit", "Yer egasi bo'lma, mehnat egasi bo'l", "Yer boylikning onasi bo'lsa, otasi - mehnat", "Daraxt yaprog'i bilan ko'rkam, odam – mehnati bilan", "Daraxtni mevasi, otni siynasi, odamni mehnati bezaydi", "Daryo suvini bahor toshirar, odam qad-rini mehnat oshirar" kabi maqollarga bag'ishlanadi [2]. Bu tadbir ba'zi boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi ishchi va dehqon mehnatiga e'tiborsizlik bilan qarashdek salbiy xususiyatni bartaraf etishda yordam beradi.

Bundan tashqari, o'quvchilar dars mashg'ulotlarida ko'pincha maqol va matallarni tahlil qilib boradilar. Masalan: "O'roqda yo'q, mashaqda yo'q, xirmonda hozir" maqoli o'zi mehnat qilmay, o'zgalar mehnati samarasidan foydalanishni yaxshi ko'radigan kishilar haqida ekanini, unda ishyoqmas, dangasa va tanballar qoralanganligini tushuntiradilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uyda maqollar va matallar bo'yicha sinfda boshlagan ma'lumotni davom ettiradilar. Ularga ota-onalarning, umuman, kattalarning gaplariga quloq solishni, ular aytgan maqol hamda matnlarni yozib olishni maslahat berish yanada foydali.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini an'ana va udumlarga doir materiallar asosida mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda texnologiya fani darsi muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, texnologiya fani darslarida o'qituvchi qo'llaydigan mehnat va kasb-hunar ahamiyati to'g'risidagi maqollar ta'lim – tarbiyaviy jarayonga tarkibiy ravishda singib ketadi, uning mazmunini boyitadi. Masalan: "Bir yigitga qirq hunar oz", "Har kasbning o'z gashti bor", "Harakat, harakatda barakat", "Har hunarning o'z siri bor, har ishning o'z eri bor", "Hunar oshotar, mehnat yashnatar" singari maqollar o'quvchilarning mehnat, hunar haqidagi tushunchalarning shakllanishiga ijobiy ta'sir qilishi shubhasiz [2].

Chunki o'qituvchi texnologiya fani darslarida o'quvchilarga turli materiallardan narsalar yasashni, o'ziga o'zi xizmat qilishni, qishloq xo'jalik ishlarini, texnik modellashtirishning dastlabki tushunchalarini o'rgatib, so'ng amaliy mehnat ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirish uchun harakat qiladi.

Ayniqsa, o'quvchilarni uy-ro'zg'or mehnatining dastlabki turlari bilan tanishtirish alohida o'rin tutadi. O'quvchilar o'qituvchi yordami va maslahati bilan o'zlari rang-

li qog'ozlar va gazlamalardan turli xil narsalar tayyorlashni o'rganadilar. O'quvchining o'z ko'ylagiga tugma qadashni, sochiqqa kashta tikishni, qo'g'irchog'i uchun kiyim bichish-tikishni, nina va ilgak bilan to'qishning dastlabki ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni egallash, aslini olganda mehnat an'ana va udumlarni o'zlashtirishning birinchi misoli.

Demak, dastlabki ishlarning o'ziyoq mehnat jarayonini o'g'il va qiz bolalar mehnatiga ajratadi. Qiz bolalar buvilari, onalari ming yillardan buyon rivojlantirib, takomillashtirib kelgan bichish-tikish, to'qish kasblarini o'rganish bo'yicha dasturiy, qat'iy asosga solingan dastlabki ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini dars jarayonida o'rganishlari bois mehnat an'ana va udumlardan foydalanishning yaqqol misoli sifatida alohida ahamiyatga molik.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining texnologiya fani darslarida turli oziq-ovqatlar tayyorlash texnologiyasi, meva va sabzavotlardan har xil achchiq-chuchuk va gazaklar tayyorlash, dasturxon bezatishni o'rganishlari, birinchidan, bu darslarning nazariy va amaliy ahamiyatini oshirsa; ikkinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqimizning turli mehnat an'ana va udumlar ruhida tarbiyalashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi [3].

I-IV sinflardagi "Tevarak-atrof bilan tanishtirish" (tabiatshunoslik) darslari o'quvchilarni avlod-ajdodlarimizning qishloq xo'jalik va chorvqachilik sohasidagi mehnat an'ana va udumlar bilan tanishtirish alohida ahamiyatga ega. Bunday darslar davomida o'quvchilar gulchilik, bog'bonchilik, polizchilik, pillachilik va dehqonchilikning boshqa turlari haqida dastlabki ma'lumotlarni egallaydilar va boshlang'ich mehnat ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

"Tabiatshunoslik" darslaridagi amaliy mashg'ulot o'quvchilarning dehqonchilik kasblari haqidagi ma'lumotlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Demak, amaliy mashg'ulotlar davomida boshlang'ich sinf o'quvchilari bahor, yoz va kuz fasllarida amalga oshiriladigan dehqonchilik ishlari bilan bevosita tanishadilar, ota-bobolarimizning turli meva va sabzavotlar etishtirishdagi asriy an'ana va udumlarining dastlabki saboqlarini egallaydilar hamda shu bilan birgalikda mazkur kasblarni egallash yo'lida birinchi qadamlarini tashlaydilar.

Biroq o'zbek xalqining turmush tarzi, yashash muhiti, geografik joylashuvidan kelib chiqadigan bo'lsak, hozirgi kunda o'qitilayotgan texnologiya fani darsliklaridagi mehnat an'ana va udumlar namunalaridan foydalanish etarli emas deb o'ylaymiz. Jumladan, hozirgi darslikdagi mavzular ruhiyatga an'ana va udumlarda mehnatsevarlik tarbiyasini ifodalovchi materiallardan kiritish lozim. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash hamda mehnatga tayyorlashda an'ana va udumlar namunalaridan foydalanib borish ijobiy natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmud Sattor. O'zbek udumlari. – Toshkent: Adolat, 2004. – 6 b.
2. O'zbek xalq maqollar to'plami. – <https://sirlar.uz/ozbek-xalq-maqollar-toplami-barcha-maqollar-2/>
3. Aytmuratov B.T. Baslawish kalss oqiwhilarin miynet urip-adet ham dasturlerinen paydalanip tarbiyalaw texnologiyalari. - Toshkent: TAFAKKU QANOTI, 2023. – 56 b.

LIFE LONG LEARNING PARADIGMASI BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ASOSIY OMIL

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim va uning hozirgi kun mazmuni, boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasb mahorati, boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillar va usullar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, muallif maqola mazmunida samaradorlikni belgilovchi omillar va takliflarni berib o'tgan. Uzluksiz malaka oshirish hamda hayot davomida o'qish oqituvchi kasb mlakasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi, o'rni va mazmuniga alohida to'xtalib o'tgan.

Kalit so'zlar: Uzluksiz, hayot, o'qish, malaka, bilim, mahorat, o'qituvchi, boshlang'ich ta'lim, dars, ma'lumot, kasb.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar mazmunida inson kapitali va uning farovon turmush darajasi belgilanib berilgan. Inson tamaddunida ta'lim-tarbiya masalalari doimiy ravishda dolzarb va mukammal mavzu hisoblangan. Kelajak avlodning taqdiri va tarbiyasi tarbiyachilar, murabbiylar, ustozlar shuningdek ota-onalar qo'lida, binobarin yurtning ravnaqi ta'lim-tarbiya mazmuni bilan belgilanadi.

Hozirgi kunda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar ta'lim samaradorligining oshishiga qaratilgan, bu esa o'z navbatida o'qituvchilarning hayot davomida uzluksiz malaka oshirishlarini, kasbiy mahoratining uzluksiz rivojlantirish masalalarini rejalashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-may PF-79-sonli "Maktabga-cha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida:

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1-4 sinflarida o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatiga mos bo'lgan bilimlarni berishga yo'naltirilgan o'quv dasturlari va o'quv-metodik majmualar joriy etilishi" belgilab berilgan. Bundan ko'rinib turibdiki boshlang'ich ta'lim mazmuni uning kontenti asosida yaratiladi va boyiydi. Kontent qanchalar mustahkam va boy bo'lsa o'qituvchi uchun asosiy bazani belgilab beradi. O'qituvchining kasb mahorati va kompetentligi qay darajada? Zamon talablari asosida ishlashga tayyormi? Mavjud kasbiy ko'nikmalari va bilimdonligi unga yordam bera oladimi?

O'qituvchi mehnati va kasbiga bo'lgan layoqati boshlang'ich ta'lim samaradrligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Farmonda 2024-yildan boshlab umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining pedagogik kasblarga birinchi marta ishga qabul qilinayotgan talabgorlarni kasbiy sertifikatlash tizimi joriy etilishi hamda malaka toifasini berishning yangi tartibi joriy etilishi koʻrsatilgan. Demak, taʼlim muassasalarida malakali pedagog kadrlar sonini oshirish koʻzda tutilganligi zamon talabi. Jumladan xalqaro standartlar asosida malaka sertifikatini berish amaliyoti joriy etilishi ham koʻzda tutilgan.

2023-2024 oʻquv yilida boshlangʻich sinflar mazmunida fanlarni 4 K modeli asosida oʻqitish belgilab berildi. Bu esa bolalarning tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash, muhoqotchanlik koʻnikmalarini rivojlantirish, hamkorlikda ishlashdagi kabi kompetensiyalarini tarbiyalaydi. Oʻqituvchining zamon talablariga toʻlaqonli javob berishi, taʼlim islohotlariga labbay deya olishi, bilimdonligi va kasbiy mahoratining yuqori darajaga rivojlantirishi uning zamonaviy ruhdagi kadr sifatida namoyon boʻlishini koʻrsatadi. Shunday ekan oʻqituvchi oʻz ustida tinimsiz ishlashi, izlanishi, yangiliklar bilan yaqindan tanishishi va amaliyotda qoʻllashi, nazariy va amaliy bilimlarini uygʻunlikda olib borishi, rivojlantirishi, oʻzining hayot davomidagi uzluksiz oʻrganishini talab etadi. Kerakli pedagogik adabiyotlar, internet axborotlari, kasbiy maʼlumotlar, online resurslar, innovatsion metodlar, ilgʻor tajribalar, horijiy kontentlar bularning barchasi zamonaviy oʻqituvchining kasbiy bazasi hisoblanadi. Oʻqituvchining vazifalari haqida soʻz ketar ekan:

- Taʼlim jarayoniga puxta tayyorgarlik;
- Yangiliklarni tezda oʻzlashtirish va amaliyotda qoʻllash;
- Zamonaviy mashgʻulotlarni tashkil etish;
- Oʻz ustida tinimsiz ishlash;
- Oʻzini-oʻzi kasbiy rivojlantirish;
- Soha bilimdonligi;
- Muammoli vaziyatlarni samarali bartaraf etish;
- Yangi loyihalarda ishlay olish va oʻz takliflarini bildirish;
- Oʻquvchilar ruhiyatini anglash;

Bu vazifalarni istagancha uzaytirish mumkin. Zamonaviy oʻqituvchi serqirra kuchli shaxs. U ham tadbirkor, psixolog, ona, rahbar, doʻst, tadqiqotchi, novator va lider boʻla oladi.

Taʼlimning poydevori boshlangʻich taʼlim. Poydevor mustahkamligi kelajak rivojlanishini samarali prognoz qiladi. Kutilgan natija, qoʻyilgan maqsad, boshlangan ezgu ish, koʻrilgan tadbir, qilingan niyat, puxta ishlangan reja, taraqqiyotni belgilovchi strategik loyihalar boshlangʻich taʼlim samaradorligini kafolatlovchi omillardir. Zero bugungi kunning bilimdon, zukko, novator ustozlari haqiqiy chin maʼnodagi pedagoglardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida, 2023-yil 26-may, PF-79-son
3. Nuray K. F. Lifelong Learning Tendencies of Primary Education Teachers
TOJET: The Turkish Online Journal of Educational Technology – November 2017, Special Issue for INTE 2017
4. Pulatova D., Tursinova Z. Sh. Ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatini baholash mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari. Yevrosiyo ilmiy-tadqiqotlar jurnali. Impakt factor UIF=8.1/ SJIF=5.685.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA YOZMA MATN USTIDA ISHLASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining imloviy savodxonlikka erishuvidagi pedagogik-psixologik imkoniyatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan didaktik usullar haqida bahs yuritiladi, Talabalarning yozma nutq madaniyati va uni shakllantirish, ona tili, yozma nutq bobida olgan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilarda yozma nutqni shakllantirish va o'stirish yo'llari, usullarini ular ongiga singdirish asosda savodxonlikning talab darajasida bo'lishini, o'zbek tili imkoniyatlaridan o'z o'rnida foydalanishni ta'minlash masalalari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ yondashuv, pedagogik texnologiya, ta'lim jarayoni, og'zaki va yozma nutq, dialogik nutq, tinglab tushinish, bevosita yordam, mustaqil ta'lim, deduktiv yondashuv.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar ona tili ta'limida nutqiy va imloviy savodxonlikka ega bo'ladigan: o'z fikrlarini ravon bayon qila oladigan bo'lishi va to'g'ri savodli yoza oladigan bo'lishi kerak. Shu jihatdan, boshlang'ich sinflarning ona tili darslarida o'quvchilarning imloviy bilimlarini bosqichma-bosqich, tadrijiy ravishda takomillashtirib borish lozim. Shunga ko'ra, ona tili darslarida o'quvchilarning imloviy bilimlarini takomillashtirishning eng samarali usul va metodlarini qo'llash bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Bu muhim vazifalarni esa bilim, malakalari yetarli o'qituvchilar amalaga oshiradi. Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yozma va og'zaki nutqini takomillashtirish masalasi esa birinchi galdagi ustuvor vazifalardir.

“Til, eng avvalo, insonning ichki dunyosi, olamni idrok qilishi, tafakkur tarzi va kamolotini belgilaydigan vosita. Tilga ko'pincha aloqa vositasi sifatida qarashadi. Aslida bu tilning mohiyatini to'g'ri anglamaslik natijasida paydo bo'lgan noto'g'ri qarash. Til faqat aloqa vositasigina emas, u insonning tafakkur tarzini tayin qiladigan, dunyoni bilishi, dunyoni ko'rishi, eshitishi vositasi hamdir.”

Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiyaning zamon talablari darajasida takomillashtirilishi, yoshlarning ma'naviy barkamol shaxslar bo'lib yetishida asosiy omillardan

hisoblanadi. Buning uchun o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik va metodik tayyorgarligini oshirish, darslarni ilmiy jihatdan takomillashtirish, ilg'or va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga to'liq joriy qilish to'grisida ko'plab fikrlar bayon etilmoqda.

Zero, boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning ham ta'limiy ham tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi dars maqsadiga erishishda o'quvchilarning imloviy savodxonligi, uni yanada takomillashtirish usullaridan foydalanish va darslarni tashkil qilish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Fikrlarimizni amaldagi yangi darsliklar va ularda o'qitishdagi asosiy vazifalarga diqqat qaratsak:

“Ona tili va o'qish savodxonligi” darsligi⁷da til o'qitishning o'rganuvchiga asoslangan yondashuvlar turkumidan foydalaniladi. Bu yondashuv tilning real hayotiy vaziyatlarda qo'llanishi va ana shu vaziyatlarda o'rganuvchi sezadigan ehtiyojlarni qondirishga asoslanadi.

Tanlangan topshiriqlar vositasida o'qituvchi o'quvchlarni turli hayotiy vaziyatlarda grammatik jihatdan to'g'ri va kommunikativ jihatdan erkin so'zlay oladigan darajaga olib chiqishni maqsad qilib qo'yishi muhimdir. O'quvchining tilni qo'llashdagi real ehtiyoj (ijtimoiy muloqot, akademik ta'lim) hisobga olingan va zaruriy lingvistik qurilmalar turli nutqiy vaziyatlarda berilgan. Grammatik bilimni yetkazish insonning til malakasi og'zaki nutqni tushunish, yozma nutqni tushunish, fikrni og'zaki va yozma ifodalash orqali shakllanishi ilmiy isbotlangan. Ana shundan kelib chiqib, darsliklar yaratishda grammatik bilim alohida emas, nutqiy vaziyat ichida berilishi haqidagi qarash asos qilib olingan. Bunda til o'qitishga kommunikativ yondashuvdan samarali foydalanilgan. Kommunikativ yondashuvning mohiyati real vaziyatda nutqni tushunish va o'z nutqini to'g'ri ifodalashga o'rgatishdir.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ona tili ta'limi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar quyidagi uch parametrli standart mezoni orqali aks ettiriladi: o'qish texnikasi, o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrda mujassamlashadi va o'quvchi tomonidan yaratilgan matnda aks etadi. Bu parametr bo'yicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi:

- Fikrni mantiqiy izchilikda ifodalay olish;
- Mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, aniq va hokazo);
- Tavsifning mavzuga muvofiq va mukammal bo'lishi;
- Tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalana bilishi;
- Imloviy (yozma) savodxon bo'lishi.⁸

Quyida yozma savodxonlikni oshirishga qaratilgan didaktik usullardan tavsiya qilamiz. “So'zlarning tuzilishi jihatdan turlari” mavzusi⁹ni mustahkamlash yuzasidan amaliy

⁷ Mavlonova K. Ona tili va o'qish savodxonligi. 3-sinf uchun Darslik. Toshkent-2022.

⁸ Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 3-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / K. Mavlonova, [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 160 b.

⁹ Ona tili. 60110700-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi Fan Dasturi. O'z.Res. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

mashg'ulot misolida beriladigan topshiriqlarni zamonaviy usullarda tashkil etish bo'yi-cha metodik tavsiyalarni keltirsak.

Avval matn audio shaklda o'qib eshittiriladi.

Mehnat bilan suyagi qotgan, mehnat tufayli izzat-u hurmat ko'rgan har bir ota-ona bolasining ham mehnat bilan yashashini, mehnat bilan el-yurt oldida sharaf topishini xohlaydi. Shu tufayli bolalarining kelajagini o'ylab, ularni mushtumdek paytlaridan katta-kichik mehnatga o'rgatadilar. To'g'ri tarbiyaning eng ta'sirli, eng samarali usuli ham shu, ammo ba'zi bolalar ro'zg'or ishlaridan ham bosh tortadilar. Otalari yo onalariga shafqatsiz, berahm kishilarga, hatto quldorlarga qaraganday o'qrayib, alang-jalang yeb yuborgilari kelguday bo'lib qaraydilar. Malol kelib, qo'l uchida qilgan ishlaridan ota-onalari norozi bo'lishsa, uzr so'rash o'rniga to'ng'illab beradilar. Ota-ona bolalarining mehnatiga hamma vaqt, erta-kech ham muhtoj bo'lavermas, lekin bolani yoshligidan ishga o'rgatish, mehnatga ko'niktirish zimmlaridagi burch ekanligi shunday yo'l tutishga majbur qiladi.

Bilmaganini bilishni, o'rgatilganini o'rganishni xohlamagan kaltabin yoshlarga qarab shoir degan ekan:

*Kimki o'rganishni or bildi,
Har qadamda o'zni xor bildi.*

(M. Ismoilij)

1. Tinglab tushunish mashqi.

Audiomatn eshittirib bo'lingach, quyidagi savollar beriladi:

1. Matnda qaysi insoniy xislatlar haqida so'z yuritilgan?
2. Bilmaganini bilishni, o'rgatilganini o'rganishni xohlamagan yoshlarga qanday salbiy sifat qo'shilyapti?
3. To'g'ri tarbiyaning eng ta'sirli, eng samarali usuli va u asosan qachon qo'llaniladi?

2. Og'zaki nutqni o'stirish mashqi

1. Siz matnga qanday nom topgan bo'lar edingiz?
 2. Mehnatsevarlik tushunchasini qanday izohlaysiz?
 3. Mehnat va mehnatsevarlik haqida qanday o'zbek maqollarini bilasiz?
 4. Mehnatkash insozlar jasorati haqida, mehnatning foydalari to'grisida yozilgan qaysi badiiy asarlarni esladingiz?
 5. Bu asarlardan siz qanday xulosa chiqargansiz?
 6. Qaysi qo'l mehnati bilan shug'ullanasiz?
3. Yozma nutqni rivojlantiruvchi mashq
1. Matnda aytilishi va yozilishi farqlanadigan so'zlarni ajrating va ikki ustunga ajratib yozing.

Talafuziga ko'ra

Shavqat

Mushtim

Burj

To'ng'illap

Uzur

Yozilishiga ko'ra

Shafqat

Mushtum

Burch

To'ng'illab

Uzr

2. Lug‘at ustida ishlash. Xorijiy tajribada ham til egalarining muayyan til malakalari-ni egallashda asosiy yordamchi vosita lug‘atlar ekanligi e‘tirof etilib, savodxonlik borasi-da amaliy foydalari ko‘p qayd etilgan.¹⁰

4. Grammatik bilimni mustahkamlovchi mashq

1. Matndan so‘zlarning tuzilishiga ko‘ra faqat juft so‘zlarni ajratib yozing. Hosil bo‘lishiga qiqqat qiling va so‘z turkumini aniqlang. Juft so‘z bog‘lanib kelgan so‘z bilan birga ko‘chiring.

Masalan, ota-ona (ot so‘z turkumi, bir-biriga mazmunan yaqin so‘zlardan tuzilgan), alang-jalang qaraydilar (Ravish so‘z turkumi, har ikki qismi atash ma‘nosiga ega bo‘lma-gan so‘zlardan hosil bo‘lgan).

Til ta‘limida talabalarning, ayniqsa, boshlang‘ich ta‘limiy yo‘nalishida tahsil oluv-chilarning imloviy savodxonligini oshirishda turli didaktik usullaridan foydalanishi va darslarni interfaol metodlarga tayangan holda tashkil qilish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi mulohazalardan xulosalarimiz quyidagicha:

1. Insonning til malakasi og‘zaki nutqini tushunish, yozma nutqni tushunish, fikr-ni og‘zaki va yozma ifodalash orqali shakllanish ilmiy isbotlangan. Ana shundan kelib chiqib, til ta‘limida grammatik qoidalarni o‘rgatibgina qolmasdan tilga muloqot jarayo-nida asosiy vosita ekanligini inobatga olinishiga ahamiyat qaratish muhim.

2. Dars jarayonlarida grammatik bilim alohida emas, nutqiy vaziyat ichida berilish haqidagi qarash asos qilib olinishi, bunda til o‘qitishga kommunikativ yondashuvdan sa-marali foydalanilishi o‘zlashtirishga ham ijobiy ta‘sir etuvchi omillardan ekanligi oydin-lashdi.

3. Kommunikativ yondashuvning mohiyati real vaziyatda o‘zgalar nutqini tushunishi va o‘z nutqini ravon, to‘g‘ri ifodalashiga o‘rgatishdir.

4. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ilk savod chiqarishda chinakam savodxonlikka erishgan o‘qituvchilar qo‘lida ta‘lim olishi talabalik davridanoq jiddiy e‘tibor qaratish lozim.

¹⁰ Isabel Beck, Charles Perfetti, Margaret G.Mckewon. Effects of long-term vocabulary instruction on lexical access and reading comprehension. August 1982. Journal of Educational Psychology DOI:10.1037/0022-0663.74.4.506 August, D., Carlo, M., Dressler, C., & Snow, C. (2005). The critical role of vocabulary development for English language learners. Learning Disabilities Research and Practice, 20, 50–57

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmudov N. Til va madaniyat. - Toshkent, 2005.
2. G'ulomova X. Husnixatga o'rgatish metodikasi. - Toshkent, 2007.
3. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligi oshirish yo'llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
4. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sharoitida innovatsiyalar. Special Issue | 2022
5. Isabel Beck, Charles Perfetti, Margaret G.Mckewon. Effects of long-term vocabulary instruction on lexical access and reading comprehension. August 1982. Journal of Educational Psychology DOI:10.1037/0022-0663.74.4.506 August, D.,
6. Carlo, M., Dressler, C., & Snow, C. (2005). The critical role of vocabulary development for English language learners. Learning Disabilities Research and Practice, 20, 50–57
7. Karimova Sh. Shodiyev I. Til ta'limida ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan usullar// Til va adabiyot ta'limi. Toshkent, 2022. № 12. 3-5 betlar
8. Karimova Sh. Toshxujayeva Sh. Lingvopoetikaning nazariy masalalari// Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2022-11/4. Xiva.182-185
9. Karimova Sh. Til ta'limida sintaktik birliklarni o'qitish //O'zbek tili tadqiqi va ta'limi muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. -T.: "Universitet", 2021
10. U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev. Hozirgi O'zbek adabiy tili. -T.: O'zbekiston, 1992.
11. Kozimova N. Ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent, 2009. -B.213.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KASBIY KOMPETENTLIK MUAMMOSI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogik kompetentlik, boshlang'ich ta'lim mazmuni, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi haqida so'z yuritiladi. Maktab ta'limida tashkil etiladigan dars, darsda o'qituvchining mahorati, kompetentligi, malakasi, ta'lim mazmuni haqida keng ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *kompetentsiya, bilim, ko'nikmalar, fikrlash, muloqot, tajriba*

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning poydevori. Unda tashkil etiladigan mazmun puxta, mustahkam, serjilo bo'lmog'i lozim. Zero yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir. Bolaning bilimlar bilan qurollanishi o'qituvchi zakovatiga, bilimdonligiga, mahoratiga, kompetentligiga bog'liqdir. Demak, o'qituvchi tomonidan olib boriladigan dars mashg'uloti – bu – ta'lim oluvchining bilmaslikdan bilishga tomon, oddiydan murakkabga tomon, uncha to'liq bo'lmagan bilimdan ancha to'liq, aniqroq va chuqurroq bo'lgan bilim tomon sodir bo'ladigan jarayondir. Bu ta'lim beruvchi rahbarligida amalga oshiriladi. Ta'lim beruvchining faoliyati tufayli ta'lim puxta o'ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida olib boriladigan jarayonga aylanib, kutilgan natijalarni beradi. Ta'lim jarayonida fanlar bo'yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko'nikmaga aylantirishgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo'llashga ham imkon beradi.

Maqolamizning asosiy mazmuni bo'lgan kompetensiya atamasiga ta'rif beraylik. Aslida o'qituvchining yillar davomida to'plagan tajribasi va metodikasi uning kasbiga bo'lgan layoqatini yanada oshiradi. O'z-o'zidan kompetentlik tushunchasi o'qituvchiga nisbatan uning kasbiy to'laqonli rivojlanganlik darajasini belgilaydi.

Kompetentsiya – belgilangan vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar, bilimlar va tajribalarning kombinatsiyasi. Boshlang'ich sinflarda ta'lim oluvchilarga yetarli bilim berish hayotiy ko'nikmalarini oshirish va malakalarini shakllantirish ta'lim beruvchining kompetentsiyasiga bog'liq. Demak, o'qituvchining kompetensiyasi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlar samaradorligida kuzatiladi.

2023-2024 o'quv yilida boshlang'ich sinflar uchun yangi metodikalar asosida o'qitish yo'lga qo'yildi. Bunda o'quvchi shaxsida shakllanishi kerak bo'lgan ko'nikmalar 4 K modeli sifatida belgilandi. Bular:

4 “K” modeli

1. Kritik (tanqidiy) fikrlash (Critical Thinking);
2. Kreativlik (ijodiy yondashuv) (Creativity);
3. Kommunikatsiya (Communication);
4. Kooperatsiya (Coordinating With Others).

4K ko'nikmalar Tanqidiy fikrlash tahlil, baholash, tushuntirish, maqsadlarni belgilash, o'zini boshqara bilish, modellashtirish, o'rganilayotgan predmetga turli nuqtaliy nazardan qarash amaliyoti va hakoza.

Muloqot qilish ko'nikmasi muloqotdan cho'chimaslik, boshqa odamlarning fikrini tinglashni o'rganish, o'z fikr va his-tuyg'ularini ifodalash amaliyoti va hakoza.

Jamoaviy ishlash ko'nikmasi umumiy maqsadlarni o'z maqsadidek qabul qilish qobiliyati, ularga erishish uchun birgalikda harakat yo'nalishini qurish qobiliyati, o'z rejalari va g'oyalarini amalga oshirish uchun yetakchilik ko'nikmalarini va o'z jamoasini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish va hakoza.

Shu o'rinda o'qituvchining kompetentligi mezonlarini ishlab chiqishni lozim deb topdik:

- Ijodkorlik;
- Bilimdonlik;
- Zukkolik;
- Muammolarni hal etish;
- Muloqatchanlik;
- Yangiliklarga intriluvchan;
- Tashabbuskor;
- Tashkilotchi;
- Kirishimlilik;
- Boshqaruvchan;
- Axborotni tahlil qila olish ;
- Novator va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, pedagogikadagi kompetentsiya bu:

- mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim tizimining odil va demokratiyalashtirishi o'quv jarayoniga o'zgacha talab va o'zgacha pedagogik munosabatlarni kashf etishi bo'lib, bu jarayon mazmun mohiyatdan avvalgidan tubdan farqlanadi;

- ta'lim sohasida o'quvchi, o'qituvchi, oila, mahalla hamkorlikda bir maqsad sari, ya'ni, DTS talablarini o'zlashtirish va undagi me'yorlardan yuqoriroq natijalarga erishishni taqozo etishi;

- DTS talablarini bajarishning asosiy omillaridan biri ta'lim jarayoniga samarali natijaga ega yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etilishidir;

- Ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, mustaqil fikr yurita oladigan ijtimoiy faol yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalash vazifasini amalga oshiruvchi bilimlar izimi;

- o'qituvchi yoshlarga zamon talablariga javob beruvchi bilimlarni berish uchun avvalo o'zi ana shunday bilimlar bilan qurollanishi.

Zero, turli soha tizimlardagi yutuqlarning asosi maktablarda tashkil etiladigan dars jarayonining sifati bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amanlikova N. R. Zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning metodlari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(1/2),Jan.,2023
2. Ochilova G. O. Kasbiy kompetentlik. O'quv qo'llanma-T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021
3. G'aniyev O.A. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish // Scientific progress.2021. № 6 <https://cyberleninka.ru/article/n/o-qituvchilarning-kasbiy-kompetentligini-rivojlantirish>

BOSHLANG'ICH SINFLARDAGI O'QUV FANLARI MAZMUNIDA O'QUVCHILARINING IJTIMOYIY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarni shakllantirishda ta'lim mazmuni va maqsadi haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek maqolada tadbirlar, suhbatlar, intervyular, uchrashuvlar, ko'rik-tanlovlar, bahs-munozaralar, viktorinalar, davra suhbatlari, muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish, vatanparvarlik va baynalminallik mavzularida yaratilgan asarlar mazmuni bilan tanishish boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish uchun muhim manba va vosita hisoblanishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: tadbir, suhbat, kompetensiya, fuqarolik, o'quvchi, maqsad, faol, vatanparvarlik.


Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarni shakllantirishda ta'lim mazmuni va maqsadi ushbu yo'nalishga qaratilganligi, o'quv rejadagi va darsliklardagi mavzular kontenti boyligi muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda ularning mazmun-mohiyatiga ahamiyatimizni qaratsak. O'quvchilarda kompetentlik qanday omillar ta'sirida tarkib topadi? O'quvchining ta'lim jarayonida va yashash muhitida uning ruhiyatiga va tarbiyasiga ta'sir etuvchi sabab oqibatlarini o'rganib chiqamiz. Xo'sh ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmi tarkibiy tuzilmasi nimalardan iborat? Uning yo'lishlari qanday? O'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmining takomillashtirish jarayoni nimalardan iborat? Ushbu masalalarni batafsil ko'rib chiqamiz. Ilmiy adabiyotlardan foydalanib terminlarga izoh keltirishga harakat qilamiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlarining **tarkibiy tuzilishi:**

Maqsad, tamoyillar, shakl, usul, mazmun, vositalar, jarayon, yo'nalishlar, bosqichlar, nazorat, baholash, sifat ko'rsatkichlari, dastlabki bilim, ko'nikma, malakalar, ularning o'sishi, yosh xususiyatlari, DTS.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi



Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda ushbu tuzilmalar ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishning muhim qismlari sifatida manba hisoblanadi va xizmat ko'rsatadi. Tarkibiy tuzilmaga ahamiyat qaratsak, vositalar, tamoyillar, maqsad ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarning bola shaxsida shakllanishining mazmunini to'laqonli ochib beradi. Davlat ta'lim standarti, mazmuni, bolada shakllanishi muhim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, uning yosh xususiyatlari, ta'lim-tarbiya berish usullari, ta'lim-tarbiya jarayoni shakllari bolaning maktabdagi hayotini to'ldiruvchi, mazmun kasb etuvchi manbalardir.

Har bir tarbiyaning ustivor maqsadi bo'lgani kabi boshlang'ich sinf o'quvchisining ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalari maqsadi barkamol avlodni tarbiyalash, ijtimoiy faollikni shakllantirish, mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatish, tolerantlikni kuchaytirish, jamiyat uchun kerakli insonni tarbiyalashdan iborat. Ushbu kompetensiya quyidagi tamoyillar asosida tarkib topadi:

- Maqsadlilik;
- Tushunarlilik;
- Yosh xususiyatlari;
- Onglilik;
- Ilmiylik;
- Rivojlantiruvchanlik;
- Hayot bilan bog'liqlik,
- Amaliy,
- Samaralilik.

Kompetensiya shakllanishida o'quv materiallari, darsliklar, o'quv dasturlari, qo'shimcha materiallar, topshiriqlar, qo'shimcha adabiyotlar, zamonaviy didaktik vositalar va boshqalar asosiy vosita sifatida xizmat ko'rsatadi. Davlat ta'lim standartida har bir sinf uchun o'quvchi egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning minimal darajasi belgilangan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllanishi kerak bo'lgan tayanch kompetensiyaning sinflar bo'yicha talablari fanlar, o'quv dasturlari, materiallari, darsliklar mazmuniga singdirilgan. Ta'lim-tarbiya jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchiga ana shu ta'lim kontentini singdirishda maqsadga erishish yo'llarini izlaydi. Bunda o'qituvchiga ta'lim-tarbiya berishdagi usul va shakllar yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi tushuntirish, suhbat, intervyu, insenerovka, hikoya, amaliy mashg'ulot, loyiha, mustaqil ijod, og'zaki va yozma usullardan foydalanib bolada ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantiradi. Albatta bu jarayonlar dars, darsdan tashqari mashg'ulotlar, to'garaklar, sinfdan tashqari ishlar, bayram tadbirlari, hayriyalar, ekskursiyalar va boshqa shakllarda olib boriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish **jarayoni bosqichlari** quyidagilardan iborat:

1. Kuzatish – ma'lumot, mavzu, voqea, hodisa bilan bevosita kuzatish, eshitish, o'qish, film, video material, surat, plakat, karikatura, rasm, yozuv, she'r, ertak, hikoya, masal, maqol, aforizm va shu kabilar orqali tanishish, uning mazmunini o'rganish, idrok qilish.
2. Fikrlash – tahlil, solishtirish, mulohaza, munozara, masalaning asosiy mohiyatini,

jarayonning kechishi va to'g'ri yo'naltirish imkoniyatlarini aniqlash. O'quv fanlarini o'zlashtirish, bilimlarni egallash, ijtimoiy hayotda yashashga o'rganish, ijtimoiy rolga ega bo'lish

3. Xulosa – kuzatilgan jarayonning sababi, mazmuni, natijasini ko'rsatib berish.

4. Amalda qo'llash – aniqlangan xulosalarni turli vaziyatlardagi munosabat, muomalada hisobga olish, yangi vaziyatlarda tegishlicha ijodiy yondoshgan holda qo'llash.

Bu yil boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayoni mazmuni 4 K modeli asosida belgilandi. Bunda fanlar orqali o'qituvchi o'quvchida shakllanishi muhim bo'lgan ko'nikmalarni tarkib toptirishi kerak bo'ladi. Unda o'quvchilarni kreativlik qobiliyatini rivojlantirish masalasi dars oldidagi asosiy maqsadlardan biri etib belgilandi. Kreativ ta'lim bolalarni ijtimoiy tajriba bilan qurollantirishning manbai, bolalar faoliyatiga, tafakkuriga mo'ljalangan ta'limdir. U bolalarda ijodiy qobiliyatlarni tarbiyalash va buning zaminida o'quv faolligini oshirish muammolarni o'zida qamrab oldi. Buyuk olim Abu Ali ibn Sino ham o'z asarlarida bu masalaga alohida e'tibor qaratib, bolalarning yakka-yakka emas, jamoa bo'lib, birgalikda o'qitish tarafdori bo'lgan. Ibn Sino o'quvchilarni birgalikda, jamoa bo'lib o'qitish yanada yaxshiroq samarani berishi, bolaning rivojlanishida va bilimlarni o'zlashtirishida katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan.

Bunday hamkorlikda o'qitish ularda o'zlashtirishga intilishni kuchaytirishga, har bir bolaning o'zaro musoboqalashish istaklari rivojlanishiga, mavjud iqtidorini ruyobga chiqarishga yordam beradi. Bularning barchasi bolalarning yaxshi o'qishini, ijodiy fikrlashini ta'minlashga zamin yaratadi. O'quvchilarning bilim olish faoliyati ijodiy fikrlashga yo'naltirilmasa, o'quv jarayonida faol shaxsga aylanmasa, hech qachon ularni ongli o'zlashtirishiga erishib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil 23-sentabr, O'RO-637-son
2. Tojiboyeva G.R., Nigmatova X. (2021) Boshlang'ich maktab o'quvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda mualliflik ertaklaridan foydalanish. // Academic research in educational sciences.
3. Rustambekova N.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish, Journal of Universal Science Research, 1(9), 61–63

Raximqulova Maxbuba Baxronovna,
*Samarqand viloyati Pedagoglarni yangi
Metodikalarga o'rgatish milliy markazi dotsenti*

Raximqulova Komila Komilovna,
*Samarqand shahar 4-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING ILMIY MAQOLALARDAN FOYDALANISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: *Maqolada bugungi kun muammosi ya'ni, boshlang'ich sinf o'qituvchining ilmiy maqolalardan foydalanishi hamda o'z faniga tatbiq qila olishi haqida ma'lumot berilgan. Shu bilan birga malaka oshirish tizimida mashg'ulot davomida maqola bilan ishlash texnologiyasining texnologik xaritasi ham yangi mazmunda keltirilgan. Shu bilan birga "Muammoga asoslangan ta'lim" texnologiyasining afzalliklari haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *maqola, texnologiya, muammoga asoslangan ta'lim, xorijiy metodikalar, XXI asr ko'nikmalari, dars rejasi.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmonida dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish [2] degan maqsad qo'yilgan.

Pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida takomillashtirib borish ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri deb belgilangan.

Har bir texnologiyaning o'ziga yarasha yondashuvi bo'lgani kabi "Muammoga asoslangan ta'lim"ning afzalliklari haqida fikrlar va debatlar mavjud. Muammoga asoslangan ta'lim, o'quvchilarning o'z faoliyatlarini o'rganish va tadqiq qilish jarayonlariga muvaffaqiyatli o'rganishga e'tibor beradi. Bu usul, o'quvchilarga aktual ma'lumotlarni o'zlashtirish, muhokama qilish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va o'z fikrlarini ifoda qilish imkonini beradi. Muammoga asoslangan ta'limning afzalliklariga to'xtalib o'tamiz. Muammoga asoslangan ta'limda hamkorlikda o'rganish, o'quvchilar guruh bo'lib vazifa bajarish va bir-biri bilan hamkorlik qilishni o'rganishadi. Bu xususiyat, o'quvchilarning ijtimoiy hamkorlik, qo'shnilar bilan ishlash va jamoatchilikni rivojlantirish imkonini be-

radi. O'quvchining iqtidorini oshirish ham bu texnologiyada katta ahamiyatga ega. Bu usul, o'quvchilarning iqtidorini va qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. O'quvchilar, o'zlarining qiziqtirgan sohalarda o'zlashtirish va o'z fikrlarini ifoda qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Muammoga asoslangan ta'limda o'quvchilarni nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq qilish va ularning o'rganish jarayonida amaliyot bilan bog'liqlikni aniqlashga yordam beradi. Bu usul, o'quvchilarning o'z mehnatlarini va o'zlashtirishlarini amaliyotga tatbiq qilish imkonini beradi. Ushbu texnologiyaning yana bir afzalligi o'quvchilarning muhokama qilish, fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga asoslangan bo'lishidir. O'quvchilar, muhokama qilish va argumentlarni rivojlantirish jarayonlarida o'z fikrlarini ifoda qilishni o'rganishadi.

Muammoga asoslangan ta'limning muhim bir kamchiligi, o'quvchilarning ijodiy fikrlash va o'zlashtirish jarayonlariga muvofiq tarbiya muhitini o'rnatishning qiyinliklari bo'lishi mumkin. O'quvchilar uchun o'z fikrlarini ifoda qilish va qo'shnilar bilan ishlash imkoniyatlarini beruvchi tinchlik va qo'llab-quvvatlash muhitining yaratilishi kerak. Bu kamchiliklar, muammoga asoslangan ta'limning amaliyotga tatbiq etilishi va natijalarni o'rganish jarayonlarida muammo yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, bu usulni amaliyotda tashkil qilish va muammolarini hal qilish uchun murojaat qilinadigan yo'nalishlar va strategiyalar kerak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni 5-bob "Pedagog xodimlarning majburiyatlari" 46-moddasida "O'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi ..." deb belgilab berilgan [1]. Umumta'lim maktablari o'qituvchilari hozirgi vaqtda bir yil davomida 36 soat onlayn yoki offlayn o'qib 18 ball kreditli sertifikatga ega bo'lishayapti. 36 soat davomida o'qituvchi pedagogning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik, o'zini-o'zi rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari, pedagog mas'uliyati va moslashuvchanlik, inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari, ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari, fandagi yangiliklar, fanni o'qitishning dolzarb masalalari, o'quvchilar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari modullari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni zamonaviy metodikalar asosida ularning kasbiy faoliyatiga doir kompetentligini rivojlantirishdan iboratdir [3].

Tinglovchilar bu davrda xorijiy metodikalar, yangi ta'lim texnologiyalari, didaktik o'yinlar hamda treninglarni tashkil etishni o'rganishadi. O'qituvchilarni darslarda mustaqil ishlashga va mustaqil fikrlashlari uchun ularga darslarda turli topshiriqlar beriladi, ko'rgazmali va tarqatma materiallar beriladi. Darslar tashkil qilinishida albatta XXI asr ko'nikmalarini singdirishdan boshlanadi. Zamonaviy ta'limda XXI asr ko'nikmalarisiz o'qituvchi ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatishi katta muammo sifatida qaralmoqda. Xo'sh, XXI asr ko'nikmalariga qanday ko'nikmalarni kiritishimiz mumkin. Undan avval zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan biri, ya'ni "Muammoga asoslangan ta'lim"dir. Muammoga asoslangan ta'limda 8 ta muhim element bo'lib, ular quyidagilardir: o'quv dasturi tarkibi; XXI asr mahorati (ko'nikmalar); bilishi kerak; yo'naltiruvchi savollar; o'quvchi fikri va tanlovi; qiyin (chuqurlashtirilgan) savollar; bir-birini kuzatish va tahlil qilish; o'quvchilar tomonidan taqdim etiladigan mahsulot (amaliy dars, taqdimot, vosita).

Zamonaviy dars tashkil qilishimizda mana shu muammoli ta'limning 8 ta elementlarga e'tibor berib tashkil etiladi, ayniqsa XXI asr ko'nikmalari ahamiyatli molikdir. XXI asr ko'nikmalarini egallagan o'quvchi zamon talabidagi barkamol avlod, kelajagimiz quruvchi bo'lib etishadi. XXI asr ko'nikmalari (4K) tortta bo'lib ular kommunikativlik, kollobaratsiya, kreativlik va kritik fikrlashlardir. Mana shu elementlar va ko'nikmalar singdirilgan texnologik xaritaning sizlarga tavsiya etamiz.

DARS REJASI

Sinf: Andragogika	Fan: Fandagi yangiliklar, fanni o'qitishning dolzarb masalalari	Sana:
--------------------------	--	--------------

Mavzu: Boshlang'ich ta'limning ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha dolzarb muammolar (ma'ruza)	Juftlik:
---	-----------------

Kerakli jihozlar: taqdimot, tarqatma topshiriqlar, to'plamlar		O'quv maqsadi: O'qituvchi ilmiy-metodik maqolalardan fanni o'qitishda foydalanish	
Dars bosqichlari	Kalit so'zlar	O'rganish materiallari, amalga oshiriladigan ishlar	Izoh
1-bosqich (15 daqiqa) Kirish	Salomlashish, mavzu, boshlash, guruhlash, XXI asr ko'nikmalari	- dars boshlanishidan avval 5 ta guruhga bo'lish; - salomlashish; - tanishuv; - ta'limdagi yangiliklar, ixtiro va kashfiyotlar, maqola va dissertatsiyalar haqida ma'lumot; -o'quv maqsadiga yo'naltiruvchi savollar; -tinglovchilarga darsning o'quv maqsadini tanishtirib: "o'qituvchi ilmiy-metodik maqolalardan fanni o'qitishda foydalanish" muammosini qo'yish. XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish ustida ishlash lozimligi ta'kidlanadi.	
2-bosqich (10 daqiqa)	Trening o'tkazish. Asosiy maqsad: kreativlik	Savol: 1) "Darsga qaysi transportda keldingiz?"; 2) "Nima uchun shu transportni tanladingiz?"	

3-bosqich (35 daqiqa) Asosiy qism. Muammoga yechim topish. “o‘qituvchi ilmiy maqolalardan foydalana olish va o‘z faoliyatida ishlata olish?”	Maqola, adabiyot, jurnal, ilmiy maqola Gururhlarga Topshiriq berilishida ularning javobidan so‘ng baholanishi eslatib o‘tiladi	Topshiriqlar jamoada ishlanadi. 1. Jurnal haqida ma’lumot bering va tanlagan maqolangizni tartibini aniqlang? (Kommunikativlik) 2. Siz tanlagan maqola boshqa maqolalardan qaysi jihati bilan farq qiladi? (kolloboratsiya) 3. Siz tanlagan maqolani o‘zingiz o‘tadigan aynan bitta mavzuga bog‘lang. (kreativlik) 4. Maqolada Sizga taalluqli bo‘lmagan qismi bormi va nima uchun? Munosabat bildiring? (kritik fikrlash)	
(10 daqiqa) RUBRIKA (baholash) Har bir guruh javob berib bo‘lgan vaqti baholanadi. Baholash ballari: 1, 2, 3 To‘liq javob berish – 3 ball O‘rtacha javob berish – 2 ball Qisman javob berish – 1 ball			
4-bosqich (5 daqiqa). Тренинг.	Dam olish daqiqasi. Kim chaqqon? O‘yini Qog‘oz, yo‘naltiruvchi so‘zlar, harakatlar	Diqqatni charxlovchi trening. Trening juftlikda bajartiriladi. Tez amalga oshiriluvchi harakatlar bilan bajartiriladi.	
5-bosqich (5 daqiqa) Xulosalash Uyga vazifa	Guruhlar yechimi tahlili Xulosa	Feedbek Guruhlarning faolligi va muammoga javoblari tahlillanadi va darsga xulosa qilinadi. Mavzu: o‘qituvchining pedagogik faoliyatida uzluksiz kasbiy rivojlanishining ahamiyati	

Umuman olganda ilmiy maqolalardan foydalanib, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘zining faniga tatbiq qila olish ko‘nikmasini shakllantirishda o‘qituvchi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari qanchalik kommunikativ bo‘lsa, jamoada ishlash ko‘nikmasi rivojlangan bo‘lsa, kreativ, tashabbuskor, ta‘lim tizimidagi yangiliklarga tayyor bo‘lsa, tanqidiy fikrlay olsa shu o‘qituvchining faoliyati sermazmun, o‘quvchilari esa yangicha fikrlaydigan bilimli insonlar bo‘lib ye-

tishadilar. Buning uchun o'qituvchi yuqorida berilgan tavsiyalar asosida doim o'z ustida ishlashi, o'qituvchi sifatida uzluksiz kasbiy ta'lim jarayonida rivojlantirib borishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish shaklidagi uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari guruhlar uchun ishchi-o'quv dasturi. Samarqand, 2023-yil
3. Baxronovna, R. M. (2023). Boshlang'ich ta'limda xorijiy metodikalar asosida o'qish savodxonligini oshirish . Fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi, 408-411. Retrieved from <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1196>
4. Raximqulova M. Ta'limga innovatsion yondashuv–o'qitish samaradorligini oshirish omili sifatida //fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi. – 2021. – C. 118-121.
5. Jamilovna N. D. Boshlang'ich ta'limdagi sinf rahbarlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning roli (malaka oshirish kurslar misolida) //Fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 124-129
6. Baxronovna, R. M. (2023). Boshlang'ich ta'limda xorijiy metodikalar asosida o'qish savodxonligini oshirish . Fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi, 408-411. Retrieved from <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1196>

To'rayeva Sanobar Sulaymonovna,
A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti

O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI IBORALAR BILAN BOYITISH USULLARI

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tili iboralarini o'qitish metodikasi qisman izohlangan. O'qish darslarida o'quvchilarda matnni leksik-frazeologik tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishda iboralar ma'nosi ustida ishlashning samarali usullari tavsiya etilgan. Shu bilan birga darsda zamonaviy texnologiyalardan ayrimlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Nutq, ibora, turg'un birikma, o'qish darslari, didaktik usullar, zamonaviy o'qitish texnologiyalari

Tilni tizimli o'rganishga asoslangan ona tili o'qitish metodikasi o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, lug'at boyligini oshirish, o'zgalar nutqini tinglay va anglay olish, fikrni aniq, ixcham ifodalash, so'z tanlash va uni o'rinli qo'llash, og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, fikr ifodalashda shakl va mazmun uyg'unligiga erishish, o'quvchi-ta'lim-o'qituvchi munosabatlarini to'g'ri tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning so'zlari bilan aytganda, "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oynayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur"

Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchining nutqini rivojlantirish muammosi doim dolzarb bo'lib kelgan. Hozirgi zamonda o'quvchi nutqini rivojlantirishning umumiy tendensiyalari, fanlararo darajadagi nutqni rivojlantirish g'oyasi, nutq aloqasi muammolari, maktab o'quvchilarining til kompetensiyasini shakllantirishning bir qancha metodik usullari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Kichik yoshdagi o'quvchining og'zaki va yozma nutqini shakllantirishning psixologik xususiyatlari, o'quvchi nutqining monologik va dialogik shakllari tahlil qilingan. Biroq, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchi nutqini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotganiga qaramay, kichik maktab yoshidagi bolalarning nutqi talab darajasida shakllangan emas. Shu sababli, bola nutqini rivojlantirish bo'yicha zamonaviy va uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etilgan metodik ishlar tizimini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega.

O'quvchilar nutqini o'stirishda o'qituvchining nutq madaniyati ham katta ahami-

yatga ega. O'qituvchi barcha darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda ifodali, ta'sirli so'zlashi, shuningdek, har doim o'quvchi daftoriga, barcha hujjatlarga husnixat va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozishi zarur. Bu bilan u bolalarni ifodali so'zlashga, xatosiz, chiroyli yozishga o'rgatadi, tilga sezgirlikni uyg'otadi. O'qish mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida esa o'quvchilarda nutq faoliyatining asosiy ko'rinishi bo'lgan ko'nikmalari, matn va kitob ustida ishlash, o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish nazarda tutiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini turg'un birikmalar – iboralar bilan boyitish, ular nutqining ta'sirchan va chiroyli bo'lishini ta'minlaydi. Darsliklarda va nutqda uchraydigan iboralar va ularning mazmuni haqida aksariyat o'quvchilar to'liq ma'lumotga ega emas. Shu sababli ham bugungi kunda so'zga teng kuchga ega iboralarning mazmuni, ularning omonimlik, sinonimlik va antonimlik xususiyatlarini, nutqda undan samarali foydalanishni o'quvchilar deyarli bilmaydi. Vaholanki, iboralar nutqning betakror bo'lishi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Biz o'quvchiga o'qilgan matn ustida ishlayotganimizda faqat matn mazmuni doirasida ishlamay, unda qo'llanilgan badiiy til vositalari va iboralarning mazmuni ustida alohida ishlab, o'quvchilarga amaliy ravishda tanishtirib borishimiz kerak. Aynan, mana shu metodik ishlar to'g'ri va o'rinli tashkil etilsagina, u o'z samarasini beradi. Ona tili va o'qish darslarida iboralarning mazmuni, iboraga teng bo'lgan so'zlar qatori, nutqda ulardan foydalanishning ahamiyati haqida o'quvchiga ko'proq tushuncha berish kerak. Dars mohiyatidan kelib chiqib, frazeologizmlarning kelib chiqish tarixi haqida ham qiziqarli ma'lumotlar berish mumkin.

Shu o'rinda tilshunoslikka oid adabiyotlarda iboraga berilgan ta'riflarga bir to'xtalib o'taylik: ikki va undan ortiq so'zdan tarkib topgan, yaxlit bir ko'chma ma'no ifodalaydigan, ta'sirchanlikka ega bo'lgan va ma'nosi bir so'zga teng keladigan so'zlar yoki gaplar ibora (frazeologik birlik) deyiladi: qo'y og'zidan cho'p olmagan (yuvosh), kapalagi uchib ketdi (cho'chidi), og'zing qani desa qulog'ini ko'rsatadi (lapashang) va h. Iboralar gap ichida bitta so'roqqa javob bo'ladi va yaxlit ko'rinishda bitta gap bo'lagi bo'lib keladi. Iboralar ko'proq so'zlashuv nutqida va badiiy asarlarda ishlatiladi. Ulardan unumli foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Til fanining iboralarni o'rganadigan bo'limi frazeologiya deb ataladi.

Iboralar o'rtasida ham o'zaro omonimlik, sinonimlik, antonimlik va paronimlik bo'lishi mumkin: omonim iboralar: dam bermoq (yel haydamoq) dam bermoq (hordiq bermoq); ko'z yummoq – o'lmoq, ko'z yummoq – e'tibor bermaslik; boshiga ko'tarmoq – e'zozlamoq, boshiga ko'tarmoq – to'polon qilmoq; sinonim iboralar: tegirmonga tushsa butun chiqadi – suvdan tiniq chiqadi; antonim iboralar: yerga urmoq – ko'kka ko'tarmoq; ko'ngli oq – ichi qora; paronim iboralar: yuragi tars yorilib ketayozdi – sabr-chidami tugamoq, yuragi qoq yorilayozdi – sevinganidan qattiq hayajonlanmoq. [2,29]

Berilgan tushunchalarni kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga o'rgatish birmuncha murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki nutqni darrov iboralar bilan boyitib bo'lmaydi. Buning uchun ma'lum vaqt va puxta ishlangan metodik ishlar tizimi kerak bo'ladi.

Har bir ibora ma'nosi ustida ishlash, uning nutqda qo'llanilishini ta'minlab beruv-

hi turli didaktik o‘yin va interfaol usullar majmuni ishlab chiqish zarur. Chunki, aynan shu usullar orqali o‘quvchi nutqini turg‘un birikmalar bilan boyitish mumkin. Chunonchi, “So‘zlar sehri”, “Ma‘nodoshimni top” kabi didaktik o‘yinlari, “Tushunchalar tahlili”, “SWOT tahlili”, “Charxpalak”, “Blum tasonomiasi” kabi texnologiyalar o‘quvchilarga iboralarni samarali o‘zlashtirilishini kafolatlaydi.

Bundan tashqari, sinfdan tashqari to‘garaklarda ham iboralarni o‘rgatishga doir mas-hg‘ulotlarni ishlab chiqish mumkin. Masalan, maktabda yoki sinfda “Iboralar olami” to‘garagini ham tashkil etish mumkin. To‘garakda o‘zbek va chet el iboralarni chog‘ishtirib o‘rgatish katta ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini iboralar bilan boyitish ishlab chiqilgan yangi dasturlarda ham o‘z aksini topgan.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta‘limda qo‘llaniladigan zamonaviy dars shakllari-dan “Konferensiya darsi”, “Ijodiy hisobotlar darsi”, “Paradokslar” darsi kabilar o‘quvchi faolligini rivojlantirishga qaratilgan. Chunki nutq faoliyatidagi faollik o‘quvchining mu-him belgisi sifatida xizmat qiladi. Shunday ekan, barkamol shaxs uchun bugungi kunda eng muhim belgilardan biri – chiroyli adabiy nutqqa ega bo‘lishidir. Ona tilimizdagi ibo-ralarni nutqda faol qo‘llash nafaqat o‘quvchining so‘z boyligini rivojlantiradi, balki nutq-ning obrazlilikini ta‘minlaydi, o‘quvchi dunyoqarashini kengaytiradi, badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shu bilan birga ona tiliga oid bo‘lmagan yangi bilimlarni o‘zlashtirish vositasi ham hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlang‘ich ta‘lim fanlari o‘quv dasturi, Xalq ta‘lim vazirligining 190-sonli buyrug‘i, 2017-yil, 3-iyun.
2. M.Hamroyev, Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. Sharq. 2006. 29-bet.
3. N.Sh.Turdiyeva va b. Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari. Toshkent.,Tafakkur. 2015.77-bet.
4. M. E. Toirova., o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, I qism. / M. E. Toirova – Toshkent. “Novda – Edutainm KASBIY KOMPETENTLIGINI

Musoyeva Lobar Muslitdinovna,
*A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy
rivojlantirish va yangi metodlarga o'rgatish
milliy tadqiqot instituti magistranti*

INTERNATIONAL ASSESSMENT IN PRIMARY EDUCATION

Abstract: *It is important to increase the quality of education by evaluating and monitoring the development of education and science. There is discussed the participation in international program for assessing the quality of primary education, the results of international assessment program PIRLS and the importance of foreign research in determining the priorities of the national education system.*

Key words: *PIRLS, education, results, quality, research, study.*

Uzbekistan pays out an enormous portion of its budget and attention to in education. It is necessary to attract best methods to improve the quality of education by evaluating and monitoring the development of education. For this reason, our government is analyzing foreign experiences, international assessment criteria. It is important to improve the assessment system based on the international standards, to do comparative analysis of the existing system, to closely cooperate with relevant international and foreign organizations and scientific research institutions. In this regard, the practical steps taken in the Republic of Uzbekistan include the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan PF-5712 of April 29, 2019 "On approval of the Concept of development of the public education system of the Republic of Uzbekistan until 2030"[1] and the Resolution of the Cabinet of Ministers' of the Republic of Uzbekistan "On measures to organize international research in the field of assessing the quality of education in the public education system".[2] Nowadays the international assessment programs such as PIRLS, TIMSS, PISA and TALIS and their studies are organized by the Organization for Economic Co-operation and Development (OECD) and the International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA) in cooperation with countries around the world on a regular basis. Since 1958, this organization has conducted more than thirty comparative studies on many topics related to the field of education. These studies are conducted on the basis of high technical and scientific requirements. Also, depending on the studied cases, effective methods such as observation are used along with case studies.

The PIRLS program, which is held every five years, was established in 2001 by the International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA International Association for the Evaluation of Educational Achievement) and conducted in the United States by the National Center for Education Statistics (NCES). The Progress in International Reading Literacy Study (PIRLS) is an international assessment and research project designed to measure reading achievement at the

fourth-grade level, as well as school and teacher practices related to instruction. Fourth-grade students complete a reading assessment and questionnaire that addresses students' attitudes toward reading and their reading habits. Moreover, questionnaires are given to students, teachers and school principals to gather information about students' school experiences in developing reading literacy.[17] PIRLS complements what we learn from national assessments by providing valuable benchmark information on how Uzbek students compare to students around the world. PIRLS allows educators, researchers and policymakers to examine other education systems for practices that could be suitable for Uzbekistan, and it contributes to ongoing discussions of ways to improve the quality of education of Uzbekistan. All responsibility for the organization of international research is assigned to Boston College, the USA. The tasks for research is prepared by Germany (Hamburg). The international evaluation program PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) is aimed at comparing the results of reading literacy in the national education system of different countries of the world. Researches were conducted in 2001, 2006, 2011, 2016, and 2021 is the fifth period of research. It is worth noting that the research conducted in 2021 allowed to evaluate the achievements of the countries that had been continuously participating since 2001 for 20 years.[3] .The number of countries participating in the PIRLS program is increasing every year. For example, 35 countries participated in the program in 2001, 40 in 2006, 45 in 2011, 50 in 2016, and 57 countries in 2021. Nationally representative random samples of approximately 4000 students from 150 to 200 schools participated in PIRLS 2021. PIRLS 2021 collected data from about 400,000 students, 380,000 parents, 20,000 teachers and 13,000 schools.

The 2021st results of an international study assessing the reading literacy of 4th grade students, PIRLS, have been released. Uzbekistan participated in it for the first time and took 49th place. In the first place is Singapore, in the last place is South Africa. As we have mentioned before, Uzbekistan participated in this program for the first time and scored 437 points, which is significantly less than the average score accepted in the PIRLS program (500 points), and took 49th place among 57 countries.

Rankings and average scores of some countries participating in the study: [5]

Place	Country	Average score
1	Singapore	587
4	Russia	567
9	Finland	549
38	Kazakhstan	504
49	Uzbekistan	437
56	Morocco	372
57	South Africa	288

The authors of the Study divided the results into four groups according to the level of development of reading skills: low level - 400 points, average - 475 points, high - 550 points and advanced - 625. 70% of students in Uzbekistan were in the group with a low level of development of reading skills, 34% - average and 7% - high. There were no students with an advanced level of reading skills among the participants. In the research, girls recorded higher results than boys: the average dif-

ference between the results of girls and boys was 16 points. In Uzbekistan, this difference was 24 points (the average score for boys was 425, for girls - 449). A comparison of reading literacy by type of text (informational and fiction) showed that Uzbek students understand literary texts better than informational ones: the average score for literary texts was 438, for informational texts - 434. When it comes to comparing the reading skills, our students showed higher scores (441) in the skills of searching and interpreting explicit information (information given in explicit form). A relatively low result (430) was recorded for more complex skills - interpretation, integration (combining information) and evaluation. Overall, students in 15 countries, including the United States, Northern Ireland, Australia, Georgia, Ireland and Latvia, scored higher on complex reading skills. The study found that students' socio-economic background influences their academic performance. In Uzbekistan, there is also a noticeable difference between the results of children from families with high, middle and low socio-economic status which students from affluent families performed better. According to the study, school resources, discipline, and safety also influence student outcomes. It was informed that 49% of Uzbek students who took part in the study had resource problems, and 35% had moderate or serious discipline problems. Children who entered 1st grade in 2016 were involved in this research from Uzbekistan. 5,948 students took part from 180 schools in the country, as well as their parents, school principals and class teachers. Schools were selected randomly, taking into account such criteria as language of study, location of the school and number of students. [6]

Considering all this, the results from the study point towards the challenges, yet the opportunities for Uzbekistan to further improve quality of education in the country. Based on the lessons from the achievements of different countries in reforming different aspects of education, Uzbekistan may identify the right reforms suited for the country. Some of the International assessment program results should sometimes focus on include: [7]

- Reforming the curriculum, pedagogy and instructional time.
- Reforming National Assessment Surveys (NAS) to check the health of the education system quality.
- Reforming various aspects of teacher workforce development.
- Creating a friendly and enabling environment in school for learning through initiatives like the "Child Friendly Schools".
- Focus on school community, including parents and family of students in creating more awareness and accountability about school outcomes.
- Focus on improving the "poor school" - both resource-wise as well as performance wise.

This study also points out several gaps in empirical evidence in the country regarding quality of education. There is a need to explore and understand some of these issues in detail. This include: 1. Study on instructional time and quality:

Learning effectiveness depends on what tasks students and teachers do in classrooms, how they do them and how much time is spent doing them. Research shows that at the primary level, effective learning time, class organization and management, teaching strategies and instruction, assessments and teacher expectations are significant factors in improving student performance.

2. Exploring Teacher Quality Further: Teacher quality is difficult to define and measure. It depends not only on observable characteristics-education, training and experience, but also on the behavior of teachers and the nature of their interaction with children inside classrooms. Te-

acher training, pedagogical support system, recruitment standards and pay relative to equivalent professional groups determine both the kinds of people who become teachers and their incentives and motivation to perform within the system. Policy makers will have to think about and initiate changes along these dimensions to improve teacher effectiveness to attain acceptable learning outcomes. (Goyal, 2009).[8] As a monitoring and evaluation strategy, impact evaluations of innovations in these areas can be useful in knowing which strategies are effective and cost-efficient. Nonetheless, the data reveal some areas to target for strengthening as our nation continues to strive to build a quality and equitable education system for all students.

References:

1. Law of the Republic of Uzbekistan. (2020). On education, No. LRU-637, September 23, 2020. Retrieved from <https://lex.uz/>
2. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. (2019). On approval of the regulations on the Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan, No. 146, February 20, 2019.
3. Progress in International Reading Literacy Study. (n.d.). Retrieved from <https://pirls.bc.edu/>
4. Gazeta.Uz *Узбекистан в исследовании PIRLS занял 49-е место среди 57 стран. Что оно показало? – Новости Узбекистана – Газета.uz* (gazeta.uz)
5. Barber, M. And M. Mourshed (2007): “How the World’s Best Performing School Systems come out on top”, mckinsey & Company.
6. PIRLS 2021 International Results in Reading - About PIRLS 2021 - PIRLS 2021
7. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimini baholashda xalqaro baholash tadqiqotlarining ahamiyati va afzalliklari (cyberleninka.ru)
8. Assessment Strategies for Elementary Education (uncp.edu)
9. O'quvchilar bilimini baholash (advice.uz)
10. Yasvin, V. Maktab rivojlanishini loyihalash.
11. Dyukov, maktabni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishning nazariy va uslubiy asoslari. [Internet resurs] // <http://pedsovet.org/komponent/>.
12. Dilshoda Jalilova. Boshlang'ich ta'lim o'ituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tarkibiy qismlarining mazmun-mohiyati. “o'zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari” xalqaro ilmiy amaliy anjumani 2022-yil 30-noyabr. 839-842-betlar. (<https://doi.org/10.5281/zenodo.7377842>)
13. Madinaxon Alimova Iskandar qizi, Egamberdiev n.b. The importance of science and education in developing design ability in preschool and primary school children. Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 4 april 2023.
14. <https://xs.uz/uzkr/post/uzbekiston>
15. <https://www.uzedu.uz/uz/pirls>
16. <http://scientists.uz>
17. Progress in International Reading Literacy Study (PIRLS) - Overview (ed.gov)

Yusupova Mahbuba Bahodir qizi,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
“Ta’lim muassasalarining boshqaruvi” yo’nalishi
1-kurs magistranti

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INGLIZ TILI SAVODXONLIGINI BAHOLASHNING INNOVATSION USULLARI

Annotatsiya: Maqolada o‘quv faoliyatini tashkil etishda o‘quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirish bilan bog‘liq dolzarb muammo ko‘rib chiqiladi. Maktabda mazkur o‘qitishning maqsadga muvofiqligi, har qanday faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ularga “to‘g‘ri” savollarni berishga o‘rgatishda yordam beradigan o‘quvchilarning tafakkurini o‘zgartirish usuli tasvirlangan. Shuningdek, buni amalga oshiradigan tamoyillar va yondashuvlarni, funksional savodxonligini shakllantirish va o‘quvchilar nafaqat maktabda balki hayot davomida axborot bilan ishlash, kirishish, rejalashtirish, malakali amalga oshirish va har qanday faoliyat natijalarini baholashni tavsiflaydi.

Kalit so‘zlar: O‘quvchilarning funksional savodxonligi, o‘quv va tadqiqot faoliyati, funksional savodxonlikni shakllantirish.

Kirish

Zamonaviy dunyoda chet tili nafaqat muloqot vositasi balki o‘rganish va ishlash uchun muhim vositaga aylanib bormoqda. Ko‘pchilik odamlar kundalik hayotida chet tilidan foydalanish zaruratiga duch kelishadi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilishda, kompyuter bilan ishlashda, o‘qish uchun ma’lumot izlashda, horijiy hamkorlar bilan hamkorlik qilishda, xalqaro miqyosidagi tanlovlar va musobaqalarda ishtirok etishda va hokazo. Chet tilini bilish bizga butun hayotimiz ya’ni umr bo‘yi o‘rgangan narsalarimizning maydonini kengaytirishimizga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda chet tilini o‘qitishni yanada takomillashtirish bu o‘quvchilarning qiziquvchanligiga, ularning turli muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan majud ko‘nikma va o‘quvchilarning ta’lim motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Materiallar va metodlar

Maktab ta’limining zamonaviy jamiyat talablarga mos kelmasligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida funksional savodxonlikni rivojlantirish muhimligini belgilaydi. “Savodxonlik” haqidagi zamonaviy g‘oyalar nafaqat qobiliyatni nazarda tutadi balki o‘qish, hisoblash, yozish, tahlil qilish, tahlil qilish ko‘nikmalarini egallash va qo‘llash, sintez, tizimlashtirish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashni ham nazarda tutadi. Bu sifatli ta’lim olish va hayotda o‘zini-o‘zi anglash uchun yordam beradi. A.A.Leontiev o‘z izlanishlari natijasida funksional savodxonlikka quyidagicha ta’rif bergan: “Agar rasmiy savodxonlik o‘qish ko‘nikma va malakalarini egallash bo‘lsa, funksional savodxonlik bu

shaxsning real matndan ma'lumot olish, uni tushunish uchun erkin fikr yurita olish mahoratidan foydalana olish qobiliyatidir”.


Natijalar va muhokamalar

O'quv jarayonini tashkil etishda o'qituvchilar uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari-ning funksional savodxonligini shakllantirish va keyinchalik uni rivojlantirishda hissa qo'shadigan shart-sharoitlarni quyidagilar yaratadi:

1. Tajriba almashish uchun o'qituvchilarning o'zaro hamkorligini kuchaytirish.
2. Har xil turdagi matnlarga tanqidiy munosabatni shakllantirish.
3. Turli xil ma'lumot manbalaridan ham an'anaviy ham darslik, o'quv filmi va boshqalar, zamonaviy axborot manbalaridan internet, kanallar, videolar, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish.
4. Meta-mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga ko'proq e'tibor berish (gipotezalarni shakllantirish, maqsadlarni belgilash, umumlashtirish, tahlil qilish, sintez qilish, tizimlashtirish, prognozlash va boshqalar).

Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlikni shakllantirish o'quvchilarning izlanish qobiliyatini uyg'otadi. O'quvchilar izlanish olib borishi orqali yangi bilimlarga ega bo'lishadi, bu esa ularga voqelikni o'rganish, fikrlash qobiliyatining rivojlanishi kabi imkoniyatni beradi. O'qituvchilar diqqat markazida maktab o'quvchilari tomonidan mustaqil izlanishlar olib borishda mavzu bo'yicha ma'lumot va rejalashtirish, shuningdek, mavzuni chuqurroq tushunish bo'yicha o'rganish (jarayon, mavzu, hodisa). Bunday o'rganish o'z-o'zini boshqarishi mumkin, chunki ideal holda bu jarayon o'quvchilar tomonidan qabul qilingan qarorlar bilan tartibga solinadi mustaqil ravishda albatta o'qituvchining ko'magi, rahbarligi bilan amalga oshiriladi. Tajribali ta'lim o'rganilayotgan hodisaga singdirilgan holda o'quv jarayonini tashkil qilish imkonini beradi. Kolb o'zining nazariyasida asosiy e'tiborni o'quvchining shaxsiy rivojlanishi va istiqboliga qaratadi. Bunda tajribali ta'lim – o'rganishning eng ajoyib usuli hisoblanadi, chunki u o'quvchilarga bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi. Tajribali o'rganish faol ishtirok etish, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muammolarni hal qilish, hamkorlik va muloqot qobiliyatlarini shakllantiradi. An'anaviy va didaktik metodlarga ma'ruza, darslik va uyga vazifa kiradi va ushbu usullar faktlar va tushunchalarni o'rgatadi lekin ularni real vaziyatlarda qanday qo'llay olish mumkin? An'anaviy va didaktik usullardan farqli o'laroq, o'quvchi tajribali o'rganishda o'z ta'lim jarayonini boshqarishga mas'ul hisoblanadi. Bunda o'rganish to'g'ridan-to'g'ri tajriba orqali amalga oshiriladi. O'quvchilar o'z tajribalariga asoslanib o'rganadilar.

Tajribali ta'lim 4 bosqichdan iborat:



Bu yerda asosiy narsa o'qishni diqqat bilan rejalashtirishdir. Qanday qilib o'rgatish kerak ilmiy savollarni to'g'ri qo'yish (shakllantirish), tadqiqot rejasini tuzish, berish dillarga ustuvorlik, xulosalar (tushuntirish) shakllantirish va ular bilan bog'lash ilmiy bilimlardir. So'rov orqali o'rganish o'quvchilarda o'z-o'zini tashkil qilish, o'z-o'zini tartibga solish va o'z taqdirini o'zi belgilash kabi izlanish ko'nikmalarini yaxshiroq rivojlantirishga yordam beradi. Samarali ta'lim so'rovi nafaqat tadqiqot ko'nikmalarini, balki hamkorlikni ham rivojlantiradi o'rganish, muloqot qilish va fikrlash tanqidiy va muammoli fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Zamonaviy jamiytda o'quvchilar mustaqil harakat qila olishlari, har qanday faoliyatni rejalashtira olishlari va amalga oshirishni udalalay olishlari kerak. Buning uchun o'rganishda o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish kerak, bunda o'quvchilarning shaxsiyatini ehtiyojlarini, qobiliyatlarini, qiziqishlarini, intilishlarini, fikrlash, psixologik va pedagogik xususiyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv bizga maktab o'quvchilari uchun zarur bo'lgan ko'nikma va fazilatlarni, ya'ni tanqidiy fikrlash, qat'iyatlilik, mustaqillik va o'ziga ishonchini rivojlantirishga imkon beradi.

Xulosa

Xulosa qiladigan bo'lsam, ta'lim va tadqiqot faoliyatini o'rganish nafaqat maktabda balki hayot davomida baholash, rejalashtirish, malakali amalga oshirish va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan har qanday faoliyat natijalarini baholashda yordam beradi. Shunday qilib, olingan bilim, ko'nikma va malakalar, real hayotda zarur bo'lgan ko'nikmalar: o'z e'tiqodi va dunyoqarashiga ega faol va ijodkor shaxs bo'lish, hayot davomida o'z salohiyatini rivojlantirish, muhim vaziyatlarda muvozanatni saqlay olish, hayot sifatini yaxshilash, o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish vositasiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bezuklandikov K.E, Kruse B.A, Melekhina E.S Ta'lim tadqiqotlari ingliz tili darslarida yoshlarning o'quv va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish vositasi sifatida // Til va madaniyat – 2019 yil
2. Veryaev A.A, Nechunaeva M.N, Tatarnikova G.V Talabalarning funksional savodxonligi: g'oyalar, tanqidiy tahlil, o'lchov // Oltoy davlati yangiliklari universiteti – 2013
3. Bezukladnikov K.E, Karpushina E.E, Nelzina E.N O'rta maktabda chet tilini erta o'rganish bo'yicha tashkilotga qo'yiladigan talablar: ilmiy uslub, materiallar // PDPU – Perm, 2017
4. Melekhina E.S, Loginova T.G Sinfda tadqiqot faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining o'рни // Pedagogika va psixologiya – 2020

Eshonqulov Allayor Abdusamatovich,
*Sirdaryo viloyati Guliston tumani “Nurli maskan”
Ixtisoslashtirilgan maktabning ma’naviy-ma’rifiy
Ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari,
Safarova Nurxon Abdusamat qizi,
*TDPU “Ta’lim muassasalarini boshqarish”
yo’nalishi magistranti**

INKLYUZIV TA’LIM MUASSASALARIDA SIFATLI PEDAGOGIK MUHITNI YARATISH VA BOSHQARISH

Annotatsiya: *Inklyuziv ta’lim muassasasida o’quv-tarbiya jarayonini tashkil etish, shuningdek ko’rishda nuqsoni bo’lgan bolalar inklyuziv ta’limida dars jarayonini moslashtirish. Ta’lim mazmunini bolalar ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirgan holda sinf va guruh o’quvchilarida inklyuziv ta’lim tushunchasini rivojlantirish. Inklyuziv ta’limning mohiyati. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’lim muassasalarida o’qitishda maktab va maktab rahbariyatining vazifasi. Inklyuziv ta’limni boshqarish tamoyillari. Maxsus yordamga muhtoj bo’lgan bolalarni ta’lim tizimiga jalb etishda ota-onalar, oila va jamoatchilik bilan ishlash masalalari. Inklyuziv ta’lim tizimida faoliyat ko’rsatuvchi resurs o’qituvchi va ijtimoiy pedagogning vazifalari va maqsadlari. Inklyuziv ta’lim o’qituvchisining darsni tashkil qilishdagi faoliyati. Inklyuziv ta’lim bilan tibbiy-pedagogik – ijtimoiy modeli.*

Kalit so’zlar: *Inklyuziv ta’lim, boshqaruv, ijtimoiy-pedagog, korreksion yordam, ta’lim sharoiti, integratsiya, rehabilitatsiya, ta’limda uzviylik, huquqiy asoslari.*

Hozirgi kunda mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs qilib voyaga yetkazish dolzarb masalalardan biri bo’lib kelmoqda. Shu munosabat bilan mamlakatimizda jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonli, jumladan, zaif eshituvchi va ko’ruvchi bo’lgan bolalar shaxsini shakllantirish va ijtimoiy hayotga moslashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Inklyuziv ta’limning huquqiy asoslariga e’tibor qaratadigan bo’lsak, bmtning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, bmtning aqliy jihatdan orqada qolgan shaxslarning huquqlari to’g’risidagi Deklaratsiyasi, imkoniyati cheklangan bolalar huquqlari to’g’risidagi Deklaratsiya, BMTning Osiyo va Okeaniya mamlakatlari Imkoniyati cheklangan bolalar huquqlarini muhofaza qilish chora-tadbirlari dasturi, Imkoniyati cheklangan bolalar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash bo’yicha Standart qoidalar, “Ta’lim hamma uchun” Salamanka Bayonoti, Dakar Deklaratsiyasi “Bolalar huquqlari to’g’risida”gi konvensiya, “Ta’lim hamma uchun” Umumjahon Deklaratsiyasi va O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, O’zbekiston Respublikasining “O’zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy himoya qilish to’g’risida”gi Qonuni, shuningdek O’zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatla-

ri to'g'risida"gi Qonuni yurtimizda har bir bolaning ta'lim olish huquqini kafolatlovchi qonunlar.

Bundan tashqari, "Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun Inklyuziv ta'lim to'g'risidagi muvaqqat Nizomi" inklyuziv ta'lim sifatini takomillashtirishga qaratilayotgan e'tiborning huquqiy namunasidir. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida inklyuziv ta'lim sifatini rivojlantirish vazifalari qo'yilganligi hamda maktabgacha va maktab ta'lim tizimini rivojlantirish Konsepsiyasida inklyuziv ta'limning o'rni, uni sifatli darajada tashkil etish va amalga oshirish biz pedagoglarni yanada mas'uliyatli bo'lishga undaydi.

Shu harakatlar doirasida va inklyuziv ta'lim sohasida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan:

Vazirlik tasarrufidagi o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi tuzilmasi tarkibida "Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi bo'limi" tashkil etildi.

2021-2022-o'quv yilidan boshlab respublika bo'yicha tajriba-sinov tariqasida 31 ta umumta'lim maktablarida 46 ta inklyuziv sinflar tashkil etilib, ularda 87 nafar; 4 ta korreksion maktabdagi 4 ta sinflarda 35 nafar bola ta'limga jalb etildi.

2022-2023-o'quv yilida inklyuziv ta'lim joriy etilgan umumta'lim maktablari soni 195 taga yetib, ularda 504 nafar imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limga qamrab olindi.

Tashkil etilgan ushbu inklyuziv sinflarda ta'lim olayotgan o'quvchilarga 2021-2022-o'quv yilida 51 nafar, 2022-2023-o'quv yilida esa 248 nafar pedagog biriktirildi.

Inklyuziv ta'lim tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirib borish va ko'lamini kengaytirish maqsadida maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023 yil 29 avgustdagi 274-sonli buyrug'i bilan 2023-2024-o'quv yilida inklyuziv ta'lim joriy etilishi tavsiya etilgan 390 ta maktabning qo'shimcha ro'yxati tasdiqlandi.

Ushbu ko'rsatkichlar respublikada barcha imkoniyat darajasi cheklangan bolalarni imkon qadar to'liq darajada ta'limga qamrab olinayotganini va ularni bilim olishiga qaratilgan e'tibor na'munasi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Inklyuziv ta'lim oldiga bir qator maqsad va vazifalar qo'yilgan bo'lib, ularni tashkil etish va to'g'ri yechim topish muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi navbatda, ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni va tasavvur doirasini kengaytirish kabilarni amalga oshirish, shuningdek o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash nazarda tutiladi.

Ikkinchidan, jamiyatning va oilaning faol ishtirokida imkoniyati cheklangan bola va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish va o'z navbatida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni ta'limda o'z huquqlaridan foydalanishga imkoniyat yaratish ularni ta'lim olishida va kerakli darajada bilim egasi bo'lib yetishida muhim ro'l o'ynaydi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni psixologik qo'l-

lab-quvvatlash, ularga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirish, ularni nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy jihatlarini shakllantirishga ham yordam beradi.

Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuqori malakali va maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashqari, inklyuziv sinf o'qituvchisi defektlogiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak. Inklyuziv ta'lim joriy qilingan muassasalarda ta'lim jarayonini tashkil etish tamoyillari bo'lib, ular quyidagilarni tashkil qiladi.

- Maxsus ta'lim tamoyillari:
- Korreksion yo'naltirilganligi;
- Nuqsonini aniqlash, ta'lim berishda kompleks, ya'ni klinik-genetik, neyrofiziologik, psixologik va pedagogik yondoshish;
- Nuqsonli funktsiya darajasini erta aniqlab, tibbiy-psixologik jihatdan korreksiyalash;
- Umumiy o'rta ma'lumot berish, kasbga yo'naltirish va ijtimoiy hayotga tayyorlashga moslashtirish;
- Differensial tabaqalashtirish va alohida yondashish;
- Ta'limning uzliksizligini ta'minlash.

Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi, ularni o'qish va yozishga o'rgatish muammolarini ijtimoiy hayotga moslashtirishga ko'mak berish, bu ishlarini samarali amalga oshirish, maxsus soha xodimlari hamda nogiron bolalar ota-onalariga amaliy yordam berish kabi mas'uliyatli ishlar jumlasiga kiradi. Maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim-tarbiyasida teng huquqlilik muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ammo hozirda ham juda ko'plab bolalar turli xildagi sabablarga ko'ra, ta'limdan chetda qolib ketmoqda. Inklyuziv ta'limga jalb qilishning tashkiliy, ilmiy-uslubiy choralarini ko'rib chiqish, ya'ni mutaxassislarni tayyorlash, malakasini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Alohida yordamga muxtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb qilishning ikki asosiy omili bor:

Birinchidan, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar ham sog'lom bolalar bilan birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus ehtiyojli bolalar ijtimoiy tomondan himoyalanganlar, sog'lom bolalar esa ijtimoiy adolat va tenglikning tan olinishi buyukligini, imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan yanada mehribon va e'tibor bilan munosabatda bo'lishni his etadilar.

Ikkinchidan, imkoniyati cheklangan bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan yonma-yon o'qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligi.

Bu ishlarning muvaffaqiyati har bir davlatning qonunlarida aks etilishi zarur. Chunki, qonunlar, ularni kerakli moddiy va ma'naviy resurslar bilan ta'minlanishini amalga oshirishni kafolatlaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar – o'quvchilarga ta'lim berishda, ota-onalar, mahallalar, pedagoglar, mutaxassislar hamkorligida faoliyat ko'rsatishlari talab qilinadi va majburiy shart hisoblanadi.

Alohida ehtiyojli bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'z qobiliyati darajasida faoliyat ko'rsatish, ta'lim olishi, kasb-hunar o'rganishi va rivojlanishi mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus yordamga muhtoj bo-

lalar ijtimoiy tomondan himoyalana dilar, ijtimoiy hayotda teng huquqliligini, o'z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari mumkinligini his etadilar.

Alohida ehtiyojli bolalar uchun tashkil etilgan segregatsion-maxsus, yopiq turdagi muassasalarda bolalardagi mavjud nuqsonlar ancha-muncha yuqori darajada korreksiya-lansa-da, ammo bolalarning maktab jamoasidagi tor doiraga tushib qolishlari natijasida ijtimoiy jamiyatga moslashishi, kelajakda normal rivojlanishdagi bolalalar qatori faoliyat yuritishlarida juda katta qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bundan tashqari, maxsus ehtiyojli bolalarni barcha qatori keng jamoatchilik davrasidan ajratgan holda yashashlari ham demokratiya nuqtai nazariga to'g'ri kelmaydi. Chunki, maxsus ehtiyojli bolalar ham barcha qatori haq-huquqlarga ega.

Inklyuziv ta'lim masalasi 90-yillarning diqqat markazida bo'lib qoldi. Janubiy Afrika va Janubiy Sharqiy Osiyodagi integratsiyalashgan ta'lim dasturlari asosida yakuniy ish hujjatlari o'rganilib chiqildi. Natijada barcha davlatlarning Ta'lim vazirliklarida maxsus maktablar qoshidagi alohida bo'limlarga muqobil sifatida inklyuziv ishlash uslublari qabul qilindi.

Jamiyatdagi integratsiya jarayonida insonning integratsiya – alohida elementlarni yig'ib, ularni birlashtirish, yaxlit holga keltirish deb tushunish mumkin. Shuningdek, ko'pchilik olim va metodistlar integratsiya muammosining mazmun-mohiyatini aniqlash bo'yicha fikr berganlar. Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yish va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqea-hodisalarni bir necha tomondan ko'rishi muhim: mantiqiy va emotsional tomondan badiiy asarda hamda ilmiy-ommabop maqolada biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtai nazaridan va boshqalar. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda yashirin aloqadorlik va bog'lanishlarni aniqlay bilish, fanlararo bog'lanish, ya'ni uzviylikni ta'minlash, bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Chunki, fanlararo aloqadorlik ta'minlangan holda darsni tashkil qila olgan o'qituvchi o'quvchilarda o'zining faniga bo'lgan qiziqishni oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o'zlashtirishga yordam beradi. Fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o'quv-tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli darajada ortadi. O'quvchilarda dialektik tarzda fikrlash ko'nikmalari shakllandi. Shu bilan bir qatorda o'quv fanlariga oid bilim va qiziqishlarini rivojlantirishning muhim shartidir. O'quv materialini mavzular bo'yicha tahlil etish yo'li bilan turli o'quv predmetlarini qaysi mavzulari bir-biri bilan aloqadorligi yuzaki ravishda aniqlansa, tarkibiy tahlil etish orqali o'quv materialining tashkil etuvchi tushunchalari, dalillari, qonuniyatlari, hukm va xulosalari, tasavvurlari orasidagi aloqadorlik o'rnatildi. Predmetlararo aloqadorlik prinsipiga amal qilish ta'lim-tarbiya sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, bunday aloqadorlik o'rganilayotgan ob'yektni har tomonlama chuqur o'rganishni ta'minlaydi. U pedagogikada uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik va integrativ aloqadorlik darajalarida talqin etiladi. Uzviylik-o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarning asta-sekinlik bilan kengayib, chuqurlashib, mukamallashib borishini ko'zda tutadi. Predmetlararo aloqadorlik – o'zining mohiyatiga ko'ra keng tushuncha bo'lib, o'rganilayotgan

obyektning turli jihatlari va xususiyatlarini har tomonlama ochib berilishini nazarda tutadi. O'zaro aloqadorlik – mohiyatiga ko'ra ikki o'quv predmetlari orasidagi aloqadorlikni, ya'ni birinchi o'quv predmeti bo'yicha o'zlashtirilgan bilim va ish-harakat usullarini ikkinchisida qo'llashni va aksincha qo'llanishini ifodalaydi. Integrativ aloqadorlik – nisbatan yuqori darajali aloqadorlik bo'lib, avval zikr etilganlaridan o'quv dasturiga va maqsadga muvofiq kiritilganligi bilan farq qiladi, albatta, uni ta'minlashni talab etadi. Natijada obyekt haqida tizimli mukammal bilim, ish-harakat usullari shakllanishiga imkon yaratadi. Predmetlararo aloqadorlik o'rnatish uchun o'quv materialini mazmuni mantiqan, psixologik, didaktik, metodik va boshqa jihatlardan tahlil etiladi. Pedagogik amaliyotda o'quv materialini mavzular bo'yicha va tarkibiy tahlil etish usullaridan keng foydalaniladi. O'quv materialini mavzular bo'yicha tahlil etish yo'li bilan turli o'quv predmetlarini qaysi mavzulari bir-biri bilan aloqadorligi yuzaki ravishda aniqlansa, tarkibiy tahlil etish orqali o'quv materialining tashkil etuvchi tushunchalari, dalillari, qonuniyatlari, hukm va xulosalari, tasavvurlari orasidagi aloqadorlik o'rnatiladi. Aniqlangan predmetlararo aloqadorliklar sxematik jadval, verbal shakllarda qayd etiladi. Predmetlararo aloqadorlikning qanday shaklda qayd etilishi undan foydalanuvchining imkoniyatlariga bog'liq bo'lib, ularni fanlarni oson tushunishida va tasavvur qilishida yordam beradi.

Integratsiyalashgan ta'limda bolaga muammo sifatida qaraladi. Bu ta'lim tizimining quyidagicha shakllari mavjud:

Jismoniy integratsiya bu – imkoniyati cheklangan bola va imkoniyati cheklangan bola bo'lmagan bolalar o'rtasidagi jismoniy farqni kamaytirishga qaratilgan. Oddiy maktab bilan yonma-yon joyda imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus bo'lim yoki sinf tashkil qilish mumkin.

Funksional integratsiya bu – shakl imkoniyati cheklangan bola va imkoniyati cheklangan bola bo'lmagan bolalar o'rtasidagi funksional muammolarni kamaytirishga qaratilgan.

Ijtimoiy integratsiya bu – shakli ijtimoiy muammolarni kamaytirishga qaratilgan va u imkoniyati cheklangan bola hamda imkoniyati cheklangan bola bo'lmagan bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqani qo'llab-quvvatlaydi.

Inklyuziv ta'limda rehabilitatsiya bu tibbiy ahamiyati hisoblanib, organizmning buzilgan funksiyasini va bemorlar hamda imkoniyati cheklangan bolalarning mehnat qobiliyatini tiklashga qaratilgan tibbiy, pedagogik va ijtimoiy chora-tadbirlar majmuidir. Rehabilitatsiya imkoniyati cheklangan bolalarning tibbiy holati va imkoniyat darajasini o'rganib, ularni sog'lomlashtirish va kerakli tibbiy masalalari bo'yicha ish olib boradi.

Ta'lim tizimiga har bir bolani qamrab olish, ularni sifatli darajada ta'lim-tarbiya egasi sifatida kamol topishiga ko'mak berish, imkoniyati cheklangan bolalarni sog'lom bolalar kabi o'qitish, kasbga va hunarga yo'naltirish, kelajakda o'zini o'zi ta'minlay oladigan, mustaqil, kasb-hunar egasi sifatida yetishtirish nafaqat davlat, balki inklyuziv ta'lim sohasidagi pedagoglarning oldiga qo'yilgan ulkan maqsadidir. Ushbu maqsadni amalga oshirishda maqsadli strategiyalar tuzish va uni amalga oshirib, samarali natijaga erishish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: "o'zbekiston", 2017. – 48 b.
2. R.Sh.Shomahmudova "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslbuiy qo'llanma. Toshkent 2011 yil.
3. <https://uzedu.uz/y3/news/1271>

Alkarova Feruza Nazarbayevna,
A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BOSHLANGICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA STEM YONDASHUVNI QO'LLASHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: bu maqolada STEM texnologiyasi, bu zamonaviy o'qitish metodidan texnologiya darslarini o'qitishda foydalanishning hozirgi kundagi ahamiyati va imkoniyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: STEM texnologiyasi, texnologiya, kreativlik, muhandislik, STEM kasblari.

Texnologiya maktab dasturidagi juda muhim fanlardan biri bo'lib, faqat bilim beribgina qolmay, ijodiy qobiliyatlarni ham rivojlantiradi. Texnologiya darslari o'quvchilarning kelgusi hayotida kerak bo'ladigan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Hammamizga ma'lumki, nazariy fanlar kognitiv bilimlarni rivojlanishiga, amaliy fanlar esa psixomotorik bilim va ko'nikmalar rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Texnologiya darslarini mazmunli va o'quvchilar uchun qiziqarli qilib o'tish avvalo o'qituvchining pedagogik mahoratiga va uning kreativ fikrlashiga bog'liq. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan zamonaviy ta'lim texnologiyalari xilma xil bo'lib, ulardan eng mashxuri STEM texnologiyasidir.

STEM texnologiyasi an'anaviy ta'limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni ta'minlab beradi. Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, dars jarayonida o'quvchilar olgan bilimlarini faqat miyada saqlab qolmasdan, uni amaliyotda o'z qo'llari bilan bajarib ko'rishlari lozim bo'ladi. Aynan amaliyotda qo'llanilgan bilimlarga yaxshi o'zlashtiriladi. Chunki bugungi kun o'quvchisi uchun u bajarayotgan ishi yoki operatsiyaning natijasini ko'rish o'ta muhimdir.

Masalan, texnologiya darslarida daraxt barglaridan applikasiyani bajarish jarayonida kuzda barglarning sarg'ayishi sabablari, bunga ob-havoning ta'siri, barglarning simmetriyasi va assimetriyasi haqida ham bilimlar berib o'tish mumkin. Bunda o'quvchilar barglarni o'z qo'llari bilan ushlab ko'rib, simmetriya va assimetriya haqida tasavvurga ega bo'lishlari uchunajoyib imkoniyat bo'ladi. Shunda ular simmetriya va assimetriya faqatgina matematik termin emasligini, bu tabiatda go'zal ko'rinishda mavjudligini va uni qurilishda ham, texnologiyada ham, tasviriy san'atda ham juda muhim ekanligini tushunib boradilar.

STEM boshqa fanlarning har birida muhandislikni o'rganishni, kengaytirishni va muhandislikni kichik sinflarda, hatto boshlang'ich maktabda boshlashni qo'llab-quvvatlay-

di. O'quvchi o'zida nostandart fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida juda qo'l keladi.

STEM ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematikani bir-biriga bog'liq holda yaxshi o'zlashtirgan, o'rganganlarini amaliyotda qo'llay oladigan, kompyuterda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lgan, ham jamoaviy yaxshi ishlashni, ham mustaqil tashabbuslarni qoyillata oladigan kadrlar tayyorlashga qaratilgan ta'lim metodidir.

STEM texnologiyasi asosida o'qitish:

- o'quvchilarda matematika va tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishni faollashtiradi;
- texnika, robototexnika va loyihalash sohasida bilimlarga ega bo'lishlariga yordam beradi;
- ijodiy qobiliyatlar va kommunikativ ko'nikmalar rivojlanishiga sharoit yaratadi;
- o'quvchining salohiyatini va uning ma'lum bir kasbgabo'lgan qiziqishini erta aniqlash imkonini beradi.

STEM yo'nalishidagi kasblarda har bir fanni o'zlashtirish ahamiyatli. Masalan, liboslar bo'yicha dizayner endi shunchaki libos modeli eskizini chizish bilan shug'ullanibgina qolmay, bu eskizdagi fazoviy shakllar qanday yordamchi detallar, qanday texnologik ishlov berish jarayonlari asosida o'z shaklini saqlashi lozimligi haqida ham bosh qotiradi. Buning uchun undan bir vaqtning o'zida matematik, muhandislik, texnologik hamda tabiiy fanlarni birdek yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi talab etiladi. Shuning uchun STEM o'qitish tizimi boshqa yo'nalishlarga qaraganda biroz qiyinroq va mashaqqat talab qiladi.

Shu bilan bir qatorda, STEM texnologiyasining ahamiyati shundaki, hozirgi kundagi kasblarning ko'pi yaqin kelajakda avtomatik tarzda ishlaydigan robotlar tomonidan bajarilishi yoki butunlay keraksiz bo'lib qolishi mumkin. Texnologiyalar kundan kunga rivojlanyapti. Lekin shunday bo'lsa ham, yangi dasturiy ta'minot yaratish, kosmik kema uchun zarur moddalarni kashf qilish, qayta tiklanuvchi energiyalarni o'rganish, hali davosi yo'q kasalliklarga davo topish kabi qilinmagan ishlarni ham kimdir bajarishi kerak. STEM fanlarini yaxshi o'zlashtirish aynan mana shunday qiyin kasblarni eplay oladigan kadrlar tayyorlaydi.

Zamonaviy o'qituvchi o'quvchilarini doimiy ravishda rivojlanishga undashi va bunda ularga yo'l boshlovchi bo'la olishi lozim. Albatta, STEM fikrlash o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Bunda o'qituvchining fanni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lab o'ta olishi muhim. 'Nima qilsak, sen yasagan applikasiyadagi mashina qog'oz bo'ylab harakat qilishi mumkin? Bu mashina parta ustida harakatlanishi uchun unga nimalar qo'yilishi kerak deb o'ylaysan? Biz bu mashinani uchira olamizmi, bunga qanday erishish mumkin? Bu kabi savollarga balki ularda hali ilmiy yechimlar bo'lmasligi mumkin, chunki ular hali fizika qonuniyatlarini bilmaydilar va muhandis ham emaslar, ammo ular fikrlashni boshlaydilar, o'z fikrlari bilan bo'lishishni, tengdoshlari fikrlarini tinglashni o'rganadilar. Keltirilgan fikrlar asosida tajribalar o'tkazib ko'radilar, har bir muvaffaqiyatsizlikning yoki muvaffaqiyatning sababini tahlil qiladilar, xulosalar chiqaradilar. O'qituvchi esa bu xulosalarni umumlashtirib, o'quvchilarning intilishlarini rag'batlantiradi va ularga muvaffaqiyatga erishishning birdan bir yo'li bilim olish ekanligini uqtiradi. Yangi dasturning maqsadi ham aslida shunday, o'quvchilar bilim olishdan o'zlari manfaatdor bo'lishlari lozim.

Texnologiya darslarining eng muhim vazifalaridan biri o'quvchilarni mustaqil ravishda ish yoki operatsiyani bajarishga o'rgatishdan iborat. Bunda o'qituvchi ishni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma berishi, o'quvchini qiziqтира olishi va undan keyin esa ta'lim jarayonida kuzatuvchi roliga o'tishi kerak. O'quvchilarni yangilik yaratishga, kreativ fikrlashga undash, ularga motivatsiya bera olishi lozim. Va nihoyat, dars oxirida ya'ni, baholash jarayonida hamma o'quvchidan bir xil shablon natija talab qilish ham to'g'ri kelmaydi. Baholash jarayonida eng birinchi navbatta kreativlikka e'tibor qaratish, undan keyingi o'rinlarda esa ishning toza va ozoda bajarilganlini, texnologik ketma ketlikka amal qilinganligini, tugallanganligini inobatga olish kerak. Agar o'quvchidan namuna bilan bir xil natija talab qilinsa, unda fikrlashga ehtiyoj ham bo'lmaydi, o'z-o'zidan yangi g'oyalar ham shakllanmaydi, bu bilan biz qanchadan qancha bo'lajak olim yoki ixtirochilarni, rassom yoki muhandislarni kashf qilolmay qolgan bo'lishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Меҳнаттаълимида ўқувчилар ижодкорлик фаолиятини ташкил этишнинг уйғунлашган технологиялари: Монография, услубий йўналиш. –Т.: “Адабиёт учқунлари”, 2015. – 172 б.
2. Муслимов Н.А. ва б. Меҳнат таълими ўқитиш методикаси ва касб танлашга йўллаш: Дарслик. –Т., 2014. – 292 б
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/STEM_\(Fan,_texnologiya,_muhandislik_va_matematika\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/STEM_(Fan,_texnologiya,_muhandislik_va_matematika))
4. <https://prometheanworld.com.ua/ru/stem-obrazovanye-v-nachalnyh-klassah/>
5. <https://anrotech.ru/blog/stem-tekhnologii-dlya-nachalnoj-shkoly/>
6. <https://www.1urok.ru/categories/10/articles/56772>

Rayimova Farangiz Erkin qizi,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Umumiy pedagogika kafedrasi Ta'lim muassasalari
Boshqaruvi yo'nalishi magistranti.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KIRITILAYOTGAN YANGI USUL VA METODLAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda boshlang'ich sinflarni o'qitishda kiritilayotgan yangi usul va pedagogik metodlarning qo'llanilishi haqida fikr yuritilgan. Ta'lim jarayonida turli interfaol usullarni qo'llashda o'qituvchida mavjud bo'lishi kerak bo'lgan kompetensiyani shakllantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan hamda bir nechta misollar keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *science, STEAM, o'quv loyihasi, robototexnika, K12 ta'lim tizimi, eng yaxshi innovatsiyalar, Flip, diktant, raqamli kutubxona, simulyatsiya, AR, VR.*

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sohasida qator yangiliklar va o'zgarishlar kiritilmoqda, hatto ayrim soha va usullar tubdan o'zgartirish kiritilib bir qancha yangi samarali metodlar amaliyotda qo'llanib o'z natijalarini ko'rsatib kelmoqda. Ayniqsa bu borada boshlang'ich sinf o'quvchilariga katta etibor qaratilmoqda chunki ular bizning eng muhim bo'g'inimiz hisoblanadi. Endilikda barcha umumta'lim maktablarida 1-6-sinflar uchun mo'ljallangan hamda bir nechta fan: kimyo, geografiya, biologiya va fizika fanlarining boshlang'ich tushunchalarini o'zida birlashtirgan Tabiiy fanlar darslari yo'lga qo'yiladi.

Ta'lim tizimida shu vaqtga qadar **Science** fani xususiy maktablar hamda Prezident maktablarida o'qitib kelinayotgan edi. Endilikda barcha umumta'lim maktablarida bir nechta fan: Atrofimizdagi olam, Tabiatshunoslik, Geografiya, Biologiya hamda Fizika fanlarining boshlang'ich tushunchalarini o'zida birlashtirgan Tabiiy fanlar darsligi o'qitiladi.

Umumiy o'rta ta'limning 1-6-sinflari uchun mo'ljallangan Science fani bir nechta fanlarni birlashtirgan va **STEAM** tizimi asosida ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy fanlar bilan integratsiyani ta'minlagan. Ushbu darslikning quyidagi ustuvorliklari mavjud: bilim va ko'nikmalarni spiralsimon usulda oddiydan murakkabga tomon rivojlantirib borish ko'zda tutilgani hisobiga o'quvchilarga olamning yaxlit, ajralmas, bir butunligini anglashga yordam beradi;

Hozirda yangi darslikda har bir bobning mavzusidan kelib chiqib, murakkab bo'lmagan qiziqarli mavzular, tajribalar kiritildi. Endi bolalar "o'quv loyihasi" deb nomlangan amaliy mashg'ulotda o'zlari o'rgangan bilimlarini kichik tajribalar orqali mustahkamlab oladilar. Masalan, 1-sinflarga 1-o'quv yili uchun 1 ta amaliy topshiriq, gul ekish va uni

parvarishlash vazifasi berilgan. O'quvchilar o'zlari ekan guldagi o'zgarishlarni yil davomida kuzatib, natijani daftarlariga qayd etib boradilar, ustozlari va sinfdoshlari bilan o'rtoqlashadilar;

An'anaviy yondashuvga asoslangan darsliklarda avval matn, keyin savollar berilgan bo'lsa, Science darsligida o'quvchining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida avval savollar berilib, keyin matn keltirilgan. Ma'lumotlarning aksariyat qismi esa matn emas, rasm yoki illyustratsiyalar ko'rinishida. Bu bolalarda har xil manbalarni tushuna olish, mavzuga ijodiy yondashish ko'nikmasini shakllantiradi;

Darslik materiallarining audio va video variantlari ham mavjud bo'lib, ular ilk bor AR to'ldirilgan borliq tizimiga joylashtirildi. Agar smartfon darslik muqovasidagi QR kodga tutilsa, bolalar o'zlari o'rganayotgan ob'yektning harakatlanib turganini ko'rishlari, tovushini eshitishlari yoki o'sha ob'yektning boshqa xususiyatlari bilan tanishishlari mumkin bo'ladi. O'rganish metodologiyasi noldan boshlab bir qator eksperimentlar va ishlaydigan modellarga amal qiladi. Trening juda tejamkor va hatto o'rta sinfdan past bo'lgan oilalar uchun ham qulay, shuning uchun hech bir bola innovatsiyalardan chetda qolmaydi. Robototexnika – texnologiyaning kelajagi. Erta yoshda kodlash va robototexnikani o'rganish bolalarda texnologiyaga qiziqishni rivojlantirishga yordam beradi va shu bilan birga aqli fikrlash, innovatsion va aqli shaxs bo'lishga yordam beradi. Boshlang'ich ta'limning kelajagi istiqbolli ko'rinadi. So'nggi o'n yillikda ta'lim sohasi jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Innovatsiyalar va yangi texnologiyalar ta'lim sohasini yangi davr sari yetakladi. Institutlar innovatsiyalarni K-12 ta'lim tizimiga integratsiyalash orqali maktablar va universitetlarda o'qitish metodologiyasini yaxshilashga intilmoqda. K-12 yechimlari progressiv o'rganish strategiyalari tufayli mashhurlik kasb etmoqda. Bu o'quvchilarga o'ylash, aqliy hujum qilish, faol o'rganish, muammolarni izohlash va yechish, qaror qabul qilish va kontseptsiyani shakllantirish imkonini beradi.

1. Flipped Classroom System. Flip-o'qitish tizimi yordamida o'qituvchilar sinfda faol o'rganishni ustuvor yo'nalishga aylantiradilar. Dars davomidagi individual mashg'ulotlar va kichik guruhlardagi mashg'ulotlar o'quvchilarni yanada samaraliroq o'rganishga yordam beradi degan tushunchaga asoslanadi.

2. Audiokitoblar va diktant dasturi. Audiokitoblar va diktant dasturlari ta'lim sohasidagi haqiqiy o'yinni o'zgartiruvchi vositadir. Kompyuterlar, planshetlar va smartfonlar kabi raqamli qurilmalardan foydalangan holda, o'qituvchilar talabalarga samarali o'rganishga yordam berish uchun audio kitoblarni taqdim etadilar.

3. Raqamli kontent kutubxonalari. Maktablar uchun raqamli kontent kutubxonasi - bu qidirish uchun qulay platformadagi muhim ilmiy resurslarning raqamli to'plami. Bu talabalarga o'zlarining darsliklaridan tashqari tegishli kurs materiallaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun foydalidir.

4. Ijtimoiy tarmoqlar bilan hamkorlikda o'rganish. Bu usulda ikki yoki undan ortiq talaba berilgan topshiriq bo'yicha hamkorlik qiladi. Guruhda ishlaydigan talabalar topshiriqni bajarishda bir-birlarining qobiliyatlari va bilimlariga ishonishadi.

5. Simulyatsiya va o'yinga asoslangan ta'lim. Yodlab yoki yodlab o'rganish haqiqiy ta'lim shakli emas. Ushbu usulda o'quvchi to'g'ri simulyatsiya va o'yin turlaridan foyda-

langan holda haqiqiy o'rganish bilan shug'ullanishi va yangi qobiliyatlarni amalda qo'llashi mumkin.

6. AR yoki kengaytirilgan haqiqat. Agar o'qituvchilar qiziqarli o'rganishni rag'batlantirsa, hatto qiyin mavzularni ham oson tushunish mumkin.

7. VR yoki virtual haqiqat. Virtual haqiqat (VR) talabalarga sinfdan chiqmasdan dunyoni his qilish imkonini beradi. Ular stollari yoki uylari qulayligidan uzoq joylarga sayohat qilishlari mumkin.

Ta'lim muassasalari o'qitish va ta'limni rivojlantirish uchun eng so'nggi sinf innovatsion g'oyalaridan foydalanadilar. O'qituvchilar o'quvchilarga samarali o'rganish uchun eng yaxshi imkoniyatni taqdim etishlari mumkin.

Xulosa sifatida so'nggi yillarda boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini aqliy faoliyatini oshirish, ularni darslarda faol ishtirok etishi uchun qator yangi loyiha usul va chet el tajribalari amalda qo'llanilib kelmoqda va bugungi kunga qadar ushbu yangilanishlar juda ko'p yutuqlarga erishdi. K-12 yechimlarida ushbu texnologiyalarning ko'pchiligi yaxshi foyda olish uchun ishlatilishi mumkin. O'qituvchilar ushbu innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'quv dasturlarini tuzadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya. Metodik qo'llanma, TDPU, 2007.
2. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogika. TDPU, 2007.
3. N.R.g'aybullaev, R.Yodgorov, R.Mamatqulova. Pedagogika. O'quv qo'llanma, o'zmu. 2005.
4. Xabar.uz - axborot-tahliliy portali - xabar.uz
5. Times of India Readers' Blog (indiatimes.com)
6. Digital Engineering & Technology | Elearning Solutions | Digital Content Solutions (hurix.com)

Dadaboyeva Ozoda Abdubannoyevna,
Namangan viloyati Yangi Namangan tumani
93-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA IXTIROCHILIK MUAMMOLARI BO'YICHA TOPSHIRIQLAR ISHLAB CHIQISH VA ULARNI AMALIYOTGA JALB ETISH

Annotatsiya: *Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish hamisha dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy shakl, usul, metodlari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *oddiy fikr, qobiyiyat, ta'lim, sinf, dars, konstruktor, dizayn, sinfdan tashqari mashg'ulot.*

Ma'lumki, har qaysi davlat, har qaysi millat avvalo o'z farzandlari qiyofasida, unib-o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqqa xos xususiyat va fazilatlarini namoyon etadigan, uning azaliy orzu-intilishlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk kuchni ko'radi. Ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi biz uchun umummilliy, umumdavlat miqiyosidagi vazifa bo'lib, bu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarimizni izchil va qat'iyatlik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turibdi. Ushbu masalani yechishda innovatsion ixtirochilik yondashuvidan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Shu o'rinda ixtirochilik tushunchasi va uning mohiyatini yoritib o'taylik. Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi dasturining I – IV sinflarda qo'llashni samaraliligi va effektivligi quyidagi shartlarga bog'liq. Darsdan tashqari o'quv jarayonini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish rejasi natijalari. Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi dasturi bo'yicha o'quv jarayonida bilim va ko'nikmalarga yo'naltirigan talablar. O'quv jarayoni darajasiga maktabning umumiy o'rta ta'lim dasturi talablari qo'yiladi. Ushbu dasturni amalga oshirishda o'quvchilar bilishi kerak bo'lgan talablar:

- Ixtiyoriy qatnashish va o'zini ko'rsatish istagi.
- Ishni formasi va uslubi, yangilikligi va qiziqarliligi.
- Bolalarni tashabbusini birdamliligini ta'minlashda o'qituvchining ro'li.
- Individual, guruhli va jamoaviy harakatni uyg'unligi.
- Har xil darajadagi loyiha va festivallar, ko'rik – tanlovlarda ishtirok etish imkoniyati, maqsadli va samarali harakatlarni mavjudligi.
- Ochiq, erkin fikrlashga bolalarni jalb etish.

O'qishni birinchi yili bilishi quyidagilarni kerak. Ijodiy o'ylar taraqqiyoti (PTB) nima? Ijodiy o'ylar taraqqiyoti nima uchun kerak? Ijodiy ongni rivojlantirish o'yinlari. Tasviriy san'at orqali fantaziya usullari. Fantastik buyumlarni tasviriy algoritmi. Ijodiy ongni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarni o'ynash. Tasvir algoritmini qo'llab buyum va fantastik buyumlar yaratish. Piktogramm yordamida ularni tarixini yozish. Sxema modellari (piktogramm) yordamida ertakni so'zlab berishni bilish. O'z fikrini bildirish. O'z-galar fikrini hurmat qilish. "Yomonlik qilma" shiori ostida olingan bilim va ko'nikmalarni hayotga tatbiq qilish.

Ikkinchi o'quv yilida Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi dasturi bo'yicha o'quv jarayonida o'quvchilar bilishi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalarga qo'yilgan talablar. Bilishi kerak: Kompleks nima? Kompleks yaratish algoritmi. Janni Rodarining fantaziya usuli. Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasining asosiy tushunchasi, fantaziya usuli. Ko'nikma: - Voqelikni komiks ko'rinishida yozish. Ijodiy ongni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarni o'ynash. Oldindan o'rganilgan fantaziya qilish usullari yordamida ertak to'qish, fantastik hikoyalar o'ylab topish. Ob'ekt nuqtai nazaridan jarayonni ta'riflash. O'z nuqtai nazarini bildirish. O'z-galar fikrini hurmat qilish. "Yomonlik qilma" shiori ostida olingan bilim va ko'nikmalarni hayotga tatbiq qilish.

Uchinchi o'quv yilida Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi dasturi bo'yicha o'quvchilar olishi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalarga qo'yiladigan talablar. Bilishi kerak: - "Sistema operatori", "Sehrli ekran", "To'qqiz ekran", "Sistema", "Sistema osti", "Sistema usti", "Funksiya", "o'tgan sistema", "Kelasi sistema", "Antisistema", "Sistema emas", tushunchalarini aniqlash. Topishmoqlar to'qish algoritmi. "Morfologik quticha" usuli asosida ertak va voqealar to'qish algoritmi. "Ha - yo'q" o'yini mantiqi muhokamasi. Ko'nikma: Bir-birini eshitish, o'z fikrini aytish, bir-birini so'zini bo'lmaslik. Savol berish, noma'lum maydonni bartaraf etish. "Morfologik quti", "Morfologik tahlil", "To'qqiz ekran", usullarini qo'llab ertak va voqealar to'qish. "Morfologik tahlil" usulini qo'llab o'yinlar o'ylab topish. O'z fikrini aytish, o'z-galar fikrini hurmat qilish. "Yomonlik qilma!" shiori ostida olingan bilimlarni hayotga tatbiq etish.

To'rtinchi o'quv yilida ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi dasturi bo'yicha o'quv jarayonida o'quvchilar olishi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalarga qo'yiladigan talablar. Bilishi kerak: - "Qarama-qarshilik", "qarama - qarshilik prinsiplari yechimi" tushunchalariga ta'rif berish. - "Yaratish masalasi" tushunchasiga ta'rif berish. - "Dala buyum resurslari" tushunchasiga ta'rif berish. - "Inversiya", "Samoviy o'tish", "boshqa holatga o'tish", "oldindan qo'yilgan yostiq", "Matryoshka", "maydalash-birlashtirish", "sakrash", "Ziyonni foydaga aylantirish", qarama - qarshiliklarni hal qilish usuli. Ko'nikma: - Hodisa va narsa-buyumlar o'rtasida mantiqiy bog'liqlik yaratish. - "Yomonlik qilma" shiori ostida "yaratish masalasi"ni yechish, qarama - qarshiliklarni bartaraf etish, maqsadga muvofiq intilish, olingan bilim va ko'nikmalarni hayotga tatbiq etish. To'rt yillik o'quv davomida 1-4 sinflarda Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi dasturi bo'yicha o'quvchilar olgan bilimlarida shaxs sifati - Anglash, ijod, jamoat, faollik: - Nostandart vaziyatlarda harakat qilishga tayyorligi: - Mustaqilligi (qaror qabul qilish vaqtida): - Hamkorlikda boshqalar bilan ishlash ko'nikmasi, o'z qaroriga javob bera olishi:

- Muomalaliligi (kommunikatsiyasi): - Boshqalarga, o'ziga bo'lgan hurmat: - Shahsiy va hamkorli javobgarlik.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki hozirgi davr pedagogikasining ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan konseptual ilmiy izlanishlar predmetini kichik maktab yoshidagi bolalarda kreativlik, yanada aniqrog'i ijodiylikning yorqinlashuvi, ixtirochilikka qiziqishi, ertak, hikoya, qo'shiq, musiqaning obrazli mazmunini tezda idrok etishi, ijodiy imkoniyatlarini nazarda tutib belgilanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Voltov.A.V. "Ta'lim muassasasining asosiy ta'lim dasturining modellari: Mintaqalar tajribasi". Moskva. Ta'lim, 2011 – 110 b
2. Goryachev A.V., Iglina N.I. "Men hamma narsani bilib olaman, men hamma narsani qila olaman". Boshlang'ich maktabda loyiha faoliyati bo'yicha qo'llanma.(2-4-sinflar). – Moskva. Balass, 2010-64b
3. Dimitrova T.V. "Boshimda yuzta hayol". Samara, 1996.-
4. Yo'ldashev J.G'. Pedagogik texnologiya asoslari.- T.: 2004

DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TAVSIFIY METODDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini o'qitishda tavsifiy metoddan foydalanish o'quvchilarda ijodiy, mustaqil fikrlash ko'nikmasini hosil qilish, berilgan topshiriqlarni har tomonlama chuqur o'rganish hamda ularda kompetensiyalarni shakllantirish imkonini berishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, tavsifiy metod, mustaqil fikrlash, ijodiy fikrlash, kuza-tish, qiyoslash, uyadosh so'zlar, til kompetensiyasi.

Tavsifiy metod tilshunoslikda eng qadimiy va eng keng tarqalgan metod hisoblanadi. Ayniqsa, u til o'qitish tajribasi uchun katta ahamiyatga ega. Tavsifiy metodning o'ziga xos jihati shundan iboratki, u obyektни bevosita sezgi a'zolari bergan ma'lumotga asoslanib o'rganadi. Tavsifiy metod ma'lumotlari boshqa barcha metodlar uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi. Xususan, struktur metod tavsifiy metod xulosalariga tayangan holda ish ko'radi. Yoki qiyosiy-tarixiy metod uchun ham qiyoslanayotgan obyekt haqidagi izohni tavsifiy metod beradi. Demak, u ham tavsifiy metod xulosalari asosida ish ko'radi [1].

Tavsifiy metodning ko'rinishlarini biz boshlang'ich sinflar uchun soddalashtirib o'rganishga harakat qildik. Tavsifiy metod asosida ijodiy tahlil namunalarini ko'rib chiqamiz.

Ijodiy tahlil. Ta'lim jarayoniga kompetentlilik tushunchasining kiritilishi shu kunga qadar o'qitish amaliyotida uchraydigan nazariy bilim bilan undan amaliyotda foydalanish o'rtasidagi uzilish, ya'ni o'quvchi nazariy bilimga ega bo'lgan holda, undan muammoli vaziyatlarda foydalanishga qiynalish holatlarini bartaraf qiladi. Demak, an'anaviy ta'limda ustun bo'lgan "bilish paradigmasi" o'rniga "bilimlardan muammoli vaziyatlarda o'rinli foydalanish" paradigmasi ustunlik qilmoqda [2]. Til kompetensiyasi u yoki bu til imkoniyatlaridan amalda foydalanish malakasidir, bu esa ta'lim samaradorligiga erishish hisoblanadi. Shu sababdan hozirgi kunda umumta'lim maktablari-da o'quvchilar kompetentligini oshirish yuzasidan boshlang'ich sinflarda tajriba-sinov o'tkazilmoqda [3].

Ona tili darslarini o'rganishda quyidagicha ijodiy tahlildan foydalanish mumkin. Mana shu yerda o'qituvchining ijodkorligi, malakasi, qolaversa, tajribasi qo'l keladi. Ma-

salan, boshlang'ich sinflarda "Uy hayvonlari" mavzusida ijodiy fikrlash usulidan quyidagicha foydalanish mumkin: ijodiy tahlilni yetti bosqichda bajaramiz:

1. Kuzatish: *g'oz, o'rdak, qo'y, sigir, mushuk, it, sichqon...*
2. Izlanish (hayvonlar): *parrandalar, uy hayvonlari, kemiruvchilar, o'txo'rlar...*
3. Alohidaliklarni ajratish: *uy hayvonlari: qo'y, echki, mol, it, mushuk...*
4. Umumiylikni topish: *hayvonning bir turi...*
5. Farqlarni aniqlash: *it – uyni qo'riqlaydi; sigir – sut beradi, echki– sut beradi ...*
6. Qiyoslash: hajmiga ko'ra: *katta, kichik, ko'p sut, ozroq sut...* Rangiga ko'ra: *qig'ish, qora, oq, ola...*
7. Xulosa chiqarish: *uy hayvonlari - turli hajmda (katta va kichik), turli vazifalarni bajaradi.*

Ijodiy tahlil orqali o'quvchi kuzatadi, izlanadi, qiyoslaydi, umumiylikni aniqlaydi, farqlarni topadi, guruhlaydi, mustaqil ravishda amaliyotga tadbiiq etadi. Bu ijodiy tahlil bajarilgandan keyin xulosa chiqariladi.

Ko'rinadiki, til kompetentligi ona tili darslarida shakllanadi. Har bir ona tilidan o'tkaziladigan mashg'ulot o'quvchilarning til kompetentligini shakllantirishga qaratilishi kerak. Biz quyida "Uyadosh so'zlar" mavzusini o'tishda ijodiy fikrlash usulidan qanday foydalanish mumkinligini ko'rib o'tamiz.

Ona tili darslarida uyadosh so'zlarni o'rganishga kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarda ijodiy, mustaqil fikrlash ko'nikmasini hosil qilish, uyadosh so'zlarga xos til faktlarini har tomonlama chuqur o'rganish imkonini beradi. Tayyorgarlik bosqichida har bir guruh uchun savollar tayyorlanadi. Savollarni shunday tuzish kerakki, unda *uyadosh so'zlar* ma'nosi izohlanishi lozim. Tayyorgarlikdan so'ng uyadosh so'zlarni takrorlashda quyidagicha ijodiy tahlildan foydalanish mumkin. O'qituvchi juda ustalik bilan o'quvchilarni boshqarishi kerak. Har bir guruh uchun alohida topshiriqlar tayyorlanadi, ya'ni har bir guruh uchun shunday uyadosh so'zlar tanlanishi kerakki, ular mazmun jihatidan bir-birlariga yaqin bo'lmasligi kerak. Masalan, bir guruhga mevalar berilsa, ikkinchisiga taomlar, uchinchisiga hayvonlar, to'rtinchisiga gullar berilishi mumkin. Masalan, birinchi guruh uchun "gilos" uyasiga kiradigan so'zlarni ijodiy tahlil qilish topshirilgan bo'lsin. Ijodiy tahlil etti bosqichda bajariladi:

1. Kuzatish: *mevasi mayda, ranggi har xil, mazasi har xil...*
2. Izlanish (paytga ko'ra): *mayskiy, ertagi, kechg...*
3. Alohidaliklarni ajratish: *achchiq gilos, qo'qon gilos, sariq gilos...*
4. Umumiylikni topish: *mevaning bir turi...*
5. Farqlarni aniqlash: *qo'qon gilos – mevasi yirik, mazasi shirin, anjan gilos – mevasi mayda, mazasi achchiqroq...*
6. Qiyoslash: hajmiga ko'ra: *yirik, mayda...* Rangiga ko'ra: *qizil, to'q qizil, sariq, sariq qizil aralash...* Mazasiga ko'ra: *shirin, achchiq...*
7. Xulosa chiqarish: *gilos - turli rangli, turli mazaga ega bo'lgan mevali daraxt.*

Ko'rinadiki, ijodiy fikrlash o'quvchilarda til hodisalarini kuzatish, o'xshashlarini izlash, o'ziga xos xususiyatlariga asoslangan alohidaliklarni ajratish, integral belgilariga ko'ra umumiyliklarni topish, ma'no farqlarini aniqlash, ularni qiyoslash va xulosa chiqarish ko'nikmasini hosil qiladi.

Boshlang'ich sinflarda ijodiy tahlil darslarini tashkil qilish va unga kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarda ijodiy, mustaqil fikrlash ko'nikmasini hosil qilish, berilgan topshiriqlarni har tomonlama chuqur o'rganish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нурманов А. Танланган асарлар. I жилд. – Т.: Академнашр, 2012. – Б. 31.
2. Нурмонов А. Ўқувчиларнинг тил компетентлигини шакллантириш ва ривожлантириш муаммолари. "Маърифат" газетаси, 2014 йил, 18 июнь, № 49(8698).
3. Закирова Х. Бошланғич синфларда ўқувчиларнинг тил компетентлигини шакллантириш усуллари. Республика илмий ва амалий анжуман материаллари. IV чиқиш. АДУ, 2015.

Xudonazarov Egambergan Madraximovich,
*Ma'mun universiteti NTM Psixologiya va ijtimoiy fanlar
fakulteti dotsenti*

Urazova Nasiba Urazboyevna,
*Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni
kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish
milliy-tadqiqot instituti magistranti*

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA METODIK ASOSLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari va uning nazariy tahlili masalalariga murojaat qilingan. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shartlari, birinchi navbatda, turli zamonaviy vositalar va usullardan foydalanish hamda ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xulosa qismida mualliflarning yakuniy mulohazalari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *tanqidiy fikrlash, evristik metod, tizimli tahlil, tanqidiy fikrlarsh shartlari, tanqidiy fikrlash mezonlari, shaxsiy fazilatlar.*

Bizga ma'lumki, ta'limda, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standartlariga mos bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni hosil qilish, jumladan mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda darslar va sinfdan tashqari ishlar muhim o'rin egallaydi [1, 2, 5, 6]. Mantiqiy fikrlash nazariya va amaliyotni, fikrlashning konvergent va divergent turlarini uyg'unlashtiradi hamda o'ziga xos topqirlik bilan tavsiflanadi [2, 3, 4]. Boshlang'ich maktab yoshida o'quvchilarda tafakkurning rivojlanishi alohida muhim o'rin tutadi. Ta'limning boshlanishi bilan tafakkur bolaning aqliy rivojlanishining markaziga o'tadi va uning ta'siri ostida intellektuallashtirish va o'zboshimchalik xususiyatiga ega bo'lgan boshqa psixik funksiyalar tizimida hal qiluvchi rol o'ynaydi. "Aqliy hujum" – nafaqat kichik yoshdagi o'quvchilarni faollashtirishga imkon beradi va muammoni hal qilishga yordam beradi, balki nostandart fikrlashni ham shakllantiruvchi metoddir [3].

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasining afzalliklari tanqidiy fikrlash texnologiyasi muloqot nuqtai nazaridan ham, o'quv jarayonida tug'ilgan bilimlarni qurish nuqtai nazaridan ham teng sheriklikni o'z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlash texnologiyasi rejimida ishlagan holda, o'qituvchi asosiy ma'lumot subyekt manbai bo'lishni to'xtatadi va texnologiya usullaridan foydalangan holda o'rganishni hamkorlikdagi va qiziqarli qidiruvga aylantiradi.

Boshlang'ich sinf darslarida tanqidiy fikrlash texnologiyasidan foydalanish bizga kichik yoshdagi o'quvchilarning kognitiv faollik darajasini oshirishga imkon beradi, bu esa ijtimoiy muvaffaqiyatni shakllantirishga yordam beradi. Boshlang'ich maktabda tanqidiy fikrlash texnologiyasini qo'llash bo'yicha faoliyatning katta sohasi – bu atrofimizdagi olam darslari, adabiy o'qish, matematika, rus tili, shuningdek, texnologiya, musiqa va maktab darslarida muvaffaqiyatli qo'llash mumkin.

“Tanqidiy fikrlash” texnologiyasidan foydalangan holda men tomonidan qurilgan va o'tkazilayotgan darslar bolalarni o'zlariga savol berishga o'rgatadi, bu esa ularni o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. O'qituvchi va o'quvchilarning rollari o'zgardi, o'quvchilar sinfda passiv o'tirmaydilar, lekin asosiy belgilar: ular o'ylaydi, eslaydi, baham ko'radi, fikr yuritadi, o'qiydi, yozadi, muhokama qiladi. O'qituvchining roli asosan muvofiqlashtiruvchidir! Bolalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish, ularni javobga “qo'lidan” olib kelmaslik, paydo bo'lgan savollarga tayyor javoblarni bermaslik, bolalarni asta-sekin muammolarni yechishga o'rgatish, savollar berish va ularga javob olish yo'llarini topish kerak. Biz ham bolalar bilan o'rganamiz, bolalardan o'rganaman.

Tanqidiy fikrlash texnologiyasi o'quvchilarga quyidagilarni beradi:

- 1) Axborotni idrok etish samaradorligini oshirish;
- 2) O'rganilayotgan materialga ham, o'quv jarayonining o'ziga ham qiziqishni oshirish;
- 3) Tanqidiy fikrlash qobiliyati;
- 4) O'z ta'limi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati;
- 5) Boshqalar bilan hamkorlikda ishlash qobiliyati;
- 6) O'quvchilarning ta'lim sifatini oshirish;
- 7) Umr bo'yi o'rganadigan shaxs bo'lish istagi va qobiliyati.

Tanqidiy fikrlash texnologiyasi o'qituvchiga quyidagilarni beradi:

- 1) Sinfda ochiqlik va mas'uliyatli hamkorlik muhitini yaratish qobiliyati;
- 2) Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlash va mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradigan ta'lim modeli va samarali usullar tizimidan foydalanish qobiliyati;
- 3) O'z faoliyatini malakali tahlil qila oladigan amaliyotchi bo'lish;
- 4) Boshqa o'qituvchilar uchun qimmatli kasbiy ma'lumotlar manbai bo'lish. Ushbu texnologiyada ishlashda duch keladigan qiyinchiliklar.

Ushbu texnologiya bo'yicha darsni sinf-dars tizimi doirasida (boshqalari kabi) to'liq amalga oshirish juda qiyin. Iloji bo'lsa, darsni ikki baravar oshirgan ma'qul. Hamma bolalar ham katta hajmdagi axborot bilan ishlayolmaydi. Hamma ham bir xil o'qish texnikasiga ega emas, hamma ham sinxron ishlay olmaydi. Texnologiya har doim ham zaif sinflarda samarali bo'lavermaydi (boshqa rivojlanayotgan sinflar kabi). O'qituvchi texnologiya bilan batafsil tanishishingiz, kerakli kurslarni o'tashingiz, seminarlarda, hamkasblar darslarida qatnashishingiz kerak. Bu shartlardan biri.

Strategiya va usullarni noto'g'ri tushunish.

Bolalar tomonidan ma'lum texnikani rad etish, sevimligan (ijodiy va katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash).

Texnologiyada juda ko'p sonli texnikalar – tanlashda qiyinchilik. Materialni tanlashda qiyinchilik (turli manbalardan).

Tanqidiy fikrlash texnologiyasi fikrlash, muloqot qilish, eshitish va boshqalarni tinglay oladigan bolalarning yangi avlodini tayyorlashga yordam beradi. Talabalarda bilim olishga qiziqish paydo bo'ladi. Ushbu texnologiya doirasida olingan bilimlar ular uchun dolzarb bo'lib, ta'lim sifati oshadi va eng muhimi, o'quvchi shaxsi diqqat markazida bo'ladi. Aksariyat talabalar o'z bilimlarini olimpiada va tanlovlarda qo'llashdan, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritishdan mamnun.

Albatta, tanqidiy fikrlash texnologiyasi tuzilishi va texnikasining samaradorligi, umuman texnologiyaning darslar uchun qo'llanilishi haqida bahslashish mumkin, ammo agar siz nima qilayotganingizni va nima uchun qilayotganingizni yaxshi tushunsangiz, unda samaralidir. Texnologiya darslarni rang-barang qilish, darslarni o'zingiz uchun qiziqarli qilish usuli emas. Bu texnologiya o'quvchini bilish jarayoniga yaqinlashtirish, o'yin texnikasidan foydalanish, ishning guruh shakllari, faoliyatni tez-tez o'zgartirishdan zavq olishi uchun mo'ljallangan. Tanqidiy fikrlash texnologiyasining joriy etilishi ta'lim sifatini oshishini ta'minlaydi.

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, axborotni qabul qilish, idrok etish va uzatish haqida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi, shuning uchun u universal bo'lib, sinfda faol o'quv faoliyatini ta'minlaydi, bunda o'qituvchi sifatidagi rol ham o'zgaradi. O'qituvchi bilim makoni egasi bo'lib, bilimlarni ko'p o'rgatuvchi hamkorga aylanadi. Lekin bu texnologiyaning asosiy mohiyati shundaki, u bilim olish sifatini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Khudoynazarov E.M. Didaktik possibilities of oral exercises informing initial classes pupils' mathematical thinking activity // Eastern European Scientific Journal.-Ausgabe-Germany,1-2019.P.249-253.
2. Худойназаров Э.М., Ярметов Ж.Р. Бошланғич синфларда математикадан синфдан ташқари ишлар /Ўқув қўлланма /-Т: Нодира бегим,2021. -182б.
3. Шарифзода С.Ў., Худойназаров Э.М. "Педагогика назарияси ва тарихи" (1-қисм). Дарслик. // -Т:"Bookmanuprint",2022.-270б.
4. Худойназаров Э.М. Бошланғич синф ўқувчиларида математик фикрлаш фаолиятини шакллантириш ва ривожлантиришнинг методик тизими/Монография/-Т.: "Наврўз",2019.-108б.
5. Шарифзода С.Ў. Ўқувчиларда таянч компетенцияларни шакллантиришда интегратив ёндашувдан фойдаланиш механизмлари: фалсафа доктори (PhD даражаси олиш учун ёзилган дисс. Бухоро.-2022.-168 б.
6. Sharifzoda S. Possibilities of using an integrative approach in the formation of key competences of pupils // European Journal of Research and Reflection in educational sciences.-10.2019.(Angliya) P. 44-47.

*Otavaliyeva Odina Hamidullo qizi,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika universiteti
Ta'lim muassasalari boshqaruvi yo'nalishi magistranti*

BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH MALAYZIYA TAJRIBASI ASOSIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimi va uni boshqarishda xorij tajribalariga asoslanib yuritish hamda Malayziya tajribalari asosida boshqarishni tashkil etish va rivojlantirish borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ilm-fan, taraqqiyot, ta'lim, rivojlanish, boshqaruv, tizimi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimini yaratish ko'zda tutildi. Sohadagi islohotlar natijasida boshlang'ich ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi.

Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida boshlang'ich ta'lim tizimida bolalarni yuqori sinfga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi.

Bugungi kunda har qaysi xalq davlat va jamiyatning taraqqiyot darajasi, avvalambor uning inson kapitaliga, inson rivojida berayotgan e'tibori bu yo'ldagi say harakatlari bilan o'lchanadi. Bugungi kunda ta'lim mazmuniga bo'lgan e'tibor *Yaponiya ta'lim tizimi*

Yaponiya ta'limida "iqtidorli o'quvchi" tushunchasi yo'q chunki har bir o'quvchi alohida iqtidor sohibidir. Ilg'or mamlakatlar ichida Yaponiya ta'limi o'ziga xos yo'nalishi yetakchi o'rinni egallaydi. Jumladan, Yaponiya ta'lim tizimining tarkibi quyidagicha:

maktabgacha ta'lim, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi oliy o'quv yurtlari.

Boshlang'ich maktabda o'qituvchilar bolalarni tanqidga, ya'ni o'z xulqining yomon jihatlarni, maktabdagi kamchiliklarni tanqid qilishga o'rgatishadi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi faqat ta'lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etadi.

Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o'qituvchining maoshi davlat rahbarlari orasida ham yuqori bo'lgan yagona davlat.

Majburiy ta'lim muhiti. Ta'limning bu pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. Muhtoj oilalarning bolalariga moddiy yordam ko'rsatiladi.

Yaponiyada bolalar tarbiyasida onalarning roli va mas'uliyati ayniqsa kattadir. Ular farzandlarining aqlli, dono va mehnatsevar bo'lib o'sishlari uchun oila sulolasi va davlat oldida o'zlarini ma'sul deb hisoblaydi.

Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko'plab metodik qo'llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televideniya orqali ko'plab pedagogik maslahatlar berib boriladi. Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir. U mukammal, yon tomonidan muhofazalangan qurilma bo'lib, parta ustida kitob javoni, yoritkich, soat, qalam, qog'oz, mikrokalkulyator va boshqa zaruruy ashyolar, shuningdek kerak bo'lib qolgan taqdirida ota-onalarini chaqiradigan signal tugmachalarigacha o'rnatilgan.

Yaponiya boshlang'ich maktablarining saviyasi Malayziya boshlang'ich maktablari saviyasidan bir muncha yuqori turadi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki yaponiyada ta'lim tizimi ham shaklan, ham mazmunan yuksak uyg'unlik kasb etgan. Ibrat olsa, o'rgansa arziydigan jihatlari ko'p. E'tiborli yana bir tomoni – Yaponiyada faqat milliy an'analar bilan cheklanib qolmay jahondagi aqsh, Fransiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg'or pedagogik ish tajribalari ham ijodiy o'zlashtirilgan.

Bunday tajribalar Respublikamiz ta'lim tizimini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishda qo'l kelishi shubhasiz.

Malayziya boshlang'ich ta'lim tizimi

Davlat tili – malay tili, e'tiqodi – islom dini.

Xalq ta'limi tuzilishi: 6 yillik boshlang'ich maktab (6 yoshdan 12 yoshgacha), 3 yillik o'rta va 2 yillik yuqori o'rta ta'lim maktablari – akademik (gumanitar, tabiiy va texnika) hamda kasbiy maktablarga bo'linadi. Xohlovchilar o'rta maktabning gumanitar va tabiiy bo'limning 6-sinf o'quvchilari 2 yillik tayyorlov kursidan keyin universitetlarga borishi mumkin. Maxsus tayyorgarlik boshlang'ich va o'rta maktabdagi bilimlar asosida kasb-hunar maktablari, o'rta texnika kollejlari va yuqori tipdagi texnika kollejlarida amalga oshiriladi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari 2 yillik pedagogika markazlari va 2 yillik yuqori pedagogika kollejlari, shuningdek, universitetlarda tayyorlanadi.

Mamlakatlarda ta'lim maskanlari raqamlarga ega emas, ammo ular hududlar bo'yicha yoki mashhur kishilar nomi bilan ataladi. Odatda har bir sinf xonasi televizor va kompyuterga ega. Malayziyada nusxa ko'chirish uskunalari juda ko'p joylashtirilgan. Chunki o'qituvchi tomonidan o'quvchlarga deyarli barcha vazifalar bosma shaklda beriladi.

Boshlang'ich maktabda har yil sinf o'qituvchisi o'zgaradi. Boshlang'ich sinflarda

matematik bilimlarning hajmi Rossiya va Angliya maktablari darajasiga nisbatan biroz yengilroq. Ko'paytirish jadvali 3-sinfdan boshlanadi. Amerika maktablaridagi o'ziga xos usullaridan biri har bir o'quvchining bilimi maxsus karta yordamida baholanadi. Ota-onalar ushbu karta bilan tanishib borar ekan, farzandlariga oqsayotgan tomonlarini aniqlab, uni tuzatishga harakat qilishadi. Malayziya pedagoglari haftasiga bir marta 1-3-sinf o'quvchilari uchun "Sevimli o'yinchoq" metodini qo'llashadi. Bu metodda bolalar o'yinchoq'ini ta'riflaydi. Mazkur metodni qo'llashdan maqsad bolani uyatchanlikdan xalos bo'lishga, sinfdoshlari orasida erkin gapirishga o'rgatishdir.

O'z Vatanimizga qaytadigan bo'lsak, biz bu narsalarga tom ma'noda faqat mustaqilligimizni qo'lga kiritgachgina erishdik. Chunki sobiq Ittifoq davrida ta'lim bilan bog'liq bir qancha kamchiliklar bor edi. Hozirgi kunda esa biz ham o'zligimizni topdik. Zero, har bir mamlakatning o'z taraqqiyot yo'li, o'z madaniyati, o'z urf-odatlarini, o'z qonunchiligi bo'lsagina rivojlanish olg'a siljiydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Руднев В.С. Очерки новейшей истории Малайи (1918-1957).
2. Тюрин В.А. Завоевание Малайи Англией.
3. Жеребилов В.А. Рабочий класс Малайи.
4. Emerson R. Malaysia. A study in direct and indirect rule.
5. Gullick J. Malaysia and it's neighbours.
6. Purcell V. Malaysia.
7. Тюрин В.А. К вопросу об истоках малайской культуры, "Вестник истории мировой культуры".

Urazova Nasiba Urazboyevna,
*Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish
va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot
instituti magistranti*

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TURLI DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standartlariga mos bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni hosil qilish, jumladan mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda darslar va sinfdan tashqari ishlar, shu bilan birga boshlang'ich sinf dars jarayonlarini yanada samarali o'tkazish, darsni sifatli qilish, ta'lim shaklini keng o'rganish hamda ularni tatbiq qilish maqsadida pedagogik texnologiyalar turli xil didaktik o'yinlardan foydalanish to'g'risida ma'lumotlar bayon qilingan. Xulosa qismida muallifning yakuniy mulohazalari keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Pedagogik texnologiyalar, o'yinlar savodxonlik, zamonaviy usullar, tanqidiy fikrlash, tizimli tahlil, tanqidiy fikrlash mezonlari, shaxsiy fazilatlar.*

Ta'lim tizimda, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standartlariga mos bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni hosil qilish, jumladan didaktik o'yinlardan foydalanish, mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda darslar va sinfdan tashqari ishlar muhim o'rin egallaydi [1, 2, 3]. Boshlang'ich sinf yoshida o'quvchilarda tafakkurning rivojlanishi alohida muhim o'rin tutadi. Ta'limning boshlanishi bilan tafakkur bolaning aqliy rivojlanishining markaziga o'tadi va uning ta'siri ostida intellektuallashgan va o'zboshimchalik xususiyatiga ega bo'lgan boshqa psixik funksiyalar tizimida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda bolalarning bilimini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, dars jarayonini tez va oson o'rganish maqsadida axborot kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik texnologiyalari shu jumladan didaktik o'yinlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega [3, 4].

Yosh avlodning har tomonlama kamol topishida maktab davri juda muhim ahamiyatga ega. Chunki bolalar bog'cha ta'limidan so'ng aynan savodining chiqishi shu davrga to'g'ri keladi. Bu davrda bolalarga har taraflama tushunarli bo'lgan mashg'ulotlardan, qiziqarli zamonaviy usullardan foydalanish lozim. Maktab davrida bolaning savodi chiqishi bilan birgalikda uning dunyoqarashi shakllanib, fikrlash doirasi kengayib boradi. Bolalarning bilimini rivojlantirishda turli xil o'yinlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Bolalar o'yinlar orqali O'z bilimlarini mustahkamlab oladilar.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar ta'lim sifatini yanada oshirish, bilish jarayonining muvaffaqiyatli boshqarilishiga turtki bo'ladi. Didaktik o'yinlar bosh-

lang'ich ta'limning keying bosqichlarida ham bolalarning bilimni rivojiga turtki bo'lib xizmat qiladi. Dars jarayonida o'zlashtirishi past o'quvchilarning bilimni oshirishga bu o'yinlar m'z ta'sirini ko'rsatadi. Shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kunda pedagogik texnologiyalar asosida ta'limni tashkillashtirishga e'tibor kuchaymoqda. Pedagogik texnologiyalardan foydalanilmoqda.

Pedagogik texnologiyalar-ta'limning shakllari, metodlari hamda yangi usullari tarbiyaviy vositalar yig'indisi hisoblanadi. Pedagogik texnologiyalar o'quvchilar imkoniyati va qobiliyatini yuzaga chiqarishda eng mahoratli vositalardan biri hisoblanadi, ular orqali ta'lim jarayonining tezlashishi oshadi. O'quvchilarning mustaqil fikrlash doirasi shakllanadi. Bolalarda mehr va muhabbat qiziqish hissi ortib boradi. Ta'lim tizimiga texnologik vositalar orqali yondashish tufayli bir qator maqsadlar amalga oshadi. Jumladan,

- ta'lim jarayonining maqsadi belgilanadi;
- o'qitish tizimining uzviy bog'liqligi rivojlanadi;
- ta'limning harakatlanish tezligi yuqorilab boradi;

Texnologiyalardan foydalanishda ular ta'limning sifatini belgilashi lozim, undan ko'zlangan maqsadga yetishish nazarda tutilishi kerak. Bunda o'qituvchilar O'z o'quv fanini maqsadini belgilab chiqishi kerak. Belgilangan maqsad asosida albatta samara bo'lmog'i lozim. Bola har bir o'yinga qiziqishi undan oziga biror narsa olmog'i kerak.

Boshlang'ich sinf bolalariga dars jarayonida foydalanadigan o'yinlar orqali bolaning bilimi oshishi dars jarayonini o'zlashishi bilan birgalikda uning maktabga ustozlariga bo'lgan mehr-muhabbati oshib boradi. Aynan boshlang'ich sinflarda pedagogik texnologiyalardan foydalanish bolani darsga jalb etishga yordam beradi. O'yinlar orqali erkin fikr yuritish tafakkurining shakllanishini ortganini ko'rish mumkin. Aynan boshlang'ich sinflarda pedagogik texnologiyalardan foydalanish bolani darsga jalb etishga yordam beradi. Ularda o'quvchilarning diqqati bir joyga to'planadi tafakkuri o'sib boradi. O'zlarida erkin fikr yuritish jarayoni shakllanadi.

Dars jarayonida keng qo'llanadigan didaktik o'yinlardan "Zanjir" o'yinida o'qituvchi bir so'z aytadi. Shu so'zning tugagan harfidan boshlab bolalar so'zni davom ettiradi. O'yin orqali bolalar hammasi darsga jalb etiladi.

"Tez ayt" o'yini: bu o'yinda o'qituvchi sinf bo'ylab yuradi bir bolani turg'izib unga bir tur nomini aytadi. Bola shu turga kiruvchi so'z topib aytishi kerak. Bu orqali bolaning fikri atrof muhitga bo'lgan munosabati sinchikovlik qobiliyati oshib boradi. O'yinda toki javob berolmagan o'quvchilar tugatadi. O'yin bir ishtirokchi qolguncha davom etadi. Bu o'yinni o'tilgan darsga moslab ham tashkillashtirsa bo'ladi. Dars jarayonida shunday o'yinlardan foydalanish orqali o'quvchilarda dars jarayoniga bo'lgan qiziqish ortib boradi. Bolada topqirlik, chaqqonlik, tez harakat qilish jarayonari shakllanib boradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ko'plab ilmiy tadqiqotlarda yosh avlodga bilim berishda turli xil qulay, o'quvchi uchun tushunarli bo'lgan usullardan foydalanishni tavsiya etadi. Dars samaradorligini oshirish bolaning xotirasini rivojlanishi, bolaning erkin fikrlashini oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarni zeriktirmaslik turli usullar bilan uning dunyoqarashini, bilim darajasini kengayti-

rish hisoblanadi. Ta'lim sifatini har taraflama muvafaqqiyatli qilishimiz uchun didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Худойназаров Э.М., Ярметов Ж.Р.Бошланғич синфларда математикадан синфдан ташқари ишлар /Ўқув қўлланма /–Т: Нодирабегим, 2021. –182б.

2. Шарифзода С.Ў., Худойназаров Э.М. “Педагогика назарияси ва тарихи” (1-қисм). Дарслик. // –Т:“Bookmanuprint”, 2022.–270б.

3. Худойназаров Э.М.Бошланғич синф ўқувчиларида математик фикрлаш фаолиятини шакллантириш ва ривожлантиришнинг методик тизими/Монография/–Т.:“Наврўз”,2019.–108б.

4. Sharifzoda S Possibilities of using an integrative approach in the formation of keycompetences of pupils // European Journal of Research and Reflection in educationalsciences.-10.2019.(Angliya) P. 44-47.

*Shodiyeva Iroda Saidaxmadovna,
Farg'ona viloyati Yozyovon tumani 12-maktab
Xalq ta'limi a'lochisi, oliy toifali boshlang'ich
sinf o'qituvchisi*

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARINI TASHKILLASHDA KREATIV YONDASHUVLAR

Anottasiya: Bu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika darslarini tashkillashda kreativ yondashuvlar haqida fikr yuritilgan. Dars mashg'ulotlarini tashkillashda, o'quvchilarni mashg'ulotlarga qiziqtirishda qo'llaniladigan metodlardan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'quvchi, matematika, texnologiya, metod, mashg'ulot, o'yin texnologiyasi.

Boshlang'ich sinflarda bir necha fanlar mavjud bo'lib, aniq fanlar sirasiga kiradigan matematika fanining o'rnini beqiyosdir. Matematika fanini yaxshi o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlardan ham oson o'zlashtiradi. Matematika faniga o'quvchilarni yanada qiziqtirish maqsadida ularning qiziqishlarini inobatga olgan holda dars mashg'ulotlarini tashkil etish tavsiya etiladi.

“Kechagi dars berish uslubi bilan matematikani jadal rivojlantirib bo'lmaydi. Shu bois avval amalda yaxshi natija bergan xorijiy metodika asosida ta'lim dasturlari yaratib, o'qituvchilarni qayta tayyorlash zarur. Metodika shunday bo'lishi kerakki, u bolalarda matematikaga muhabbat uyg'otsin. Buning uchun o'quvchilar bu fan hayotda, har bir sohada o'ziga kerakligini anglashi zarur. Yoshlar imtihondan o'tish uchun emas, bilimli mutaxassis bo'lish uchun o'qishi lozim”, – deya ta'kidlagan davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev [1].

Shunday ekan, biz pedagoglar matematika darsini qiziqarli va mazmunli tashkil etishimiz kerak. O'quvchilar ertangi dars mashg'ulotini intizorlik bilan kutishi lozim. Buning uchun o'qituvchidan birozgina mehnat va izlanish talab etiladi.

Matematika darslarida kompyuter saboqlarini ham berib borishimiz zamon talabi ekanligini his qilib turishimiz lozim. Multimediyaviy vositalaridan foydalanib, o'quvchilarning darsga qiziqishlarini ortirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Har kuni turli internet saytlari yordamida multfilmlar yaratib, o'quvchilarga matematika faniga qiziqtirish uchun motivatsiya berib boorish ham samarali usullardan biridir. Bolajonlar ham multfilm ko'radi, ham matematika juda ham kerakli fan ekanligini his qilishadi. Shuning bilan birga kompyuter savodxonligini ham orttirib borishadi.

Matematika dars mashg'ulotlarini sifat va samaradorligini oshirishda quyida metodlardan namuna keltirib o'tamiz.

Qo'g'irchoq teatri

Texnologiyasi: Qo'g'irchoq teatri sahnasida o'quvchilar qo'g'irchoqlarni harakatlantirib gapirtiradilar. O'quvchilarga juda ham zavq bag'ishlaydi. Ular ko'zlari bilan ko'rgan narsalarini yaxshi eslab qoladilar.

O'quvchilar quyidagicha eslab qoladilar:

1. o'qiganlarini – 10 % ni
2. eshitganlarini – 20 % ni
3. ko'rganlarini – 30 % ni
4. ko'rib, eshitganlarini – 50 % ni
5. gapirayotganlarini – 80 % ni
6. gapirib, bajarayotganlarini – 90 % ni

“To'g'ri chiziqning hosil bo'ishi” sahna ko'rinish

Qo'g'irchoq teatrini namoyish etishda kamgap v tortinchoq o'quvchilarga e'tibor qaratamiz. Ya'ni ular sahna ko'rinish namoyish etadilar. Bu o'quvchilarga ham nutqi rivojlanib, o'zlarini do'stlar oldida erkin his qilishni o'rganadilar.

Qalam, sirkul, o'chirg'ich yashaydigan Geometriya mamlakatida bir qizil nuqtacha yashar ekan. U o'zini juda ham yolg'iz his qilibdi. Har doim do'stlari bo'lishini orzu qilib yashar ekan. Kunlardan bir kuni o'sha qizil nuqtacha o'ziga do'st axtarib yo'lga chiqibdi. Yo'lda u yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Yo'lda u ko'k nuqtachani ko'rib qolibdi. Shunda ko'k nuqtacha qizil nuqtachadan so'rabdi:

- Qayerga ketayapsan?
- O'zimga do'st axtarib ketayapman.
- Kel ikkimiz do'st bo'lamiz.

1. Xo'p bo'ladi deb ular do'st bo'lishibdi.


Ular yana yo'lda davom etishibdi va yo'lda yashil va sariq nuqtalarni uchratishibdi. Ular bilan ham do'st bo'lishibdi. Ko'p nuqtalar do'st bo'lishgandan so'ng mo'jiza ro'y beribdi. Hamma nuqtalar birlashib, to'g'ri chiziq hosil bo'libdi. Mana ko'rdingizmi bolajonlar to'g'ri chiziq mana shunday hosil bo'lgan ekan.

Qo'g'irchoq teatri o'quvchilarning mashg'ulotlarga qiziqishini yanada oshiradi. Bu mashg'ulotni to'garakda dam olish daqiqasi vaqtida bajarsa ham bo'ladi, mashg'ulotning tashkiliy qismida ham bajarsa bo'ladi. Teatrni tashkillashda o'qituvchidan ijodkorlik talab qilinadi. U mavzuga moslab ertak to'qib berishi kerak bo'ladi.

Matematik savdogar o'yini

O'yin texnologiyasi: Bir o'quvchi do'konga “Savdogar” qolgan 4 nafar o'quvchi “Xaridor” vazifasini bajaradilar. Do'konda har bir mahsulotga uning narhini karra jadvali yoki tenglama ko'rinishida yozib qo'yilgan bo'ladi. Mahsulot olmoqchi bo'lgan “Xaridor” matematik hisob –kitobni amalga oshirib, shundan so'ng pulini to'lab olishi mumkin bo'ladi.

Bu o'yinda o'quvchilarni guruhlarga bo'lib olib, musobaqa shaklida olib borish kerak. Qaysi guruh vakillari ko'p misol yechib, ko'p mahsulot olgan bo'lsa o'sha guruh g'olib bo'ladi.






Har bir mashg'ulotning mavzusiga qarab, misollar yoki masalalardan foydalanish mumkin.

O'yinning afzalligi o'quvchilarning o'rgangan bilimlarini hayotda qo'llay olish malakasini rivojlantiradi.

Puzzle o'yini

O'yin texnologiyasi: Bu o'yinda o'quvchilarning aqlini charxlash uchun PISA testlaridan beriladi. Qaysi guruh birinchi bo'lib ishlasa o'sha guruh g'olib bo'ladi.





O'quvchilar bu testlarni yechish orqali mantiqiy fikrlab, tasavvurlar dunyosini kengaytiradilar. Bir qarashda oddiy ko'rinsada, bolalarni chuqur o'ylanishga undaydi. Bu o'yinni har mashg'ulotda qo'llasak maqsadga muvofiq bo'ladi. Besh daqiqa vaqt ajratib bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatib boramiz.

1-C; 2-C; 3-4; javoblarni belgilagan o'quvchilar to'g'ri javob bergan hisoblanadi.

Brainwalking metodi


Texnologiyasi: Doscaga guruhlariga krossvord osib qo'yiladi. Har bir guruhdan o'quvchilar navbat bilan doskaga chiqib javob yozadilar. Soddagina topshiriqdan iborat bo'lgan bu metod o'quvchilarning aqlini charxlab, tezkorlikka undaydi. O'quvchilarning

kreativ fikrlashini rivojlantiradi. Jamoada do'stona muhitni yuzaga keltiradi. Darsning istalgan paytida qo'llash mumkin.



Fokus o'yini

O'yin texnologiyasi: O'yin guruhlariga bo'lingan holda musobaqa shaklida olib boriladi. Quyidagi grafik diktant o'quvchilarga namoyish etiladi. O'quvchilar yo'nalishlarga qarab chizib chiqadilar. Qaysi guruhning a'zolari faol qatnashsa, o'sha guruh g'oliblikni qo'lga kiritadilar. Bu o'yin o'quvchilarning diqqatini jamlab olishga imkoniyat yaratadi. Bu mashg'ulot o'quvchilarning xotirasini mustahkamlabgina qolmay, balki rivojlantirishga ham katta yordam beradi. Har darsda foydalanish yaxshi natija beradi.



1↓	1→	2↑	3←
2→	2↓	1→	1↓
3↑	1→	2↓	1←
1→	2↑	1→	1↓
5↓	2→	6↑	1←
1→	2↓	5←	4↓
2↑	1→	3↑	1←

Matematik bilimlarni rivojlantirishda og'zaki boshqotirmalardan foydalanish ham, o'quvchilarning tasavvurini rivojlantirishini yaxshi bilamiz. Albert Eynshteyn "Tassavvur bilimdan muhim" degan fikrni ta'kidlagan [2]. Shuning uchun bunday boshqotirmalardan ham dars jarayonida foydalanish samarali usullardan hisoblanadi. Masalan: 1-sinf o'quvchilari uchun ushbu boshqotirmadan foydalanish mumkin. ***Ovchi daraxtdagi 12 ta qushdan 3 tasini urib tushirsa, daraxtda nechta qush qoladi?***[3].

O'quvchilarga bu masalaga shoshmay, o'ylab javob berishlarini uqtirishimiz kerak. Tassavvur qiling siz ovchisiz, 3 ta qushni urib tushirdingiz, nechtasi qoldi? - degan savol bilan o'quvchilarni tasavvur qilishga o'rgatamiz. Shunda o'quvchilar to'g'ri javobni topadilar. Boshqotirmalarning javobini topishda, albatta, tasavvur muhim rol o'ynaydi.

Xulosa: "Matematika fanining tamal toshini Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy kabi ulug' bobolarimiz qo'yan. Bu bizning qonimizda bor. Lekin oxirgi yigirma yilda matematikadan bilim darajasi pasayib ketdi. Chunki o'qituvchilarga kerakli

e'tibor, munosib oylik berolmadik, pirovard maqsad qo'ya olmadik. Buning oqibati hozir ko'pdan-ko'p sohalarda sezilyapti. Bugun bu fanni rivojlantirishdan maqsadimiz - matematika bo'yicha raqobat muhitini yaratish, sanoat, muhandislik yo'nalishlari bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlash", - deya ta'kidlagan muhtaram prezidentimiz [4].

Shunday ekan matematika faniga o'quvchilarni qiziqtirish uchun mashg'ulotlarini zamonaviy metodlar orqali tashkillash kerak. Har darsga puxta tayyorgarlik ko'rish lozim.

Didaktik o'yinlar .o'quvchilarni darslarga va to'garak mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Har bir mashg'ulotda ta'lim sifatini oshirish uchun yangi-yangi didaktik o'yinlar bilan darslarni boyitishimiz kerak. Bolalar ko'rib, gapirib va bajarsalar 90 % ma'lumotni eslab qoladilar.

O'qituvchi ijodkor bo'lishi kerak. U har darsiga ijod qilib yangiliklar olib kelishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gazeta.uz
2. Mentalar.ru
3. Olimpia.uz
4. S.Jumanova Noodatiy fikrlash mahorati yoxud kreativlik qanday shakllantiriladi? "Ma'rifat" gazetasi 05.07.2019 y.
5. F.Bahromov, S.Burxonov, O.Xudoyorov:Ming bir boshqotirma, Toshkent 2016.

Ismatillaeva Latofat Ismatillayevna,
*Uchquduq tuman 18-maktabning
Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi*

BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada, boshlang'ich ta'lim tizimini takomillashtirishning dolzarb masalalari haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. Boshlang'ich ta'limning mustahkam poydevori shaxslarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishi, millat kelajagi asosini shakllantirish uchun juda muhimdir. Biroq, butun dunyo bo'ylab boshlang'ich ta'lim tizimi shoshilinch e'tibor va innovatsion yechimlarni talab qiladigan ko'plab muammolarga duch kelmoqda. Ko'pgina boshlang'ich ta'lim tizimidagi eng muhim muammolardan biri bu tegishli infratuzilmaning yetishmasligi.*

***Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, ta'lim tizimi, dolzarb masalalar, takomillashtirish, ijtimoiy rivojlanish, innovatsion yechimlar, maktablarda qulayliklar yaratish.*

Ushbu muammoni hal qilish uchun hukumatlar va ta'lim organlari infratuzilmani rivojlantirishga investitsiyalarni birinchi o'ringa qo'yishlari kerak. Yangi maktablar qurish, mavjudlarini ta'mirlash va toza suv va funktsional sanitariya inshootlari kabi asosiy qulayliklardan foydalanishni ta'minlash muhim qadamlardir. Yetarli infratuzilma nafaqat qulay o'quv muhitini osonlashtiradi, balki o'quvchilar va o'qituvchilarning umumiy farovonligiga hissa qo'shadi. Borgan sari raqamli asrda raqamli bo'linish sifatli ta'limga adolatli kirishni ta'minlash uchun katta to'siq tug'diradi. Ba'zi o'quvchilar internetda mavjud bo'lgan ta'lim manbalarining ko'pligidan foyda ko'rishsa, boshqalari, ayniqsa marginal jamoalarda, asosiy raqamli vositalardan foydalanish imkoniyati yo'q. Ushbu nomutanosiblik ta'lim natijalaridagi mavjud farqlarni kuchaytiradi.

Boshlang'ich ta'limni takomillashtirish nafaqat kirishni ta'minlash, balki yuqori ta'lim standartlarini kafolatlashdir. Turli mintaqalar va ijtimoiy-iqtisodiy qatlamlardagi ta'lim sifatidagi tafovutlar tengsizlikning doimiy aylanishiga yordam beradi. Ushbu muammoni hal qilish ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. O'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirishga sarmoya kiritish juda muhimdir. Eng so'nggi o'qitish metodikasi bilan jihozlangan yaxshi o'qitilgan o'qituvchilar ta'lim sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar talabalarning ta'lim natijalarini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kam ta'minlangan oilalar farzandlari ko'pincha ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyati yo'qligi, noto'g'ri ovqatlanish va qiyin uy muhiti kabi to'siqlarga duch kelishadi. Ushbu kamchilik tsikli buzish boshlang'ich ta'limda mazmunli yutuqlarga erishish uchun juda muhimdir.

Ta'lim ilovalari, virtual haqiqat va o'yinlashtirilgan o'quv platformalari kabi interaktiv raqamli vositalar bolalarning e'tiborini tortadi va ularni o'quv jarayoniga jalb qiladi. Ushbu texnologiyalarning dinamik va interaktiv tabiati yosh o'quvchilar uchun o'rganishni qiziqarli qiladi, faol ishtirokni rag'batlantiradi. Yangi pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning individual ehtiyojlari va o'rganish uslublariga moslashtirilgan shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasini yaratishga imkon beradi. Moslashuvchan ta'lim platformalari o'quvchilarning taraqqiyotini tahlil qiladi va shunga mos ravishda darslar mazmuni va sur'atini moslashtiradi, bu esa har bir bolaning o'z qobiliyatiga moslashtirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Yangi texnologiyalar geografik to'siqlarni yo'q qilib, o'quvchilarni butun dunyo bo'ylab tengdoshlari bilan bog'laydi. Virtual sinflar, video konferens aloqa va onlayn hamkorlik loyihalari boshlang'ich o'quvchilarga turli madaniyatlar va istiqbollar bilan muloqot qilish imkoniyatini beradi, bu esa global xabardorlik va tushunishni rag'batlantiradi.

Boshlang'ich ta'limga yangi texnologiyalarni integratsiya qilishdagi muhim muam-molardan biri raqamli tafovutdir. Hamma talabalar uyda ishonchli internet ulanishlari va qurilmalaridan foydalanish imkoniga ega emas, bu esa o'rganish imkoniyatlaridagi no-mutanosiblikka olib keladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun maktab tomonidan berilgan qurilmalar bilan ta'minlash va barcha talabalar uchun internetga ulanishni ta'minlash kabi adolatli yechimlarni amalga oshirish kerak.

O'qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalarni o'qitish amaliyotiga samarali integ-ratsiya qilish uchun etarli tayyorgarlikka muhtoj. Kasbiy rivojlanish dasturlari o'qituv-chilarni raqamli vositalardan foydalanish, jozibador kontent yaratish va texnologiyani uzluksiz kiritish uchun o'qitish usullarini moslashtirish uchun zarur ko'nikmalar va is-honch bilan jihozlash uchun juda muhimdir.

Malakali o'qituvchilarning yetishmasligi, ayniqsa uzoq va kam ta'minlangan hu-dudlarda, butun dunyo bo'ylab boshlang'ich ta'lim tizimlarini tashvishga solmoqda. Ish haqining pastligi, kasbiy rivojlanish imkoniyatlarining yetishmasligi va qiyin ish sharo-itlari kabi omillar tufayli eskirish stavkalari ko'pincha yuqori bo'ladi. O'qituvchilar yetis-hmovchiligini bartaraf etish uchun hukumatlar raqobatbardosh ish haqi va imtiyozlarga sarmoya kiritishlari, o'qituvchilarga kam ta'minlangan joylarda ishlashlari uchun imti-yozlar berishlari kerak. Bundan tashqari, murabbiylik dasturlari, doimiy malaka oshirish va ish sharoitlarini yaxshilash o'qituvchilarni ushlab turish va ishdan qoniqishga yordam beradi.

Boshlang'ich ta'lim tizimini takomillashtirish hukumatlar, o'qituvchilar, jamoalar va xususiy sektorning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladigan murakkab va ko'p qir-rali vazifadir. Infratuzilmaviy kamchiliklarni bartaraf etishdan raqamli innovatsiyalarni qamrab olish va ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf etishgacha kelajak uc-hun mustahkam poydevor yaratish uchun kompleks yondashuv zarur. Biz boshlang'ich ta'limni takomillashtirishning murakkabliklarini ko'rib chiqar ekanmiz, ushbu muam-molarning o'zaro bog'liqligini tan olish va har bir jamoaning o'ziga xos ehtiyojlarini hi-sobga oladigan yechimlarni amalga oshirish juda muhimdir. Ta'limga ustuvor ahamiyat berish va inklyuziv, adolatli va sifatli boshlang'ich ta'lim tizimini rivojlantirish orqali jamiyatlar porloq va farovon kelajak uchun zamin yaratishi mumkin.

Maktablar yangi pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash uchun aniq tasavvur va strategik rejani ishlab chiqishi kerak. Ushbu reja maqsadlarni, kerakli ta'lim natijalarini, texnologiya resurslari uchun byudjet ajratishni va amalga oshirish muddatini ko'rsatishi kerak. Rejalashtirish jarayoniga o'qituvchilar, ota-onalar va ma'murlarni jalb qilish har tomonlama va hamkorlikda yondashuvni ta'minlaydi. Hamkorlikdagi ta'lim hamjamiyatlari o'qituvchilar ilg'or tajriba almashishlari, fikr almashishlari va bir-birlarini qo'llab-quvvatlashlari mumkin bo'lgan hamkorlikdagi ta'lim hamjamiyatlarini tashkil etish bebahodir. Ushbu jamoalar innovatsiyalar va doimiy takomillashtirish madaniyatini rivojlantiradi, bu esa o'qituvchilarga eng so'nggi texnologiyalar va pedagogik yondashuvlardan xabardor bo'lish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev.SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz.- Toshkent 2017yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asari Toshkent 2022.
3. Mirziyoyev SH.M. "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" Toshkent 2021.
4. To'rayeva.S. Boshlang'ich sinf ona tili fanidan kompetensiyaviy yondashuv asosidagi o'quv dasturi, darslik, metodik qo'llanmalar va ularning tahlili. Buxoro 2020 – yil.
5. Uzviylashtirilgan DTS va o'quv dasturi 2010-yil.
6. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini aqliy faoliyat usullariga o'rgatish texnologiyasi. Erkinova Malika, Ernazarova Manzura 2021-yil.
7. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida interfaol usulardan foydalanishning ta'limiy ahamiyati. Masturaxon To'rayeva 2021-yil.

Abdiyeva Qo'ysintosh Azadovna,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
"Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi"
kafedrası o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA 4K MODEL ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH ORQALI O'QUVCHILARNING O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISHIGA ERISHISH

Annotatsiya: Maqolada "Boshlang'ich sinflarda 4K modeli asosida darslarni tashkil etish orqali o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishiga erishish" mavzusi-da o'quvchilar matematika darsi jarayonida 4K modelidan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish, o'z-o'zini rivojlantirishlantiradi. Bu zamonaviy ta'limning dastlabki bosqichida o'quvchilar o'z ustida ko'proq shug'ullanishadi.

Kalit so'zlar: 4 K modeli, o'z-o'zini rivojlantirish, kollaborasiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash, zamonaviy metodika, hayotiy ko'nikmalar.

Boshlang'ich ta'lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo'lgani uchun ham nozik e'tibor talab etadi. Ayni shu pallada bola o'zida "o'quvchi shaxsi"ni yaratadi, maktabga va ta'lim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yo'lidagi kelgusi natijalar uchun kuch to'plashni boshlaydi. Bu esa, zamonaviy ta'lim oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida darsliklarning g'oyaviy, tarbiyaviy va ma'rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi. Ma'lumki, o'zgarishlar davrida ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi. Barcha fanlar qatori boshlang'ich sinflarda matematika fani xam bugungi kunda mamlakatimizning har bir fuqarosi umumiy madaniyatining zaruriy elementi bo'lib, umumta'lim maktabini bitirib chiqqan yoshlar ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotning turli jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha turlarida matematik mavzularni erkin, samarali, to'g'ri tushuna olish, uning cheksiz imkoniyatlaridan to'laonli bahramand bo'lish, zaruriy ko'nikma, malakalarga ega bo'lishlari kerak. Buning uchun esa, matematika darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish lozim.

Xalq ta'limi tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo'yicha muayyan ishlar bajarildi. Barchamizning xabarimiz bor yangi o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta'lim olishini boshladi. Bugungi yaratilgan darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K modeli asosi-

da ishlab chiqilganidadir. Ya'ni bu modelning asosiy maqsadi yodlatish yoki shunchaki o'qish va yozishni o'rgatish bilan cheklanilmaydi. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi. Ta'kidlanganidek, globallas-huv jarayonining tezlashishi dunyoda barcha sohalarda raqobat muhitini yanada kuch-haytirmoqda. Zamonaviy dunyoda intellektual va ijtimoiy kapital davlatlar taraqqiyoti-da tobora muhim o'rin egallamoqda. Bunday sharoitda zamonaviy sifatli bilim berishga asoslangan ta'limgina mamlakatning raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Ushbu jarayonda nostandart, kreativ va tanqidiy fikrlaydigan hamda yuqori aqliy salohiyatga ega bo'lgan mutaxassislarga talab ortadi. Bu esa bevosita ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liq uzluk-siz jarayondir.

Yangi tajriba bilan esa o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o'z fikrini erkin bayon eta olishiga ko'proq ahamiyat beriladi. Ushbu yangi zamonaviy maktab darsliklari innovasi-on yondashuvni taqdim etadi. Bu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishi-ga qaratilgan bo'lib, to'rt asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi.

1(K) Kollaborasiya – darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlan-tirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi. Kollaboratsiya (fransuzcha-collaboration) – umumiy manfaatga birga erishish uchun ikki yoki undan ko'proq kishining sherikchiligi demakdir. Shaxsning kollaborativ o'quv mu-hitiga kirishi o'quvchining insoniy munosabatlarga kirisha olish xususiyatini rivoj-lantirishga, amaliy, ilmiy va nazariy faoliyat ko'nikmalarini o'zlashtirishga, muayyan ijtimoiy normalar va funksiyalarni shakllantirishga faol jalb qilishni o'z ichiga oladi. O'quvchi jamiyatda o'zini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nik-malarni egallaydi, jamoa a'zolari bilan faol munosabatda bo'ladi, kelajakda turli xil ijti-moiy vaziyatlarda o'zini qanday tutishni, muloqot qilishni o'rganadi. Hamkorlik muhiti ijodiy salohiyatga ega bo'lib, o'quvchi shaxsiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bunday muhit-da o'quvchi o'zini jamoa faoliyat sub'ekti, ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida his qiladi, o'z ahamiyatini va shaxsiy qadriyatini tushunadi. Kollaboratsiya -ikki yoki un-dan ortiq kishining umumiy maqsadlarga erishish uchun har qanday sohada birgalikda-gi faoliyati bo'lib, bunda bilim almashish, o'rganish va kelishuvga erishish (konsensus) amalga oshiriladi. Hamkorlikda o'qitish g'oyasi turli mamlakat olimlari, jumladan, Ame-rika J.Xopkins universiteti professori –R.Slavin (1990), Minnesot universiteti professori –R.Jonson, D.Jonson (1987), Koloradoniya universiteti professori –Sh.Sharon (1988) to-monidan ishlab ishlab chiqilgan.

2(K) Kommunikativlik – darsliklar o'quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qo-biliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O'quvchilar o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unum-li foydalanishni o'rganadilar. Kommunikativlik shunday qobiliyatki, bunda o'qituvchi o'quvchilar bilan o'zaro to'g'ri muloqot o'rnatishi natijasida o'quvchilarda o'ziga nisbatan ishonch, xayrihoxlik uyg'otadi. Natijada o'quvchilar o'z o'qituvchisi bilan birga bo'lishga, o'qishga, jamoat ishlarida u bilan birga katnashishga xoziru – nozir bo'lishadi. Kommu-nikativ qobiliyatlar tashkilotchilik qobiliyatlari bilan birga uyg'unlashib ketsa o'quvchi-larga yanada samaralirok ta'sir etishga yordam beradi va o'zaro shaxslararo to'g'ri mu-

nosabatlar o'rnatishni ta'min qiladi. O'quvchilarga to'g'ri muomala qila olish, bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o'zaro munosabatlar o'rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

3(K)Kreativ fikrlash – darsliklar ijodiy fikrlash va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadilar, innovasion yechimlar ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Kreativlik (lot., ing. "create" - yaratish, "creative" - yaratuvchi, ijodkor) - individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat.

4(K)Kritik fikrlash – ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga analitik nuqtai nazardan yondashishni o'rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtai nazarini shakllantiradilar. Suqrot kritik ya'ni tanqidiy fikrlash an'anasi uchun kun tartibini belgilab beradi, ya'ni umumiy e'tiqod va taxminlarni aks ettirish va oqilona va mantiqiy e'tiqodlarni izchil dalillar yoki mantiqiy asosga ega bo'lmagan e'tiqodlardan ajratish ular bizning tabiiy egosentrizmimizga murojaat qiladimi yoki bizning manfaatimizga mos keladimi. Ular qanchalik mos bo'lishidan qat'i nazar, qanchalik qulay va qulay bo'lishidan qat'i nazar, ularni diqqat bilan ajratib ko'rsatish kerak. Shunday ekan, tanqidiy fikrlash aniq va oqilona fikrlashdir. Bu aniq va muntazam ravishda fikrlashni, boshqa narsalar qatorida mantiq va ilmiy fikrlash qoidalariga rioya qilishni o'z ichiga oladi. Ijodga kelsak, bu yangi va foydali g'oyalarni taklif qilish, muqobil imkoniyatlarni yaratishdir.

Ushbu muhim fikrlashlarni rivojlantirishga yordam berishni istasak, o'quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishimiz kerak. Maktabdagi har bir dars o'quvchilar faqat fan mazmunini o'zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan, o'z fikrini bayon qila oladigan va qobiliyatini rivojlantirishda 4(K) modeli asosida darslarni tashkillashtirish maqsadga muvofiqdir. Yangi zamonaviy darsliklarni yangi metodika asosida o'qitish asosa o'qituvchiga bog'liqdir. Boshlang'ich sinflar uchun yangi darsliklar esa kelajagimiz egalari bo'lmish yosh avlodni har tomonlama rivojlantiribgina qolmay, balki zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ularda shakllantirishga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyamammedov B. (2002) Nova Technologia paedagogica: Theoria et Usu. - T.: "Chinor ENK".
2. Makarenko A.S. (1972) Kollektiv i vospitanie lichnosti. - M. : Pedagogia, - 334 p.
3. Mavlonova R.A. (2016) Pedagogia. Textus. - T. : "Navroz", p., CV.
4. Mavlonova. K.M [et al.](2022) -Mater lingua latina [Text]: Textbook in 6th grade Tashkent: Republican Education Center.-224 p.

Mexmonov Ismat Toshpo'latovich,
“Aniq va amaliy fanlarni oqitish metodikalarini
takomillashtirish Ilmiy-tadqiqot bo'limi,
katta ilmiy xodim

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA STEAM YONDASHUVI

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitishda STEAM ta'limiy yondashuvni tashkillashtirish, texnologiya faniga STEAMni jalb qilish mezonlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: STEAM, Self-Direkted (o'zini boshqaruvchi), Motivated (Motivatsiya) adaptive (Adaptatsiya) Resource-enriched (variator) Technological (texnologiya) –SMART. Smart ta'lim konsepsiyasi- STK. Tabiiy fanlar, Texnologiya, muxandislik ishi, matematika – STEM. Rejalashtirish, baholash va siyosatni ishlab chiqish boshqarmasi – rbsichb. Maxsus ta'lim va reabilizatsiya xizmatlari idorasi – MTRXI.

Bugungi kunda dunyoda to'rtinchi texnologik inqilob mavjud, tezkor axborot oqimlari, yuqori texnologiyali innovatsiyalar va rivojlanishlar hayotimizning barcha sohalarini o'zgartirib bormoqda. Ta'lim sifatini oshirish maqsadida qabul qilingan farmon va qonunlarda, maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga ilg'or xoriy tajribalar, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, jumladan ta'lim berishning innovasion usullarini joriy etish, o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yangi avlodlarini joriy etish va amaliy ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish belgilangan.

Shuningdek, umumiy o'rta ta'limning yangi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish va shu bilan birga STEAM metodlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilangan. Shu bilan birgalikda, jamiyatning talablari, shaxsning manfaatlari ham shunga ko'ra o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda o'quvchilarni robototexnika, 3D dizayn, modellashtirish, dasturlashga bo'lgan qiziqishlari ortib bormoqda. Ushbu manfaatlarni ro'yobga chiqarish uchun mahorat va kompetentlik talab etiladi. Faqat bilish va anglash emas, balki tadqiqot va ixtiro qilish ham muhimdir. Bunda STEM (Science, technology, engineering and mathematics) – bir vaqtning o'zida fan, texnologiya, matematika va muhandislik sohalarini bir so'z bilan birlashtirish mumkin bo'lgan integratsiyalashgan ta'lim yondoshuvi muhim ahamiyat kasb etadi. STEM integratsiyalashgan ta'lim yondoshuvi jahon ta'limidagi asosiy tendensiyalardan biridir. U O'z ichiga matematika, texnologiya, ijodkorlik, muhandislik san'ati va tabiiy fanlarni o'rganishni qamrab oladi. Integratsiyalashgan ta'lim jarayoni muhandislik, dizayn va modellashti-

riş sohasida talab qilinadigan mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi. STEM – real hayot talablaridan kelib chiqqan holda ilmiy-texnikaviy konsepsiya doirasida integratsiyalashgan holda o‘qitishdir.

Fanlarni o‘qitish metodikasi maktabda barcha fanlarni o‘qitishga oid masalalarni: o‘qitishning g‘oyaviy yo‘nalganligini, o‘qitishning mazmuni bilan metodlarning birligini, o‘quv ishlarining shakllari o‘rtasidagi izchillikni va barcha ta‘lim elementlarining yaxlitligini, hamda rivojlanishini ko‘rib chiqadi. Shuningdek, fanlarni o‘qitish jarayonlariga STEAM ta‘limiy yondashuvni jalb qilish mezonlarini aniqlaydi. Bugungi kunda deyarli har bir kishi smartfonlardan foydalanmoqda. Bizning dunyomizni texnologiyasiz tasavvur etishning iloji yo‘q. Bundan keyin ham texnologik rivojlanish davom etadi va STEAM ko‘nikmalari bu rivojlanishning asosi bo‘lib hisoblanadi. STEAM o‘quvchilarni ilhomlantiradi. O‘quvchilar kashfiyotchilar va olimlar sifatida tadqiqotlar olib borishadi, texnologiyalarning imkoniyatlarini bilishadi, muhandislar sifatida loyihalashadi, rassomlar sifatida ijod qilishadi, matematiklar kabi fikrlashadi va, albatta, bolalar zavqlanib o‘ynashadi. STEAM – o‘quvchining intellektual qobiliyatlarini ilmiy va texnologik ijodkorlikka jalb qilish imkoniyati bilan rivojlantiradi. U o‘quvchilarning aniq, tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlanishiga qaratilgan o‘quv dasturiga asoslanadi. STEAM – olti bosqichdan iborat: savol, muhokama, dizayn, tuzilish, test, rivojlanish. Ushbu bosqichlar loyihaaning asosi hisoblanadi. O‘z navbatida o‘quvchilar bir jamoa sifatida barcha imkoniyatlardan foydalanish, birgalikda harakat qilish, undan foydalanish ijodkorlik va innovatsiyalarning asosidir. Shunday qilib, ilm-fan va texnologiyalarni bir vaqtning o‘zida o‘rganish va uni qo‘llash ko‘plab yangi innovatsion loyihalarni yaratishga yordam beradi.

STEAM yondashuvi quyidagi imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

- ta‘lim berishda o‘quv fanlari bo‘yicha emas, mavzular bo‘yicha integratsiyalab berib borish.

- Ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo‘llashni bilish. Bunda o‘quvchilar muhandislik bilimini oshiradi va ko‘rgan narsasini prototipini yaratishga harakat qiladi.

- Tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish va muammolarni hal qilishga o‘rgatish. Bunda kundalik hayotda duch keladigan qiyinchiliklar bartaraf etishda olgan bilimlari yordam beradi.

- O‘z kuchiga ishonish hissining hosil bo‘lishi. O‘quvchilar turli xil mashina va buyumlar yasashga kirishganlarida maqsad sari intiladilar va o‘ziga bo‘lgan ishonch ortib borishiga yordam beradi.

- Faol kommunikasiya va komandada ishlash. O‘quvchilarni erkin fikrlashga, birbiri bilan muloqat qilishga, taqdimotlarini bayon etishga o‘rgatadi.

- Texnik fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish. STEAM yondashuvining vazifasi, o‘quvchilarni tabiiy va texnik fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat.

- Loyihalarga kreativ va innovatsion yondashuv. STEAM- yondashuvi 6 ta bosqichdan iborat bo‘lib, bular savollar, muhokama, dizayn, qurish, sinovdan o‘tkazish va rivojlantirishdan iborat.

- O‘quvchilarga ta‘lim olishlari, hamda karyera qilishlari uchun zamin yaratadi. Bu kelajakda kasb tanlashiga ham yordam beradi.

- O'quvchilarni texnologik yangiliklar yaratishga, ya'ni fan-texnika rivojlanayotgan bir paytda zamon bilan birgalikda hamnafas bo'lib, o'rganishiga asos bo'ladi.

- STEAM- maktab dasturining o'zgarishiga ham ta'sir etadi. Bunda o'quvchilarga xalqaro standartlarga mos ravishda ta'lim bergan bo'lamiz. Bu vazifalarni oshirishda albatta o'qituvchilardan juda katta ma'suliyatni, ijodkorlikni, zamon bilan hamnafas bo'lib yashashga undaydi.

Demak, integratsiyalashgan ta'limni joriy etishdan ko'zlangan maqsad - bu ta'lim, jamiyat, ish va dunyoni bir butun holda tasavvur etish va ular o'rtasida barqaror aloqa o'rnatishdan iborat ekan. STEAM yondashuvi - nazariya va amaliyotning birlashtirilgan natijasidir. Bu ta'limiy yondashuv umumiy o'rta maktablarida o'qitilayotgan texnologiya ta'limini o'qitish jarayoniga jalb qilishni ko'rib chiqamiz. Yuqorida ta'kidlaganidek, STEAM fanni integratsiyalash emas, mavzularni integratsiyalashni nazarda tutgan holda fan ichiga kirib, har bir mavzuni integratsiyalash kerak bo'ladi.

STEAM mashg'ulotlari tashkil etish, o'qituvchilarga yo'nalishlar berish, seminarlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir, chunki mamlakatimizning yuksalishi uchun ta'limning sifat samaradorligini yanada oshirish uchun eskicha an'anaviy metodlardan voz kechib, xalqaro metodlardan foydalanib darslar tashkil etish joizdir.

Ta'limdagi yuksalish uchun, avvalo bugungi xalqaro standart talablarga javob bera oladigan dasturlardan, zamonaviy dizayn va mazmunga ega darsliklardan foydalanishimiz kerak.

Texnologiya fani fan bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi amaliy fan bo'lib, tabiiy fundamental fanlarning amaliy qismlari hisobiga tashkil topgan fan hisoblanadi.

Texnologiya fanini mavzular to'plamini uslubiy tahlil qilsak, deyarli barcha mavzularni integratsiyalashga moneligini ko'rishimiz mumkin. Texnologiya fanini texnologiya va dizayn, servis xizmat ko'rsatish yo'nalishlarda yog'och, metal, polimer va gazlama materiallariga ishlov berib, mahsulot yaratish texnologiyalarini, qishloq xo'jalik asoslari yo'nalishi bo'yicha esa tuproqqa ishlov berib, mahsulot yetishtirishni qamraydigan va keng diapozonda boshqa fanlardan amaliy bilimlar talab qiladigan mavzulardan iborat bo'ladi.

Shunday qilib, deyarli barcha yo'nalishlarni barcha mavzulari xom ashyoni moslashtirish va tanlash, o'lchash-rejalash, o'lchov andaza olish, bo'laklarga bo'lish, alohida bo'laklarga ishlov berish, ishlov berilgan bo'laklarni yig'ish, oxirgi ishlov berish, ekish, parvarishlash, yig'ishtirib olish kabi mahsulot yaratishga xizmat qiladigan keng qamrovli bilim ko'nikmalarni talab qiladi. O'z-o'zidan ko'rinadiki, o'qitilishga mo'ljallangan barcha mavzularni o'qitish integratsiya talab qiladi. Istagan yo'nalishda istagan mavzuni o'qitishda qaysi fanlar asosida integratsiyalashni bilish kerak bo'lar ekan.

Xulosa qilib aytganda, an'anaviy o'qitish uslublari bilan taqqoslaganda, STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o'z g'oyalarni haqiqatga aylantirishga va bolaning o'ziga mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va universitetga kirish va keyingi o'qishni osonlashtiradi. STEAM yondashuvi asosiy global tendentsiyalardan biridir. Hozirgi kun-

da texnik yoʻnalishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Koʻpgina maktabgacha taʼlim tashkilotlarida, umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida, toʻgaraklarda IT texnologiyalari boʻyicha sinflar, STEAM laboratoriyalari va LEGO markazlari yaratilmoqda. Bolalar uchun tashil etilayotgan qoʻshimcha taʼlim va tarbiya formati oʻzgarmoqda.

Bolalarga STEAM yondashuvi asosida bilim berilsa, maktab yoshida innovatsion taʼdqiqotlarni mustaqil ravishda amalga oshira oladi. STEAM taʼlim modelining mazmuni bugungi kunda amalga oshirilayotgan koʻplab loyihalarning muhim tarkibiy qismidir, lekin koʻp jihatdan butun taʼlim tizimining yangi predmetli-makonli muhitini yaratishga, uning mazmuni, dasturiy taʼminoti va uslubiy taʼminotini yangilashga bogʻliq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Днепровская Н.В. Система управления знаниями как основа SMART обучения. Открытое образование. 2018. Т. 22, № 4. С. 42–52.
2. Тихомирова Н.В. “Умные” кадры для SMART-города
3. Тихомирова Н.В. Глобальная стратегия развития. SMART-университету.
4. Днепровская Н.В. Янковская Е.А., Шевцова И.В. Понятные основы концепции смарт-образования // Открытое образования. 2015. № 6. С. 43–51.

Karimova Fotima,
*Toshkent shahar, Chilonzor tumani 281-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY VA XORIIY TAJRIBALARNI DARSLARDA QO'LLASH

***Annotatsiya:** Bolaning ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyani rivojlantirishda zamonaviy va xorijiy tajribalarni darslarda qo'llash orqali 4K moduli asosida asosiy ko'nikmalar: aloqa, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik ko'nikmalarni shakllantirishdir.*

***Kalit so'zlar:** Motivatsiya, og'zaki va yozma muloqot, darsliklar, 4 K moduli, STEAM ta'limi, "IVEN" texnologiyasi, "Brenrayting" metodi.*

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish va e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya uzluksiz, muayyan maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, unda barkamol shaxsni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Demak, pedagogik jarayonning asosiy maqsadi barkamol inson shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir.

Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi bolaning ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyani rivojlantirish, o'qish, tinglash, mantiqiy izchillikda fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda yozma va og'zaki muloqot madaniyatini tarkib toptirishdan iborat. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim barcha ta'lim turlarining asosiy poydevori hisoblanadi.

Maktabga ilk qadam qo'ygan bola qalbida o'qishga havas uyg'otish, ilm olishga mehr uyg'otish, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy maqsadidir.

Chunki boshlang'ich ta'lim ta'limning poydevoridir. Har bir pedagog zamon bilan hamnafas bo'lmog'i, yangiliklardan xabardor bo'lmog'i darkor, ta'lim sifatini oshirishga o'z hissasini qo'shmog'i lozim. Avvalombor har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi ongli o'qishga e'tibor qaratmog'i lozim.

O'quvchilarning har tomonlama yetuk inson bo'lib yetishishida biz - pedagoglarning o'zni beqiyos. Bugungi kundagi darsliklar o'quvchilarda 4K moduli asosida asosiy ko'nikmalar shakllantiriladi: aloqa, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik ko'nikmalarni laboratoriyalarda yoki ma'lum matematik algoritmlarni bilish orqali olish mumkin.

STEAM ta'limi fanlarini tobora kengroq o'rganishlari uchun zamonaviy texnologiyadan biridir. Bu texnologiya o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, tadqiqot qobiliyatlari va guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida bir nechta fan yo'nalishla-


rini birlashtirgan o'qitish texnologiyasi sifatida qo'llanib kelinmoqda. Bu texnologiyani o'qituvchi 4K moduli asosida ishlab chiqilgan yangi matematika darslikda ko'proq tabiatga oid masalalarda yaqqol ko'rinadi. Masalan, atrof-muhit ifloslanishi bo'ladimi, iqlim o'zgarishimi, yechim qila olish ko'nikmalari shakllangan bo'ladi

■ Toshko'mir
▲ Neft

● Oltin
△ Tabiiy gaz



4. Chizma yordamida masala o'ylab toping va yeching.



STEAM texnologiyasi kelajakda yoshlarimizni hayot so'qmoqlaridagi murakkab muammolarini tushunish va hal qilish, o'zining yashash sharoitini mustaqil yarata olish, atrofidagilar bilan ongli munosabat o'rnata olishlari uchun yondashuvlarni joriy qilish zarur.

Chunki zamon ilgari lab borayotgan bugungi davr bolasini qirq besh daqiqalik dars mobaynida diqqatni faollashtirib bilim berish-murakkab jarayon. Shuning uchun bolalarga turli texnologiyalardan foydalanish orqali ishlab chiqarishni, yangi texnik fikrlarni aniq fanga aylantirishda, ixtiroli masalalarni yechishda "IVEN" texnologiyasi yordam beradi. Bu texnologiyadan foydalanish ayniqsa tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda ahamiyati katta.

2-sinf tabiiy fanidagi "Til faqat gaplashish uchun berilmagan" mavzusida ovqatning mazasi faqat uning ta'mi emas, balki hidi, harorati va boshqa holatlariga bog'liqligi aytib o'tiladi.

Tajriba qilib ko'ramiz: barmoqlar bilan burnimizni berkitib, ko'zimizni yumamiz. Endi yeguliklardan qay birini ta'miga qarab aytib bera olasiz?



"IVEN" texnologiyasi – ta'limda eskiliklardan voz kechishdir. IVEN elementlari ta'lim -tarbiya, shuningdek, boshqa sohalarda ham ishlatilishi mumkin. Hayot va tabiatdagi har bir predmet, har bir modda, hodisa, voqea, ob'ektda ikkilamchilik siri, qarama-qarshilik mavjudligi o'quvchilarni har bir narsaning nimasidir yaxshi-yu, nimasidir yomon, bir tomondan foydali, ikkinchi tomondan zararli, bir jihatdan halal bersa, ikkinchi jihatdan zarur ekanligiga qiziqish uyg'otadi va uni topishga undaydi. Bu bilan o'zlas-

htirilishi qiyin boshlagan ayrim materiallarni IVEN elementlari orqali osonlik bilan o'zlashtira olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunda ko'p narsa insonning aql - zakovatiga, intellektual qobiliyatiga ham bog'liqdir.

“Brenrayting” metodi. Bu metodning qo'llanishida barcha g'oya, fikrlar yozma bayon etiladi. Bu esa o'z fikr va g'oyalarni og'zaki bayon etishga qiynaladigan ba'zi o'quvchilar uchun qulaylik yaratadi. O'quvchilar tomonidan yozilgan fikr va g'oyalarning imloviy va uslubiy xatolariga e'tibor qaratilmaydi hamda yozilgan fikrlar oralarida keyinchalik xayolga kelgan fikrlarni yozish uchun bo'sh joylar ham qoldiriladi. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin, mustaqil ifoda etish topshiriladi. G'oyalar tahlili keyinroq o'tkaziladi. Bu metoddan foydalanilganda muammoning yechish variantlari imkon qadar ortadi.

2-sinf ona tili fanida bu metoddan o'quvchilarning fikrlashi, yozma savodxonligi, grammatik bilimlari rivojlantirishda qo'llaniladi. Masalan:

1. Kitobni nimaga qiyoslash mumkin?
2. Nima uchun kitob o'qimagan uyga zulmat va ma'rifatsizlik kiradi?
3. Sizing oilangizda kimlar kitob o'qiydi?
4. Qanday kitob o'qishni istaysiz?

Zamonaviy va xorijiy tajribalar asosida yaratigan texnologiyalar qo'llanilganda mas-hg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari chiqarishlariga qaratilgandir.

O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida o'gi PF-5712-sonli Farmoni//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.

2. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.

3. Avlayev O.U., Jo'rayeva S.N., Mirzayeva S.P. “Ta'lim metodlari” o'quv-metodik qo'llanma, Toshkent: – “Navro'z” 2017(23)

Qodirova Zulxumor Toshmirzayevna,
Namangan viloyati Norin tumani 10-umumta'lim maktabi
oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA DIQQATNING KUCHI VA BARQARORLIGINI OSHIRISH, TEZKORLIKKA O'RGATISH

Annotatsiya: *Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchisi jiddiy e'tibor berish kerak bo'lgan o'quvchilar diqqatining kuchi va barqarorligini oshirish yoritilgan. Diqqat aqliy faoliyatini muayyan bir ob'yektga yo'naltirishda foydalanish mumkin bo'lgan usullardan misollar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriy diqqatdan so'nggi diqqat, ob'yekt, mimika.*

Ta'lim va tarbiya murakkab va mashaqqatli jarayongina bo'lib qolmay, hamisha dolzarb masaladir. Prezidentimizning maktab ta'limiga jiddiy e'tibori va g'amxo'rliги bejiz emas. Zero ta'lim va tarbiyaning birligi hamda ustivorligi kelajagimiz ravnaqining asosidir. Prezidentimizning ta'limni rivojlantirish maqsadida qabul qilinayotgan qator farmon va qarorlari har bir pedagog oldiga burch hamda mas'uliyat yuklaydi. Ta'lim va tarbiyaning poydevori boshlang'ich ta'lim hisoblanadi. Zero, tagzamini mustahkam imorat umrboqiy bo'lganidek, boshlang'ich ta'limni puxta egallagan o'quvchi kelajakda komil inson bo'lib etishadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilar diqqatining kuchi va barqarorligini oshirishga jiddiy e'tibor berish kerak.

Diqqat – aqliy faoliyatini muayyan bir ob'yektga yo'naltirish va ana shu ob'yektga ma'lum muddat ushlab turishdir. Aqliy faoliyatini barcha turlarida diqqat ishtirok etadi. Agar odam diqqatini o'zi idrok etayotgan narsaga qaratmasa, hech bir ish – harakat sifatli bo'lmaydi.

O'quvchi biror bir predmetga qarab tursa ham uni ko'rmasligi mumkin. Diqqatni qaratish orqali sezgilar kuchaytiriladi. Demak, diqqat – bilim faoliyatining zaruriy shartidir. Eng oddiy ishlardan tortib, o'ta jiddiy, murakkab ishlarni diqqatning ishtirokisiz bajarib bo'lmaydi. Diqqat mimikada, tashqi qiyofada aks etadi. Lekin aytim hollarda bu qiyofa chalg'ituvchi bo'lishi ham mumkin.

Diqqat 3 turli bo'ladi:

1. Ixtiyoriy diqqat.
2. Ixtiyorsiz diqqat.
3. Ixtiyoriy diqqatdan so'nggi diqqat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ixtiyorsiz diqqat kuchli bo'ladi. Xonaga eshitilgan biror bir tovush, nur, o'rtog'ining past ovozdagi so'zi o'quvchi diqqatini tez bo'ladi. O'quvchilarda ixtiyoriy diqqatni shakllantirish uchun o'qituvchi o'quvchilarni, yoshini, individual xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ayrim hollarda biror narsani boshlash qiyin bo'ladi. Ixtiyoriy tashkil qilingan diqqatni ixtiyorsiz holatga o'tishi, ixtiyoriy diqqatdan so'nggi diqqat deyiladi. Diqqatning barqarorligi aqliy faoliyatni tegishli ob'ektga qancha muddat ushlab turilishi bilan belgilanadi. Diqqatning ko'chishi deganda biz uni 1-narsadan 2-narsaga yoki faoliyatini 1-turidan 2-siga o'tishini tushunamiz. Diqqatning bo'linishi bir vaqtning o'zida diqqatni birdan ortiq ob'ektga taqsimlashdir. O'qituvchi sinfdagi har bir o'qituvchini nazoratsiz, e'tiborsiz qoldirmasligi kerak. Masalan, o'quvchi ona tili darsida doskadagi yozuvni o'qiydi, aytib turib yozadi. U birdaniga 3 ta faoliyatni bajaradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi diqqatining kuchli, ko'lami keng va barqaror bo'lish uchun o'qituvchi nimalarga e'tibor berish zarur?

Avvalo, o'qituvchi bolalar psixologiyasini yaxshi bilishi, yosh va individual xususiyatlarga e'tiborli bo'lish kerak. O'zi har tomonlama namunali, nutqi, tashqi ko'rinishi chiroyli bo'lish kerak. O'qituvchilar diqqatni o'zi xohlagan tomonga yo'naltira olish, faoliyat turini o'zgartirgan holda o'quvchilar zerikishi, charchashini oldini olishi kerak. O'quvchilar diqqatni ko'lami va e'tiborini oshirish uchun o'qituvchi ona tili va o'qish darslarida 1 qator usullardan foydalanish mumkin.

1. Matnli topshiriqlar. O'qituvchi o'tgan mavzuni umumlashtirayotganda bu matnga mutlaqo aloqasiz darslarni qo'shib ketadi. O'quvchilar sezgirlik bilan bu jummalarni farqlay bilishi kerak.

2. Suratli topshiriqlar. "Olaparni toping" kabi topshiriqlar. Bunda o'quvchi matnning har bir jumlasiga diqqat qilishi kerak bo'ladi.

3. "Kim ko'p so'z topadi?" O'yini ham o'quvchidan diqqat va sezgirlik talab etadi. Bunda o'quvchi bir vaqtning o'zida 2 xil so'zni hosil qiladi.

Suratli topshiriqlarga "Rasmdagi farqni toping?", "Rassom xatosini toping?" Kabi topshiriqlarni kiritish mumkin. 2 ta bir xil ko'ringan rasmda aslida bir nechta farq berilgan bo'ladi. O'quvchi esa sezgirlik bilan bu farqlarni topishi kerak. "Rassom xatosini toping?" Topshirig'ida o'quvchi rassom atayin yo'l qo'ygan topshiriqlar qovun-tarvuzlarning daraxtda o'sishi, tovuqlarning, mushuklarning suvda suzishi, kuchuklarni o't yeyishi va h.k.larni aniqlashi kerak.

O'qituvchi yangi mavzuni boshlashdan oldin o'quvchilar diqqatini jamlab olishi kerak. O'qituvchi matnni o'qib beradi. O'quvchilarga matn mazmunini so'zlatish ularni matnni diqqat bilan eshitishini talab qiladi. Matn mazmunini so'ralganda har bir o'quvchi o'ziga xos hikoya qiladi. Bir o'quvchi matndagi asosiy o'rinlarga e'tibor bersa, boshqasi ikir-chikirlarigacha aytib o'tadi. Yana biri esa mayda elementlarga e'tibor berib asosiy-lariga diqqat qaratmaydi. O'qituvchi qayta hikoya qilish jarayonida muhim element va o'rinlarni ta'kidlab o'tishi kerak. Hozirgi shiddatkor zamonda axborot shunchalik ko'pki u insondan diqqat va tezkorlikni talab etmoqda. O'quvchilar intellektual salohiyatini oshirish, bilimli hozirjavob bo'lib yetishish uchun boshlang'ich sinfligidanoq tarbiyalab borish zarur. Darslarda pedagogik texnologiyadan foydalanish, tezkor savol-javob-

lar o'tkazish orqali bu orada birmuncha yutuqlarni qo'lga kiritish mumkin. O'qituvchi darsda musobaqa o'tkazganda o'quvchi har yo'qlama ishlaydi. O'rtog'ini bajargan ishini kuzatadi, ishning davomini ongida ishlab chiqadi, to'g'ri va noto'g'ri javobni farqlaydi. O'quvchi ko'p narsani bilish mumkin, lekin u javob berishda qiynaladi, chunki unda tezkorlik yetishmaydi. Tezkor savol-javoblar, kubiklardan shakl va tasvir hosil qilish o'quvchini faolroq bo'lishga tezkorlikka o'rgatadi. Bunda o'quvchilarni guruhlariga bo'linadi va qiyinlik darajasi bir xil bo'lgan topshiriqlar beriladi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarni nafaqat tezkorlik, balki jamoa bo'lib ishlashga ham o'rgatadi.

Har bir o'qituvchining vazifasi har tomonlama yetuk, bilimli, komil insonni tarbiyalashdir. Bu o'qituvchidan bilim, izlanuvchanlik va pedagogik mahorat talab qiladi. O'qituvchi darsning har bir daqiqasidan shunday unumli foydalanishi kerakki 1 soatlik darsni "Yirik bir asar" darajasiga yetkaza olishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Voxidov "Bolalar psixologiyasi" Toshkent 1982 yil.
2. E.g'oziyev "Psixologiyada shaxs tushunchasi" Toshkent 2000 yil.
3. S.Matchonov, A.Shojalilov 4-sinf "o'qish kitobi" 2017-yil.
4. "G'uncha", "Bilimdon" jurnallari

Rustamova Naima Sobitovna,
Namangan viloyati Yangi Namangan tumani
59-sonli umumiy o'rtta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI IJODIY FIKRLASHGA O'RGATISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan o'qitish texnologiyalari tasnifi hamda ijodiy tasavvurni rivojlantirish usullari mazmuni yoritilgan.

Kalit so'zlar: tasavvur, ijodiy tasavvur, o'qitish texnologiyasi, ijodiy fikrlash, fikrlashni psixologik faollashtirish uslublari, muammoli o'qitish.

Ma'lumki, bola tafakkuri, qiziqishi, hayolot olami va moyilliklari, asosan boshlang'ich sinflardan shakllanib individual qiyofa kasb eta boshlaydi. Bu davrda o'rganilishi ko'zda tutilgan o'quv fanlarining har biri boladagi hissiy-irodaviy xususiyatlar va bilish jarayonlarining qaysidir biriga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Masalan, matematika darslarida mantiqiy tafakkur va xotira, o'qish darslarida his – tuyg'u, nutq madaniyati, kommunikativlik, ona tili darslarida bog'lanishli nutq, ijodiy fikrlash, tasviriy san'at darslarida tasavvur, hamda fantaziya, jismoniy tarbiya darslarida iroda, xarakter xususiyatlarini tarbiyalash maqsadiga oid ta'limiy vazifalar amalga oshiriladi. Ayniqsa, ona tili va o'qish fanlari o'quvchilar ijodiy tafakkurini kamol toptirishda alohida o'rin tutadi.

O'qish darsligida, asosan, kichik matn yaratish, sarlavha topish, reja asosida bayon yozish, asar mazmuniga doir rasm chizish, hikoya tuzish (o'quv yili yakunida) kabi topshiriqlar orqali ijodiy fikrlash masalasiga e'tibor qaratilgan. Yuqoridagi fikrlardan boshlang'ich ta'limda insho o'tkazish metodikasini takomillashtirish orqali o'quvchilar ijodiy tafakkurini o'stirish mumkinligi haqidagi xulosaga kelish mumkin.

Uzluksiz adabiy ta'lim jarayonida insholar xususiyatiga ko'ra uch turga bo'linadi.

A) qayta xotiralash xususiyatiga ega bo'lgan insholar;

B) qisman izlanuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan insholar;

D) ijodiy xususiyatiga ega bo'lgan insholar;

Bunday xususiyatdagi insholar, asosan, yuqori sinflar adabiyot darslarida o'tkaziladi. Lekin kichik sinflardan boshlab insho yozishga tayyorlab borish o'quvchilarning ijodiy malakalari hamda bog'lanishli nutqini o'stirishga zamin yaratadi.

1. Qayta xotiralash xususiyatiga ega bo'lgan insholarni yozishda, asosan, darslik materiallariga tayaniladi. Bunday mazmundagi insholar darsda o'rganilgan mavzular tahliliga, asarning g'oyaviy mazmunini yoritishga bag'ishlanadi. Ta'kidlash mumkin, boshlang'ich sinflar "o'qish" darslarida asosiy e'tibor o'quvchilarning og'zaki

nutqini o‘stirishga (qayta hikoyalashga), o‘qish texnikasiga rioya qilishga yoki o‘qish tezligini oshirishga qaratiladi.

2. Qisman izlanuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan insholar

Mustaqil o‘qilgan asarlar yuzasidan yaratiladi. Bunday mazmundagi insholar qisman izlanishni, ya’ni o‘quvchidan asarga mustaqil baho berishni talab etadi. O‘quvchi asar va hayotdagi voqea – hodisalarni qiyoslashi zarur bo‘ladi.

3. Ijodiylik xususiyatiga ega bo‘lgan insholar o‘qituvchi va o‘quvchidan tinimsiz izlanishni taqazo etadi. Bunda o‘quvchidan yon – atrofdagi voqealarga nisbatan sinchkov va kuzatuvchan bo‘lishi, hayotni o‘rganishi, egallagan bilim va ko‘nikmalarini yangi vaziyatlarda qo‘llay olishi, ijodiy faoliyat ko‘rsatishi talab etiladi.

Ijodiylik xususiyatiga ega insholar ijtimoiy hayot, mehnat, shaxsiy kechinmalar va taassurotlar; tabiat manzaralari, kishilar turmush tarzi, ularning mehnat jarayoni, portret, yozuvchi hayoti va ijodiy faoliyatiga doir rasmlar asosida; xaykaltaroshlik, me’morchilik, musiqa va tasviriy san’at asarlari haqidagi mavzularni yoritishi yuzasidan bo‘lishi mumkin. Ijodiy lashtirilgan insholarning muvaffaqiyatli chiqishi bir qator omillarga bog‘liq. Bular: mavzuning qiziqarli bo‘lishi; bir vaqtning o‘zida bir nechta mavzuning tavsiya etilishi; o‘qituvchi rahbarligi hamda tevarak – atrofni, odamlarning turmush tarzi yoki hatti-harakatlarini kuzatishga odatlantirish kabilardir.

Mavzuning qiziqarliligi o‘quvchiga motivatsiya bersa, ko‘p variantlilik ixtiyoriy tanlashga sharoit yaratadi. O‘quvchi faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga sola bilish esa muvaffaqiyat omilidir. Atrof-olam va hayotni kuzatishga odatlantirish orqali o‘quvchida to‘plangan ma’lumotlardan o‘z o‘rnida va tizimli foydalanish malakasi shakllantiriladi. Masalan, 4-sinf “o‘qish” darsida Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Do‘stlik” hikoyasi berilgan. Abduqodirning xulq-atvori, xatti – harakatlari, qariyb tengdoshligi bu sinf o‘quvchilari tabiati va yoshiga biroz yaqin. Hikoya o‘rganilgach, Abduqodir obraziga xos xususiyatlar haqida insho yoki Abduqodirga maktub yo‘llash kabi topshiriqlardan birini berish mumkin.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir zamonaviy yondashuvlar mazmuni hamda unga ta’sir etuvchi omillar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini tashkil etishning alohida metodik tizimi maxsus tadqiq etilmagan. Mazkur jihatlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” VM -1059 son Qarori. - T.: - 2019 yil 31 dekabr.

2. Abduqodirov A.A., Otabayeva F.T. Ijodiy tasavvur va uni rivojlantirishning intellektual qurollari. - Namangan: 2013. – 116 b.

3. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. F. D... diss. – T., 2003. – 280 b.

4. Ismailov M. K. (2021). Empirical analysis of the development of sanogen thinking in student’s on the basis of a reflective approach. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 592-599.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MUSTAQIL FIKRLASHNING IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash jarayonida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning mazmuni va mohiyati ochib berilgan. Pedagogik faoliyatda ijodiy masalalarni yechish usullari hamda ijodiy salohiyatni amalga oshirishning o'ziga xos jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Ijodiy qobiliyat, ijodiy faoliyat, ijod, yaratish, boshlang'ich sinf, faoliyat, didaktik, algaritmik usul, kognitiv bilim.*

Ta'lim jarayonida ko'p yillardan buyon boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish muammosi turli fan sohalarining, shu jumladan falsafa, pedagogika, lingvistikaning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Hozirgi rivojlanayotgan zamonda turli sohalar bo'yicha tanlovlar kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo'lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg'ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq qilish lozim. Shu bilan bir qatorda muayyan sohalariga qiziqishi, intilishi va qobiliyatini namoyon qilayotgan o'quvchilarni izlash aniqlash, ularga bundan keyingi rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, hozirgi paytda turli sohalar bo'yicha tanlovlar soni ortib bormoqda, jamiyatda rivojlangan bilimlarni yanada takomillashtirish sharoitlarida iqtidorli va qobiliyatli shaxslar iqtisodiy taraqqiyot va rivojlanishning, milliy nufuzni yanada baland ko'tarishning muhim omiliga aylanib bormoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ta'lim jarayonining asosi bo'lgan, doim diqqat markazida turagan va etiborni talab qiladigan, o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan pedagogik muammodir.

Yaratish – ijodiy faoliyat bo'lib, ta'limiy mahsulotlarning boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan o'rganilayotgan fan sohasiga tadbiiq etishga intilishidir. Biz, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda, metodik madaniyat vositasida masalalarni yechishda boshlang'ich sinf o'quvchilari orttirgan shaxsiy bilimlar muhim ekanligi to'g'risidagi qarashlarni ilgari surgan tadqiqotchilar izlanishlarini ma'qul deb bilamiz. I.M.Smirnova fikricha, zamonaviy rivojlanish bosqichida insonning ijodiy faoliyati shaxs kamolotining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Ijodiy qobiliyatlar, ishga ijodiy yondashuv har bir kishi uchun kerak. Ijod qilish, demak, qandaydir yangilik yaratish, noma'lum narsani kashf etish demakdir. Har qanday ijodiy ish yuksak kuzatuvchanlikni, tajribani, fantaziya uchqurligini, bilim yuqori bo'lishini talab etadi. o'quvchida bilim doirasi qancha yuqori bo'lsa, inson shuncha ko'p mahsuldorlika erisha oladi. O'zbek tilining izohli lug'atida ijodiylik - ijod, yaratuvchanlik bilan bog'liq ijodiy faoliyat, ijodiy mehnat sifatida ta'riflangan. Ijodiylik – faollik va mustaqillikning oliy rivojidir. Pedagogik nazariya va amaliyotda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan omillarni izlab topishga yo'naltirilgan usullar faol ravishda ishlab chiqilmoqda. Bu muammoga yondashuv usullarining ko'pligiga qaramay, ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Faoliyatning har xil turlarini maxsus sharoitlar yaratgan holda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish;

2. O'qitishning faol usullarini qo'llagan holda ijodiy qobiliyatni maqsadli rivojlantirib borish. Birinchi yo'nalish qo'shimcha ta'lim doirasida, shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlarda faol rivojlanib boradi. Bunda musiqiy, lingvistik, mantiqiy matematik va boshqa maxsus qobiliyatlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Ushbu tadqiqotlarimizning asosiy predmeti bo'lgan ikkinchi yondashuvni o'quv jarayoniga tadbiiq etish muammosi to'g'risida to'xtalib o'tamiz. Bizning fikrimizcha, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarining shaxsiy ijodiy faoliyatini yo'lga qo'yishda ko'mak beradigan va ularning yoshiga mos usullar tizimining yo'qligi asosiy muammolardan biri sanaladi. Zehnllilik, topqirlik, sinchkovlik qiziquvchanlik, izlanuvchanlik sifatlarini mustaqil va ijodiy faoliyatni tashlik etishning asosiy omili hisoblanadi. Ta'lim jarayonining ushbu omillari asosida tashkil etilishi o'qituvchi va o'quvchilar muloqotini individual va differensial yondashuvga asoslangan holda darslarni tashkil etishni toqazo etadi. Pedagogikada innovatsion yondashuvning joriy etishda ijodkorlik faoliyatining ma'naviy, didaktik, texnologik, tashkilotchilik kabi turlaridan keng foydalanish mumkin.

Ijodkorlik faoliyatining turlari

1. Ma'naviy ijodkorlik
2. Didaktik ijodkorlik
3. Tashkilotchilik ijodkorligi
4. Texnologik ijodkorlik

Ma'naviy ijodkorlik – o'qituvchi va o'quvchilar orasida ma'naviy axloqiy sohadagi sifatli natija beruvchi takrorlanmas o'ziga xos yondashuvga asoslangan faoliyat turi.

Didaktik ijodkorlik-o'quv materialini tanlash, loyihalash va o'quvchilar o'zlashtirishining yangi yo'nalishlarini ishlab chiqishga asoslangan faoliyat turi. Texnologik ijodkorlik- yuqori natijaga erishish imkoniyatini beruvchi yangi tizimlar, loyihalar jarayonlar va vaziyatlarni izlash va yaratish bilan bog'liq jarayon bo'lib bunda ijodkorlikni o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini butunlay egallab oluvchi eng murakkab turi hisoblanadi. Ushbu ijodkorlikning o'ziga xosligi va yangilik elementlarini texnologiyaga o'tkazish uning samaradorligini tubdan o'zgartirishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi, hozirgi zamon talablariga mos keladi.

Tashkilotchilik ijodkorligi – rejalashtirish, nazorat, resurslarni taqsimlash va safarbar qilish, tashqi muhit bilan aloqa, o'quvchilar va o'qituvchilar orasidagi bog'lanishning yangi usullarini yaratishni tashkil qilish va boshqarishdagi ijodkorlikdir. Ushbu har xil guruhdagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, ijodiy faoliyatini to'g'ri rivojlantirishga, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etadigan usullar borasida ham turlicha nuqtai nazarlar mavjud. Masalan, pedagogik faoliyatda ijodiy masalalarni yechishga evristik yondashishni tadbqiq etish va boshlang'ich sinf o'quvchilarining qabul qilish imkoniyatiga qarab evristikaga o'qitishga ahamiyat qaratiladi. Ijodiy masalalarni yechishning algoritmik usuli intuitsiyaga kam tayanganligi uchun ham pedagogik amaliyotda keng qo'llanilmaydi. Olib borilgan tadqiqotlarga tayangan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarni samarali rivojlantirish uchun evristik usul algoritmik usul bilan qo'shib olib borilishi kerak, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz-2017.
2. Джуракулова А.Х. Математика о'qitish jarayonida matematik qonuniyatlarni topishga doir masalalar yechish o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish vositasi sifatida. Zamonaviy ta'lim jurnali, 11-son, 76-81-betlar.
3. Usmanova U.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tasavvurini rivojlantirish. 2019.
4. Маслова С.В. Изучение элементов геометрии в начальной школе. Школьное математическое образование: вопросы содержания и методов:

BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA XORIJIY TILLARNI O'QITILISHINING AHAMIYATI

Annotatsiya: *Maqolada yurtimizda xorijiy tillarni, jumladan ingliz tilini o'quvchi yoshlarda o'rganish va bilish ko'nikmasini shakllantirish avvalo maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanib, so'ng uzviy bog'langan holda boshlang'ich sinfdan universitetgacha chuqur o'qitilayotgan haqida so'z borgan. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rgatish yuzasidan tavsiya berilgan.*

Kalit so'zlar: *Xorijiy tillar, psixologik xususiyat, davlat va jamiyat talabi, dasturiy talablar, ta'lim maqsadlari.*

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan ilm fan asrida yoshlarimiz va jamiyatimiz a'zolaridan ham shunday zamonaviy bilim va ko'nikmalar, kuchli salohiyat, intilish va jo'shqin harakat talab qilinmoqda. Zero, XXI asr farzandlari har sohada ilg'or, kuchli bilim egalari bo'lishlari va jahon hamjamiyati vakillari oldida ham o'zlarining aqlu zakovatlarini bilan ajralib turishlari uchun bugun yurtimizda ta'lim sohasida islohotlar tinimsiz amalga oshirilmoqda.

Ushbu islohotlar o'z navbatida yangidan yangi imkoniyatlarga keng yo'l ochmoqda, albatta. Yoshlarimizning kelajakda qay soha vakillari bo'lishmasin, o'z kasbining mohir ustasi bo'la olishlari uchun, ularga boshlang'ich sinflarda tahsil olayotgan davrlarida noq har tomonlama rivojlanishlari va sifatli bilim olishlari uchun barcha shart sharoitlar yaratib berilmoqda.

Olib borilayotgan islohotlarning yorqin misoli sifatida yurtimizda xorijiy tillarni, jumladan ingliz tilini o'quvchi yoshlarda o'rganish va bilish ko'nikmasini shakllantirish avvalo maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanib, so'ng uzviy bog'langan holda boshlang'ich sinf, yuqori sinf, litsey hamda institutlarda ham amalga oshirilib kelinmoqda. Ta'lim sohasida bunday o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1875-sonli Qaroridir. Ushbu qarorga muvofiq ingliz tilini boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatish, ularni chet tillarini o'rgatishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish uchun barcha umumta'lim maktablarida 1-sinfdan boshlab ingliz tili darslarini turli xil qiziqarli o'yinlar tarzida o'qitish va shu bilan birga o'quvchilarning og'zaki nutqini ham rivojlantirish, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitishni

zamonaviy, innovatsion usullar orqali o'tish bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlandi. Ta'lim maqsadi ijtimoiy-pedagogik va lingvodidaktik tushuncha sifatida ingliz tili o'qitishga tatbiqan quyidagicha ta'riflanishi mumkin: umumta'limiy yo'nalishdagi o'quv predmetlaridan bo'lmish ingliz tilini o'rganishga jamiyat va davlatning ijtimoiy buyurtmasi shaklidagi ta'lim mazmunini belgilash, o'qitish jarayonini tashkil etish va muayyan natijalarga erishishni oldindan aniqlash vositasidir

Ma'lumki, har qanday maqsad ehtiyoj tufayli paydo bo'ladi. Metodik adabiyotlarda ehtiyojni tahlil qilishda ta'lim sharoitidan kelib chiqib, ob'yektiv va sub'yektiv ehtiyojlar farqlanadi. Ob'yektiv ehtiyoj: a) ingliz tili o'rganuvchilarning yoshga oid psixologik xususiyatlari, ona tili, qiziqishlari, ingliz tili o'rganish layoqatlari; b) ingliz tilida nutq faoliyat turlaridan egallanishi lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikma darajalari; d) davlat va jamiyat talabidan, ya'ni ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqib, o'quvchilarning ingliz tilidan bilim, malaka va ko'nikmalariga qo'yiladigan dasturiy talablar haqidagi ma'lumotlar asosida aniqlanadi.

Sub'yektiv ehtiyoj o'quvchilarning: a) ingliz tili va madaniyatiga munosabatlari; b) ingliz tili o'rganish usulari va strategiyalari; d) qaysi nutq faoliyat turlari (gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv)ni egallashga qiziqishlari haqidagi ma'lumotlar asosida tahlil etiladi. Ob'yektiv va sub'yektiv ehtiyojlar haqidagi tahliliy ma'lumotlar asosida ta'lim maqsadlari aniqlanadi. Ta'lim maqsadlarini aniqlashda o'rganuvchilarning kommunikativ ehtiyojlariga ustuvor ahamiyat qaratish zarur.

Maqsad – ta'limda umumiy yo'nalish bo'lib, muayyan vazifa(lar)ni hal etish rejasidir. Maqsad deganda, ingliz tili va uning sohibi madaniyatini o'rgatish va o'rganishning ongli tarzda rejalashtirilgan natijasi ko'zda tutiladi.

Ta'lim maqsadlari ijtimoiy buyurtma – topshiriq bo'lib, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish va tarbiyalashga qaratiladi, u ta'lim mazmuni va unga muvofiq erishiladigan natijani belgilash orqali ingliz tili o'qitish tizimini aniqlashtiradi.

Bugungi kunda ingliz tilini turli yosh davrlari orasida o'rganilishining asosiy sabablarida biri oddiy hayot tarzimizda ham til bilishning qanchalik ahamiyatli ekanligidadir. Chunki til o'rganish nafaqat qiziqish va davr talabi, balki, atrofimizda bo'layotgan voqealarning ham bir qismidir. Ya'ni bugungi zamonaviy hayotimiz, voqea va jarayonlar, biz foydalanayotgan uskunalar, yoki iste'moldagi turli mahsulotlar, ulardan qanday foydalanish haqidagi ma'lumotlar va yo'riqnomalarni tushunish, uni tadbiiq eta olish uchun ham ingliz tilidan bilim va ko'nikmalar bo'lishi lozim. Bu natijalarga erishshda esa boshlang'ich sinflardanoq puxta olgan bilimlarimiz bizga yordamga keladi. Chunki til o'rganishning yosh davrlariga bog'liqligini, yosh bolalarda kattalarga qaraganda tilni tez va oson o'zlashtirishi, bunga esa bolalardagi til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ulardagi taqlid qilish xususiyatining kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar miya faoliyatining tezligi va organgan ma'lumotlarni juda oson xotirada saqlashi asosiy sabablardandir. Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinfdagi o'quvchilar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, mexanik tarzda yodlaydilar. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda ingliz tili darsini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun turli qiziqarli o'yinlar, qo'shiq va she'rlar, turli innovatsion metodlardan foydalaniladi. Hattoki, boshqa fanlar bilan ingliz tilini integratsiya qilib dars o'tilganda ta'lim sifatiga ijobiy hissa qo'shadi.

Boshlang'ich ta'limda olingan bilim va ko'nikmalar yuqori sinflarda o'tiladigan fanlarni tushinishlari, yanada ko'proq bilimlarga ega bo'lishlari uchun asos bo'lishi bilan birga, kelgusida ham olinadigan bilimlarning ham poydevori bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun boshlang'ich ta'limda olingan puxta bilim juda muhim hisoblanadi. Bejizga xalqimiz "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir" deb aytishmagan.

Rivojlangan demokratik davlatlarda to'plangan tajribalar va ayni paytda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, mamlakatimizda ingliz tili kommunikativ faoliyat ko'rsatish, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyani egallashga mo'ljallangan integrativ yondashuv asosida o'rgatiladi. Ya'ni boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish: – o'quvchilarga Birinchi Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda "Chet tillarning ajib dunyosiga bemalol kirish uchun imkoniyatlarni to'liq ochib berish" va xalqaro standartlar darajasida ta'lim va tarbiya berish, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish, o'quvchining nutqiy va til malakalarini hamda diqqat, idrok, xotira kabi psixologik jihatlarini rivojlantirish;

- o'quvchilarda ingliz tilini o'rganishga ijobiy munosabatni shakllantirish, ularda o'zlariga nisbatan ishonch, ingliz tili o'rganishdan zavqlanish va faxrlanish tuyg'ularini qator toptirish;

- o'quvchilarga kichik yoshdan yangi til dunyosiga kommunikativpsixologik moslashishlari uchun sharoit yaratish, ingliz tilidan muloqot vositasi sifatida foydalanishga xalaqit beradigan psixologik to'siqlarni bartaraf etish;

- o'quvchilarni ingliz tili o'rganish faoliyatiga qiziqtirish va ularda ingliz tilidan kommunikativ kompetensiyani egallash mayllarini shakllantirish;

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning tilni tez va oson o'rganishi uchun ham eng ahamiyatli davr hisoblanadi. Mazkur jarayonni tashkil etish esa o'qituvchiga ham mas'uliyat yuklaydi. Yoshlikda olingan puxta bilim esa keyingi olinadigan bilimlarimizga asos bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishni majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi, ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shunday ekan, ta'lim tizimi ham o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, biz o'qituvchilar esa innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqish bilan o'z hissamizni qo'shishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Turdaliyeva G.N "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar"// 2020 .
3. Umirova, Z. (2020). Importance of learning foreign languages. International Scientific Conference of Students and Young Scientists "FARABI ALEMI"
4. Juldasheva, N. N. (2020). Хорижий тилларни ўқитишда ахборот технологиялар ва инновацион методларнинг ўрни. Молодой ученый, (12), 332-333.
5. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari. – Xalq ta'limi. – № 4. – 2013. – B. 4-32.
6. Flanagan T. Final Report on the Modern Languages in Primary Schools Initiative. – Dublin. Consultative Management Committee, 2012. – 70 p.
7. Шукин А.Н. Обучение иностранным языкам. Теория и практика. – М.: Филоматис, 2006. – 480. – С. 82

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TARBIYALASHDA OTA-ONA ROLI

Annotatsiya: Maqolada bola tarbiyasida me'yor bo'lishi, tarbiya yo hayot- mamot masalasi ekanligi yoritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tarbiyani to'g'ri yo'nalishda berish ularning ota-onasi zimmasida turishii, ular yoshligidan nimani o'rganishsa o'sha yo'nalish tomon ketishii va tarbiya ularning kelajagini belgilab berishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Ota-ona, tarbiya, bola, oila, inson kamoloti.

Forobiy inson kamolotida ta'lim tarbiyaning muhimligini ta'kidlab, “Munosib inson bo'lish uchun insonda ikki xil imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir” – deydi.

Abu Ali Ibn Sino oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib, “Bola tug'ilgach, avvalo, ota-ona unga yaxshi nom qo'yishi, so'ng uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak. Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa oila baxtli bo'ladi” degan fikrni ilgari suradi.

O'zbek pedagogi Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”- deb yozadi.

Bolani hamma aytganini qilaverish ham uni erkatoiy, tantiq qisqa qilib aytganda tarbiyasining buzilishiga olib keladi.

Ota-ona o'z bolasini kelajakda qoqilmay mustaqil va komil inson bo'lishini xohlasa, uni me'yoridan ortiq erkalatmay uni mustaqil qo'yishi kerak, chunki har doim yordam berilsa, bola doim o'sha ko'makka muhtoj bo'lib qoladi. Natijada, bola harakatdan to'xtab ota-ona harakatini kutishga o'rganadi. To'g'ri, bolaga bilmagan narsasini o'rgatish kerak, lekin bir marta, agar muntazam ravishda unga qildirmasdan ota yoki ona o'zi qilib bersa, bola keyingi safar ham ularni qilishini kutadi. Bu bolaning layoqtsiz va mas'ulyatsiz bo'lib o'sishiga turtki bo'luvchi eng katta omil sifatida xizmat qiladi.

O'zbekistonda bolaning boshlang'ich sinfdaligidayoq, nafaqat bu jarayonda balki esini tanigandan kattalarni ko'rganda qo'li ko'ksida salom berishi tarbiyaning bir ajralmas qismidir. Xalqimiz bejizga “Gapning bohi-kalom, odob boshi-salom” deb bejizga aytmagan. Murg'ak tasavvurli bola ilk tarbiyani oilada oladi. “Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlantirmak, zehnimizni ravshanlashtirmak lozim”. Yosh-

likdanoq har bir ota-ona bolaga boshlang'ich tarbiya sifatida kattalarni ko'rganda birinchi salom berish va ularga yo'l berishni o'rgatishi ularning burchi ekanligi hammamizga ma'lum, kattalarga hurmat ko'rsatish kelajakdagi tarbiyaning albatta poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Germaniyada 90% foiz oilalarda, ota-ona tomonidan sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalarga televizor ko'rish ta'qiqlanadi, sakkiz yoshga kirganda esa ularga faqatgina bolalar uchun mo'ljallangan ko'rsatuvlarni tomosha qilishga ruxsat beriladi.

Hozirgi davrda ommaviy axborot vositalarida turli xil yoshga munosib ko'rsatuvlar va seriallar berilishi, hali aqliy salohiyati rivojlanmagan bolaning bunday seriallarni ko'rishining uning ma'naviyati va tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ularni maktabda sakkiz yosh bo'lganida, yoshiga munosib ko'rsatuvlarni ko'rishining ularning tarbiyasi, to'g'ri fikrlashi va yoshlariga munosib bo'lgan muloqot va tarbiyani namoyon qilishiga turtki bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya bu tug'ilgandan to o'limga qadar insonni ulug'lanishiga yoki qadrsizlanishiga olib keluvchi bir omildir. Ota-ona tomonidan berilgan yaxshi tarbiya bolaning jamiyatda o'zi o'rnini topishi, ta'lim olishi, kasb egallashiga ijobiy ta'sir etadi. Shunga asoslanib bola kelajakda komil inson darajasiga yetishishi mumkin. Yoshlikda olingan bilim-toshga o'yilgan naqsh kabi bo'lganidek, yoshlikda ota-ona tomonidan berilgan tarbiya ham umrbod insonga xizmat qiladi.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARI UCHUN ZAMONAVIY METODLAR

Annotatsiy: Maqolada boshlang'ich sinfda zamonaviy metodlar o'quv jarayonini o'zgartirish va o'quvchilarni mavzuni to'liq o'zlashtirishga yordam berishi yoritilgan. Guruh ishlari, mobil ilovalardan foydalanish, amaliyotga yo'naltirilgan o'qish kabi metodlar misol tariqasida berilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy metodlar, o'quv jarayoni, amaliyotga yo'naltirilgan o'qish, texnologiyadan foydalanish, o'quvchilarning faol ishtiroki.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun zamonaviy metodlar o'quv jarayonini o'zgartirish va o'quvchilarni mavzuni to'liq o'zlashtirishga yordam berishi mumkin. Quyidagi boshlang'ich sinflarda foydalanish uchun tavsiya etiladigan zamonaviy metodlardan ba'zilari keltirilmoqda.

Murabbiylikdan o'tish. Bu usulda o'qituvchi o'quvchilarni o'z faoliyatida o'zgartirishga intiladi. O'qituvchi, o'quvchilarga savollar berish, g'oyalar yaratish va ularning o'z fikrlarini ifoda qilish imkoniyatlarini berish orqali o'quv jarayonida o'quvchilarning ishtirokini va faollik darajasini oshirishga intiladi.

Amaliyotga yo'naltirilgan o'qish. Bu usulda o'quvchilar o'z bilimlarini amaliyotga o'tkazish orqali o'rganishlari rag'batlantiriladi. O'qituvchi nazariy bilimlarni amaliyotga solish, masalalar yechish, sifatlarni o'rganish va boshqa amaliy mashg'ulotlarni o'quvchilarga taqdim qilish bilan o'quv jarayonini amaliy va interfaol qiladi.

Texnologiyadan foydalanish. Texnologiya o'quv jarayonida juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir vosita hisoblanadi. O'qituvchilar interaktiv darslar, interaktiv doskalar, o'quv dasturlari, mobil ilovalar va boshqa texnologik vositalardan foydalanish orqali o'quvchilarni qiziqtirish, o'zlashtirishini osonlashtirish va o'quv jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyatlarini beradi.

Guruh ishlari. Guruh ishlari o'quvchilarning hamkorlik, jamoatchilik va qo'llab-quvvatlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchilar guruh ishlari orqali o'quvchilarni bir-biriga qo'llab-quvvatlash, fikr almashish, masalalar yechish va jamoatchilikni o'rgatish imkoniyatlarini yaratishga intiladi.

Ta'limning interdistsiplinar xususiyati. O'qituvchilar o'quv jarayonini interdistsiplinar usullarga asoslash orqali o'quvchilarga bir nechta fanlar orasidagi bog'liqlikni ko'rsatish imkoniyatlarini yaratishadi. Bu usulda o'quvchilar fanlararo bog'liqliklarni tushu-

nish, muammolar yechish va savollariga o'zaro bog'liqliklarni aniqlash imkoniyatlarini oshirishadi.

Bu faqat bir nechta zamonaviy metodlar bo'lib, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun boshqa ham bir nechta usullar mavjud. O'qituvchilar o'z o'quvchilari va o'qitish sharoitlariga mos keladigan metodlardan foydalanishlari tavsiya etiladi.

O'quvchilarning faol ishtiroki. Zamonaviy metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantirishga yordam beradi. O'quvchilarga g'oyalar yaratish, savollar berish, fikr almashish va jamoatchilikni rivojlantirish imkoniyatlari beriladi. Bu o'quvchilarning o'z fikrlarini ifoda qilish, birlikda ishlash va o'rganish joylarida ishtirok etishga qiziqishni oshiradi.

Buzmachi o'qitish. Zamonaviy metodlar o'quv jarayonida buzmachi o'qitishni o'z ichiga oladi. O'qituvchilar o'quvchilarni qiziqtirish, ularga muammolar yechish va o'zlarining o'rgangan bilimlarini o'zlashtirish imkoniyatlarini yaratish uchun ilg'or usullardan foydalanishadi. Bu usul o'quvchilarning kreativlik, o'zlashtirish va o'z fikrlarini ifoda qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Zamonaviy metodlarni qo'llash boshlang'ich sinf o'qituvchilariga o'quv jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va samarali qilishda yordam beradi. O'qituvchilarning zamonaviy metodlardan foydalanishlari boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni qiziqtirish va o'rganish jarayonini osonlashtirishga yordam beradi.

Ushbu metodlar o'quvchilarning kreativ fikrlashlarini oshirish, muammolarga yechim topish, jamoada bilan hamkorlik qilish, samarali kommunikatsiya va shaxsiy rivojlanishni oshirishga yordam beradi. Buning natijasida o'quvchilar o'zlarini o'rganish jarayonida qiziqish, qat'iylik va intellektual qobiliyatlarini mustahkamlanadi.

O'qituvchilar zamonaviy metodlardan foydalanib, o'quvchilarga imkoniyat berishlari, ularning fikr almashish, jamoatchilik, individual va guruh ishlari orqali o'rganishlarini oshirishlari tavsiya qilinadi. Bu usullar o'quvchilarning o'zlarining bilimlarini amaliyotga o'tkazish, muhim masalalar yechish, texnologiyadan foydalanish va jamoatchilik qo'llab-quvvatlashni o'rganishlari uchun muhimdir.

O'qituvchilar zamonaviy metodlardan foydalanishning yanada ko'p variantlarini ham topishlari mumkin. Har bir o'qituvchi o'z o'quvchilarining xususiyatlariga, o'qitish sharoitlariga va o'rganish maqsadlariga qarab, mos keladigan metodlardan foydalanishga qaror qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "The First Days of School: How to Be an Effective Teacher" – Harry K. Wong va Rosemary T. Wong.
2. "The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners" – Carol Ann Tomlinson.
3. "The Skillful Teacher: On Technique, Trust and Responsiveness in the Classroom" – Stephen D. Brookfield.

BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya: *Inson harakatchan va samarali bo'lishi kerak, kasbga yo'naltirish qobiliyatiga hamda o'zgaruvchan texnologiyalarni o'zlashtirishga tayyor bo'lmog'i lozim. Bularning barchasi maktabga qo'yiladigan talablarni sezilarli darajada o'zgartirdi. Shaxsiy samaradorlik- o'zlashtirgan bilim miqdorini emas, balki ko'nikma va qobiliyatlarning xilma-xilligini belgilaydi.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, maktab ta'limi, boshlang'ich ta'lim.*

Darhaqiqat, Internet asrida ko'p faktlarni ya'ni sanalar va voqealarni yodlashning hojati yo'q. Axborot bilan ishlash ko'nikmalarini egallash, rivojlanish uchun yetarli tanqidiy fikrlash, faktlar o'rtasidagi o'xshashlikni izohlash qobiliyatini rivojlantirish va ularni amalda qo'llash darkor. Keyin professional yo'nalishlarni o'zgartirish, mehnat bozorida o'z samaradorligi va raqobatbardoshligini takomillashtirish osonroq.

Maktab darajasida zamonaviy ta'lim muammolarini samarali hal qilish uning rivojlanishini dasturiy maqsadli boshqarish sharti bilangina amalga oshirish mumkin, har bir o'quvchi uchun ta'lim samaradorligi va sifati maktabni foydalanish imkoniyatini ta'minlaydigan tizim sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Maktabning maqsadi o'quvchiga davlat va jamiyatning zamonaviy ehtiyojlariga moskeladigan faoliyatva shaxsiyat metodlarni o'zlashtirishda yordam berishdir.

Bolalar bilan ishlashda eng muhim narsa tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, muammo bilan ishlashni o'rgatish, echimlarni topish, guruhda hamkorlikda ishlash va bir vaqtning o'zida o'rganish qobiliyati [1].

Respublikamiz maktab ta'limi tizimi quyidagi maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi:

- yangilanish sharoitida barcha o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish, Ta'lim dasturi va mezonlarga asoslangan baholash tizimini joriy etish. [2]
- boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar bilan ishlash, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish. Tafakkurni rivojlantirish - fikrlash qobiliyatini rivojlantirish demakdir.
- tanlangan mavzuning dolzarbligi.

Gap shundaki, hamkorlik, birgalikda izlanish va ijodiy muammolarni hal qilish, o'quvchilarning kognitiv faoliyati uchun optimal shart-sharoitlar sinfda atmosferani yaratishga imkon beradi.

Boshlang'ich maktab yoshida bolalar intellektining intensiv rivojlanishi mavjud. Tartibga solinadigan xotira, idrok va fikrlash kabi aqliy funksiyalarni o'zgartirish va rivojlantirish lozim.

Bugungi kunda maktab ta'limida ayniqsa boshlang'ich ta'limda tanqidiy fikrlash zamonaviy pedagogikaning yetakchi yo'nalishidir.

Tanqidiy fikrlashga intizomiy yondashuv ko'pincha muqobil yechimlarni tasavvur qilish yoki ko'rib chiqishga tayyorlik, fikrlash va harakat qilishning yangi yoki o'zgartirilgan usullarini joriy etishni o'z ichiga oladi. Sinfda va hayotda tanqidiy fikrlashni o'zlashtirish ijodiy faollikka qadam ekanligidir.

Ta'lim sohasi haqida so'z yuritar ekanmiz, shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki,

Bugungi kunda mazkur sohada olib borilayotgan islohotlar o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Ammo bu muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda, ta'lim tizimida, ayniqsa boshlang'ich ta'lim tizimida o'z yechimini kutayotgan quyidagi muammolar mavjud:

*umum ta'lim muassasalari rahbarlarini tanlash va joy-joyiga qo'yish

Masalalarini hal etish, idoraviy mansub tashkilotlarning mulkidan samarali

foydalanishda xalq ta'limi boshqaruv organlari rolining yetarli darajada emasligi;

*umum ta'lim muassasalari rahbarlari zimmasiga ularga xos bo'lmagan umumiy o'rta ta'lim ning dolzarb masalalari va ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlarning mavjud emasligi, o'quv-tarbiya jarayonini uslubiy taminlash masalalarida xalq ta'limi bo'limlari va umumta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlik darajasining pastligi;

*rahbarlar, o'qituvchilar va umumta'lim muassasalari boshqa xodimlarining kasbiy faoliyatiga asossiz ravishda aralashuvdan himoya qilish mexanizmlarining samarasizligi, nazorat qiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan maktablarni tekshirish haddan ziyod ko'payib ketganligi;

*ta'lim sifatini taminlash, o'qituvchilarning bilim darajasini va pedagogik

Mahoratini oshirish masalalarida umum ta'lim muassasalari faoliyatidagi ochiqlik va shaffoflik darajasining yetarli darajada emasligi, o'quv-tarbiya jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining mavjud emasligi;

*xalq ta'lim tizimi muassasalarini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash mexanizmining mukammal emasligi, ularning faoliyatiga zamonaviy

me'moriy yechimlar, innovatsion ishlanmalarni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish darajasining pastligi.

Mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, tadqiqotchilardan keng ko'lamda ilmiytadqiqot ishlarni olib borish, mahalliy va chet eldagi ilg'or tajribani o'rganish, tahlil qilish va amaliyotga tadbiq qilishni talab etadi. Chet el tajribasi haqida so'z yuritar ekanmiz, Finlandiya ta'lim tizimi, xususan boshlang'ich ta'lim tizimi sohasidagi tajribasi haqida alohida to'xtalib o'tish lozim.

Bu haqida, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2022-yilning 8-oktabrida, Sirdaryo viloyatiga tashrifi davomida jurnalistlar bilan qilgan muloqotida alohida to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlab o'tganlar: "Darsliklar masalasida ham ancha muammo borligi uning ichiga kiringach bilindi. Ularning saviyasi haqida katta muhokamalar bo'ldi. Finlandiya standarti

bilan 1-4 sinflar uchun darsliklar qiladigan bo'ldik. Finlandiya xalq ta'limi Yevropa miqyosida, umuman, dunyoda raqobatbardosh hisoblanadi".

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, boshlang'ich sinflarda puxta olingan ta'lim o'rta va yuqori sinflarda hamda keyinchalik oliy ta'lim muassasalarida olinadigan bilimlar uchun mustahkam poydevor vazifasini o'taydi.

Yuqorida bayon qilingan mulohazalardan kelib chiqqan holda, uzluksiz ta'lim tizimini asosiy bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich ta'lim tizimini sifatini va samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz:

- ta'lim jarayonidagi talab va tartibni erkinlashtirish hamda o'quv yuklamalarini o'zlashtirish darajasidan kelib chiqqan holda individuallashtirish orqali yengilliklar yaratib o'quvchilarni maktabga kelishga va ta'lim olishga bo'lgan intilishlarini oshirish;

- o'qituvchi lavozimiga tayinlanadigan nomzodlarning yuqori darajadagi kasbiy kompetentsiyaga ega bo'lishi muntazam ravishda o'z ustida ishlashi va malakasini oshirib borishi;

- ta'lim jarayonida o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan qulay sharoitlarni va psixologik muhitni yaratish.

Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish – bu juda murakkab masala, chunki bu tizimda yurtimizda 7 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan 10,5 ming nafar bolalar ta'lim oladi va uning o'ziga xos xususiyatlari bor.

Birinchi navbatda shuni aniqlab olish kerakki, ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlar qanday tamoyillarga amal qiladi va bunday natijaga erishishda nimalar ko'mak beradi.

Ikkinchidan, ilmiy va amaliy jihatdan puxta o'rganish zarur: xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS tadqiqotlari natijalariga qaraganda so'nggi 10-12 yilda ta'lim sohasida ilg'or mamlakatlar Xitoy, Singapur, Finlandiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Tailand, Kanada va Yangi Zelandiya doimo yuqori natijalar ko'rsatib kelmoqda.

Bu mamlakatlarda ilmiy asosga tayyorlangan siyosiy ta'lim olib boriladi.

Bugungi kunda yurtimizda ta'limga e'tibor jadal suratlarda olib borilmoqda, ayniqsa boshlang'ich ta'limga.

Asosiy maqsad: milliy qadriyatlar va madaniyatni, an'analar va ustuvorliklarni saqlagan holda ona tilini tushunish va rivojlantirish, ijodiy va noodatiy fikrlashni tarbiyalash, barkamol va ma'naviy boy shaxs va o'qituvchining kasbiy malakasini oshirishdir. Tarbiya- bunga asosiy maqsad etib olindi.

Boshlang'ich ta'limni rivojlantirishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim:

- vaqtning haqiqiy holati, ta'lim tizimidagi yutuqlar va kamchiliklar asosida ko'rib chiqish;

- ta'lim natijalarini yaxshilash uchun mo'ljallangan strategiyalar tuzish;

- ta'lim, taraqqiyot, tarix, madaniyat, har bir mamlakatning tuzilmasi va siyosatini hisobga olgan holda zarur chora-tadbirlar klasterini tayyorlash va ularni amalga oshirish.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishda bir qancha muammo va kamchiliklar mavjud:

Bu muammolar:

1. Professionallik va o'qituvchi, sinf rahbarlarning motivatsiyasi yetishmasligi;

2. Maktablarni yetarli darajada qo'llab-quvvatlamaslik va yuqori tashkilotlar tomonidan boshqaruvning zaifligi;

3. Maktablar o'rtasidagi yutuqlarda ta'lim ko'rsatkichlaridagi kuchli farqlar,

4. Resurslarning yetarli emasligi (inson sifatida, texnik va moliyaviy) dasturlarni amalga oshirish va takomillashtirish uchun;

5. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi pastligi;

Ta'lim tizimi juda murakkab va u quyi tizimlarga bo'linadi.

Ta'lim sifatini oshirish uchun avvalo uning quyi tizimlarini sifatini oshirish kerak;

Tadqiqotlar asosida aniqlandiki ta'lim tizimi quyidagi asosiy tizimga ega:

- standartlar va o'quv dasturlari;

- o'quv adabiyotlari;

- o'qituvchilarning kasbiy mahoratining sifati;

- kadrlar bo'limi;

- ta'lim sifatini baholash.

Agar ushbu komponentlarning sifati yuqori bo'lsa, ta'lim sifati ham oshadi. Didaktik o'yinlar, interfaol uslublar, ta'limiy mashqlar, yangidan-yangi metodlar barchasi o'quvchilarni yangi bilimlar orttirishiga, kreativ fikrlab, mustaqil bajara olishiga ko'mak beradi. O'quv jarayonida motivatsiyadan foydalanish va rag'batlar berish ham albatta, innovatsion yondashuvga qo'l keladi. Mustaqil O'zbekistonimiz kelajagi bilimli, mustaqil fikrlaydigan tadbirkor va tashabbuskor kadrlarga bog'liq. Ular esa maktablarda tarbiyalanadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni har tomonlama barkamol bo'lib yetishishida ta'lim muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim tizimi nihoyatda katta ahamiyatga ega. Chunki uzluksiz ta'lim tizimini keyingi bosqichlarining natijasi va samaradorligi boshlang'ich ta'lim jarayonida olingan bilim va shakllangan ko'nikmalarga bog'liq bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim tizimini bu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, innovatsion g'oyalarni va ilg'or chet el tajribasini tadbiiq etish orqali jiddiy yondashgan holda isloh qilish talab etiladi. Shubhasiz, bu sa'y-harakatlar yaqin kelajakda o'z natijasini beradi va jamiyatimiz taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, constitution.uz

2. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son, lex.uz

3. Кусаинов А. К. Кризис в системе среднего образования:

Пути выхода. Алматы: Rond&A, 2016. 64 с.

4. "Boshlang'ich ta'lim jurnali", 2018-yil, 9-son, 8-bet.

5. Качество образования в мире и в Казахстане. М.: АНОО "Издательский Центр ИЭТ", 2004.208 с.

6. Кусаинов А. К., Борибеков К. К., Шамельханова Н. А. Про-фессиональное образование Казахстана: опыт и перспективы. Алматы: Rond&A, 2011. 240 с.

7. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi, 24.10.2020 y, lex.uz

8. O. Karimova, "Boshlang'ich ta'lim tizimidagi islohotlar asosi", 2023

Quchqarova Ziyoda Xoshimjonovna,
Namangan viloyati Yangi Namangan tumani
83-sonli umumta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILINI O'QITISHDA HUSNIXATGA O'RGATISHNING DOLZARBLIGI

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanining o'qitilishi, o'quvchilarning fanni chuqur egallashida nimalarga e'tibor berish zarurligi, xat-savod ishlari hamda chiroyli yozuv, husnixatga o'rgatish masalasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Husnixat, chiroyli yozuv, komillik, xattotlik, yozma nutq, fikrni to'g'ri, aniq-ravshan bayon qilish.

Har bir xalq, millatning ertangi kuni o'sib kelayotgan yosh avlodning bugun qanday ta'lim-tarbiya olayotgani, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo'lib yetishishiga bog'liq. O'quvchilarni har tomonlama yetuk va barkamol bo'lib yetishishi maktabdagi ta'lim va tarbiyani birga uzviy olib borishga bog'liq bo'lib, unda o'quvchilarning tafakkur qilish faoliyati, erkin fikrlay olishi, o'zgaralar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiya topish, barcha fanlarni chuqur va izchil ravishda o'rganish vazifalari amalga oshiriladi. Shu o'rinda barcha fanlarni puxta, mukammal egallashlari, keng dunyoqarashga ega bo'lish bilan birga ularning chiroyli yozuvlari ustida ham ishlash kerak. Odatda o'quvchilarning chiroyli yozuvi haqida gap ketganda, chiroyli yozish yaxshi, lekin, savodxonlik uchun zaruriy shart emas deb, yozuvning mazmunigagina e'tibor bermaslik lozim. Ayniqsa, bu jarayonni, ya'ni chiroyli yozuv, husnixatda yozish malakalari boshlang'ich sinflarda katta e'tibor bilan, yetarlicha ahamiyat berib o'rgatib boriladi. Chunki, chiroyli yozuvga o'rgatish bilan o'quvchilarni go'zallikka va puxtalikka o'rgatgan bo'lamiz. Yana bu masalaga biz o'zbek millatining o'ziga xosligini hisobga olgan holda yondoshadigan bo'lsak, tarixga bir nazar tashlaymiz. Haqiqatdan ham, tarixda ziyoli olimlar uchun hattotlik xuddi shoirlik kabi odatiy hol hisoblangan. Navoiy asarlarida zeru-zabari joyiga keltirib yozilgan husnixatlar, maqtalغان misralarni ko'rishimiz mumkin. Shoirning ta'kidlashicha, hattotlar sultoni bo'lgan Sultonali Mashhadiy nasta'liq xatini ajoyib san'at darajasiga ko'targan. Husnixatga e'tibor millatimizga singib ketganini ko'rsatadigan holatlar juda ko'plab topiladi. Masalan, tadbirkor odam biror bir mavqeyi baland kishiga xat yozsa, iloji boricha chiroyli yozishga va shu bilan o'zi haqida yaxshiroq taassurot qoldirishga harakat qiladi. Hozir texnika asri, hamma joyda

kompyuter texnologiyalaridan foydalaniladi, xat-xabarlar ham kompyuterlar orqali amalga oshiriladi, degan fikrlar ham bo'lishi tabiiy. Lekin shunday texnika asrida ham, kompyuterlashgan davrda ham insonlarning insoniyligi, ularning qalb go'zalligi texnologiyalashmagan. Kishining qandayligini bilib olish uchun uning chiroyli og'zaki nutqi va husnixatiga qarab ham baho berish mumkin. O'zimizdan kelib chiqib masalaga qaraydigan bo'lsak, yozuv xatimizning xunukligidan o'zimiz ham uyalamiz. Nima uchun shundayligini bilasizmi? Gap shundaki, bizning millatimiz sharqona an'analarga sodiq qolgan holda, go'zallik orqali o'zining muayyan qirralarini namoyon etishni va bunday qirralarni tushunishni biladi. Shuning uchun ham husnixat odamni komil inson bo'lib yetishishida alohida o'rin tutadi. Chiroyli yozishning ahamiyatini ta'kidlovchi yana boshqa jihatlar ham bor. Masalan, insonlar xatining yo-tiqligi, burchagi, dona-donaligi, o'rtadagi harflar oralig'i, harflarning hajmining katta-kichikligi va hokazolarga qarab, ularning karakter xususiyatlarini bilib olish mumkinligini ko'rsatuvchi manbalar bor.

Bundan ko'rinib turibdiki, inson xarakteri shakllanishida go'zal xatning alohida o'ri ni bor. Bu o'rinda faylasuflarning aytishicha, bolalikda har bir yaxshi ishni bajarishni tinmay mashq qildirib borilsa, u mashqning oxiri natijasi odatga aylanadi, odat esa xarakterni shakllantiradi, karakter uning kelgusidagi taqdirini belgilaydi. Shunga e'tiborni qaratib, bu naqadar to'g'ri gapligiga amin bo'lamiz. Haqiqatdan ham, o'quvchilarga chiroyli yozuvni tinmay mashq qildirsa va odatiy holga aylantirsak, yuqoridagi maqsadga erishgan, yoshlarni komil inson bo'lib yetishishida muhim qirrani rivojlantirgan bo'lamiz. Biz bolada ko'p qirralarni rivojlantirish uchun tinmay mehnat qilishimiz va o'z mehnat faoliyatimizda doimo mashqning odat, odatning esa karakter bo'lib shakllanishini unutmagan holda, yuqorida aytilganidek husnixat shartmikan, degan savolga hech ikkilanmay, "ha" deb javob berishimiz lozim. Madaniyatining oliy qirralaridan biri husnixat ekanini, husnixatga erishish esa, hayotiy zaruratligini yurakdan his etib turishimiz kerak. Shuni ta'kidlab o'tmoqchimanki, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash davrimdagi tajribamdan kelib chiqib, o'quvchilarni chiroyli yozuvga o'rgatishning turli usullaridan foydalanish bilan birga, tez-tez "Kimning xati chiroyli", "Kimda qaysi harf chiroyli chiqadi", "Chiroyli xat egasi", "Xattot yozuvchi" kabi yozuv tanlovlarini o'tkazib turardim. Bunda chiroyli yozuvning hayotiy ahamiyati haqida bolalar ongiga yetib boradigan turli yozuvga oid bo'lgan latifalar, allomalar o'gitlari, xattotlik san'ati va unga erishishdagi usullar haqidagi fikrlardan tez-tez foydalanib turish yaxshi samara berishi aniqlandi. Hattoki, chiroyli yozishga qiynaladigan, shoshqaloq o'quvchilar ham mana shunday xattotlik san'atiga chorlovchi chiroyli yozuv mashqlarida aynan xat yozish uchun ko'proq vaqt sarflashga, yozuvni xotirjam bajarishga odatlanib, nuqsonlar barataraf etildi. Shunday bolalardan bir nechtasining yozuvi chiroyli bo'lishi uchun to'rt yil kerak bo'ldi va natijada ana shu bolalar ham to'rtinchi sinfga borganida ularning yozuvi husnixat darajasiga ko'tarildi. Keyingi sinflarda ham o'quvchilar yozuvining chiroyli bo'lishini nazorat qilib borish va mashqni kamaytirmaslik har qanday sharoitda ham husnixatda yozishga odatlantiradi. Xulosa sifatida aytmoqchimanki, husnixatni egallash hayotiy ehtiyoj bo'lib, unga erishish uchun takroriy mashqlar odat tusiga kirguniga qadar, ham amaliy ham ma'naviy saboq tinmay berib borilsagina, komillikka daxldor ilk nihollarning

ko'kka bo'y cho'zishiga hissa qo'shgan bo'lamiz. Bunda boshlang'ich sinflarda ona tili fani o'qitilishi bilan birga husnixat soatlarini tashkil etish, joriy qilish o'quvchilardagi bilim, malaka, ko'nikmaning yanada mustahkamlanishi, odatlarning xarakterga aylanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gulomov M. "Husnixat metodikasi", Toshkent – 2006.
2. Ikramova R. "Grammatika, imlo qoidalari va nutq o'stirish", Toshkent - 2003.
3. Mashrapova U., Umarova M., Boynazarova D. Ona tilini o'qitish metodikasi. O'qituvchilar qo'llanmasi. Toshkent - 2005.
4. Gulomov V. "Husnixat", 2- sinf, Toshkent- 2001.
5. G'afarova T. "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" (qo'llanma), Toshkent- 2011.

THE SIGNIFICANCE OF EARLY LANGUAGE LEARNING IN PRIMARY SCHOOL

Introduction

Learning a foreign language has become more crucial than ever in our interconnected world. It opens up global opportunities, allowing us to communicate with people from various cultures and backgrounds. English education in primary schools is based on the decision of PQ-1875 2012 December 10 “On measures to further improve the system of foreign language learning” adopted by the former President of the Republic of Uzbekistan then it started[1]. After this measure, starting from the 2013/2014 academic year, teaching English as a foreign language was decided to start from the first year of primary school. Since that time the English language has become a main foreign language in Uzbekistan [2]. Learning a foreign language over 11 years of schooling has impacts that are more positive on children’s development. In addition, Reforms in improving the English language teaching system have embarked on a new phase with the Presidential Resolution of May 19, 2021, on measures to elevate qualitatively the promotion of foreign language learning in the Republic of Uzbekistan[3]. In this article, the crucial points of early foreign language learning will be clarified. The ideal age to start learning foreign languages .

Research shows that children have a remarkable ability to absorb and learn languages at a young age. Their brains are like sponges, soaking up words and phrases effortlessly. That is why primary school is the ideal time to expose children to foreign languages and kick-start their language-learning journey. When children continue to develop their abilities in two or more languages throughout their primary school years, they gain a deeper understanding of language. In primary school student can learn basic skills in English such as reading, pronunciation, simple words, intonation etc.

Cognitive Benefits: Enhancing brain development and critical thinking skills

Language learning and cognitive function

Learning a foreign language isn’t just about mastering vocabulary and grammar; it also flexes those mental muscles. Studies have found that bilingual individuals have improved cognitive abilities, such as enhanced memory, and problem-solving skills, and even a reduced risk of cognitive decline later in life. So, by starting language learning early, we’re giving our brains a workout they’ll thank us for.

Strengthening problem-solving abilities

Learning a foreign language requires us to think on our feet, analyze sentence structures, and find solutions to communication barriers. These problem-solving skills acquired through language learning can be easily transferred to other subjects, like math or science, and can benefit children in various aspects of their academic journey.

LINGUISTIC PROFICIENCY: ATTAINING FLUENCY AND NATIVE-LIKE PRONUNCIATION

The young brain is inherently flexible, uniquely hard-wired to acquire language naturally. Children can receive native like fluency as easily as they learned to walk, but adults learn through an established first-language system, studying explicit grammar rules. Early childhood is the best time for language acquisition [3].

Developing listening and speaking skills

Starting language learning early allows children to develop their listening and speaking skills in a natural and immersive environment. They can mimic native speakers, pick up authentic accents, and even learn the nuances of intonation. According to theories such as brain plasticity, biological predisposition theory, and imprinting theory, the younger the child is, the more flexible he is to acquiring native-like pronunciation.

Mastering grammar and vocabulary

Grammar might sound like a scary monster lurking in the depths of language learning, but fear not! When children learn a foreign language in primary school, they have the advantage of building a strong foundation of grammar rules and vocabulary. As they progress, they will find it easier to grasp more complex linguistic concepts, making their language skills soar to new heights. **Cultural Understanding: Fostering empathy and global awareness**

Appreciating diverse perspectives

Language and culture are inseparable. By learning a foreign language, children gain insight into different cultures, traditions, and ways of life. They develop a broader perspective, appreciating the beauty of diversity and understanding that there are countless ways to experience and navigate the world.

Learning about different customs and traditions

When children embark on their language-learning journey, they aren't just learning new words; they're embarking on a cultural adventure. They delve into the customs, traditions, and histories of the countries where their target language is spoken. From celebrating festivals to understanding social norms, language learning in primary school becomes a doorway to a world beyond their own. So, whether it's for cognitive benefits, linguistic proficiency, or cultural understanding, starting to learn foreign languages in primary school is undoubtedly a smart move. It gives children a head start in a multicultural and interconnected world, equipping them with the tools they need to become confident global citizens.

Academic Advantages: Improving performance in other subjects

Language learning and literacy skills

Learning a foreign language in primary school is not just about mastering new vocabulary or pronunciation. Studies have shown that learning a second language can signi-

ificantly improve literacy skills in a child's native language as well. As children develop their language skills, they become more aware of the intricacies of grammar, sentence structure, and vocabulary in both languages. This heightened awareness and attention to detail can translate into improved reading, writing, and overall literacy skills across the board.

Enhancing overall academic achievement

Learning a foreign language does more than just boost literacy skills - it can enhance a student's overall academic performance. The cognitive benefits of language learning extend to other subjects, such as mathematics and science. When children learn another language, they develop improved problem-solving skills, critical thinking abilities, and creativity. This cross-pollination of skills allows students to approach different topics and academic challenges with a broader perspective and adaptability [4].

Career Opportunities: Opening doors to future prospects

Increasing employability in a global job market

In today's interconnected world, fluency in multiple languages is a valuable asset in the job market. As businesses expand globally, they seek employees who can communicate effectively with diverse clients and partners. By starting to learn foreign languages in primary school, students gain a head start in acquiring this highly sought-after skill. Bilingual or multilingual individuals have a competitive edge, with more job opportunities and higher earning potential [5] *Expanding international career options*

Learning a foreign language in primary school not only increases employability locally but also opens up a world of international career opportunities. Companies are increasingly expanding their operations globally, and professionals who can speak multiple languages are in high demand. Imagine being able to work with international organizations, travel the world, and experience different cultures firsthand.

Social and Personal Growth: Building communication skills and self-confidence *Improving interpersonal communication*

Learning a foreign language goes beyond just being able to order food in a restaurant during a vacation abroad. It equips students with valuable communication skills that transcend linguistic barriers. By learning another language, children develop a greater appreciation for cultural diversity, empathy, and the ability to connect with people from different backgrounds. This opens up a world of possibilities for personal and professional relationships.

Boosting self-esteem and cultural competence

Mastering a foreign language can have a profound impact on a child's self-esteem and cultural competence. As students gain proficiency in another language, they develop a sense of accomplishment and pride in their abilities. This boost in self-confidence extends beyond the language itself and spills over into other areas of their lives. Additionally, learning about different cultures through language exposes students to diverse perspectives and fosters a sense of global citizenship.

In conclusion, starting to learn foreign languages in primary school is of paramount importance. The cognitive benefits, linguistic proficiency, cultural understanding, academic advantages, career opportunities, social and personal growth, and the ability to overcome challenges all contribute to the long-term benefits of early language learning.

Learning foreign languages in primary school provides a multitude of benefits, ranging from academic advantages to personal growth. By equipping children with the tools to communicate effectively in different languages, we empower them to navigate a globalized world with confidence and empathy. Therefore, primary schools should prioritize language education to provide students with a solid foundation for future success and personal fulfillment.

References:

1. <https://lex.uz/docs/-2126032>
2. <https://www.wiut.uz/news/transforming-he-sector-the-case-of-uzbekistan>
3. <https://lex.uz/docs/-5426736>
4. <https://doi.org/10.1111/j.1540-4781.1969.tb04603.x> The Optimal Age to Learn a Foreign Language
5. Rafferty, E.A. (1986). "Second language study and basic skills in Louisiana." Baton Rouge, LA: Louisiana Department of Education. (ERIC Document Reproduction Service No. ED 283 360).
6. https://www.researchgate.net/publication/277971290_Teaching_Mixed-Level_Classes_with_a_Vygotskian_Perspective

BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH MALAYZIYA TAJRIBASI ASOSIDA

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinfda matematika fanini o'qitishda Interaktiv ta'lim vositalaridan foydalanish yoritilgan. Internet va texnologik imkoniyatlar matematika o'qitishni keng qo'llashning asosiy vositalaridan biri bo'lgan virtual darslar va onlayn ma'lumotlar orqali matematika o'qitishni oson va samarali qilishga imkonini berishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Interaktiv ta'lim, virtual darslar, vebinarlar, online, testlar, va sinovlar, internet, texnologik imkoniyatlar.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun matematika fanini o'qitishda zamonaviy usullar va qo'llanishlar mavjud bo'lib, ular quyidagi bir necha zamonaviy usullardan foydalanish mumkin.

1. Interaktiv ta'lim vositalaridan foydalanish. Bugungi kunda matematika o'qitish uchun interaktiv ta'lim vositalarining keng qo'llaniladigan bir qator dasturlar va ilovalar mavjud. Bu vositalar o'quvchilarga matematik mohiyatlari bilan o'ylash, masalalar yechish, grafikalar yaratish va ko'rib chiqish imkoniyatini beradi.

2. Virtual darslar va onlayn ma'lumotlar: Internet va texnologik imkoniyatlar yordamida, virtual darslar va onlayn ma'lumotlar matematika o'qitishda keng qo'llaniladigan usullardan biridir. Onlayn videolar, interaktiv darslar, veb-saytlar va elektron darsliklar orqali o'quvchilar matematik materiallarni o'rganish va tushunishlari mumkin.

Misol uchun internet va texnologik imkoniyatlar matematika o'qitishni keng qo'llashning asosiy vositalaridan biri bo'lgan virtual darslar va onlayn ma'lumotlar orqali matematika o'qitishni oson va samarali qilishga imkon beradi. Virtual darslarni oladigan bo'lsak, quyidagi usullardan foydalansak bo'ladi.

1. Onlayn darsliklar: Bir nechta veb-saytlar va platformalar matematika darsliklarini onlayn tarzda taklif etadi. Bu darsliklar interaktiv elementlarga, vizual effektlarga, masalalar va javoblar to'plamiga ega bo'lishi mumkin. O'quvchilar o'z vaqtida va o'zlashtiruvchi tarzda darslarni o'qish, misollar ustida ishlash va sinovlar o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. Virtual darslar va vebinarlar. Matematika o'qituvchilari va o'quvchilar uchun virtual darslar va vebinarlar o'tkazish, matematik darslaridagi mavzularni tushunish va amaliyotga o'tkazishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Bu darslar interaktivlikka ega bo'lib, o'quvchilarga masalalar yechishda yordam beradi va o'qituvchilar bilan ko'rish imkoniyatini beradi.

4. Matematika platformalari va ilovalar. Bir nechta matematika platformalari va ilovalar internet asosida mavzularni tushunish va masalalar ustida ishlash imkonini beradi. Bu platformalar o'quvchilarning o'zlashtirish va sinov o'tkazishlari uchun masalalar, grafikalar, interaktiv elementlar va ma'lumotlar to'plamlarini taklif etadi.

5. Online testlar va sinovlar. Internet orqali o'quvchilar uchun matematika testlarini va sinovlarini tayyorlash va o'tkazish imkoniyati mavjud. Bu testlar o'quvchilarning bilim darajasini sinab ko'rish, qatnashish darajalarini oshirish va masalalar ustida ishlash jarayonida o'quvchilarni baholash uchun foydalaniladi.

6. Matematik video darslar. Video darslar, youtube va boshqa video platformalari orqali o'quvchilar uchun o'quv materiallarini vizual ravishda taklif etishning samarali usulidir. Bu darslar matematika mavzularini tushunish, misollar yechish, formulalar va konseptlarni tafsilotlar bilan tushuntirish imkoniyatini beradi.

7. Amaliyotga oid misollar va masalalar: Matematikani o'qitishda amaliyotga oid misollar va real hayotdan olingan masalalar bilan ishlash o'quvchilar uchun muhimdir. Ular o'quvchilarga matematik mohiyatlarni amalda ko'rish, muammolarni hal qilish, tahlil va tafsilotlar bilan ishlashni o'rganish imkoniyatini beradi.

6. Guruh ishlari va hamkorlik. Guruh ishlari matematikani o'rganishda o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi. O'quvchilar matematik masalalarini jamoaviy ravishda yechib olish, masalalar ustida fikr almashish va ma'lumotlar almashish bilan bir-biriga yordam berishadi.

7. Tasavvurli matematika. Tasavvurli matematika o'quvchilarga matematik konseptlarini vizualizatsiya qilish va tasavvur qilish yordamida o'rganish imkoniyatini beradi. Bu usulda grafikalar, model qurish, matematik o'yinlar va ilovalar ishlatiladi.

8. Shaxsiylikni qo'llash. O'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini va qiziqishlarini qo'llash matematika o'qitishida muhimdir. O'quvchilarga o'zlarining qiziqishlariga mos keladigan matematik materiallarini o'rganish va matematik qobiliyatiga ko'ra o'ziga xos masalalar va vazifalar ustida ishlash imkoniyati berish kerak.

Bu usullar boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda o'quvchilarga mavzularning tushunarli bo'lishiga yordam beradi. Onlayn ma'lumotlar va virtual darslar matematika o'qitishida o'quvchilar uchun qiziqarli va oson qilish imkoniyatini beradi. Bu usullar o'quvchilarning o'z vaqtlarida o'rganish, o'zlashtirish va sinov o'tkazishini muhimlashtiradi. Shuningdek, bu usullar o'qituvchilar uchun tarqalgan ma'lumotlardan foydalanish, yangi usullarni o'rganish va o'quvchilar bilan interaktiv ravishda aloqada bo'lish imkonini beradi. O'qituvchilar bu usullardan bir yoki bir nechta tanlab, matematika darslarini qiziqarli, interaktiv va o'zlashtiruvchan qilishi mumkin. Bu usullardan foydalanish XXI asr o'quvchilarida AKT savodxonligini rivojlantirishda ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “The First Days of School: How to Be an Effective Teacher” – Harry K. Wong va Rosemary T. Wong.
2. “The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners” – Carol Ann Tomlinson.
3. “The Skillful Teacher: On Technique, Trust and Responsiveness in the Classroom” – Stephen D. Brookfield.

Jalolova Gulnoza Atamirzayevna,
*Namangan viloyati Norin tumani 1-sonli maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

TA'LIM JARAYONIDA SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA BIRINCHI SINIF O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLLIGINI RAG'BATLANTIRISH

***Annotatsiya:** mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari mashg'ulotlarda birinchi sinf o'quvchilarini rag'batlantirish, zamonaviy hayot sharoitida maktab bolalar va kattalar o'rtasidagi hamkorligini tutgan o'rni yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, axborot texnologiyasi, kompyuter, konstruktor, dizayn, sinfdan tashqari mashg'ulot.*

Zamonaviy dunyoda sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilim faolligini oshirish va ta'limning turli bosqichlarida olingan bilim va ko'nikmalarni birlashtirish imkonini beruvchi loyihaga asoslangan o'qitish usullari faol qo'llaniladi. Har bir darsda loyiha faoliyati orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, kelajakda o'z hayot yo'lini to'g'ri tanlashga qodir raqobatbardosh shaxsni shakllantirish uchun zarur bo'lgan o'quvchilarni shakllantiriladi. Darsda kasblar olami bilan tanishish, o'quvchilarning kasbiy rejalarini tahlil qilish masalalari ham shu jihatga bo'ysunadi.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda maktab o'quvchilarini mehnat va kasbiy faoliyatga tayyorlash yangi mazmun kasb etmoqda. Mehnat bozorini qisqartirish va qayta qurish bilan bir qatorda umumiy ta'lim tizimi asosini tashkil etuvchi mutaxassislar tayyorlash darajasi hamda mazmuniga qo'yiladigan talablar ham tubdan o'zgardi. Biroq, kasb-hunar ta'limi muassasasi bitiruvchisining kasbiy faoliyati o'qishni tugatgan paytdan emas, balki ancha oldinroq - kasb tanlashda boshlanadi. Talabalarni ishga qabul qilish amaliyotini kuzatish shuni ko'rsatadiki, yoshlar o'zlari tahsil oladigan ixtisoslikni tanlashda, asosan, ota-onalari va do'stlarining fikri, kasb nufuzi va ta'lim narxini hisobga oladi. Shu bilan birga, qoida tariqasida, kasbiy faoliyatda o'zini o'zi anglash imkoniyati va kasbga bo'lgan talab kabi muhim jihatlar boshlang'ich sinf yoshida paydo bo'ladi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida hamkorlikda ijodiy munosabatlarni o'rnatish sinfda ishonch va ochiqlik muhitini ta'minlashning asosiy shartidir. Sinfda yaratilgan muvaffaqiyat holati har bir o'quvchiga o'z ishini amalga oshirishda yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Bolalarga dizayn va ishlab chiqarishni o'rgatish bilan birga, o'qituvchi ularning faoliyatini insonga yo'nalti-

rilgan qilish uchun o'quv muhitini yaratishi zarur. Shu sababli, o'quvchilar qo'ldan paydo bo'ladigan mahsulotlar orasida xonaning, kiyim-kechak va hokazolarning dizayni elementi bo'lishi mumkin bo'lgan kundalik hayotda zarur bo'lgan turli xil narsalarni ko'rish mumkin.

Zamonaviy dunyoda doimo harakatda bo'lish, o'z g'oyalarini va istaklarini amalga oshirish uchun ijodiy izlanish orqali omon qolish mumkin. O'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchi faoliyatining innovatsion jihatini o'z ichiga oladi. Kompyuter yordami sinfdan tashqari mashg'ulotlarning shakl va usullarini turli xil usullar bilan boyitishda yordam beradi.

Hozirgi kunda kompyuterlar insonning ajralmas yordamchisi hisoblanadi. Ular na faqat dasturchi, balki konstruktor, dizayner va iqtisodchi uchun ham faoliyat vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ko'plab maktab o'quvchilari endi ularsiz hayotni tasavvur qila olmaydilar. Axborot texnologiyalari o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini qo'llab-quvvatlash sifatida ko'rib chiqilishi zarur.

Raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishning yana bir vositasi bu internetdir. Internet-resurslar bilan muloqot o'quv o'yini xarakterini oladi, ko'plab o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi, kompyuter animatsiyalari modellashtirishga imkon beradi, bu shubhasiz butun o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Zamonaviy hayot sharoitida maktab bolalar va kattalar o'rtasidagi hamkorlikning o'ziga xos laboratoriyasi bo'lishi kerak va ta'lim mazmuni o'quvchi va o'qituvchining umumiy maqsadli yo'nalishlarini aks ettirishi kerak. Bunga o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tanlov asosida o'rganish g'oyasi yordam beradi. 1-sinfdan sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ijobiy natijalariga erishish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazishi mumkin.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni turli xil ijtimoiy-madaniy muassasalarda yuritish orqali boshlang'ich sinf yoshdagi maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini: ustaxonalar, yumshoq o'yinchoqlar to'garaklari, duradgorlik, texnik ustaxonalar, tikuvchilik, badiiy havaskorlik to'garaklarida shakllantirish mumkin. Birinchi sinf o'quvchisi hayotida birinchi marotaba ijodiy faoliyatni tashkil qilishda bosqichma-bosqich talablar, ishni tashkil etishda o'ylanganlik, bajarilgan ishlarni to'g'ri baholash va bajarilishini tekshirish talab etiladi.

Ijodiy to'garaklar bo'sh vaqtlarida shaxsning o'zini o'zi tasdiqlashi va o'zini ifoda etishiga yordam beradi. To'garaklarda ishlash ixtiyoriylik tamoyili asosida qurilgan, shuning uchun uning mazmuni boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning individual intilishlariga ko'proq mos keladi.

Maktabda ta'lim faqat kattalar va bolalarning, bolalarning bir-biri bilan birgalikdagi faoliyati orqali o'tishi kerak, bunda bolalar tomonidan qadriyatlarni egallash (va nafaqat tan olinishi) mumkin. Shu bilan birga, ta'limni printsipial jihatdan biron bir o'quv faoliyati turiga mahalliyashtirish yoki qisqartirish mumkin emas, u barcha turdagi ta'lim (turli o'quv fanlari chegaralarida) va maktabdan tashqari faoliyatni qamrab olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R. Va b.q. Ta'limda innovatsion texnologiyalar.-T.: 2010.
2. Ishmuhamedov R.J. o'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyoti.-T.: RBIMM.: 2008
3. Ishmuhamedov R.J. va boshq. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari (2-kitob).-T.: TDPU. 2009.
4. Yo'ldashev J.G'. Pedagogik texnologiya asoslari.- T.: 2004

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI BARKAMOLLIGIDA AQLIY TARBIYA MASALALARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari barkamolligida aqliy tarbiyani rivojlantirishning ayrim jihatlari, aqliy tarbiyaning mohiyati, vazifalari va sharq mutafakkirlarining bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga munosabati, aqliy tarbiyaning inson hayot yo'lini belgilab beruvchi asosiy mezon ekanligi bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: inson kamoloti; aqliy tarbiya; ilm-fan; tafakkur; dunyoqarash; ko'nikma; malaka; ma'naviy etuklik.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha sohalaridagi islohotlar insonning barkamolligiga qaratilgan. Yangi O'zbekiston ni ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-ma'naviy jihatdan mustahkamlash va takomillashtirishni o'zida ifoda etgan "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" tamoyili ham inson kamoloti, uning ma'naviy yetukligi va albatta aqliy tarbiyasini yuksaltirishga yo'naltirilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar aqliy tafakkurini rivojlantirishga, aqliy tarbiyasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qoninining mazmunida ham yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali mutaxassis-kadrlarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligiga urg'u beriladi. Yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali mutaxassis-kadr bo'lib yetishish mavjud ilmiy, shuningdek, kasbiy bilimlarni puxta egallash demakdir. Binobarin, chuqur bilimlarga ega bo'lish tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini anglash, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'ra bilish va baholay olishga imkon beradi. Bu aqliy tarbiya orqali amalga oshiriladi.

Aqliy tarbiya – o'quvchilarni ilm-fan, texnika va texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlardan boxabar etish, ularga ijtimoiy va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlar berish bilan tafakkurni shakllantirish, dunyoqarashni rivojlantirish, ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi. Aqliy tarbiya bilimlarni to'plash, biror narsani tahlil va sintez qilish, narsa va hodisalarni taqqoslash hamda tasniflash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, ularni bir tizimga solishni nazarda tutadi.

Aqliy tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

- o'quvchilarga ilmiy bilimlar berish;
- o'quvchilarda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish;
- o'quvchilarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar tizimini, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- aqliy faoliyat, bilish jarayonlari va qobiliyatlarni, aqliy jarayonning xilma-xil usullarini rivojlantirish;
- mustaqil bilish, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish;
- intellektual ko'nikmalar, ya'ni har qanday fanni o'rganishda qo'llaniladigan umumiy o'quv ko'nikmalari – o'qish, tinglash, o'z fikrini og'zaki bayon etish, yozish, manba bilan ishlash, mustaqil ishlash malakalarini egallash;
- biror fanni egallash bo'yicha zarur bo'lgan maxsus ko'nikmalar (chizma, xaritalarni o'qiy bilish, ularning natijalarini chiqara olish) ni egallash;
- mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev asarlarida, ma'ruza va nutqlarida yoshlarning bilimli, yuksak tafakkur egasi bo'lish borasidagi qarashlar muhim o'rin egallaydi. Ularning aqliy tafakkuri jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillardan ekanligi alohida ta'kidlanib, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib kamol topishlarida davlatimiz tomonidan barcha sharoitlar yaratib berilishiga alohida e'tibor berib kelmoqdalar. Chunonchi, "Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [1] deb ta'kidlaydilar.

Shuningdek, "O'z tajribamdan kelib chiqib, sizlarga aytadigan maslahatim shu: Ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtingiz ham bekor o'tmasin! Yoshlik – umrning eng bebaho davri. Ilm va bilim – o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang!" [2] deya yoshlarni ilmga, bilishga chorlaydilar.

Sharq mutafakkirlari ham o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin berganlar. Xususan, Abu Nasr Forobiy inson tomonidan borliqni anglashi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Abu Nasr Forobiyning e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudodning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayxon Beruniy quyidagi-

larni ilgari suradi: “Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va xodisalarni aniqlaydi” [3]. Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirilib borilishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: “Ilmlar ko‘pdir. Ular zamoni iqqbolli bo‘lib, turli fikr va xotiralar ularga qo‘shilib borsa, ko‘payadi. Odamlarning ilmlarga rag‘bat qilishi, ilmlarni va ilm ahillarini hurmatlashi o‘sha iqqbolning belgisidir” [4].

Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o‘zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: “Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o‘rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo‘ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo‘ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo‘lsayu, isbotlar chinakamiga bo‘lsa, u holda bunga hikmat – donishmandlik deyiladi” [5].

Abdulla Avloniy esa inson aqliy kamoloti xususida to‘xtalar ekan, quyidagilarni bayon etadi: “Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g‘oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko‘rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur” [6]. Alloma bilim insonni jaholatdan qutqarishning eng samarali vositasi ekanligini ham ta‘kidlaydi: “Ilm bizni jaholat qorong‘usidan qutqarur, madaniyat, ma‘rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe‘llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog‘liqdur” [7].

Darhaqiqat insonni kamolotga, ma‘naviy yetuklikka eltuvchi eng asosiy omil bu bilimdir. Inson bilim cho‘qqisiga tinimsiz mehnat, aqliy tarbiya asosida erishadi. Zero, aqliy tarbiya inson hayot yo‘lini belgilab beruvchi asosiy mezonidir.

Aqliy tarbiya:

- o‘yin faoliyati;

- ta‘lim olish;

- mehnat jarayoni;

- hayotiy vaziyatlarni hal etish;

- kattalar va tengdoshlar bilan bo‘lgan muloqot;

- ommaviy axborot vositalari orqali olinadigan axborotlarni qabul qilish va o‘zlashtirish jarayonlarida ro‘y beradi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar aqliy tarbiyasini shakllantirib borish jarayonida uzuluksiz ta‘lim tizimida o‘quvchilarni ilm-fan, texnika va texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar, novatsiya va innovatsion kashfiyotlardan boxabar etish, ularga ijtimoiy va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlar berish bilan tafakkurlarini shakllantirib borish, dunyoqarashlarini rivojlantirish, kreativ, erkin, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini hosil qilish kabi mezonlarga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-yil, 03/20/637/1313-son
2. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. //Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимидаги киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. -Тошкент: "Ўзбекистан". НМИУ, 2016.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон ёшлар форумида сўзлаган нутқи//Янги Ўзбекистон. 2020 йил 26-декабр, 252-сон.
4. Беруний Абу Райҳон. Танланган асарлар. жилд.-Тошкент, Давлат нашриёти, 1966.
5. Авлоний А.Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. -Тошкент, Ўқитувчи, 1992.
6. Авлоний А. "Одоб бўстони ва ахлоқ гулистони". -Тошкент, Ўқитувчи, 1994.
7. Ўзбек педагогикаси антологияси//Тузувчи-муаллифлар: Ҳошимов К., Сафо Очил.-Тошкент, Ўқитувчи, 1995.

BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMINI TAKOMILASHTIRISHDA MAKTABGACHA TA'LIMNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada boshlang'ich ta'lim tizimini takomilashtirishda maktabgacha ta'limning ahamiyati hamda, har qanday jamiyat taraqqiyotining poydevor-uzluksiz ta'limning boshlang'ich bosqichi o'laroq maktabgacha ta'lim jarayonlari masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: aholi turmush sifati, uzluksiz ta'lim, maktabgacha va maktab ta'limi integratsiyasi, ikkinchi chet tili va matematik savodxonlik.

Kirish.

Har bir mamlakat qanday siyosiy va ijtimoiy harakatlarni amaliyotga joriy etishidan qat'iy nazar ularning yakuniy maqsadi xalq manfaatlarini, aholi turmush darajasini yaxshilash, yetakchi mamlakatlar safidan joy olishga qaratiladi. Shu maqsadda, 1960 yilda bmtning ishchi guruhi tomonidan global miqyosida dunyo aholisining turmush darajasini aniqlash, o'lchash tamoyillari shakillantirildi va 1978-yilda ishlab chiqilgan mezonlar bo'yicha xalqaro statistika sohasidagi turmush darajasi o'rganib boriladi.

Aholi turmush darajasi sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi eng asosiy omillardan biri ma'naviy ehtiyojlarni qondirilishi bo'yicha ko'rsatgichlar hisoblanadi. Misol uchun, maktab yoshigacha (0-6) bo'lgan bolalarning maktabgacha tarbiya ta'lim muassasalari bilan qamrab olinishi, maktab yoshidagi bolalarning maktab bilan ta'minlanligi va eng asosiysi sifatli hamda uzluksiz ta'lim jarayonlari mamlakat turmush sifati ko'rsatgichlariga sezilarli ta'sir o'tkazadi.

Mamlakatimizning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining birinchi moddasida O'zbekiston ijtimoiy davlat ekanligi belgilab qo'yildi. Bu boradagi eng katta sohalardan biri ta'limdir. Ushbu sohani izchil rivojlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-14-son Farmoniga muvofiq maktabgacha va umumiy o'rta ta'limni yangi bosqichga olib chiqish, uning sifatini oshirish hamda ta'lim dasturlarini takomillashtirish maqsadida qator farmonlar ishlab chiqildi¹¹.

Boshlang'ich ta'lim tizimini yanada takomilashtirish, ta'lim sifatini oshirish maqsadida, uzluksiz ta'limning ilk muhim ikki bosqichlariga, ya'ni, maktabgacha va maktab ta'limi integratsiyani ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 25.01.2023 yildagi PF-14-son

2018-yil 30-sentabridagi PQ 3955-son “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora- tadbirlari to’g’risida” gi qaror hamda 2022-yil 11-maydagi PQ 241-son “Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qaror ishlab chiqildi¹².

Asosiy qism. Maktabgacha ta’lim - uzluksiz ta’lim tizimining boshlang’ich bosqic- hi hisoblanib, u sog’lom, har tomonlama yetuk bola shaxsi shakllanishini ta’minlashga, uni muntazam ravishda akadem hayot uchun tayyorlab, o’qishga bo’lgan havasini uyg’o- tishga qaratilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning boshlang’ich sinfga o’tish jarayoni muommosiz bo’lishi, maktab hayotiga moslashuv bolalarning psixologik holatiga salbiy ta’sir o’tkazmasligi uchun MTT muhimligi dunyo olimlari tomonidan tan olingan.

Biz yashayotgan davrda chet tillarini bilish va matematik savadxonlik kasbiy ta’lim- ning ajralmas qismlaridan biriga aylanadi deb ayta olamiz, va albatta, maktabgacha ta’lim jarayonida chet tillari va matematik savadxonlikni o’rgatishning ahamiyati hamda ota-o- nalarning ushbu jarayonga bo’lgan e’tibori sezilarli darajada oshdi. So’nggi bir necha yil- larda maktabgacha ta’lim muassasasidagi ta’lim jarayonlariga shunchaki bog’cha davri emas, balki bolalarning o’z-o’zini rivojlantirish, maktab hayotiga tayyorlov muassasasi sifatida qaraladigan bo’ldi.

Ikkinchi tilni o’rganish miya bilan chambarchas bog’liqligi haqida ko’plab nazariyalar mavjud, ayniqsa erta bosqichda. Bunda miyadagi rivojlanish til va boshqa ko’nikmalarni egallash uchun asos bo’lgan kognitiv rivojlanish bilan bog’liq. Piagetning fikriga ko’ra , bu qobiliyat aniq belgilangan bosqichlar ketma-ketligi orqali rivojlanadi. 2 yoshdan 7 yoshgacha bo’lgan davrda til va xulq-atvor tuzilishga ega bo’lib, ixtirochi qobiliyati shak- llanadigan bo’ladi. Aynan shu yosh oralig’idagi maktabgacha yoshdagi bolalarning chet tillarini o’rganishi maktab hayotidagi erishadigan til yutuqlariga poydevor bo’lib hizmat qiladi.

Maktab yoshidagi bolalarning ta’lim-tarbiya jarayonlari haqidagi suhbatlarda erta savodxonlik muntazam ravishda muhokama qilinadi, lekin matematik ko’nikmalar esa ko’pincha unchalik e’tiborga olinmaydi. Maktabgacha ta’lim o’quv dasturi bolalarning maktab ta’limiga tayyorgarlikning bir qismi sifatida yozish, harflarni o’rganish va so’z- larni aniqlashga urg’u beriladi, shu bilan birga raqamlar bilan ishlash, boshlang’ich ma- tematik ko’nikmalar tushunchalari ham uzluksiz ta’lim jarayonining ajralmas qismidir.

Bolalar bog’chasida bolalarni matematikaga yo’naltirilgan faoliyat bilan tanishti- rish, ularni boshlang’ich maktabda va undan keyingi davrda akademik muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. 2007 yilda o’tkazilgan “Maktabga tayyorgarlik va keyinroq muvaffaqiyat” nomli tadqiqot shuni ko’rsatdiki, erta matematika qobiliyatlari keyingi muvaffaqiyatning eng yaxshi prognozlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot iqtisodchi va ta’lim professori Greg Dunkan tomonidan tashkil etilgan, u maktabgacha yoshda ma- tematik ko’nikmalarning ahamiyati bo’yicha milliy ekspert hisoblanadi. Dunkan fikri- ga ko’ra “Matematikaning maktabgacha ta’lim muassasalarida o’qitilishi juda muhim, chunki matematikani erta o’qigan bolalar maktabda juda yaxshi o’qiydilar. Keyinchalik matematika muhim ahamiyatga ega, chunki maktabda matematikadan yaxshi o’qigan

¹² O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.09.2018 yildagi PQ-3955-son

bolalar mehnat bozorida yaxshi natijalarga erishadilar”¹³.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim bolalarni boshlang’ich ta’limga, ayniqsa o’qish, yozish, hisoblash va til o’rganish kabi asosiy ko’nikmalarni rivojlantirishga tayyorlaydi. Erta yoshdagi bolalarga g’amxo’rlik, ta’lim-tarbiya jarayonlari hamda maktablardagi ta’lim sifatini yaxshilash bir-biri bilan chambarchas bog’liq bo’lsada, mamlakatda maktabgacha ta’limni yetarli darajada qo’llab-quvvatlanmaydi. 2022-yilda respublikamizdagi 3-7 yoshli bolalarning 71.8% gina MTT ga qamrab olingan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tarbiyasi va ta’limining afzalliklari haqidagi kuchli dalillarga qaramasdan, unesconing yangi ma’lumotlari shuni ko’rsatadiki, 5 yoshli har to’rtta boladan 1 nafari hech qachon maktabgacha ta’limni olmagan. Bu butun dunyodagi 5 yoshli bolalarning 137 milliondan 35 millionini bildiradi.

Yuqorida sanab o’tilgan omillar, ya’ni, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiya jarayoniga qamrab olish, kichik yoshlardan oq ikkinchi chet tili hamda matematika bolalarni yo’naltirish bularning bari boshlang’ich sinf o’quv jarayonlariga, ta’lim sifatining yanada o’sishiga ta’sir qiladi. Boshlang’ich sinflardagi muomolarning yechimi esa, maktabgacha va boshlang’ich ta’limni integratsiya qilish, har ikkala ta’lim bosqichi pedagog xodimlarni o’rtasida aloqalarni o’rnatish orqali amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo’lga qo’yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 25.01.2023 yildagi PF-14-son
2. “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.09.2018 yildagi PQ-3955-son.
3. “School Readiness and later achievement” by Greg Duncun, Chantella J. Dowsett/ American Psychological Assasiation in 2007.

¹³ “School Readiness and later achievement” by Greg Duncun, Chantella J. Dowsett/ American Psychological Assasiation in 2007.

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNI YAXSHILASH

***Annotatsiya:** Bugungi kunda mamlakatimizda Xalqaro ta'lim tizimining joriy etilishi bilan boshlang'ich ta'lim ko'plab o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Xalqaro loyihalarda ishtirok etish, albatta, mamlakat kelajagiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo ta'lim sifati rivojini susaytiruvchi, o'tmishdagi ziddiyatlarni yanada kuchaytiruvchi omil bo'layotgan salbiy holatlar ham mavjud.*

Kalit so'zlar: COVID-19, ECCE, YuNESKO, STEM, EdTech.

Ta'lim inqirozi COVID-19 maktablarining yopilishi bilan yomonlashdi. Sifatli ta'lim cheklovlar va COVID-19 dan oldin, past va o'rta daromadli mamlakatlarda o'rganish qashshoqligi darajasi 57% ni tashkil etdi (10 yoshdan 6 nafari 10 yoshga kelib asosiy matnlarni o'qiy va tushuna olmadi).

Mamlakatlar erta yoshdagi bolalarni parvarish qilish va ta'limga etarlicha e'tibor bermayapdi(ECCE). Maktabgacha ta'lim darajasida mamlakatlarning uchdan ikki qismi bepul va majburiy maktabgacha ta'limni ta'minlash uchun tegishli huquqiy bazaga ega emas. YuNESKO ma'lumotlariga ko'ra, faqat ozchilik, asosan yuqori daromadli mamlakatlar COVID-19 boshlanishidan oldin erta bolalik ko'rsatkichlari bo'yicha SDG4 mezonlariga o'z vaqtida erishgan. Unutmangki, ECCE nafaqat boshlang'ich maktabga tayyorgarlikdir. Bu hissiy farovonlik va hayot davomida o'rganish uchun asos bo'lishi mumkin; mamlakat qila oladigan eng yaxshi sarmoyalardan biri.

Yuqori sifatli o'qituvchilar bilan yetarli darajada ta'minlanmagani past sifatli o'qitish juda katta muammo bo'lib, ko'plab past va o'rta daromadli mamlakatlarda yomonlashmoqda. Bundan tashqari, ko'pgina mamlakatlarda o'qituvchilar rasmiy tayyorgarlikdan o'tgan va shunday malakaga ega, ammo minimal pedagogik tayyorgarlikka ega emaslar. Global miqyosda fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) fanlari bo'yicha o'qituvchilarining eng katta kamchiliklaridir.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, butun dunyo bo'ylab o'qituvchilarning 65 foizi o'z ma'ruzalarini yanada qiziqarli qilish va o'qitish uchun zamonaviy raqamli yechimlardan foydalanish yo'llarini izlamoqda. Buning sababi eng yaxshi ta'lim xizmatlarini ko'rsatadigan eng yaxshi pedagoglar orasida iz qoldirish uchun raqobatdir.

Statistikalar va EdTech (Ta'lim Texnologiyalari) ning mashhurligi COVID-19 pandemiyasi zarbasidan beri qiziqarli rasmni chizayotgan bo'lsada, haqiqat hali ham kes-

kin farq qiladi. Hozirgi COVID-19 inqirozi bilan biz ta'lim tizimlarimiz o'quvchilarning bugungi va ertangi ehtiyojlarini qondirishini ta'minlash uchun qayta ko'rib chiqish qanchalik muhimligini ko'ramiz. Biz, shuningdek, o'qituvchilar etishmasligi, foydalanish imkoniyati va raqamli savodxonlik kabi muammolarni hal qilishimiz kerak. Bundan tashqari, biz o'qituvchilar ushbu o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan jihozlanganligiga ishonch hosil qilishimiz kerak.

Butun dunyo bo'ylab o'qituvchilar hanuzgacha qadimiy o'quv dasturlari, an'anaviy baholash usullari va ortiqcha ish bilan to'ldirilgan qog'oz ishlab chiqarish tartib-qoidalariga yopishib olishadi. Ular masofaviy ta'lim keng tarqalgan hozirgi dunyoga o'zlarini yangilashmagan.

Dunyodagi uch millionga yaqin boshlang'ich maktabning 90 foizi past va o'rta daromadli rivojlanayotgan mamlakatlarda; bu maktablarda 480 millionga yaqin bola o'rganish uchun kurashmoqda. Zamonaviy, yaxshi jihozlangan, yaxshi tashkil etilgan va yaxshi moliyalashtirilgan boshlang'ich maktablarda o'qiydigan rivojlangan mamlakatlardagi tengdoshlaridan farqli o'laroq, kambag'al mamlakatlardagi o'quvchilar katta qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ular ko'pincha yiliga atigi 500 soat (rivojlangan dunyoda 900 soat) ishlay oladigan yomon qurilgan va jihozlanmagan maktablarda darslarga qatnashadilar. Bu maktabda ta'lim har bir bolaga 2 dollardan kam bo'lgan o'quv materiallari (rivojlangan mamlakatlarda 52 dollar), yomon ishlab chiqilgan o'quv dasturi va bor-yo'g'i 10 yillik ma'lumotga ega o'qituvchi (rivojlangan mamlakatlarda 16 yil) bilan qo'llab-quvvatlanadi. Sinflarda ko'pincha 50 dan ortiq bola bor (rivojlangan mamlakatlarda 20 taga nisbatan), ularning ko'pchiligi surunkali ravishda to'yib ovqatlanmaydi, parazitlarga duchor bo'ladi va tez-tez och qoladi. Natijada rivojlanayotgan mamlakatlardagi maktablar rivojlangan mamlakatlarnikiga qaraganda unumdorligi past. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi maktab yoshidagi bolalarning faqat yarmi to'liq boshlang'ich ta'limga ega bo'ladi, hattoki ro'yxatga olinganlarning deyarli yarmi kam ta'minlangan rivojlanayotgan mamlakatlarda boshlang'ich maktab davri tugamasdanoq o'qishni tashlab ketishadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda boshlang'ich maktablar samarasiz bo'lishining sabablaridan biri ta'lim tizimining juda kam moliyalashtirilayotganidan deb uylayman.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda maktablarning sharoitlarini yaxshilash resurslarni taqsimlash va boshqarishga, o'quvchilarning bilim olishiga yordam beradigan materiallarni tanlash va ulardan foydalanishga ehtiyotkorlik bilan e'tibor berishni talab qiladi. Resurslarni ishlaydigan ma'lumotlarga jamlash orqali ko'proq o'quvchilar o'qitiladigan narsalarni o'rganishlari va birlamchi siklni kamroq yillarda yakunlashlari mumkin bo'ladi. Ko'pgina mamlakatlarda menejmentni takomillashtirish ta'limni yaxshilash dasturlarini amalga oshirish uchun zarur shartdir. Menejmentning uchta asosiy takomillashuvi quyidagilardan iborat: (1) ma'murlar uchun boshqaruvni o'qitish, muhim ma'lumotlarning maktablarga etib borishi ehtimolini oshirish; (2) ma'lumotlardan to'g'ri foydalanishni ta'minlash uchun tashkiliy qayta qurish; va (3) tizimli ma'lumot to'plash, menejerlarga o'z dasturlarining o'quvchilar muvaffaqiyati va boshqa ta'lim ko'rsatkichlariga ta'siri haqida ma'lumot berish.

Nazariya, tadqiqot va tajriba boshlang'ich maktablarda o'rganishni tezlashtirishga qaratilgan harakatlar muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan beshta sohani taklif qiladi.

Ushbu sa'y-harakatlar maktab direktorlari va ma'muriyatlari uchun muhim rol o'ynaydigan yaxshi boshqariladigan aralashuvni talab qiladi.

O'quv dasturini takomillashtirish. Boshlang'ich maktablarda rasmiy o'quv rejasi butun dunyoda juda o'xshash. Nafaqat bir xil fanlar o'qitiladi, balki ularga bir xil nisbiy ahamiyat beriladi: mavjud vaqtning taxminan 35 foizi savodxonlikka, 18 foizi esa hisob-kitoblarga sarflanadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida o'quv dasturlariga urg'u berishda aniq farqlar mavjud bo'lmasa-da, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar savodxonlik uchun o'qitish vaqtini milliy til va mahalliy bo'lmagan rasmiy til o'rgatish o'rtasida taqsimlaydi, bu esa rivojlanayotgan mamlakatlarda til yutuqlarining umuman pastroq bo'lishiga yordam beradi.

Yo'riqnoma materiallari. Yaxshi ishlab chiqilgan o'quv materiallari, masalan, darsliklar o'quvchilarning muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Yetarlicha darsliklar bo'lgan sinf o'quvchilari matematika bo'yicha yutuq testlarida qo'shimcha materiallarsiz sinf o'quvchilariga qaraganda ancha yuqori ball to'plashdi. Kutubxonalarning mavjudligi va ulardan foydalanish odatda samarali ekanligi aniqlandi.

O'rganish vaqti. Turli mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'qish uchun ajratilgan vaqt bolalarning maktabda qanchalik ko'p o'rganishiga bog'liq. Umuman olganda, o'qituvchilar qancha ko'p dars bersa, o'quvchilar ham shuncha ko'p bilim oladi. O'qish vaqti barcha o'quvchilar uchun qimmatli bo'lsa-da, maktabdan tashqari vaqtlari va o'rganish imkoniyatlari cheklangan kambag'al o'quvchilar uchun ayniqsa muhimdir.

Bolalarga maktabda har qanday fanni o'rganish uchun ajratilgan yillik soatlar soni uchta omil bilan belgilanadi:

rasmiy o'quv yilining soatlardagi uzunligi, ushbu fanga ajratilgan soatlarning nisbati va maktab yopilishi natijasida yo'qolgan vaqt miqdori;

o'qituvchining qatnashmasligi, o'quvchilarning qatnashmasligi va turli xil uzilishlar. Butun dunyo bo'ylab boshlang'ich maktablar uchun rasmiy o'quv yili (birdan oltinchi sinfgacha) o'rtacha 880 ta o'quv soati yoki 180 kunni tashkil qiladi.

Samarali ta'lim. Boshlang'ich ta'limni o'tkazishda o'qituvchilar markaziy o'rin tutadi. O'qituvchilarning ilmiy va kasbiy tayyorgarligi o'qitish sifatiga, demak, o'quvchilarning yutuqlariga bevosita va ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Rivojlangan mamlakatlardan olingan ma'lumotlar o'qituvchilar bilimining o'quvchilarning muvaffaqiyatiga kuchli ijobiy ta'sirini ko'rsatadi, ammo rivojlanayotgan mamlakatlarning bir nechta tadqiqotlari bu savolni o'rganib chiqdi. Biroq, natijalar bir xil.

Samarali ta'lim o'qituvchining pedagogik amaliyotiga ham bog'liq. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda o'qituvchilar o'rganishni osonlashtirmaydigan amaliyotlardan foydalanadilar. Bularga o'qituvchilarning ma'ruzalariga urg'u beradigan butun sinf o'qitish, o'quvchilarni eslab qolishlari, o'quvchilarning o'rganishda faol ishtirok etishlari uchun imkoniyatlarning kamligi va o'quvchilarning o'rganishini doimiy monitoring qilishning kamligi kiradi. Ushbu turdagi ta'lim o'z bilimlarini real hayotda qo'llashga qodir bo'lmagan o'quvchilarni ishlab chiqarishga intiladi va o'rganish muhitini ancha qiziqarli qiladi.

Bolalarning “oʻrgatish qobiliyatini” oshirish. Bolalarning oʻrganish qobiliyati asosan ularning sogʻligʻi va ovqatlanish holati va oldingi oʻrganishlari bilan belgilanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi bolalar maktabga borishdan oldin toʻyib ovqatlanmaydilar yoki oʻquv materiallari bilan tanishmaydilar.

Ayniqsa, kam taʼminlangan mamlakatlarda taʼlim rivojlanishining asosiy cheklovi oʻquvchilarning bilim olishini kuchaytiruvchi taʼlim vositalarining yetarli darajada qoʻllab-quvvatlanmasligi hisoblanadi. Biroq, ushbu investitsiyalar uchun muvofiqlashtirilgan investitsiya dasturi, oʻqituvchilar malakasini oshirish va sektor boshqaruvidagi islohotlar bilan birgalikda, samaradorlik va samaradorlikni oshirish orqali investitsiyalardan sezilarli daromad keltirishi mumkin. Ammo bunday dastur samarali boʻlishi uchun sezilarli boshlangʻich xarajatlarni talab qiladi va oʻquv dasturining asosiy yoʻnalishlari (masalan, oʻqish va matematika) boʻyicha oʻquvchilarning muvaffaqiyati koʻrsatkichlari kabi yutuqlarni oʻz ichiga olishi kerak.

Taʼlim tizimi maktablar bajarishi shart boʻlgan qoidalarni belgilaydi. Boshlangʻich sinflarda dars berish qiyin boʻladi: siz dasturga rioya qilishingiz, darsdan tashqari vaqtni tashkil qilishingiz va Davlat taʼlim standartlaridan chetga chiqmasligingiz kerak. Har bir bolaning muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarini kuzatish uchun deyarli vaqt yoʻq. Boshlangʻich sinfning oʻziga xos xususiyati shundaki, taʼlim samaradorligi oʻquv dasturidan koʻra koʻproq oʻqituvchiga bogʻliq. Oʻquv dasturida ortiqcha talablar yoki ahamiyatsiz vazifalar koʻp boʻlsa ham, malakali oʻqituvchi uni minimallashtirishga harakat qiladi va aksincha, baʼzi oʻqituvchilar hamma narsani yozilganidek bajarishga majbur qiladi.

Boshlangʻich taʼlimda oʻqitishning bir xususiyati shundaki, oʻquvchi koʻpincha shaxs sifatida qabul qilinmaydi. Boshlangʻich maktab dasturlarining oʻziga xos xususiyati shundaki, birinchi sinf oʻquvchilari va ikkinchi sinf oʻquvchilari uchun soatlar haftasiga 21-23 soatga yetishi mumkin. Yosh oʻqituvchilar uchun beshta darsni partada oʻtkazish qiyin. Bunday oʻrganish har doim ham samarali emas - bolalar charchaydi, zerikadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Амонашвили Ш.А. Размышления о гуманной педагогике [Текст], /2015. -496с.
2. Раджиев А.Б. Современные подходы к организации профессионального развития работников народного образования // Ученый XXI века / №1, 2020/ ISSN 2410-3586.
3. Rasulova R. N. S. PROBLEMS IN THE PRIMARY EDUCATION SYSTEM IN THE TRANSITION TO THE INTERNATIONAL EDUCATION SYSTEM //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 1080-1083.
4. Muxammadiyeva X., Abdumajitov X. CONTENT AND CONDITIONS FOR THE IMPLEMENTATION OF A PERSON-ORIENTED APPROACH IN THE PROCESS OF PRIMARY EDUCATION //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 619-622.

Usmonova Saida Akramjon qizi,
Yangi Namangan tumani 93-sonli maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI FANLARNI O'ZLASHTIRISHDA ULARNING FANGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI OSHIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarini fanlarni o'zlashtirishda fanga bo'lgan qiziqishlarini ularning o'z qiziqishlari va iqtidorlarini inobatga olgan holda darslarni tashkil qilish, to'g'ri metodlardan foydalanish, rag'batlantirish o'yinorqali yaxshi natijalarga erish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Metod, strategiya, sinf o'yinlari, rag'batlantirish, kichik tanafuslar, o'qituvchi yordamchisi.

Boshlang'ich ta'lim umumtalim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgan sinf hisoblanadi. Bu paytda yosh bolalarning aqliy holati mukammal rivojlanib borishiga katta e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Sababi shundaki, ular endigina maktab ostonasiga qadam qo'yib kelayotgan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirish, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib berishlari zarur bo'ladi.

Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi barcha o'quvchilarini fanlarni yaxshi o'zlashtirishlari va bu fanga ijobiy munosabatda bo'lishlarini xohlaydilar. Lekin sinfdagi o'quvchilarning hammasi ham fanni bir xilda teng o'zlashtira olmaydi yoki qiziqish bildirishmaydi. Bunday hollarda pedagoglardan o'quvchining qiziqishiga va o'tilayotgan fanni hayotga bog'lab darslarni tashkil qilish yaxshi samara beradi. Sinfdagi o'quvchilarning qiziqishlari har xil bo'lsa-da, fanlarga bo'lgan ishonchini va o'quvchilarning muvaffaqiyatini oshirishning bir necha xil usullari mavjud. Shunday ekan har bir pedagog o'quvchilarni o'qitishda har xil usullar yordamida oquvchilarni o'qitish strategiyasini topishi kerak.

Har bir o'quvchi noyobdir va har xil yo'l bilan o'rganadi. O'qituvchi foydalanadigan materiallar yoki o'quvchilarga o'rgatadigan o'rganish strategiyalari bo'ladimi, har xil ta'lim uslublariga javob beradigan o'qitish strategiyalarini topish zarur. Unda o'qituvchi tomonidan og'zaki, eshitish, kinestetik usullardan foydalanib o'quvchilar o'rganiladi. O'quvchilar qanday qilib yaxshiroq o'rganishlarini tushunish uchun tezkor so'rov olib borilishi kerak, ota-onalardan farzandining qiziqishlarini so'rash yoki sinfda kuzatib ularni nimalarga qodir ekanliklarini va iqtidorini aniqlash maqsadga muvofiq.

O'quvchilar faktlarni eslab qolish va formulalarni o'rganish bilan mashg'ul bo'lishlari oson. Va bu muhim! Ammo o'quvchilar o'rganayotganda, matematik operatsiyalar orqasida nima sababdan emas, balki nima uchun ekanligini tushuntirib berish muhim.

Muammolarni muhokama qilish uchun sinfda vaqt ajratish va o'rgatayotganlarini kundalik hayotda qo'llash yo'llarini qidirib topib uni o'quvchilarga tushuntira olib bilish lozim.

Hammamiz singari, o'quvchilar ham ba'zida qiyin vaziyatlarda to'xtab qolmasliklari uchun ozgina motivatsiyaga muhtoj bo'lishadi. O'quvchilarni quyidagi mukofotlar bilan qo'llaridan kelganini qilishga undash lozim:

- Do'sti bilan o'tirish
- Kichik tanaffuslar
- Bir kunlik o'qituvchining yordamchisi
- Qiziqarli mashg'ulotlar
- Qo'shimcha bir necha daqiqalik o'yin vaqti
- Sinf o'yinini tanlash imkoniyati

Kichik mukofotlar o'quvchilarga diqqatini jamlashda va vazifani bajarishda yordam beradi. Bundan tashqari, ular darsni qiziqarli qilishning ajoyib usuli!

O'quvchilarni qo'llaridan kelganini qilishga undaganingizdan so'ng, ularning yutuqlarini nishonlashni unutmang. Yaxshi xulq-atvor yoki ajoyib yutuqlar uchun mukofotlar o'quvchilarni mavzuni o'rganishga undaydi. Ular erishgan kichik yutuqlari va mehnatini e'tirof etish va o'quvchilarni samimiy va tez-tez maqtash, o'quvchilarga tengdoshlari haqida nimani ko'proq yoqtirishlarini bilishlariga imkon berish, yig'ilishlarda yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali ota-onalar bilan farzandlari erishgan yutuqlarni baham ko'rish, har bir o'quvchi uchun ularning muvaffaqiyatlari va shaxsiyatiga qarab har bir chorak yoki yil oxirida mukofotlar berish kabi yo'llarni tutish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirib o'tilayotgan mavzularni osonroq va qiziqarliroq tushunishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ta'lat G'afforova "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" "Tafakkur", nashriyoti, Toshkent – 2011 yil
2. Ta'lat g'afforova, SH, Nurillaev va bosh. "2 sinf o'qish" kitobi, "sharq" nashriyoti, -T. 2012 yil.
3. Turg'unboev K. Va Rizaev A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. –"Andijon nashriyatmatbaa". 2008.

Xudayarova. N.Sh,
A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy
rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish
milliy-tadqiqot instituti magistranti

BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOG KADRLAR ROTATSIYASINING AHAMIYATI

Annotatsiya: Maqolada Boshlang'ich ta'limsifatini oshirishda an'naviy yechimlardan qochib pedagog kadrlar rotatsiyasi modelini qo'llash tizimda o'z samarasini berganligi Janubiy Koreya, Singapur, Finlandiya, Yaponiyatajribasi orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, pedagog kadrlar rotatsiyasi, o'qituvchilarmotivatsiyasi, qulay va sifatli ta'lim.

Hozirgi raqobatbardosh dunyoda ta'lim hayotimizda alohida ahamiyat kasb etib, shaxsiyatimizni shakllantirish, jamiyatda yaxshi mavqega ega bo'lish va mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Shu bois, mamlakatimizda ta'limni rivojlantirish uchun dadil qadamlar tashlanmoqda. Shulardan eng muhimi bu **2020-yil 19-mayda** yangidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining **"Ta'lim to'g'risida"** gi qonunidir.

Ushbu qonun **11 bob** va **75 moddadan** iborat bo'lib, milliy me'yoriy hujjatlar tajribasi va jahon huquqi an'alariga mos ravishda ishlab chiqilgan.

Ushbu normalarga asosan umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich ta'lim tashkil etiladi va boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyasi yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, O'zbekiston xalqaro tadqiqot sinovlarida ishtirok etmoqda. Xususan, **PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS** o'qitishva o'rganish xalqaro tadqiqoti.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"**gi PF-5538-son Farmoniga muvofiq Xalq ta'limi tizimini **2030-yilgacha** rivojlantirish **konsepsiyasi tasdiqlandi.**

Ushbu konsepsiyaga muvofiq, bugungi kunga kelib, an'anaviy o'qitish o'rnini shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar egallamoqda.

Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam nazorat qilish, malakalarini muntazam oshirib borishda zamonaviy usullardan foydalanish **dolzarb bo'lib qolmoqda.**

O'zbekiston dunyo bo'ylab aholi soni jadallik bilan oshib borayotgan davlatlar qatoriga kiradi.

Xususan, doimiy aholisi soni **1920-yildan** bugungi kungacha **7 barobarga** ko'paygan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida mehnatga layoqatsiz yoshidan kichik

(bolalalar) bo'lgan aholi sonining yuqoriligi ham ta'limda kadrlarga bo'lgan ehtiyojni ortib borishiga sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunda, O'zbekistonda **10130 ta** umumta'lim maktablari mavjud bo'lib, ularning **2730 tasi** shaharlarda, **7408 tasi** esa qishloqlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda **6246491 nafar** o'quvchi tahsil olmoqda. Jami **509443 nafar** o'qituvchi faoliyat ko'rsatib, shundan **352085 nafarini ayollar, 157358 nafarini erkaklar** tashkil etadi¹⁴.

Davlatimiz tomonidan olib borilgan islohotlarga qaramay, umumta'lim maktablarida **3400 nafar o'qituvchi yetishmaydi**.

Shularning uchdan bir qismi chekka hududlarda. Ayniqsa, **rusiyzabon** o'qituvchilarga talab katta. Birgina Toshkent shahrida boshlang'ich sinf o'quvchilarining deyarli **45 foizi** rus tilida o'qiydi, maktablarda esa **169 nafar** rusiyzabon kadrlar talab qilinadi.

Maktab ta'lim jarayonini boshqarish tizimining ma'lumotlariga ko'ra, **248 ta** boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ehtiyoj mavjud. Bu ko'rsatkich shuni ko'rsatadiki, bo'sh ish o'rinlarini faqat pedagogika yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga kirish kvotalarini oshirish orqaligina to'ldirishning iloji yo'q¹⁵.

Shu kabi muammolarga an'naviy yechimlardan qochib, **pedagog kadrlar rotatsiyasi modelini** qo'llash tizimda o'z samarasini berganligini dunyo tajribasida ko'rishimiz mumkin.

Bu mexanizm dunyoning ta'lim tizimi eng kuchli rivojlangan mamlakatlarda, misol uchun **Finlandiya, Yaponiya va Singapurda** qo'llanilib kelinmoqda.

Biz hamma uchun qulay va sifatli ta'lim tizimi haqida tez-tez eshitamiz - bugungi kunda bu nafaqat bizning yurtimizda, balki butun dunyoda asosiy vazifalardan biridir. Ayrim mamlakatlarda bu muammo tubdan hal qilinib, o'qituvchilar yoki ta'lim muassasalari rahbarlarining rotatsiyasi joriy etilgan.

Ya'ni, bir maktabda ma'lum vaqt ishlagandan so'ng, o'qituvchi yoki direktor boshqa maktabga ishlashga o'tadi va yangi joyni o'zi tanlamaydi, balki buni vazirlik, maxsus kengash yoki hududiy bo'limlar hal qiladi. Bu amaliyot **XX asrda** paydo bo'lgan va hozir ham **Osiyo mamlakatlarida** tarqalmoqda. Har bir davlat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, umumiy xususiyatlar hali ham o'zgarmagan.

Rotatsiya maktablar o'rtasida hamkorlik qilish imkoniyatlarini oshiradi, - masalan, **Singapurda** maktablar o'ziga hos klasterni tashkil qiladi, **Xitoyda** esa shahar va qishloq maktablari hamkorlik to'g'risida kelishib oladilar.

Albatta, har bir mamlakatning o'z tajribasi bor, masalan **Yaponiyada** mamlakatda bir necha o'n yillar davomida o'qituvchilarni rotatsiya qilish siyosati amalda bo'lib kelgan. Yaponiyada o'qituvchilar kamdan-kam hollarda bitta davlat maktabida **3-5 yildan** ortiq ishlaydi va ular tizimli ravishda maktabdan maktabga o'tkaziladi. Yapon tilida bu hodisa "**Jinji idou**" deb ataladi.

Yaponlar rotatsiya ta'lim tizimini yanada adolatli va o'qitish sifatini bir xil qilishga yordam beradi, deb hisoblaydi. Yaponiya hukumati 50-yillarda o'qituvchilar almashinuvini siyosatini ishlab chiqishni boshladi va 60-yillarning boshlarida tizim rasman joriy etildi. O'shandan beri u ko'p marta to'ldirildi va takomillashtirildi. Hozir Yaponiyada nafaqat

¹⁴ <https://data.egov.uz/data/61151682114fbfdc20c35af7>

¹⁵ <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/maktab-talimi-tizimi-muammolar-va-istiqbollar>

o'qituvchilar, balki direktorlar va boshqa maktab ma'muriyati xodimlari ham almashtiriladi.

Ish o'rinlarini o'zgartirish qoidalari va muddatlari mintaqadan mintaqaga farq qilishi mumkin bo'lsa-da, siyosat butun mamlakatni qamrab oladi.

Rotatsiya ma'lum bir prefekturada amalga oshiriladi, lekin faqat bitta aholi punkti bilan cheklanmaydi, o'qituvchiga shahardan qishloqqa yoki boshqa shaharga ko'chirish taklif qilinishi mumkin.

Maktablarning saviyasi ham har xil, masalan, avvalo o'qituvchilarni kuchliroq maktabga, keyin esa kuchsiz deb topilgan maktabga o'tkazish mumkin.

O'qituvchi rotatsiya uning ish haqiga qanday ta'sir qilishi haqida tashvishlanmaydi, chunki o'qituvchilarning maoshi qonun bilan belgilanadi. Ular maktablar tomonidan emas, balki prefektura va uning vakolatli bo'linmalari tomonidan to'lanadi. Shuningdek, tizim rotatsiya davrida o'qituvchilarga subsidiyalar va iqtisodiy yordam ko'rsatadi.

Janubiy Koreyada Rotatsiya Koreyada 70-yillarda joriy qilingan, shuning uchun bu amaliyot allaqachon ta'lim tizimida mustahkam o'rnatilgan.

Yaponiyada bo'lgani kabi, janubiy koreyalik o'qituvchi yoki ma'murning bir davlat maktabida ishlash muddati cheklangan. Direktorlar uchun bu to'rt yil, lekin o'qituvchilar uchun bu farq qilishi mumkin, lekin odatda besh yil. Bunday holda, ko'pincha mutaxassislar o'sha hududdagi boshqa maktabga o'tadilar. O'qituvchilarni kuchli maktabga yoki obro'si zaifroq o'quv yurtiga yuborish yoki hatto shahardan qishloqqa ishlash uchun ko'chirish mumkin.

Shu sababli, o'qituvchilarning motivatsiyasini saqlab qolish uchun 2010-yilda Koreya Ta'lim vazirligi o'qituvchilarni baholash tizimini joriy qildi. O'qituvchilar muntazam ravishda imtihon topshirishadi, seminarlar va malaka oshirish dasturlarida qatnashadilar va buning uchun ball oladilar. Maktab rahbarlari, o'quvchilar va ularning ota-onalari ham baho beradilar. Olingan ballar miqdori o'qituvchining maoshiga ham, uning martaba imkoniyatlariga ham ta'sir qiladi.

Tizim yana bir nechta xususiyatlarga ega:

Noqulay hududlarda ishlaydigan o'qituvchilar qo'shimcha imtiyozlar va ishlash uchun keyingi maktabni tanlash imkoniyati kabi ba'zi imtiyozlarga ega. Bundan tashqari, ularning ish soatlari qisqartiriladi va yuklamasi odatdagidan ko'ra kamroq, bu ham ball tizimida hisobga olinadi.

Umuman Koreyada tizim ancha moslashuvchan: masalan, agar o'qituvchi uydan uzoqqa ketsa, maoshi oshirilishi mumkin yoki agar sharoit imkon bermasa va u ogohlantirgan bo'lsa, boshqa maktabga ko'chib o'tish zaruratidan vaqtincha ozod etilishi mumkin. Bunaqa vaziyatlarga misol qilib, kasal qarindoshlarini davolash yoki parvarish qilish zarurati yoki oilada har ikkala turmush o'rtog'i ham o'qituvchi bo'lsa va biri uzoq hududda ishlayotgan bo'lsa, ikkinchisi rotatsiyada qatnashmaydi.

Bu tizim bizning mamlakatimizda ham boshqacharoq ko'rinishda qo'llanilib kelinmoqda.

Vazirlar Mahkamasining **2019-yil 7-iyundagi 471-sonli qaroriga** ko'ra, olis hududlarda joylashgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida boshqa hududlardan kelib faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning bazaviy tarif stavkalariga ustamalar to'lanadi.

Olis hududdagi maktabga borib ishlamoqchi bo'lgan o'qituvchilarni yanada rag'batlantirish uchun **2021-yil 11-yanvarda** Prezidentning **PQ-4940 sonli qarori** ham imzolangan.

Unga ko'ra, **2021-yil 1-yanvardan** boshlab olis hududlarda joylashgan budjet tashkilotlariga boshqa hududlardan mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun kelgan o'qituvchilarga bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida bir martalik boshlang'ich yordam puli va uy-joylarni ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida har oylik pul kompensatsiyasi to'lab berish yo'lga qo'yilgan.

Ushbu mexanizm mamlakatimizda pedagog kadrlarga o'tkir yetishmovchilik kuza-tilayotgan hududlarga tajribali o'qituvchilarni jalb qilishda o'zining yaxshi samarasini berib kelmoqda.

Hozirda ushbu mexanizmni zamonaviy bilimlarga ega o'z kasbining fidoiyisi bo'lgan o'qituvchilarga katta zarurat bor bo'lgan boshlang'ich ta'lim uchun ham qo'llash mode-lini ishlab chiqish zarurati tug'ilmoqda. Bunda xar tomonlama chuqur o'ylangan va o'qituvchining ishlash samaradorligini oshirishga qaratilgan chora tadbirlar ishlab chiqish vas hu orqalai rotatsiyaning jozibadorligini oshirish nazarda tutilgan. Ya'ni, malakali pe-dagoglarni boshqa muassasaga ishga o'tishi uchun ularga ma'lum bir rag'bat va ustama-lar to'lash orqali vakant o'rinlarni to'ldirish imkonini yaratish mumkin.

Pedagog kadrlar rotatsiyasi bir maktab ichida, bir tuman yoki qishloq ichida, sha-har ichida, viloyat yoki respublika miqyosida amalga oshirilishi mumkin. Rotatsiyada is-htirok etuvchi xodimlarga davlat tomonidan rotatsiya doirasining kengayishiga qarab turli xil ijtimoiy yordam paketlari va ustamalar taklif etilishi mumkin.

Biz faqatgina rotatsiya orqali boshlang'ich ta'lim sifatini yuqori bosqichga olib chiqish mumkin deya olmaymiz lekin, bu mexanizm a'lo darajada yo'lga qo'yilgan mam-lakatlarning (Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur) ta'lim tizimi dunyo reytingini eng yuqori pog'onalaridan joy olgani ayni haqiqatdir.

Yuqorida sanab o'tilgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki pedagog kadrlar ro-tatsiyasi boshlang'ich ta'lim tizimini ham yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash im-konini yarartadi va shundagina ota onalar o'z farzandlarini nomdor maktablarga berish yoki o'z yashash hududidan uzoq bo'lgan sifatli ta'lim berishi mumkin bo'lgan shahar maktablariga berish haqida o'ylamasa ham bo'ladi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, rotatsiya mexanizmi faqat qonunlar va o'tkazish qoida-larini belgilash bilan cheklanmasligi kerak. O'qituvchilar va rahbarlarni har tomonlama, jumladan, psixologik qo'llab-quvvatlash ham juda muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Studwood. O'quv materiallari, online. 2017-2023.
2. Marina Orlova. Personalni boshqarish mutaxassisi. "Rotatsiya nima va uni qanday to'g'ri amalga oshiriladi" 2023.
3. Job Rotation: Importance, advantages and disadvantages. Ahmad Nasruddin 2022.
4. M. Badalova. "Ta'limda boshqaruv". T, 2023.

BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SINIF O'QUVCHILARINING OPTIMAL SONINI BELGILASH

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabda ta'lim sifatini oshirishning sub'ektiv muammosi sifatida, o'qituvchining bilim saviyasi va kasbiy mahorati bo'lsa, sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan ob'ektiv muammo sifatida qabul qilinishi to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, maktab, sinf, o'qituvchi, o'quvchi, mutaxassis, dars, son, sifat, bilim, baholash, dastur.

Ta'lim sifati ko'p qirrali tushuncha bo'lib, unda pedagogik kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyasi va ta'lim muassasasida o'quv jarayonini tashkil etish, xususan o'quvchilar soni bilan bog'liq bo'lgan ko'plab tarkibiy qismlar mavjud hisoblanadi. O'quvchilarning yoshi, qiziqishi, erishgan natijalari, idrok etishi, oilaviy kelib chiqishi va daromadi kabi individual ta'lim sifatini idrok etishda muhim omil hisoblanadi. Ba'zi tadqiqotchilar fikriga ko'ra, sinfdagi o'quvchilar soni sinf muhitiga, o'quv faoliyatiga, o'quvchilarning faolligiga va natijada o'quvchilarning o'zlashtirishiga ta'sir qiladi.

Jahonda maktab ta'limi, sinflardagi o'quvchilar soni kamroq bo'lishi har doim ham yaxshi natijalarga olib keladimi degan savol ko'p muhokamaga sabab bo'lib, sinfda o'quvchilar soni qanaqa bo'lishi haqida bahslashish an'ana bo'lib qoldi. Ammo sinfda o'quvchilar sonining kamligi ta'lim sifatini yaxshilashning asosiy sababi ekanligini ko'rsatadigan xalqaro me'yor va ma'lumotlar mavjud emas. Bundan tashqari, sinfdagi o'quvchilar soniga bog'liq bo'lgan xarajatlarga mo'ljallangan mablag'ni boshqa yo'nalishlarga sarflanishi mumkin bo'ladi degan fikrlar ilgari surilmoqda.

“Aslida, eng sifatli va samarali ta'lim tizimi pisaga a'zo mamlakatlarda bo'lib, ular da o'qituvchi-pedagoglar malakasining yuqoriligini afzal bilishadi va ularning sifatli dars o'tishiga ustunlik beriladi, bu, qoida tariqasida bo'lib, sinfdagi o'quvchilar sonini kamaytirishga emas, ular sinf hajmidan ko'ra o'qituvchilarning sifatini afzal ko'rishadi hamda har doim kichik sonli sinflarni yoki o'qituvchilarga investitsiya olib kirish o'rtasida tanlov qilishlari kerak bo'lsa, ikkinchisini ya'ni ustozlarga sarmoya kiritishni afzal ko'rishadi” [2].

Sinfdagi oz sonli o'quvchilarning afzalliklarini tasdiqlovchi dalillar bo'lishiga qara-


may, ko'plab mamlakatlar buni ustuvor deb hisoblashda davom etmoqdalar. O'qituvchilar, ota-onalar va ta'limga bog'lik barcha shaxslar sinfda o'quvchilar sonining kam bo'lishini xoxlashadilar, chunki ular buni yanada samarali va individual ta'lim vositasi deb bilishadi. 2005-2014 yillarda OECD mamlakatlaridagi hukumatlarni keng jamoatchilik talabi va demografik ko'rsatkichlarning o'zgarishi boshlang'ich sinflarda o'quvchilar sonini o'rtacha 6%ga kamaytirishga majbur qildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, sinfda o'quvchilar sonining kamaytirilishi, yangi va samaraliroq o'qitish metodikasi uchun imkoniyatlar ochib beradi, shuningdek, turli xil sharoitlarda, sinflarning kichikligi yaxshi natijalarga olib keladi. Ammo ko'pincha bu vaziyat noto'g'ri talqin qilinadi. Sinfidagi o'quvchilar sonini kamaytirish o'qituvchilarning ish haqini oshirish, ularni nafaqat o'qitishga yoki o'quvchilarning o'qish vaqtini ko'paytirish orqali ko'proq ish qilish imkoniyatini beradi, deyiladi.

Umuman olganda, tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar kam bo'lgan sinflardagi o'quvchilar ko'p o'quvchilari bo'lgan sinfdagi tengdoshlariga qaraganda barcha fanlar va barcha baholashlar bo'yicha yaxshiroq natijalarga erishadi. O'quvchilar kam bo'lgan sinflarda o'quvchilar mazmunan bilim bo'yicha bir oydan ikki oygacha oldinda bo'lishadi va ular baholashda yuqori baho olishadi. Agar sinfda 20 nafardan kam o'quvchi bo'lsa, ko'pincha individual e'tibor, faollikni oshirish, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi aloqani yaxshilashga olib keladi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra o'qituvchilar sinfda kamroq o'quvchilar bilan ishlaganda intizomiy muammolar, kamroq uzilishlar ro'y berishi, individuallashtirilgan ko'rsatmalar va topshiriqlarning bajarilishida ko'proq samaradorlikka erishilishini aniqladi.

Umumta'lim maktabida o'quvchilari ko'p bo'lgan sinflarni o'qitishning asosiy afzalligi shundaki, dars odatda yuqori energiyaga boy, qiziqarli va hayajonli bo'ladi, darslar tez o'tadi hamda kamdan-kam hollarda zerikarli bo'ladi. Sinfda kamroq bolalar bo'lsa, o'quvchilar darsga taaluqli bo'lmagan xatti-harakatni yashirishlari qiyinroq bo'ladi. O'quvchilar soni kam bo'lgan har qanday sinf xonasida o'qituvchining barcha o'quvchilariga yaqinligi bilan alohida ajralib turadi.

Buning isboti sifatida xorij ta'lim tizimi, ulardagi mavjud vaziyat ya'ni sinfdagi o'quvchilar soni tahlil qilindi. (1-ko'rsatkich).



* Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti

** Har bir sinfda 2 tadan o'qituvchi dars olib boradi.


Tahlil ma'lumotlariga ko'ra sinfdagi o'quvchilar soni Xitoyda o'rtacha 30 nafargacha bo'lsa, uning eng chekka hududidagi qishloq maktabida 3 ta o'quvchi mavjud ekan. Eng kam o'quvchilar soni Finlandiya sinflarida o'rtacha 19 nafar o'quvchilar tahsil olishadi. Finlyandiyada maktab o'qituvchisi bo'lish uchun juda qattiq tanlovdan o'tish zarur: pedagogika ta'lim mutaxassisliklarining eng yaxshi talaba-bitiruvchilari 12% atrofida maktablarga ishga olinadi. Finlyandiya ta'lim tizimining yana bir ijobiy jihati, kichik guruhlarda o'qitishga ustuvorlik berilishi. Bu shubhasiz, ta'limning yuqori sifatda bo'lishiga olib keladi. Mamlakatda maktab ta'limining muvaffaqiyati maktab o'quvchilarini qo'llab-quvvatlash tizimi bilan ham bog'liq. Finlyandiyada jami iqtisodiyotda bandlar ulushida ijtimoiy ishchilar va psixologlar soni jihatidan, barcha Yevropa mamlakatlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.



Oecdga a'zo mamlakatlarning maktab sinflarida 23 tagacha o'quvchilar o'qishsa, Yaponiya maktab ta'limining o'ziga xos yana bir xususiyati, sinfdagi o'quvchilar soni o'rtacha 38 nafar bo'lib, har bir sinfda 2 tadan o'qituvchi dars olib boradi.

Xo'sh mamlakatimizda ushbu ko'rsatkich qanchani tashkil etadi? A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutning <https://t.me/avloniyuz> va https://t.me/raqamli_pedagogik_xizmatlar kanallarida "Siz tahsil berayotgan sinfda necha nafar o'quvchilar ta'lim olmoqda?" – nomli so'rovnoma tashkil qilindi. 2023 yil davomida 80400 nafar ishtirokchilar bu savol bilan yaqindan tanishib, ulardan 27900 nafari bevosita ovoz berish jarayonida ishtirok etishgan. Natijalar esa quyidagicha bo'ldi (2-ko'rsatkich).

2-кўрсаткич. “Сиз таҳсил бераётган синфда неча нафар ўқувчилар таълим олмоқда? % да



- 19 нафаргача
- 20-25 нафаргача
- 26-30 нафаргача
- 31-35 нафаргача
- 36-40 нафаргача
- 40 нафардан ортик

Manba: o'tkazilgan so'rovnomalar asosida mualliflar ishlanmasi

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, Respublikadagi maktablarning asosiy qismida 1 ta sinfda 20 nafardan 35 nafargacha o'quvchi tahsil oladi. Umumiy holatda so'rovnoma ishtirokchilarining 78 foizi buni tasdiqlamoqda. Xususan, 36 nafardan 40 nafargacha, hatto 40 nafardan ham ortiq o'quvchi tahsil olayotgan sinflar ham mavjud ekan. Ishtirokchilarning 10 foizi bunday sinflarning mavjud ekanligini ta'kidlashgan. Maktab ta'limi tizimida bu 10 foiz ya'ni 2790 ta ovoz ham katta ko'rsatkich hisoblanadi.


Bu esa hududlar kesimida aholi soni (o'quvchilar soni)ning joriy holatini, shuningdek, o'sish jarayonini o'rganish, prognoz qilish orqali maktablar sig'imini oshirish yoki yangi maktablar tashkil etishga zarurat mavjudligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarining har bir sinfida 30-35 nafardan, tuman va shaharlarda esa bu ko'rsatkich 40-45 nafarga yetayotganligi achinarli holatdir. Xo'sh bu borada qonunchiligimizda qanday talablar mavjud?

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 140-son qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq, har bir sinfdagi o'quvchilar soni 35 nafardan oshmasligi kerak [1]. Shuningdek, sanitariya qoidalari va talablariga muvofiq, dars davomiyligi 45 daqiqani tashkil etadi. Agarda sinfda 35-40 nafar o'quvchi bo'lsa, barcha o'quvchilarni 45 daqiqada qamrab olish oson emas. Ya'ni sinfda 20-25 nafar o'quvchi bo'lsa, dars ancha samarali bo'ladi. Bunday holda siz har bir o'quvchi bilan alohida ishlashingiz, mavzuni batafsilroq tushuntirishingiz mumkin. Garchi, albatta, ko'p narsa o'qituvchining tajribasi va malakasiga bog'liq. Shu bilan birga, agar o'quvchilar soni juda ko'p, vaqt esa cheklangan bo'lsa, o'qituvchining darajasidan qat'i nazar, o'qitish sifati pasayadi. Bunday holatda hali tajriba to'plamagan yosh o'qituvchilar qanday qilib katta sinovdan o'tadilar? Axir bolalarni tinchlantirish, dars mavzusiga jalb etish oson ish emas-ku.

Savol tug'iladi agar sinfda 35 nafar o'quvchi bo'lsa, ularning har biriga 1 daqiqadan berilsa ham, demak 35 daqiqa vaqt ketadi. Unda qachon o'quvchilar bilan suhbatlashish, mavzuni tushuntirish va uni mustahkamlash kerak?

Bundan tashqari "Bitta sinfda necha nafar o'quvchining ta'lim olishini xohlar edingiz?" – nomli so'rovnoma ham tayyorlandi. 2023 yil davomida 81600 nafar ishtirokchilar ushbu savol bilan tanishib, ulardan 30000 nafari ovoz bergan. Natijalar esa quyidagicha (3-ko'rsatkich):



Navbatdagi so'rovnomaning 77 foiz ishtirokchilari 1 ta sinfda 15 nafardan 25 nafargacha o'quvchining tahsil olishini ma'qul variant sifatida tanlashgan. Demak, o'qituvchilar uchun sinfda o'quvchilar sonining 25 nafardan oshmasligi ma'qul va bu holat o'qituvchilarni ortiqcha yuklamadan ozod qiladi, sifatli ta'lim berish uchun qulay sharoit yaratadi.

Maktabda sinf o'quvchilar soni kichikroq bo'lishi odatda, ayniqsa ota-onalar tomonidan juda ma'qul ko'riladi. Kichikroq sinflar bilan o'qituvchilar nazoratni osonlik bilan ushlab turishlari va har bir o'quvchiga ko'proq e'tibor berishlari mumkin. Shunday qilib, ko'pgina mamlakatlar sinf o'quvchilari sonining maksimal hajmini cheklaydi, ya'ni 30 nafar o'quvchini tashkil qiladi.

Sinflardagi bugungi vaziyat o'qituvchiga o'quvchilar bilan individual ishlash imkonini bermayapti. Vaholanki, fanni yaxshi o'rgangan o'quvchilarga qo'shimcha yuk berish, ortda qolganlarga esa yordam berish kerak emasmi aslida. 40 ta o'quvchisi bo'lgan sinfdan yuqori bilimli o'quvchining paydo bo'lish ehtimoli kamayadi. Psixologlar bir ovozdan sinfda 25 nafar o'quvchi bo'lishini ma'qullashadi. Bundan ko'rinadiki maktablar sonini 2 baravar oshirish kerak ekan.

Yuqoridagi so'rovnomaning uzviy davomi sifatida "Sizningcha ta'lim sifatining yuqori bo'lishi o'quvchilar soniga bog'liqmi?" – nomli so'rovnoma tashkil qilindi. 2023 yil davomida 82200 nafar ishtirokchilar ushbu savol bilan tanishib, ulardan 7675 nafari ovoz berish jarayonida ishtirok etgan (4-ko'rsatkich).

1-javob. Ha, o'quvchilar soni qancha kam bo'lsa, ularga bilim berish shuncha yaxshi bo'ladi;

2-javob. Yo'q, o'qituvchilar tomonidan sifatli ta'lim berilsa, o'quvchilar sonining ko'pligi ham xalaqit bermaydi;

3-javob. Eshitishimcha bundan 40-50 yillar oldin sinfda o'quvchi soni ko'p bo'lsa ham sifatli ta'lim berilgan ekan;

4-javob. Ta'lim sifatining yuqori bo'lishi o'quvchilar soniga umuman bog'liq emas, deb o'z fikrlarini qoldirishgan.



So'rovnomaning oxirgi savoliga 78 foiz ishtirokchi o'quvchilar soni qancha kam bo'lsa, ularga bilim berish shuncha yaxshi bo'ladi, o'quvchi sonining kamligi ta'limning sifatiga ijobiy ta'sir qiladi degan fikrda.

Umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish shu sohadagi islohotlarning asosiy maqsadi, bu maqsadni amalga oshirishda o'z-o'zidan ob'ektiv va sub'ektiv muammolar yuzaga chiqishi tabiiy. Sub'ektiv muammo sifatida – o'qituvchining bilim saviyasi va kasbiy mahoratini aytadigan bo'lsak, bu muammo o'qituvchining o'z ustida doimiy ishlashlari natijasida bartaraf etilsa bo'ladi. Ammo ta'lim sifatidagi ob'ektiv muammolardan biri – sinfdagi o'quvchi sonining juda ko'pligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin.

Biz diqqatimizni mana shu ob'ektiv muammoga qaratdik, so'rovnoma ishtirokchilari ham bu muammo ekanligini tasdiqlashdi va sinfda o'quvchilar sonining 25 nafardan ko'pligi ta'lim sifatining yomonlashishiga sabab bo'lishini ta'kidlashdi. Demak, sinfda o'quvchi sonini maksimal 25 nafardan oshirmaslik maqsadga muvofiq ekan.

Yana bir savol nega biz uy-joylarni keng miqyosda qurmoqdamizu, lekin umumta'lim maktablari qurishga kelganda oqsayapmiz. Ayrim sinflarning to'lib ketishiga markazdagi tuman va shaharlarga malakali pedagog kadrlarning ketib qolishi, shuningdek, ko'plab ota-onalar farzandlarini rus tilida o'qitiladigan maktablarga berish istagi kuchayib borayotganligi sabab bo'lmoqda. Ba'zi umuta'lim maktablarida ta'lim rus tilida olib boriladi. Ushbu maktabda o'quvchilar qabuli chegaradan oshib ketish holatlari kuzatilmoqda. Buning ham bir qancha sabablari bor:

Birinchidan, ota-onalarning bolani ushbu maktabga, ma'lum bir o'qituvchiga berish istagi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ular sinflar to'lib-toshganligi haqidagi izohlarni tinglashni xam xohlamaydilar.

Ikkinchidan, maktablarda o'quv xonalarining yetishmasligidadir. Ushbu muammoni hal qilish qo'shimcha binolarni qurish orqali amalga oshiriladi.

Tahlil natijalariga ko'ra, quyidagi xulosalar paydo bo'ladi:

- Ota-onalar farzandlarini faqat ma'lum maktablarga yuborishga moyil.

- Viloyat markazlari va shaharlardagi maktablarda o'quvchilar soni me'yordan sezilarli darajada oshib ketgan, chekka hududlardagi maktablarda esa bolalarni qamrab olish yetarli darajada emas. Binobarin, u yerda zarur infratuzilma yo'q, natijada ko'pchilik xali xam markazlarga intilmoqda.

Yana bir holat ota-onalar farzandlarining ma'lum bir o'qituvchi tomonidan o'qitilishini xohlashadi, chunki tan olish kerak yetarli malakaga ega bo'lmagan o'qituvchilar afsuski mavjud. Ma'lumki, 11 yillik ta'limga o'tish amalga oshirildi, biroq bu maqsadlar uchun zarur infratuzilma hali to'liq tayyor emas.

Bundan tashqari ta'lim sifatini yanada oshirish maqsadida sinfdagi o'quvchilarni ona tili va adabiyoti, matematika, kimyo, fizika fanlarida guruhlariga bo'lib dars o'tilsa, o'ylaymizki natija sezilarli darajada yaxshilanadi degan fikrdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 140-son qarori.
2. Andreas Shlyayxer. Obrazovanie mirovogo urovnya. Kak vystroit shkolnuyu sistemu XXI veka? Uspeshnye reformy i vysokie rezultaty. Moskva, 2019. 56-str.
3. G.M.Qosimov. Menejment. Darslik. - T.: o'zbekiston, 2002. - 312 bet.
4. N.M.Soatov. Statistika. Darslik. - T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003. - 744 bet.
5. R.X.Djuraev, S.T.Turg'unov. Ta'lim menejmenti. T.: "Voriz-Nashriyoti", 2006. 263 bet.
6. Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov. Ta'lim sifatini boshqarish. T.: "Turon-Iqbol", 2006. 592 bet.
7. D.N.Rahimov va boshqalar. Zamonaviy menejment: nazariya va amaliyot. - T.: g'afur g'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. - 792 bet.
8. Sh.Paxrutdinov. Barqaror taraqqiyot va rahbar mas'uliyati. T.: "Akademiya", 2011. 303 bet.
9. <https://t.me/avlonyuz>
10. https://t.me/raqamli_pedagogik_xizmatlar

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARINING BOSHLANG'ICH SINFLARIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH MAZMUNI VA METODLARI

Anotatsiya: Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinflarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish mazmuni va metodlari tahlil qilingan. Undagi muammolar o'rganilgan hamda muallif tomonidan bu boradagi ilg'or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda, amaliyotda samarali boshqaruv mexanizmini joriy etish taklifi ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Harakatlar strategiyasi, intellektual, kategoriya, shaxs, tarbiya, o'qitish, o'qish, bilim, ko'nikma, malaka, umumiy didaktika, xususiy didaktika, ta'lim berish, kadrlar tayyorlash, innovatsion boshqaruv, pedagog kadrlar malakasini oshirish, masofaviy ta'lim, innovatsion texnologiyalar, onlayn tarzda malaka oshirish.

Jahonda ta'lim eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan bugungi sharoitda "ta'limning hamma bosqichlarida, ta'lim natijalarini baholash samaradorligini oshirish va usullarini takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali barcha insonlar uchun ularning hayoti davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratishni dolzarb vazifa qilib qo'yimoqda". Bugungi kunda barcha mamlakatlar, hattoki, eng taraqqiy etgan davlatlar ham ta'lim tizimini rivojlantirishda alohida e'tibor qaratib, mazkur yo'nalish kun tartibidagi eng dolzarb vazifaga aylanib qolmoqda. Bizning malakatimizda ham ta'lim tizimini rivojlantirish strategik maqsadlarni biri sifatida qaratiladi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasining ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'lim va undan keyingi ta'limni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish vazifasi belgilangan. Unda xalq ta'limi tizimidagi maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib umumiy o'rta ta'lim muassasalari, musiqa va san'at ta'lim muassasalari hamda bolalar sporti ob'ektlarini moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish, maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, yoshlarimizni har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Ma'lumki, turli sohada bilim

oluvchi ta'lim oluvchilarni o'qitish va tarbiyalashning nazariy hamda amaliy tomonlarini yolg'iz pedagogika fanining o'zi mufassal yoritib bera olmaydi.

Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha **kategoriya** deb ataladi. **Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari** shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish. **Shaxs** – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulqatvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Pedagogika fanining muhim metodologik muammolaridan biri bu shaxsning rivojlanishi va tarbiyasi hisoblanadi. O'sib va rivojlanib boruvchi inson tarbiya ob'ekti hisoblanadi. Butun hayoti davomida insonning rivojlanish jarayoni davom etaveradi. Bu jarayonda u turli o'zgarishlarni o'z boshidan kechirib boradi. Insonda bo'ladigan jismoniy o'zgarishlarga – bo'yining o'sishi, vaznining og'irlashib borishi, suyak va mushak tizimlarining, ichki a'zolari va asab tizimining o'zgarib borishi kiradi. Ruhiiy o'zgarishlar esa, uning aqliy rivojiga aloqador bo'ladi va insonda ruhiy sifatlarning shakllanib borishi, unda hayot uchun zarur bo'lgan sotsial sifatlarning tarkib topishi hisoblanadi. Shaxsning shakllanishiga uch guruh omillar ta'sir ko'rsatadi: **tarbiya, muhit, irsiyat**.

Shaxsning rivojlanishi – bu muhim jarayon hisoblanadi. Shaxsning kamolga yetishida nasl-irsiyat (biologik), ijtimoiy muhit, maqsadga muvofiq amalga oshiradigan ta'lim-tarbiya va nihoyat o'zining mustaqil faoliyati ham muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, bola butun hayoti davomida jismoniy va ruhiy tomondan o'zgarib boradi. Ayniqsa bolalik, o'smirlilik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Mana shu yillarda ham jismoniy, ham psixologik jihatdan o'sishi, o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi, bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida bola jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Munosabatlar doirasiga kishilar orasidagi munosabat emas, balki tabiat, jamiyat, hayotga bo'lgan munosabatlar ham kiradi. Mana shu ko'p qirrali aloqa va munosabatlar zaminida har bir shaxs o'z qobiliyati, qiziqishi, o'z bilimi va uquvini namoyon qiladi, o'z ishiga, vazifasiga, burchiga, xalqiga, Vataniga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlari ifodalaydi. Tabiiyki, shaxsdagi bu fazilatlar faqat tarbiyaning mahsulidir.

Tarbiya – aniq maqsad asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiyaning xususiyati shundaki, u aniq maqsadni ko'zlab, insonda ijobiy fazilatlarni tarkib toptirish yo'lida tarbiyachi rahbarligida muntazam amalga oshirib boradi. Ammo, tarbiya ta'sirining kuchi va uning natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi. Tarbiya insonning ko'zi, sochi, terisining rangi, badanining tuzilishiga ta'sir eta olmaydi, lekin, jismoniy taraqqiyotiga ta'sir etishi mumkin. Maxsus tashkil etilgan jismoniy mashqlar orqali bolaning salomatligi mustahkamlanadi va chiniqtiriladi. Insonning tabiiy qobiliyati faqat tarbiya orqali, uni ma'lum bir faoliyat turiga jalb qilish orqali rivojlanishi mumkin. Ma'lumki, bola layoqatini rivojlantirish, uni qobiliyatga

aylantirish va hayotga mos holda o'stirish uchun mehnatsevarlik va ishchanlik kerak. Mehnatsevarlik va muttasil o'tirib ishlash bular faqat tarbiya natijasida orttirilgan fazilatlaridir. Inson kamoloti va uning shaxsini shakllantirishni yagona va bir butun jarayon ekanligini ta'kidlaydi. Bu jarayonda ta'lim oluvchi faoliyatiga katta o'rin beriladi. U faoligi bilan o'z shaxsini shakllantira oladi. Tarbiyachi tomonidan qo'yiladigan maqsad aniq bo'lsa va bu maqsadga erishish uchun odam astoydil harakat qilsa, kutilgan natijaga erishiladi. Pedagogning bolaga singdirishi lozim bo'lgan tarbiya samarali ta'sir etishi uchun uning o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini yaxshi bilishi, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi muhim shartlardan biridir.

Ta'lim – ta'lim oluvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurolantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon. Ta'lim deganda o'qitish va o'qish jarayonlari tushuniladi. **O'qitish** – insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan ongli faoliyat ifodasidir. Uning natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo'ladi. O'qitishda deyarli hamma vaqt uning tarbiyaviy jihatlari yaqqol bilinib turadi. Ta'lim maqsad, mazmun, pedagogning shaxsi, ta'lim oluvchilardagi o'qitishning moddiy – texnik bazasi va boshqa omillar bilan belgilanadi. Xalq pedagogikasida inson aqlan barkamol bo'lishining eng muhim sharti uni bolaligidan o'qitish va tarbiyalash, deb hisoblaydi. **O'qish** - bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo'lib, ta'lim oluvchining intellektual, irodaviy va jismoniy kuch -g'ayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini rag'batlantiradi. **O'qish** o'z mazmun – mohiyati jihatidan maqsad, vazifa, tamoyil, mezon va harakatlar bilan bog'liq bo'lib, ular yordamida ta'lim oluvchilar ma'lum bilimlarni o'zlashtiradilar. O'qish va uning samaradorligi ta'lim oluvchining har tomonlama faolligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi va bu jihatlar turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ular: mehnat faoliyati, jamoatchilik faoliyati, kitobxonligi, kasbiy o'yinlarni yaxshi ko'rishligi, o'z kasbiga oid yangi bilimlarni egallashga o'chligi va shu kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Demak, **o'qish**– bu ta'lim oluvchilarning voqelikni bilish davomida ma'lum bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni rejali o'zlashtirish jarayonidir. O'qish jarayoni ma'lum darajada kuchli motivlashtirishdan vujudga keladi va u shaxsning qarashlari, e'tiqodi, hatti – harakati, umumiy kamolotiga, pirovardiga esa uning xulqiga ta'sir etadigan bilimlar, ko'nikmalar va malakalar majmuasining shakllanganligiga bog'liq bo'ladi.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui. **Bilimlar** – bu odamlarning ijtimoiy – siyosiy amaliyot jarayonida to'plangan umumlashgan tajribasidir.

Bilim – borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi. Ob'ektiv reallikning inson ongida adekvat aks ettirilishi (tasavvur, tushuncha, mulohaza, nazariyalar). U kundalik, ilmiy, nazariy bilimlarga ajraladi.

Didaktika pedagogika nazariyasining nisbatan mustaqil qismi bo'lib, unda o'qitish jarayonining umumiy qonuniyatlari ochib beriladi. Didaktikaning so'zma-so'z tarjimai "ta'lim nazariyasi"ni anglatadi.

Didaktika yunoncha “didacticos” soʻzidan olingan boʻlib, – “oʻrgatish”, “oʻqitish” degan maʼnolarni bildiradi.

Bu atamani nemis pedagogi V. Ratke (1571-1635) fanga kiritgan. Didaktika nomi oʻsida nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiladigan ilmiy fanni tushundi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk borya.A. Komenskiy (1592-1670) tomonidan ishlab chiqilgan. Didaktika pedagogikaning “Nima uchun oʻqitish kerak?”, “Nimani oʻqitish kerak?”, “Kimlarni oʻqitish kerak?”, “Kimlar oʻqitishi kerak?” “Qanday oʻqitish kerak?”, “Qanday koʻrinishda oʻqitish kerak?”, “Nimadan foydalanib oʻqitish kerak?” Kabi savollariga javob izlaydi. Didaktikada taʼlimni tashkil etishning umumiy masalalari, oʻqitish jarayonining maqsadi, taʼlimning mazmuni, oʻqitish metodlari, uning tashkiliy shakllari va vositalari yoritiladi.

Umumiy didaktika oʻz navbatida ayrim fanlarga oid usullar bilan juda mustahkam bogʻlangan boʻlib, ularga oid maʼlumotlariga tayanib oʻqitishning umumiy qonuniyatlari ochib beradi va ayni vaqtda har bir oʻquv fanini oʻqitish usullari uchun umumiy asos boʻlib xizmat qiladi. Didaktika oʻz oldiga oʻqitishning taʼlim oluvchilarni har tomonlama tarbiyalash maqsadlariga javob beruvchi umumiy qonuniyatlarni bilib olish vazifasini qoʻyadi.

Xususiy didaktika – muayyan oʻquv fanlarini oʻqitish qonuniyatlari, usullari, vositalari, shakllari va yoʻllarini oʻrgatuvchi metodika (tadris) fanlari ham pedagogika fanlari turkumining asosiy sohalaridan biri boʻlib hisoblanadi. U umumiy didaktika yutuqlari asosida rivojlanadi va uning nazariy umumlashmalariga asoslangan holdagina takomillashib boradi. Muayyan bir fanga tadbiq etilgan didaktik qonuniyatlari, oʻsha predmetning umumiy jihatlari qonunlashtiradi va ularda oʻqitishning universal jihatlari namoyon boʻladi.

Taʼlimning boshlangʻich (dastlabki) vazifasi taʼlim oluvchini oʻqitishdan iborat. Shuning bilan birga oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarga maʼlumot berish vazifasini bajaradi. Shunga koʻra, taʼlim **birinchidan** oʻqishni, **ikkinchidan** oʻqitishni, yaʼni oʻqishni va shu bilan birga uni nazorat qilish hamda tuzatish tadbirlarini oʻz ichiga oladi. **Taʼlim berish** – taʼlim oluvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyati boʻlib, insonning aqliy faoliyatini rivojlantirish jarayonidir. Taʼlim berish taʼlim oluvchilarning oʻqish – oʻqitish jarayonining mazmun – mohiyatini ongli ravishda anglab yetishlari orqali amalga oshiriladi. Taʼlim-bilim berish, koʻnikma va malaka hosil qilish jarayoni, kishini hayotga hamda mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Taʼlim va tarbiya uzviy bogʻliq boʻlib, maʼlumot ularning natijasidir. Ishlab chiqarish nuqtai nazardan olib qaraganda **jarayon** - obʼektga maqsadga muvofiq taʼsir etib, uning holati, xususiyati, shakli kabilarni oʻzgartirishni anglatadi.

Xulosa oʻrnida shuni aytmoqchimizki, agar taʼlim-tarbiya pedagogik qonuniyatlarga asoslanishini hisobga olsak, **taʼlim-tarbiya jarayoni**- taʼlim oluvchilar his-tuygʻulari, ongi, xarakteri kabilarga maqsadga muvofiq taʼsir etib, ularda bilim, koʻnikma, malaka va shaxsiy fazilatlar shakllantirish tizimi ekanligi kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 avgustdagi "Xalq ta'limi tizimi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 234 – sonli qarori.
2. Commonwealth of Learning. (2008). Education for a digital world: Advice, guidelines and effective practice from around the globe.
3. Taylor, J. C. (1995). Distance education technologies: The fourth generation. Australian Journal of Educational Technology 11(2), 1–7 pp.
4. Burns, M. (2011). Distance Education for Teacher Training: Modes, Models, and Methods. Washington, DC: Education Development Center.
5. Dillemans, R., Lowyck, J., Van der Perre, G., Claeys, C., & Elen, J. (1998). New technologies for learning: Contribution of ICT to innovation of education. Leuven, Belgium: Leuven University Press.
6. Gaible, E. (2009). Survey of ICT and education in the Caribbean: Country reports. Washington, DC: World Bank.
7. Latchem, C., & Jung, I. (2010). Distance and blended learning in Asia. New York, NY: Routledge.

Kenjaboyeva Nigora Mamayusufovna,
*Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga
o'rgatish milliy markazi dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KREATIV QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH UCHUN ULARNING REPRODUKTIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGNING O'RNI

Annotatsiya: *Maqolada sog'lom turmush tarzi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni maktabdanoq shakllantirish yoritilgan. Maktab o'qituvchilarining sog'lom turmush tarzi birinchi navbatda xususiy sog'lom turmush tarziga asoslangan, ya'ni sog'liqni saqlash sohasida shaxsiy bilimlarga ega bo'lish, sog'lom turmush tarziga intilish va insonni O'z kundalik faoliyatida O'z sog'ligini asrashga intilishidir haqida fikrlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Sog'lom turmush tarzi, shaxs salomatligi, moslashuv, reproduktiv salomatlik, reproduktiv madaniyati.*

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etishda maktab o'quvchilarining intellektual, kasbiy, axloqiy, madaniy rivojlanish talablarini qondirishda ulardagi sog'lom turmush tarzi borasidagi bilim va ko'nikmalarini, reproduktiv madaniyatni shakllantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Darhaqiqat, sog'lom turmush tarzi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni maktabdanoq shakllantirish lozim. Buning uchun esa, dastavval pedagoglarni ushbu jarayonga tayyorlashimiz va ularning reproduktiv madaniyatini rivojlantirishimiz zarur. Agar o'qituvchi o'z o'quvchisining sog'ligini, sifatli bilim olishini, rivojlanib o'sishini, ularning sog'ligiga zarar keltiruvchi zararli odatlardan holi, ma'naviy o'sishini himoya qila olmas ekan, u shaxs salomatligini muhofaza qila olmaydi.

Vaholangki, ta'lim tizimi shaxs salomatligini shakllantiruvchi va mustahkamlovchi muhim bo'g'inlardan sanaladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda pedagogning bilim va harakatlari aynan shu maqsad uchun yo'naltirilishi, eng avvalo, ularning o'zi ana shu sohada zaruriy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollangan bo'lishi lozimligini ko'rsatadi.

Ko'pchilik ota-onalar farzandlari vaqtdan oldin oila qurish borasidagi bilimlarga ega bo'lishi mumkinligidan qo'rqadilar, o'zlarining xatolarini farzandlarida qaytarilishidan xavotirlanadilar. Ota-onalarning aksariyat qismi farzandlarining reproduktiv salomatlik borasidagi bilimsizliklari kelgusida noxush oqibatlarga olib kelishini tushunmaydilar.

Uyda, oilada olmagan ma'lumotlarini farzand ko'chada do'stlari orasida, gazeta va jurnallar, televideniya orqali olishga intiladi. Bu kabi ma'lumotlarga ega bo'lish yoshlarda reproduktiv salomatlik va reproduktiv madaniyat borasidagi noto'g'ri tasavvurning shakllanishiga olib keladi. Bu esa maktab o'qituvchisidan juda katta mas'uliyatni talab etadi.

O'quvchilarning sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish ayniqsa boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri. Maktab o'qituvchilarining sog'lom turmush tarzi birinchi navbatda xususiy sog'lom turmush tarziga asoslangan, ya'ni sog'liqni saqlash sohasida shaxsiy bilimlarga ega bo'lish, sog'lom turmush tarziga intilish va insonni o'z kundalik faoliyatida o'z sog'ligini asrashga intilishidir.

Pedagog o'qituvchilar o'z sog'ligiga e'tiborli bo'lsagina o'z o'quvchisida ham sog'lom turmush tarziga havas o'yg'ota oladi. Buning uchun eng keraklisi pedagog-o'qituvchilarning sog'lom turmush tarzi borasidagi qarashlarini tahlil qilib, zaruriy uslubiy ko'rsatmalarni berishdir.

O'quvchilarning maktabdagi ta'lim jarayoniga moslashuvi, imtihonlar davridagi katta yuklanish va hissiy zo'riqish, turli psixologik va fiziologik stresslar ularning asab va yurak tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'quvchilar o'rtasida asab va turli xil kasalliklarning kelib chiqishiga, stresslardan holi bo'lish maqsadida zararli odatlarga berilishiga olib keladi.

Ilmiy adabiyotlar tahliliga ko'ra maktab o'quvchilarining sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish bilan bog'liq muammolarni oxirgi yillarda yanada ko'proq dolzarbligini aks ettirmoqda.

Bunga sabab sog'liqni saqlash, sog'lom turmush tarziga oid bilim va unga munosib dunyoqarashga ega bo'lmaslikdir.

Shuning uchun, o'quvchilarga ta'lim tarbiya berayotgan o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi, reproduktiv madaniyatni shakllantirishni ularga shu sohadagi zaruriy bilimlarni berish, dunyoqarashni qaror toptirish va o'z salomatligini mustahkamlashga amaliy faoliyatli yondashuvni vujudga keltirishdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Mazkur sohalarda yoshlarda zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida uzliksiz ta'limning barcha bosqichlarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish va uni yo'lga qo'yish maxsus dasturlar orqali o'qitish yo'lga qo'yildi.

1-4-sinflarda "Salomatlik darslari", 5-9-sinflarda "Sog'lom avlod asoslari" kurslari o'qitilgan. Lekin bu kurslarning mazmunida aynan reproduktiv madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan ma'lumotlarning yetarligicha yoritilmaganligi, xususan yosh davrlari sifatida o'quvchilik davri xususiyatlaridan kelib chiqib reproduktiv salomatlik va reproduktiv madaniyatini shakllantirishga e'tiborning kamligi ko'zga tashlanadi. Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning reproduktiv madaniyatini shakllantirishga qaratilgan qulay muhit va pedagogik shart-sharoitning yo'qligi, ta'lim muassasidagi pedagoglar jamoasi tomonidan o'quvchilardagi reproduktiv madaniyatni shakllantirish jarayonining to'la nazoratga olinmasligi bu sohada qator kamchiliklar borligini ko'rsatadi. Hozirda Prezidentimiz g'oyalari asosida boshlang'ich sinfdan to yuqori sinfgacha maktablarda "Tarbiya" darslari joriy etildi. "Tarbiya" darslarining ichida ham aynan reproduktiv salo-

matlik, reproduktiv madaniyat masalalari qo'yilgan. Buning uchun xam ushbu jarayonga o'qituvchi tayyor bo'lishi kerak.

Keltirilgan fikrlarga asoslanib, ta'limni rivojlantirishda, o'quvchilarda reproduktiv madaniyatni shakllantirishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir;

- umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishda, ta'lim muassasasida ma'naviy-ruhiy muhitni sog'lomlashtirishni, moddiy texnik sharoitini mustahkamlash asosida o'z sog'ligiga e'tiborli, ma'suliyatli shaxsni tarbiyalash;

- reproduktiv madaniyatni shakllantirishda nafaqat o'quvchilarning balki, ota-onalar va o'qituvchilarning bu sohadagi savodxonligi muhim ahamiyat kasb etishini nazarda tutish;

- reproduktiv madaniyatni shakllantirishning zaruriy shart-sharoitlarini, mazmun mohiyati haqida ma'lumot beruvchi uslubiy qo'llanmalar, brashyuralar yaratish;

- uzliksiz ta'limning barcha bosqichlarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish va uni yo'lga qo'yish maxsus fanlarning mazmunida reproduktiv salomatlik va madaniyat masalalarini keng yoritish;

- oila, maxalla, nodavlat tashkilotlarning o'quvchilardagi reproduktiv madaniyatni shakllantirish borasidagi xamkorligi mazmuni, shakl va metodlari tizimiga innovatsion o'zgartirishlar kiritish zarur.

- o'quvchilarda reproduktiv madaniyatni shakllantirishning mavjud tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: o'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
3. Kenjaboyeva N.M. Talaba-yoshlarda reporoduktiv madaniyatni shakllantirish. Metodik qo'llanma. –Toshkent:Mumtoz so'z, 2011.79 b.
4. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. (o'quv qo'llanma). TT.: o'qituvchi, 1999. 200 b.
5. Sharipova D, Karimova O, Axmedxodjaeva N. Sennostnaya orientatsiya podrostkov – vajnyx itog formirovaniya ZOJ. Resp.jur. "Bola va Zamon" T.; 2007y, 37-38-b.

INNOVATSION TA’LIMNING RIVOJLANISHI

Annotatsiya: Maqolada innovatsiya tushunchasi, uning paydo bo’lishi, innovatsiyaning turlari va tasniflanishi, ta’lim muassasalarining innovatsion faoliyatini, innovatsion ta’limning rivojlanishi, tendentsiyalar va istiqbollari, innovatsion ta’limni rivojlantirishda innovatsion faoliyatni amalga oshirish masalalari bo’yicha so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: innovatsiya, innovatsion faoliyat, yangilik, ixtiro, ilm-fan, kombinatsiya, tasnif.

Bozor shart-sharoitlarida o’z hayotiy layoqatini barqaror saqlashga intiladigan har qanday ta’lim muassasasi pirovard natijada ilm-fan sohasida yoki kadrlar tayyorlash tizimida biron bir yangilikni yaratishga, yangi g’oyalarni amalga oshirishga, ya’ni g’oyalarning moddiylashtirilishiga hamda bozorlarda salohiyat xaridorlarga sotilishiga erishishi lozim. Ta’lim muassasalarining faoliyatini tijoratchilik asosida yo’lga qo’yilishi ularni funktsional vazifalaridan birmuncha chalg’itishi mumkin albatta, ammo ilmiy-innovatsion faoliyat bilan shug’ullanish oxir oqibatda o’quv yurtlariga moddiy jihatdan o’z-o’zini ta’minlash imkoniyatini yaratib beradi.

Respublikamiz miqyosida amal qiluvchi innovatsion muhitning yaratilishi barobarida ta’lim muassasalarining innovatsion faoliyatini faollashtirish ob’ektiv ehtiyojga aylangan. Innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirish jarayonlari ham muayyan sikllardan iboratdir. Ushbu nuqtai nazardan olib qaralsa, innovatsion sikl vaqt o’lchamlarida izchil davom etuvchi, ahamiyati jihatidan bir xil bo’lgan turli xil bosqichlarda funktsional jihatdan alohida mazmun kasb etib bir-biridan farqlanadigan faoliyat majmuasidir.

O’zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyulda “Innovatsion faoliyat to’g’risida”-gi Qonunining qabul qilinishi “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” Davlat dasturida nazarda tutilgan tegishli huquqiy zaminni yaratish borasidagi muhim qadam bo’ldi. Ushbu qonun taraqqiyotimizni kafolatlovchi, uni yanada jadallashtiruvchi yangi g’oya, yangi kashfiyotlar, ilmiy ishlanmalarni yaratish hamda hayotga joriy etilishining ishochli huquqiy mexanizmlarini mustahkamlab benihoya muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunda ifodalangan ta’rifga, ko’ra innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo’llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta’minlaydigan yangi ishlanma. Innovatsion faoliyat esa, yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o’tkazilishi va amalga oshirilishini ta’minlash bo’yicha faoliyatdir.

“Innovatsiya” atamasidan o’zbekistonning o’tish iqtisodiyotida ham mustaqil va ham

bir qator o'xshash tushunchalar: "Innovatsion faoliyat", "innovatsion jarayon", "innovatsion qaror" va h.k. Belgilash uchun foydalanilgan. Turli olimlar, ayniqsa xorijliklar (N. Monchev, I. Perlaki, V.D. Xartman, E. Mensfeld, R.Foster, B.Tviss, Y.Shumpeter, E.Rodgers va boshqalar) bu tushunchani o'zlarining tadqiqotlari ob'ekti va predmetiga ko'ra har xil talqin qiladilar, ammo innovatsiyalarning bu har xil ta'riflarining tahlili shunday xulosaga olib keladiki, o'zgarishlar innovatsiyalarning o'ziga xos mazmunini tashkil qiladilar, o'zgarishlar vazifasi esa innovatsion faoliyatning asosiy vazifasi bo'ladi[2].

Innovatsiya- yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan mahsulot, xizmat yoki jarayon."Innovatsiya" atamasi lotincha "novatio" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "yangilanish" (yoki "o'zgarish") degan ma'noni anglatadi. Bunda "in" prefiksi, lotincha "yo'nalishda" deb tarjima qilinadi, agar tom ma'noda tarjima qilinadigan bo'lsa "Innovatsiya" - "o'zgarish tomon" deya tushunish mumkin."Innovatsiya" tushunchasi "yangilik", "kashfiyot", "ixtiro" so'zlari bilan sinonimlik hosil qiladi va ular ma'no jihatidan farq qilsa-da, har holda, bu tushunchalarning barchasi natija - ijodiy faoliyat, ijodkorlik bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, mutaxassislar fikricha, agar ijodkorlik yangi g'oyalarni ilgari surishni nazarda tutsa, u holda innovatsiyaning o'ziga xos belgisi uni amalga amalga oshirishdir [3].

Innovatsiyaga har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim. Keng tarqalgan yangilish fikrlashlarga qaramasdan innovatsiyalar kashfiyotlardan farq qilad. Innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi:

Ilm-fan – bu ma'lum mablag'larni bilimlar va g'oyalarga aylantirish.

Innovatsiyalar – bu bilimlar va g'oyalarni– bu yangi konsepsiyani yaratish demak. Innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko'rsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish.

Yangilik – bu intellektual faoliyat natijasidir; bu yangi strategiya, biznesning yangi modeli, yangi tashkiliy tuzilma, yangi marketing usuli, yangi jarayon, yangi texnologiya, yangi mahsulot yoki ularning ma'lum birikmasi.

"Innovatsiya" so'zi va yuqorida sanab o'tilgan tushunchalardan asosiy farqi shundaki, u amalga oshirish bilan bog'liq qo'shimcha qiymat yaratadi. Bunday yondashuvda innovatsiya muvaffaqiyatli amalga oshirilgunga qadar va natija bergunga qadar yangilik emas. Innovatsiya- amalga oshirilayotgan jarayonlar, mehnat "mahsuloti", faoliyatni tashkil etish strategiyasining ham tubdan, ham bosqichmabosqich o'zgarishini anglatishi mumkin. Shunday qilib, innovatsiya har xil nuqtai nazardan - texnologiya, iqtisodiy rivojlanish, siyosiy muammolar, pedagogik jarayonning o'zgarishi va boshqalar bilan birgalikda ko'rib chiqiladi.

Innovatsiya kontsepsiyasining o'zi birinchi marta XIX asr ilmiy tadqiqotlarida paydo bo'lgan [4]. Innovatsiya nazariyasining rivojlanishiga asos solgan olim avstriyalik iqtisodchi Jozef Alois Shumpeter (1883-1950) hisoblanadi. Mutaxassislar fikriga ko'ra aynan ushbu olim birinchi bor innovatsiya tushunchasini ilmiy asoslab bergan. Y.A.Shumpeter ilgari surgan g'oyaga ko'ra, joriy etilgan har qanday yangi texnik qaror, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil etish, yangi bozorlarning tarkib topishi, xomashyolar manbai innovatsiya hisoblanadi. Y.A.Shumpeter o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" (1911) nomli kitobida birinchi bo'lib "yangi kombinatsiyalar" (ya'ni innovatsion muammolar)

masalalarini ko'rib chiqdi va yangilikning to'liq tavsifini berdi. Keyinchalik "yangi kombinatsiya" atamasi o'zgartirilib "innovatsiya" holatiga keltirildi. [5]

J.A. Shumpater kombinatsiyalarning quyidagi turlarini aniqlagan edi:

- 1) yangi texnologiya, texnologik jarayonlardan foydalanish yoki ishlab chiqarishni yangi bozorda qo'llab -quvvatlanishi;
- 2) Yangi xususiyatlarga ega mahsulotlarni joriy etish;
- 3) Yangi xom ashyodan foydalanish;
- 4) Ishlab chiqarishni tahkil etish va xom-ashyodagi o'zgarishlarni texnik qo'llab-quvvatlash;
- 5) yangi savdo bozorlarini paydo bo'lishi.

Zamonaviy sharoitda turli mamlakatlar hukumatlari ilmiy sohaga, xususan tadqiqot va innovatsiyalarga katta miqdorda sarmoya kiritmoqda. Masalan, Germaniya tadqiqot va ishlanmalar uchun taxminan yaimning 2,7%, aqsh - 2,8%, Yaponiya - taxminan 3,5% yo'naltiradi. Iqtisodiyoti o'tish davri mamlakatlari ancha kam: Belarusiya - yaimning 0,74%, Rossiya - 1,04% sarflaydi [6]. Zamonaviy tadqiqotlarda innovatsiyalarni tasniflashning turlicha yondashuvlari mavjud.

Innovatsiyalarni tasniflash innovatsiyalar guruhining o'ziga xos xususiyati, uning o'ziga xoslik tomonlarini ochib beradi. Tasniflashni amalga oshirish turli tasniflash belgilaridan foydalangan holda sxemalar bo'yicha bo'lishi mumkin. Rus adabiyotlarida innovatsiyaning turli tasniflari berilgan. Masalan, A.N.Tsvetkov innovatsiyalar va ilmiy-texnikaviy innovatsiyalarni turlicha asoslashni taklif qiladi. U innovatsiya va ilmiy- texnikaviy innovatsiyalar bir-birida farq qiladi deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha innovatsiya- bu jarayon, ba'zi bir yangiliklarni amalga qo'llashga asoslangan jarayon [7].

Ta'lim muassasasining innovatsion faoliyatini joriy etishda innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirish jarayonlari ham muayyan sikllardan iboratdir. Ushbu nuqtai nazardai olib qaralsa, innovatsion jarayon vaqt o'lchamlarida izchil davom etuvchi, ahamiyati jihatidan bir xil bo'lgan turli xil bosqichlarda funktsional jihatdan alohida mazmun kasb etib bir-biridan farqlanadigan faoliyat yig'indisidir.

Innovatsiya uchun asos bo'lib xizmat kiluvchi fundamental g'oya va bilimlarning, ularni amalga ko'llash quyidagi natijalarga olib keladi:

- istiqbolli bo'lmaydigan loyihalarni aniqlab olish va to'g'ri qaror chiqarish;
- innovatsion g'oyani amaliyotga tatbiq etish jarayonida yanada takomillashtirish;
- yangilikni texnologik xususiyatlariga, boshqaruv va tashkiliy faoliyat yuritish uchun mas'ul bo'lgan tizimlarning xarakteriga moslashtirish imkoniyati bo'ladi.

Innovatsion potentsialning moliyaviy resurslardan foydalanish funktsiyalari esa:

- innovatsionlarni joriy etish uchun talab etiladigan moliyaviy resurslarning kelib tushishini ta'minlash;
- moliyaviy resurslarning innovatsion jarayonlarning mos holda ta'minlanish sharoitini yaratish;
- innovatsion jarayonlarning amalga oshirilishi takomillashtirish;
- innovatsiyalarning yaratilishi uchun shart-sharoit yaratib berish, va rag'batlantirish;
- mavjud innovatsion tizimning funktsional faoliyati va rivojlanishi bilan bog'liq turli xil ehtiyojlarga mos keladigan innovatsion loyihalarning yaratilishiga ko'maklashish;

- innovatsion loyihalarni xarajatlarning optimal va samaradorligini ta'minlash.

Y.Shumpeter innovatsion sohada faoliyat yurituvchi sub'ektlarning quyidagi funktsional vazifalarini belgilab beradi:

- innovatsiyalarni o'zlashtirishdan manfaatdor bo'ladigan potentsial Iste'molchilarni aniqlash maqsadida tijorat tahlilini amalga oshirish;

- istiqbolli g'oyalar mualliflarini, funktsional faoliyat yuritish uchun imkoniyat beruvchi manbalarni izlab topish;

- yangiliklarni yaratish va ularni amaliyotga joriy etish jarayonlarini Tashkillashtirish;

- yangiliklarning amaliyotga joriy etilishini qo'llab-quvvatlash.

- ilm-fan sohasida kashf etilgan yangi g'oyalarning moddiy tusga kiritilishi bosqichida innovatsion faoliyat sohasidagi novatorlik mehnati yaxshilash;

Guruhdagi o'zaro shaxsiy munosabatlarni o'qituvchi, jamoa shakllanishiga qadar bo'lgan bosqichda maqsadli tashkil etishi lozim. Buning uchun u yuqori darajada rivojlangan kommunikativ o'quvga-munosabat va aloqalar o'rnatishga moyillik va iqtidor, ta'lim oluv-chilarni tushuna bilishga ega bo'lishi kerak.

S.V.Kondratyevaning ma'lumotlariga ko'ra o'qituvchining ta'lim oluvchilarni tushunish darajasi va uning ularga ta'siri qandayligi o'rtasida muayyan o'zaro bog'liqlik mavjud. Tushunish darajasi yuqori bo'lgan o'qituvchida xarakterni shakllantiruvchi ta'sir birinchi o'rinda turadi, tushunish darajasi past bo'lgan o'qituvchida esa-intizomiy ta'sirdir.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida mamlakatimizda ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini joriy etish xususiyatlari, uning ahamiyati va zaruriyatidan kelib chiqqan holda vazifalar belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarorida ta'lim sifatini oshirish masalalari bo'yicha vazifalar uzluksiz ta'lim tizimining har bir bo'g'ini uchun alohida ajratib ko'rsatilgan bo'lib, bu vazifalarni amalga oshirishda ta'lim texnologiyalarini qo'llash asosida o'qitish jarayonini tashkil etish ham o'z ahamiyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.2018, 19-20-betlar
2. Xayitov Sh, Artikova D, Musayeva J. Innovatsion menejment. Buxoro -2020
3. Степанова И.П. Инновацион менеджмент.- Саратов-2014
4. Хусаинов З.А. Инновационные процессы в образовании. – Казань- 2014
5. Степанова И.П. Инновацион менеджмент.- Саратов-2014
6. Хусаинов З.А. Инновационные процессы в образовании. – Казань- 2014
7. Шайхуллина И.С. Инновационный менеджмент как средство повышения качества художественного образования в педагогическом университете.
8. Л.Водачек, О.Водачкова. Стратегия управления инновациями на предприятии. Москва, Экономика, 1989.-167 с
9. Норов А.Э. Инновацион фаолият ва унинг натижаларини тижоратлаштиришнинг назарий ва услубий асослари. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" Ilmiy elektron jurnali

Murodova Zulfiya Numanjonovna,
Namangan viloyati Mingbuloq tumani
2-sonli umumta'lim maktabi boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY METODIKALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematika o'qitish metodlari, ularni qanday amalga oshirish, o'quvchilarga puxta bilim berishga, o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish yo'llarini o'rgatish, matematika o'qitish jarayonida insonni mehnatni sevishtga, o'zining qadr-qimmati bir-biriga hurmati kabi fazilatlarini tarbiyalashni ko'rsatib berish to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: metod, metodika, taqqoslash, didaktik maqsadlar, malaka va ko'nikmalar, dars turlari, yangi maqsadlar, didaktik materiallar

Boshlang'ich matematika kursi, bir tomondan, bilimlar boshqa sohalarida foydalaniladi va bolalar tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan boshlang'ich bilimlar yagona majmuini yaratadi, ikkinchi tomondan zaruriy metodologik tasavvurlarni va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikadan samarali ta'lim berilishi uchun o'qituvchi boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini egallab, chuqur o'zlashtirib olmo'g'i lozim.

Respublikamizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab jamiyatni isloh qilish va yangilash jarayonining eng muhim bug'ini jamiyatdagi demokratik o'zgarishlarning, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning, respublikaning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining zarur va majburiy sharti sifatida ta'lim sohasini isloh qilish siyosati izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodga uzluksiz ta'lim berish va uni tarbiyalash jarayonini yaxlit qamrab oladigan yagona ta'lim tizimi hisoblanadi. Ta'lim tizimining har bir bo'g'ini alohida o'ringa ega.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da maktab ta'limini rivojlantirish davlat umum-milliy dasturi talablarida "ta'lim tarbiya jarayonini shakllantirish ta'lim mazmunini aniqlash, ta'lim tarbiya jarayonini amalga oshirishning didaktik qonuniyatlari va prinsiplarini ishlab chiqish, davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish, o'quv dasturlari, darsliklarning yangi avlodi, o'quv metodik majmualar yaratish" vazifasini hal qilish takidlab o'tilgan.

Metodik masalalar har bir darsda yuzaga keladi, Shu bilan birga odatda, ular bir qiyamatli yechimga ega emas. O'qituvchi darsda yuzaga kelgan metodik masalaning mazkur o'quv vaziyati uchun eng yaroqli yechimini tez topa olishi uchun bu soxada yetarlicha keng tayyorgarlikka ega bo'lishi talab etiladi.

Boshlang'ich ta'lim metodikasi o'qitish vositasi sifatida mavjud didaktik o'yinlar mantiq ilmi va matematik nuqtai nazaridan mazmunan yetarli emasligi tufayli didaktik o'yinlardan foydalaniladi va o'rganilgan materialni faqat mustaxkamlash vositasi sifatida foydalaniladi.

Matematika boshlang'ich ta'lim metodikasining predmeti quyidagilardan iborat:

1. Matematika o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadni aniqlab asoslash (nima uchun matematika o'qitiladi, o'rgatiladi)

2. Matematika o'qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (nimani o'rgatish) bir tizimga keltirilgan bilimlar darajasini o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos keladigan qilib qanday taqsimlansa, fan asoslarini o'rganishda izchillik ta'minlanadi, o'quv ishlariga o'quv mashg'ulotlari beradigan yuklama bartaraf qilinadi, ta'lim mazmuni o'quvchilarning aniq bilim olish imkoniyatlariga mos keladi.

3. o'qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish (qanday o'qitish kerak) ya'ni, o'quvchilar hozirgi kunda zarur bo'lgan iqtisodiy bilimlarni, malaka, ko'nikmalarni va aqliy faoliyat qobiliyatlarini egallab olishlari uchun o'quv ishlari metodikasi qanday bo'lishi kerak?

4. o'qitish vositalari-darsliklar, didaktik materiallar, ko'rgazmali qo'llanmalar va o'quv- texnika vositalaridan foydalanish (nima yordamida o'qitish)

5. Ta'limni tashkil qilishni ilmiy ishlab chiqish (darsni va ta'limning darsdan tashqari shakllarini qanday tashkil etish) [1].

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi matematika fanidan tuzilgan dasturga binoan o'quvchilarga quyidagi bilimlarni berishni nazarda tutadi:

- Butun nomanfiy sonlarni raqamlash;
- Asosiy miqdorlar va ularning o'lchov birliklari;
- Arifmetik amallar;
- Matnli masalalar;
- Algebraik material (tenglik, tengsizlik va b.q.)
- Geometrik material;

Maktabda matematikani o'qitishni uyushtirishning tarixiy, murakkab, ko'p yillik tajribada tekshirilgan va hozirgi zamonning asosiy talablariga javob beradigan shakli darsdir. Matematikaning eng qadimgi davrlaridan hozirgi kungacha bo'lgan ko'p asrlik rivojlanish tarixida uning to'rt rivojlanish davri qayd etiladi:

1. Dastlabki omillarning jamlanishi bilan bog'liq matematikaning paydo bo'lish davri. Bu davrda matematika hali alohida fan tariqasida o'zining predmeti va metodiga ega bo'lmay, balki matematikadan faqat ayrim faktlar to'planadi. Bunga misol qilib qadimgi Misr, Bobil, Xitoy va Hind matematikasini ko'rsatish mumkin.

2. Elementar matematika davri. Bu davrga qadimgi Yunon matematiklari asos soldilar va uni o'rta Osiyodagi o'rta Sharq olimlari jumladan Al-Farg'oniy, Abu Ali Ibn Sino, Umar Xayyom, Ulug'beklar davom ettirdilar.

3. O'zgaruvchan miqdorlar matematikasi davri.

4. Klassik oliy matematika davri [2].

O'quvchilarning matematik bilimlarni o'zlashtirishi faqat o'quv ishida to'g'ri metod tanlashga bog'liq bo'lmasdan, balki o'quv jarayonini tashkil qilish formasiga ham bog'liqdir. Dars deb dastur bo'yicha belgilangan, aniq jadval asosida, aniq vaqt mobay-

nida o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning o'zgarish soni bilan tashkil etilgan o'quv ishiga aytiladi.

Dars vaqtida o'quvchilar matematikadan nazariy malumotga, hisoblash malakasiga, masala yechish, har xil o'lchashlarni bajarishga o'rganadilar, ya'ni darsda hamma o'quv ishlari bajariladi.

Matematika darsining o'ziga xos tomonlari, eng avvalo, bu o'quv predmetining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu xususiyatdan biri shundan iboratki, unda arifmetik material bilan bir vaqtda algebra geometriya elementlari ham o'rganiladi. Matematika boshlang'ich kursining boshqa o'ziga xos tomoni nazariy amaliy masalalarning birgalikda qaralishidir. Shuning uchun har bir darsda yangi bilimlar berilishi bilan unga doir amaliy o'quv malakalar sngdiriladi. Taniqli olim J.Ikromov o'zining "Язык обучения математики" kitobida "Maktab o'quvchilarining matematik madaniyati shakllanishi bir necha davrga bo'lindi", -deb ta'kidlaydi. Birinchi navbatda ular ob'yektiv tushunchalarning birgalikda tashkil etadigan mazmuni – **matematik reallikni** aniqlab oladilar. Bunda ob'yektlarning aniqlik xususiyatlari bilan tarixiy jihatlar o'rtasidagi bog'liqlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu yerda **matematik reallik** jumlasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak ushbu reallikni o'quvchilar matematik hisob kitoblarning turmush jarayonidagi ahamiyatini bevosita bilganlarida ya'ni kundalik turmush bilan bog'liq misol va masalalarni bevosita bajar-ganlaridagina his qiladilar. Demak kundalik turmush bilan bog'liq holda matematika o'qitishni tashkil etish o'quvchi faoliyatida muhim ahamiyatga egadir. **Kundalik turmush bilan bog'liq misollar yechish asosida o'quvchi matematik bilimlar shunchaki o'zlashtiriladigan bilimlar emas balki hayotiy zaruriyat sifatida o'zlashtirilishi lozimligi to'g'ri-sida xulosa qiladilar.**

Odatda darsda bir necha didakik materiallar amalga oshiriladi: yangi materialni utish; o'tilgan materialni mustaxkamlash; bilimlarni mustaxkamlash; bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish; mustaxkam o'quv va malakalar xosil qilish va xokazo. Matematika darslari-ning o'ziga xos yana bir tomoni Shundaki, bu-o'quv materialining abstraktligidir. Shuning uchun ko'rgazmali vositalar, o'qitishning faol metodlarini sinchiklab tanlash, o'quvchilar-ning faolligi, sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasi, kabilarga ham bog'liq.

Matematika darsida turli tuman tarbiyaviy vazifalar ham hal qilinadi. O'quvchilarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni, atrofga tanqidiy qarashni, ishda tashabbuskorlikni, mas'u-liyatni va sof vijdonlilikni, to'g'ri va aniq so'zlashni, hisoblash, o'lchash va yozuvlarda aniqlikni, mehnatsevarlik va qiyinchiliklarni yengish xislatlarini tarbiyailaydi.

O'quv ishini tashkil etishning darsdan tashqari quyidagi shakllari mavjud:

1. Mustaqil uy ishlari.
2. O'quvchilar bilan yakka va guruh mashg'ulotlari.
3. Matematikaga qobiliyatli o'quvchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar.
4. Matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar.
5. O'quvchilar bilan ishlab shiqarishga, tabiatga ekskursiya.

Bu yerda sanab o'tilgan ish shakllari va dars bir birini to'ldiradi. Asosiy masala dar-sga taalluqlidir. Darsda hamma ishlarga bevosita o'qituvchi rahbarlik qiladi. Qo'shimc-ha mashg'ulotlarda esa ish o'qituvchining o'zi tomonidan yoki o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan badjariladi.

Bugungi kunda asoslanishi lozim bo'lgan holat-o'quvchiga pedagogik yordam ko'rsatish va o'quv biluv jarayonida uni pedagogik qo'llab quvvatlashning qulay shakl va imkoniyatlarini izlab topishdan iboratdir [3].

O'quvchilar bilan har bir darsda bir nechta tushunchalar bilan ish olib boriladi. Har bir tushunchani tushunish boshqa bir tushunchani takrorlash, esga olib borish bilan olib borilsa, bu tushuncha esa keyingi tushunchalarni tushuntirish uchun xizmat qiladi. O'qitish jarayonida har bir o'quv materialini rivojlantirilgan holda olib boriladi, bu o'quv materialini o'zidan keyin o'qitiladigan materiallarni tushunish uchun poydevor bo'ladi. Boshqa tushunchaning o'zlashtirilish jarayonini qarasa, u bir nechta darslarning o'zaro bog'liqligi o'qitilishi natijasida hosil bo'ladi. Shunday qilib matematik tushunchalarni hosil qilish birgina darsning o'zida hosil qilinmasdan, balki o'zaro aloqada bo'lgan bir qancha darslarni o'tish jarayonida hosil qilinadi. Bunday darslarni birgalikda darslar tizimi deb ataymiz. Shuning uchun o'qituvchi mavzuning mazmunini ochadigan darslarni mantiqiy ketma ketlikda joylashtirishi kerak. Eng katta talab darsning o'quv tarbiyaviy maqsadini e'tiborga olish, o'qitish tamoyillarining metodik va umumpedagogik tomonlarini hisobga olishdir. Mavzu bo'yicha yaxshi o'ylangan darslar tizimining o'quv vaqtini mavzularga to'g'ri taqsimlashga bog'liq. Unda o'quvchilarning mustaqilligini hosil qilish, xususiy misollarni qarash, xususiy xulosalar chiqarish, undan umumiy xulosalar chiqarishga olib kelish diqqat markazida turishi lozim. Bu bilimlar darslar tizimida hosil qilinib, mustahkamlangandan keyin misol va masalalar yechishni ta'minlashi kerak. Undan keyin mas-hqlar yordamida malakalarni qayta ishlashi, shuningdek hosil qilingan bilimlarni doimo bir tizimda keltirish va umumlashtirishni ham ta'minlash kerak.

Dasturning qandaydir mavzusining mazmunini aniqlashda, mavzu materialini dars vaqtlariga taqsimlashda, ya'ni bilimlarni o'zlashtirishga quyidagi asosiy bosqichlar qaratiladi:

1. Yangi materialni o'qitishga tayyorlash.
2. Yangi o'quv materialini idrok qilish va yangi bilimlarni hosil qilish.
3. Bilimlarni mustahkamlash va turli xil mashqlar orqali malakalarni hosil qilish.
4. Bilimlarni takrorlash, umumlashtirish va bir tizimga keltirish.
5. Bilim va malakalarni tekshirish.

Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish va matematikaga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish omillaridan biri o'quvchilar bilan olib boriladigan mustaqil ishlardir.

Matematika darslarida mustaqil ishlar yangi materialni o'rganishga tayyorgarlik ko'rishda, yangi tushunchalar bilan tanishishda, bilim, uquv va malakalarni mustahkamlashda, shuningdek bilimlarni nazorat qilishda amalga oshiriladi.

O'qitishni tashkil qilish.

O'qitish shakli- bu o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatlarini uni turli sharoitlarda (sinfda, ishlab shiqarishda va h.k.) o'tkazilishiga muvofiq ravishda o'qituvchi tomonidan tarbiyaviy o'qitish jarayonida foydalaniladigan qilib tashkil etilishidir.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning tashkiliy shakllari dars, uy vazifalarini mustaqil bajarish, o'quvchilarning yakka tartibda guruh va jamoa bo'lib ishlashlari, ekskursiyalar, sinfdan tashqari ishlardan iborat.

O'quv dasturi DTS asosida tasdiqlangan davlat hujjati bo'lib, uning bajarilishi majburiydir. Boshlang'ich sinflar tabiiy matematik ta'lim davlat standartlari talablarining o'quvchilar tomonidan bajarilishi ularning zarur bilimlar, malaka va ko'nikmalarini egalashlariga, bilim olishga ijobiy munosabatda bo'lishlarining shakllanishiga yordam beradi:

A) o'quvchilarni tevarak atrofdagi tabiiy muhitga moslashtirish, yangi ijtimoiy maqomdagi o'quvchini shakllantirish;

B) faoliyatning har xil turlarini: o'quv, mehnat, muloqotni egallash;

V) o'z-o'zini nazorat qilish hamda baholash reytingini aniqlashga o'rgatish;

G) muayyan umumiy tabiiy-ilmiy iqtidorning belgilangan darajasi va uning keyingi taraqqiyoti tavsifi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinflar tabiiy matematik ta'lim davlat standartining o'quv-biluv jarayoniga joriy etilishi o'quv fanlariga doir tabiiy-ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarnigina emas, balki shaxsning muayyan asosiy faoliyati majmuasi mehnat, o'quv-biluv, kommunikativ-axloqiy va jismoniy tuzilishiga mos keladigan fazilatlarining shakllanishini ham ta'minlaydi.

Kundan kunga ma'lumot oshib borayotgan bilan tushunarli bo'ladiki bugungi o'quvchilarga kerak bo'ladigan narsalarni hammasini o'rgatib bo'lmaydi. O'zlashtirilgan ma'lumot juda tez eskirib qolmoqda, chunki har kuni yangi ma'lumotlar chiqmoqda. Fanda o'qitish nazariyasi ushbu fanni o'qitish bo'yicha metodik tizimlarning faoliyat qonunini ochib beradi. Metodika ularni tadbqiqini, texnologiya esa ushbu modelni amalga oshirish usullarini ishlab chiqadi.

Tushuntirish quyidagi usullarda tahlil qilinib olib boriladi:

1) dogmatik usul.

2) evristik usul;

3) tadqiqot usuli (muammoli usul);

Birgalikda ishlash bilish faoliyatining faollashuviga yordam beradi, o'quvchilarda o'zaro nazorat qilish va o'zaro yordam berish sifatlarini shakllantiradi, tarbiyaviy vazifani ado etadi.

Tarbiyaviy vazifalarning hal etilishida darsning ayrim tarbiyaviy o'rinlari emas, balki butun o'quv jarayoni ta'lim mazmuni, o'quv ishi usullari, darsni puxta tashkil etilishi yordam berishini unutmazlik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov.I.A. "O'zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari" T-O'zbekiston 1995 y 74 bet

2. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.Adolat gazetasi 2011 yil 1 sentabr № 38 son.

3. Бикбаева. Н.И. Левенберг. ,Л.Ш. "2-синфда математика" Т-"Укитувчи" 1988 й 343-бетлар

4. Бабанский.Ю.К "Хозирги замон умумий таълим мактабида укитиш методлари" Т-Укитувчи 1990 й 227 бет

5. Jumayev.M. Va b.q. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" T-2005 y 312 b

Mirzaolimova Dilfuza Abduvohidovna,
Namangan viloyati yangiqo'rg'on tumani
maktabgacha maktab ta'limi bo'limiga qarashli
16-sonli umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

“TA'LIM TO'G'RISIDA”GI YANGI QONUN VA INKLYUZIYA: QANDAY BO'LISHI KERAK?

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim mohiyati va umumta'lim maktablarda joriy etishning ahamiyati ochib berilgan. Maqolada boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarga ta'lim- tarbiya berishning psixologik va pedagogic jihatlarini rivojlantirish yo'llari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziya, inklyuziv ta'lim, qobiliyat, individual, psixologik kompetentsiya, pedagogik yondoshuv.

Inklyuziv ta'lim nimani anglatadi?

O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi raisi, Oliy Majlis senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash qo'mitasi ekspertlar kengashi a'zosi Oybek Isoqov qonun loyihasida inklyuziv ta'limga ta'rif berishdan boshlash kerakligini ta'kidladi. U quyidagi ta'rifni qonunga kiritishni taklif qiladi:

Respublikamizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi

Davlatimiz kelajagiga mustahkam poydevar qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Shuning uchun ham “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun qabul qilindi. Ta'lim sohasidagi bu islohotlar bugungi kunda o'z samarasini bermoqda. Mazkur huquqiy me'yoriy hujjatlar doirasi maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim-tarbiyasini ham qamrab olgan.

Imkoniyati cheklangan yoki maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim tarbiyasi

Masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini umumta'lim muasasalarida qondirib bo'lmaydi degan taxminlar asosida qurilgan.

“Inklyuziv ta'lim” atamasi fransuzcha “inclusif” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'z ichiga oladi deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo'lgan va shartli ravishda sog'lom, ya'ni sog'lig'i cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta'limini anglatadi. Bunday holda, ta'lim olish jarayoni bir-biriga o'xshamaydigan, intellektual, jismoniy va aqliy xususiyatlarga ega bo'lgan odamlar maxsus bilimga muhtoj bo'lmagan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko'nikmalarni oladigan tarzda tashkil etiladi. UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyu-

ziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

Yutuqlarimiz

UNICEF Xalq ta'limi vazirligining defektolog va psixologlarning inklyuziv ta'limdagi roli to'g'risidagi nizomlar loyihalarini ishlab chiqishga ko'maklashdi;

Unicefning ko'magi inklyuziv ta'lim bo'yicha 5 yillik ish rejasi ta'lim sohasining umumiy rejasiga kiritilishini ta'minladi.

Istiqboldagi rejalar

Tanlab olingan mintaqalarda inklyuziv ta'lim uslublarini tajriba sifatida joriy etish uchun Xalq ta'limi vazirligiga texnik yordam ko'rsatish;

Maktabga qatnamaydigan yoki shunday xatarga uchrayotgan bolalarga alohida e'tibor qaratadigan viloyat bolalar rivojlanish markazlarida tegishli o'quv dasturlarini joriy etish;

O'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar uchun mo'ljallangan va imkoniyatlari cheklangan bolalar oddiy maktablarda bilim olishlari mumkin bo'lishiga qaratilgan alohida dasturlarni "Speshial Olimpiks" ko'magida O'zbekistonda tajriba sifatida joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov M. "Husnixat metodikasi", Toshkent – 2006.
2. Ikramova R. "Grammatika, imlo qoidalar va nutq o'stirish", Toshkent - 2003.
3. Mashrapova U., Umarova M., Boynazarova D. Ona tilini o'qitish metodikasi. O'qituvchilar qo'llanmasi. Toshkent - 2005.
4. G'ulomov V. "Husnixat", 2- sinf, Toshkent- 2001.
5. G'affarova T. "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" (qo'llanma), Toshkent- 2011.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AXBOROT SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot manbalari bilan ishlash, natijalarni qayta ishlash va taqdim etish hamda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali axborot savodxonligini shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Ilmiy tadqiqotlar tahlili asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot savodxonligini shakllantirishning mezonlari va past, o'rta hamda yuqori darajalari belgilab olindi. Ushbu mezonlar va darajalar yordamida umumiy o'rta ta'limning birinchi bosqichida axborot savodxonligini shakllantirish samaradorligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: axborot, axborot savodxonligi, axborot madaniyati, boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot savodxonligini shakllantirish mezonlari va darajalari.

Hozirgi islohotlar sharoitida mamlakatimizda ilm-fanni, ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishga alohida ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda [1]. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining "Xalq ta'limi tizimining asosiy maqsad va rivojlanish yo'nalishlari" nomli 3-bobida uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, xalq ta'limi tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonida kompyuterlashtirish darajasini ko'tarish va kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o'sishini mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish belgilangan [1].

Ushbu hujjatga ko'ra, ta'limning barcha darajalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) keng ko'lamda joriy etish jarayoni texnologik jihatdan, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va tarmoq infratuzilmasini rivojlantirish orqali, shuningdek, metodik jihatdan ta'lim jarayonida AKT, milliy va jahon elektron ta'lim resurslaridan foydalanish tamoyillari va amaliyotini tatbiq etish ta'minlanishi kerak.

Bunday sharoitda har bir insonda axborot madaniyatini rivojlantirishning tegishli darajasi mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot madaniyati - shaxsning o'z-o'zini har tomonlama kamol topishi uchun zamonaviy axborot tizimlari va texnologiyalaridan foydalangan holda yangi bilimlar, ma'lumotlarni izlab topish, ularni o'z faoliyatida qo'llay olish, foydalanish va tarqatish darajasini qamrab olgan shaxsiy fazilatlarini belgilay-

di. Ya'ni axborot madaniyati insonning axborot dunyosida kerakli ma'lumotlarni adashmasdan topa olish va ularni ijodiy qayta ishlash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Axborot madaniyati asoslari axborot bilan mustaqil ishlashni o'z ichiga oladi. Axborot savodxonligi - axborot madaniyatining bir qismi bo'lib, u insonning kundalik hayot faoliyati davomida bilim va ko'nikmalarni, ma'lumotlarni, ommaviy axborot vositalarini o'zlashtirishi asosida shakllanib boradi. Axborot savodxonligini shakllantirish jarayoni ta'lim va tarbiya tizimi tomonidan tizimli ravishda tashkil etilishi va yo'naltirilishi hamda uzluksiz davom etishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda "axborot savodxonligi" atamasi o'quvchilarning axborot bilan ishlash ko'nikmalarining umumiylikini anglatadi. Ushbu ko'nikmalar fanlar bo'yicha darslarda, fakultativ mashg'ulotlarda, to'garaklarda shakllanadi va ma'lumotlarni qidirish, qayta ishlash, tashkil etish va ularning axborot ob'ektlarini yaratish bo'yicha faol harakatlarni o'z ichiga olgan vazifalarni bajarishda qo'llaniladi.

Axborot savodxonligi turli xil faoliyat va munosabatlarga muvaffaqiyatga erishish uchun ma'lumotlarni samarali topish, baholash, ulardan foydalanish imkonini beradigan nazariy bilimlar to'plamini, shuningdek amaliy qo'llash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida"gi 125-sonli buyrug'iga ko'ra, 2023-2024 o'quv yilidan boshlab, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfida "Informatika va axborot texnologiyalari" fani joriy etilishi belgilandi. Shulardan kelib chiqqan holda, "Informatika va axborot texnologiyalari" fanining boshlang'ich sinflar uchun o'quv fani sifatidagi yetakchi vazifasi o'quvchilarning axborot savodxonligini shakllantirishga yo'naltirilgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishdan iborat bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi axborot savodxonligini shakllantirish jarayoni uchun alohida ahamiyatga ega, chunki ushbu yoshda ularda to'g'ridan-to'g'ri kognitiv va ijodiy qobiliyatlarning faol rivojlanishi, mazmunli g'oyalar va tushunchalar, dunyoqarash e'tiqodlari shakllanib boradi.

O'quvchilarning axborot savodxonligini shakllantirishning quyidagi mezonlarini ajratib o'tish mumkin:

1. Axborot manbalari bilan ishlash mezoni:

Mavjud axborot manbalarini aniqlash qobiliyati;

Ma'lumotlarni aniqlik, ishonchlilik, ma'lum bir muammoni hal qilish uchun yetarlilik kabi mezonlarga muvofiq baholash qobiliyati;

Qo'shimcha ma'lumot olish zarurligini his qilish qobiliyati;

O'zining kelgusi faoliyati uchun zarur bo'lgan shaxsiy bilimlar va ma'lumotlar bankini muhim ma'lumotlar hisobidan to'ldirib borish qobiliyati;

2. Natijalarni qayta ishlash va taqdim etish mezoni:

Ma'lumotlarni umumlashtirish, taqqoslash va tahlil qilish, olingan ma'lumotlarni izohlash, ko'rib chiqilayotgan muammoni hal qilish uchun mulohaza yuritib, qaror qabul qilish qobiliyati;

Olingan ma'lumotlar yordamida ob'ektlar va jarayonlarning yangi axborot modellari yaratish qobiliyati;

3. Axborot texnologiyalaridan foydalanish mezonlari:

Axborot bilan ishlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, kompyuterda matnli hujjatlarni o'qish, turli formatlardagi matnlar bilan ishlash, Internet vositalari va resurslari bilan ishlash qobiliyati;

Ham yakka tartibda, ham guruhlarda ma'lumot bilan ishlash qobiliyati.

Yuqorida sanab o'tilgan mezonlar axborotning jamiyatimizdagi rolini anglash, axborot muhitining umume'tirof etilgan qonunlarini bilish va undagi o'z o'rnini tushunish, yangi axborot texnologiyalariga ega bo'lishga asoslanishi kerak.

Ajratib o'tilgan mezonlarga asoslanib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot savodxonligini shakllantirishning yuqori, o'rta va past darajalari aniqlanadi.

Yuqori daraja – o'quvchi taqdim etilgan barcha axborot manbalarini, ulardan qanday foydalanishni biladi, dasturlarni ularning funksional imkoniyatlariga qarab to'g'ri taqsimlay oladi, ishonchli bo'lmagan ma'lumotlarni ajratib oladi va ularni ishonchli ma'lumotlar bilan almashtiradi, axborotning barcha turlarini to'g'ri farqlay oladi.

O'rta daraja - o'quvchi axborot manbalarining yarmini biladi va ulardan foydalana oladi, mumkin bo'lgan beshta variantdan ikkitasini to'g'ri tanlaydi, ishonchli bo'lmagan axborotni qanday topishni biladi, lekin uni ishonchli axborot bilan qanday almashtirishni bilmaydi, axborotning barcha turlarining yarmidan kamini to'g'ri farqlaydi.

Past daraja - o'quvchi axborot manbalarini to'g'ri aniqlashni bilmaydi va tabiiyki, ulardan foydalanishni bilmaydi, dasturlarni to'g'ri tanlay olmaydi yoki ishonchli bo'lmagan axborotni sezmaydi, axborot turlarini noto'g'ri farqlaydi.

O'quvchilarining axborot savodxonligini ixtiyoriy darsda shakllantirish mumkin. Masalan, informatika darslarida axborot uzatishning turli usullari (matn, grafik, audio va video) shakllanadi; o'quvchilar barcha mumkin bo'lgan axborot manbalari va ularni topish usullari bilan tanishadilar (ular orasida elektron lug'atlar, ensiklopediyalar, shu jumladan Internet tarmog'idagi resurslar), mavjud bilimlarni kengaytiradilar, turli xil qo'shimcha axborot manbalaridagi axborotlar yordamida axborot kompetentsiyasi darajasini oshiradilar. Masalan, "Axborotni tartibga solish" interaktiv o'yini orqali o'quvchilarga berilgan ma'lumotlar orasidan umumiy xususiyatga ega bo'lganlarini aniqlash masalasini berish mumkin. O'quvchilarga narsalarni foydalanish maqsadiga ko'ra (masalan, bir nechta mashina, qo'g'irchoqlar, sharlar yoki to'plar) tartibga solib, guruhlash kerakligini taklif qilish mumkin. Ular birinchi navbatda narsalarning mohiyatidan kelib chiqqan holda ajratilishi mumkin: birinchi guruhga – barcha qo'g'irchoqlar, ikkinchisiga – mashinalar, uchinchisiga – sharlar yoki to'plar. Keyin narsalarni rang bo'yicha qayta guruhlashni, ya'ni qizil mashinalar, qizil libosdagi qo'g'irchoqlar, qizil sharlar va to'plarni ajratish tartiblashlarini taklif qilish mumkin. Uchinchi marta narsalarning kattaligi bo'yicha: katta mashinalar, katta qo'g'irchoqlar, katta to'plar; kichik mashinalar, qo'g'irchoqlar, to'plarni ajratish masalasini berish mumkin. Har safar guruhlash amalga oshirilganida, o'quvchilar narsalar qaysi asosda guruhlashtirilganligini tushuntirib berishlari kerak. Keyin o'quvchilardan: "qanday qilib narsalarni boshqa umumiy xususiyatlariga ko'ra guruhlash mumkin?", deb so'rash mumkin. Shunga o'xshash, o'quvchilarga tasodifiy tartibda to'rtta buyum, masalan, shkaf, stul, stol va ko'ylak tasvirlarini havola etib, ular orasidan umumiy xususiyatga ega bo'lmaganini aniqlash masalasini qoyish mum-

kin. Ortiqcha buyumni (ko'ylakni) to'g'ri aniqlash uchun ular mebellar guruhiga nimalar kirishini ajratib ko'rsatishlari va ko'ylak ushbu guruhga tegishli emasligini tushuntirib berishlari kerak. Shuningdek, bir necha ob'yektlarning farq qiladigan jihatlarini taqqoslash orqali aniqlash; ob'yektning nimalardan tashkil etilganligini va tashkil etuvchilarining hususiyatlarini ("nima, qanday, nima uchun?" Kabi savollarga javob berish orqali) aniqlash; berilgan rasmdagi holat yoki jarayonni tavsiflash – berilgan barcha ob'yektlarni bitta umumiy so'z bilan nomlash kabi didaktik topshiriqlar berish orqali axborot savodxonligini shakllantirish yaxshi samara beradi..

Xulosa o'rnida shularni aytib o'tish joizki, axborot savodxonligini shakllantirish boshlang'ich ta'limning dolzarb vazifalaridan biridir. Kelajakda o'quvchilarning ijtimoiylashuvining muvaffaqiyati bugungi kunda ushbu vazifa maktablar amaliyotida qanchalik amalga oshirilishiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni / O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK O'YINLARNING PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya: Har bir didaktik o'yinni boshlashdan oldin o'quvchilarga o'yinning qoidasi, mazmuni, yakuni nimadan iborat ekanini o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi. O'quvchilar uni tushunib, anglab, shu asosda harakat qiladilar.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, o'yin, didaktik o'yinlar, o'qituvchi – pedagog, aqliy rivojlanish, "To'g'ri noto'g'ri" o'yini, "Telegraf" o'yini.

O'yin, didaktik o'yinlar, o'qituvchi – pedagog, aqliy rivojlanish, "To'g'ri noto'g'ri" o'yini, "Telegraf" o'yini, "Bu qaysi shakl?" O'yini, og'zaki nutq, geometrik shakllar, rag'bat. Boshlang'ich sinfga ilk qadam qo'ygan bolaning o'yin faoliyatidan o'qish faoliyatiga o'tishi bir muncha qiyind kechadi. Dars jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar, enerjayserlar, o'yin mashqlari bu jarayonni yanada qiziqarli, mazmunli qiladi, bolalarda quvnoq, mehnatkash kayfiyatni yaratadi, o'quv materialini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradi, ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi.

Didaktik o'yinlar bolalar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish uchun qulay bo'lgan shart-sharoitni paydo qiladi va bilish uchun qiziqishni rivojlanishiga ko'maklashadi. Didaktik o'yinlarning natijaviyligi, birinchidan, ulardan tizimli ravishda foydalanishga, ikkinchidan, o'yinlar dasturining oddiy didaktik mashqlar bilan birgalikda maqsad sari yo'naltirilganligiga bog'liq. Bilish faolligini rivojlantirish muammosini hal etishda, o'quvchining mustaqil tafakkurini rivojlantirish asosiy masala deb hisoblanishi zarur.

Didaktik o'yinlar - bu bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun pedagogika maktabi tomonidan maxsus yaratilgan qoidalarga ega o'yinlar turi. Ular bolalarni o'qitishda muayyan muammolarni hal qilishga qaratilgan, lekin ayni paytda o'yin faoliyatining tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ta'siri ularda namoyon bo'ladi.

Bolalarning qiziqishi didaktik o'yin o'yindan aqliy vazifaga o'tadi. Didaktik o'yin bolalarning aqliy faoliyatini tarbiyalashning qimmatli vositasi bo'lib, u aqliy jarayonlarni faollashtiradi, o'quvchilarda bilish jarayoniga katta qiziqish uyg'otadi.

Unda bolalar katta qiyinchiliklarni bajonidil yengib o'tadilar, o'zlarining kuchli tomonlarini mashq qiladilar, qobiliyat va ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Bu har qanday o'quv materialini qiziqarli qilishga yordam beradi, o'quvchilarda chuqur qoniqish uyg'otadi, quvonchli mehnat kayfiyatini yaratadi va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini osonlashtiradi.

O'qituvchi - pedagog didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazishda qizg'in tayyorgarlik ko'rihi va uni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

1. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar dasturida qayd etilgan mavzularning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi;
2. Jamiytdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag'ishlanib, ular o'yin davomida hal qilishi;
3. Barkamol shaxsni musiqiy tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-ahloq normalariga mos kelishi;
4. O'yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo'lishi;
5. Mashg'ulotlar davomida musiqiy didaktik prinsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishishi kerak.

Didaktik o'yinlarga e'tiborimizni qaratamiz:

“To'g'ri noto'g'ri” o'yini Maqsad: tashqi ko'rinishini tahlil qilib, harflarni taniy olishni o'rganish. O'yin uchun sizga to'g'ri va noto'g'ri (teskari yoki aks ettirilgan) dizayndagi bosma shaklda tayyorlangan harf kartalari to'plami kerak bo'ladi. O'yin ishtirokchilari o'rtasida jamoaviy yoki individual chempionat tashkil etilishi mumkin, uning davomida kartalarni guruhlariga bo'lish uchun kim eng to'g'ri va tezroq - to'g'ri va noto'g'ri yozilgan harflar bilan aniqlanadi.

“Telegraf” Maqsad: so'zlarni bo'g'inlarga bo'lish qobiliyatini mustahkamlash. Asosiy o'yin harakati - qo'llaringiz bilan so'zdagi bo'g'inlar sonini qarsak chalish. Birinchidan, o'qituvchi so'zlarni aytadi va bolalar bo'g'inlar sonini qarsak chaladi. “Bu qaysi shakl?” O'yini o'yinning maqsadi: Geometrik shakllar bilan tanishtirish. Ularga ta'rif berish malakasini oshirish. Og'zaki nutqini rivojlantirish.

O'yin jihozi: Konvertlarga solingan geometrik shakllar. O'yinning borishi: Doskaga bir o'quvchi chiqadi. Konvertdagi shaklni qaysi ekanini ko'rib olib, o'quvchilarga murojaat qiladi.

“Qo'limdagi geometrik shaklning uch tomoni uch burchagi bor, uning tomonlari xar xil uzunlikda bo'lishi ham mumkin. Bu qaysi shakl?”. Shaklga to'g'ri ta'rif bergan va shaklning nomini to'g'ri topgan o'quvchi rag'batlantiriladi. Demak, kichik maktab yoshida, o'yinlardan bolalarning o'quv va mehnat faoliyatini yengillashtiruvchi va tashkil etuvchi vosita sifatida foydalanish mumkin. Ta'lim jarayonida o'yin elementlari o'quvchilarda ijobiy emotsiyalarni yuzaga keltirib, ularning faolligini oshiradi.

Xulosa o'rnida, o'yin faoliyati bolalarni ruhiy hayotining barcha tomonlarini shakllanishida, masalani qo'yilishida va harakatlanish usullarini tanlashda yordam beradi. Bolalarning aqliy faoliyatini ham juda yuqori darajaga ko'taradi va darslarga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O. M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. 2015-yil.
2. Aliev A. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. - Toshkent: o'qituvchi, 2016.
3. Boboyeva Yu. K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. - Toshkent: o'qituvchi, 2017

Qambarova Erkinoy G'ulomjon qizi,
Andijon viloyati Asaka tumani
33-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLAASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Annotsiya: Bolalarning yetakchi faoliyati o'yindir. Bolalarning o'yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, tarbiya, o'yin faoliyati, jismoniy va psixik rivojlanish.

Ma'lumki, bolaning yoshi ulg'ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari, uning atrofidagi narsa va hodisalar bo'yichadunyoqarashi kengayib boradi. Bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi.

Shu narsa ahamiyatliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining xaddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zining kuchi ham yetmaydigan, xaddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o'zi haydagisi, rostakam otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib, samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo'lgisi keladi. Tabiiyki, bola o'zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham xaqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi.

Bu o'rinda savol tug'iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo'l bilan xal qilinadi? Bu qarama-qarshilik birgina faoliyat orqali, ya'ni, bolaning o'yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin.

Buni quyidagicha izohlab berish mumkin:

- birinchidan, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy maxsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog'liqdir;

- ikkinchidan esa, bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladilar. Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir.

O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom-hayol surish, dam olish va xushchaqchqlik jarayonlarining barchasi o'yin faoliyatida aniq bo'ladi. Shu-

ni ham ta'kidlab o'tish kerakki, o'yin faqat tashqi muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual hislatlari ham shakllanadi.

Demak, ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog'liqdir. O'yin bolalar hayoli tomondan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar hayolining o'zi, o'yin jarayonida yuzaga kelib, rivojlanadigan jarayondir. Shuni ham ta'kidlash joizki, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan bizning hozirgi davrda hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo, bir mo'jizadek ko'rinadi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib (ya'ni, analogik tarzda), har xil hayoliy narsalarni o'ylab topadilar (uchar ot, odam mashina, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli hayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni anglatadi-ki, ular o'zlarining turli o'yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar.

Bolalarning o'yin faoliyatlarida turli hayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlari odamning (shu jumladan, bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirishi passiv jarayoni emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi.

Bolalar o'yin faoliyatlarining yana bir xususiyati, o'yin jarayonida bolaning qiladigan hatti-harakatlari va bajaradigan rollarining ko'pincha umumiylik xarakteriga ega bo'lishidir. Buni shunday tushunish kerakki, bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir shofyorning, vrachning, militsionerning, o'qituvchining, uchuvchining hatti-harakatlarinigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, o'qituvchilarning hamda uchuvchilarning hatti-harakatlarini aks ettiradi.

Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi cheklangan bolalar o'zlarining o'yinlarida aniq odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar xolos. Masalan, oyi-sini, dadasini, akasini, o'qituvchisini va shu kabilarni. Bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bo'la boshlaydi. Bolalarning o'yinlari atrofdagi narsa va hodisalarni bilish quroli bo'lishi bilan birga, yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega. O'z-gacha qilib aytganda, o'yin qudratli tarbiya qurolidir. Bolalarning o'yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya'ni yuksak insoniy hislatlarni tarbiyalash mumkin. Agarda biz bolalarning o'yin faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, o'yin jarayonida ularning barcha shaxsiy hislatlari (kimning nimaga ko'proq qiziqishi, qobiliyati, irodasi, temperamenti) yaqqol namoyon bo'lishini ko'ramiz. Shuning uchun bolalarning o'yin faoliyatlari, ularning individual ravishda o'rganish uchun juda qulay vositadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari odatda o'zlari yolg'iz o'ynaydilar. Predmetli va konstruktorli o'yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o'zlarining idrok, xotira, tasavvur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli-rolli o'yinlarda bolalar, asosan, o'zlari har kuni ko'rayotgan va kuzatayotgan kattalarning hatti-harakatlarini aks ettiradilar. Bolalarning o'yini asta-sekinlik bilan jamoa shaklidan hislatlarga ega bo'lib boradi.

Bolalarning individual xususiyatlarini, xususan, ularning jamoa o'yinlari orqali kuzatish qulaydir. Bu o'yinlarda bolalar kattalarning faqat predmetlarga munosabatini

emas, balki ko'proq o'zaro munosabatlarini aks ettiradilar. Shuningdek, jamoa o'yinlarida bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Bolalar shug'ullanadigan ijodiy faoliyatlar orasida tasviriy san'atning ham ahamiyati juda kattadir. Bolaning tasavvur etish xarakteriga ko'ra, uning atrof hayotni qanday idrok etishi, xotira, tasavvur va tafakkur xususiyatlariga baho berish mumkin. Bolalar chizgan rasmlar ularning ichki kechinmalari, ruhiy holatlari, orzu, umid va ehtiyojlarini ham aks ettiradi. Bu yoshdagi bolalar rasm chizishga nihoyatda qiziqadilar. Rasm chizish bolalar uchun o'yin faoliyatining o'ziga xos bir shakli bo'lib hisoblanadi. Bola avvalo ko'rayotgan narsalarini, keyinchalik esa o'zi biladigan, xotirasidagi va o'zi o'ylab topgan narsalarni chizadi.

Bolalar uchun musobaqa juda katta ahamiyatga ega bo'lib, aynan shunday o'yinlarda muvaffaqiyatga erishish shakllanadi va mustahkamlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turi bo'lgan musiqaning ahamiyati ham juda kattadir.

Xulosa o'rnida, o'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallashi uchun odam, avvalo, yetarli darajada nutqni egallagan bo'lishi, ma'lum malakalar, uquvlar va sodda tushunchalarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bularga o'quvchilar yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, o'yin faoliyati orqali erishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidqulov Sh. Malaka oshirish tizimida tabaqalashtirilgan ta'limni joriy etish // Uzluksiz pedagogik ta'lim va malaka oshirish muammolari. Uslubiy qo'llanma - Samarqand, 1996,
2. Salayeva M. Maktabda darajali tabaqalashtirib o'qitish // "Xalq ta'limi" j., 2007, 1-son
3. Hasanov R. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabaqalashtirib o'qitish Konsepsiyasi // "Ma'rifat" gazetasi, 2005 yil 26 yanvar.
4. G'afforova T. Ta'lim tizimida tabaqalashtirib o'qitish va shaxs faolligining o'zaro bog'liqligi // "Xalq ta'limi, 2007, 4-son

Matmurotova Raximaxon Fattoyevna,
Andijon viloyati Asaka tumani
33-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARNI KASBGA TAYYORLASH

Annotatsiya: *Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni kasbga tayyorlashning bunday tizimini tashkil etish kasbiy kompetensiyani, ya'ni talabalarda pedagogik kompetentlikni shakllantirishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich ta'lim, tarbiya, o'qituvchi, o'yin faoliyati, zamonaviy texnologiyalar, refleksiya, o'z-o'zini anglash.*

So'nggi yillarda pedagog va psixolog olimlar o'quvchilarning fikrlashi hamda analitik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlamoqdalar. Bu qobiliyatlar asosini esa, refleksiya tashkil etadi. Refleksiya so'zi (lot. "reflexio"-orqaga qaytish)-"har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o'z xatti-harakatlari va ularning qonuniyatlarini anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shakli hisoblanadi. U inson ma'naviy dunyosining o'ziga xos yashirin hislatlarini ochib beradigan o'z-o'zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir". Ko'plab olimlar refleksiyaning I.N.Semyonov tomonidan taklif qilingan tasnifiga tayanadilar. U refleksiyaning quyidagi turlarini taklif etib sharhlaydi:

1. Intellektual refleksiya: Muammolarni fikrlash asosida ijobiy hal qilishni belgilaydi.
2. Shaxsiy refleksiya: o'qituvchining nizoli (konfliktlar) pedagogik ziddiyatlardan janjalsiz chiqishni fikran izlanish asosida bartaraf qilishni ta'minlaydi.
3. Kommunikativ refleksiya: Muloqot jarayonida sheriklarining o'zaro bir-birlarini tushunib munosabat qilishni ta'minlaydi.
4. Kooperativ refleksiya: Jamoa a'zolarining birgalikdagi o'zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat. O'quvchining bilimni rivojlantirishda pedagogik refleksiyaning ahamiyati beqiyosdir. Shunday ekan Y.N.Kulyutkina, Y.S.Turbovskiy, P.V.Xudominskiy kabi tadqiqotchi olimlarning fikricha, o'quvchining doimiy pedagogik faoliyati, mazmunan refleksiv xususiyatga ega bo'lib, u barcha refleksiv jarayonlarni qamrab oladi. Qayd etish joizki, hozirgi kungacha pedagogik refleksiya tushunchasining mukammal tasnifi mavjud emas.

Hozirgi tezkor sur'atlarda rivjlanayotgan ta'lim sohasida ayniqsa, zamonaviy Oliy ta'lim bitiruvchilarining keng qamrovli kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish vazifasini o'z oldiga qo'ymoqda va mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari zamonaviy mehnat bozorida talabga ega bo'lgan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdan manfaatdor.

Universitet bitiruvchilari – o‘z sohasining bo‘lajak mutaxassislari o‘qish davomida nafaqat kasbiy sohada o‘zini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari, balki yangi kasbiy ahamiyatga ega fazilatlarni rivojlantirishlari va yanada bu borada o‘z ustida ishlashlari kerak. Ushbu maqsadga erishish uchun pedagogik vositalarning butun majmuasi, shu jumladan, o‘qitilganlar tomonidan malaka talablariga mos keladigan fazilatlar o‘zlashtiriladigan talabalarni o‘qitishda foydalaniladi.

Talabalarga ta‘lim berish jarayonida pedagogika oliygohlari talabalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirish, ular tomonidan o‘z imkoniyatlariga, erishilgan darajaga ko‘ra amalga oshirilgan kasb tanlashni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida ahamiyat beradi hamda ularning tayyorgarlik va shaxsiy motivatsiyasini oshirishga ham e‘tibor qaratiladi. Bularning barchasi zamonaviy oliy ta‘limning pedagogik kompetensiyasi asoslarini shakllantirish masalasining dolzarbligini tekshiradi.

Jarayonda qobiliyatlar bunday tizimni tashkil etish bo‘lajak o‘qituvchilar, kasbiy kompetensiyani shakllantirishga hissa qo‘shadi. Pedagogik amaliyot jarayonida bu pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalari o‘rtasida pedagogik kompetensiyani shakllantirish, ularning o‘z qobiliyatlariga, erishilgan tayyorgarlik darajasiga va shaxsiy motivatsiyasiga muvofiq kasbni ongli ravishda tanlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni ayniqsa dolzarb masala sifatida qarash lozim. Bularning barchasi zamonaviy oliy ta‘limda kasbiy kompetensiya asoslarini shakllantirish masalasining dolzarbligidan dalolat beradi deyil-sa, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Didaktik o‘yin turlarini tanlash mezonlari quyidagicha bo‘lishi mumkin: - ishtirokchilar tarkibi bo‘yicha - o‘g‘il bolalar, qiz bolalar, o‘smirlar, katta yoshdagilar uchun o‘yinlar; - ishtirokchilar soni bo‘yicha - yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh sinf jamoasi, raqobatdosh komandalar, sinflararo va ommaviy o‘yinlar; - o‘yin jarayoni bo‘yicha - fikrlash, o‘ylash, topag‘onlik, harakatlar, musobaqa va boshqalarga yo‘naltirilgan o‘yinlar; - vaqt me‘yori bo‘yicha - dars, mashg‘ulot vaqtining reja bo‘yicha ajratilgan qismi, o‘yin maqsadiga erishguncha, g‘olib yoki g‘oliblar aniqlanguncha davom etadigan va boshqa o‘yinlar. Har bir didaktik o‘yin jarayonida o‘ziga xos vositalar turlari qo‘llaniladi va mashg‘ulot jarayonida ulardan turli, unumli va xavfsiz foydalanish lozim.

Bu vositalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin: kantselyariya tovarlari - turli o‘lchamlardagi oq va rangli qog‘ozlar, skotch, flomasterlar, ruchka, qalam, chizg‘ichlar, qaychi, yelim va boshqalar; texnika vositalari - proyektor, mikrofon, kompyuter; videokamera, videomagnitofon, televizor va boshqalar; o‘quv asbob-uskunalar - o‘quv laboratoriya va ustaxona jihozlari, o‘lchov asboblari, o‘quv vositalari, moslama, mexanizm, model va boshqalar; Boshlang‘ich sinfda olingan bilim keyingi bosqich uchun poydevor vazifasini o‘taganligi sababli ta‘lim sifatini oshirish pedagoglar oldida turgan eng dolzarb masaladir.

Shu maqsadda ta‘lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglar, xususan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari darslarda yangi zamon ruhini, yangi nafasni olib kirish orqali o‘quvchilar bilimini rivojlantirish, ular dunyoqarashini o‘stirishga katta e‘tibor qaratishlari talab etiladi. Chunki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining diqqati beqaror bo‘lib, bir soat uchun mo‘ljallangan saboqni sabr-toqat bilan tinglay olmaydi. Bilim olishda av-

val o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash, ayniqsa, muhim vosita hisoblansa-da, bolalar uchun zerikarli jarayondir. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda ona tili, matematika darslarida yozish natijasida qo'llarni toliqishi, o'qish darslarida bir mavzuni takrorlab o'qish bolalarni zeriktiradi. O'quvchilarni kayfiyatini ko'tarish, toliqqan qo'llarini chigalini yozish maqsadida, turli didaktik vositalar hamda o'yinlar o'tkazish o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishda yaxshi samara beradi. Didaktik vositalarga boshqotirma, krossvord, rebus, topishmoq, topshiriq va boshqalar kiradi. Quyida ularning ta'rifini keltirishni joiz deb bildik.

Krossvord. "Krossvord" atamasi ingliz tilidagi "cross" va "word" so'zidan olingan bo'lib, mantiqan ("cross" – kesib o'tish, kesishma, "word" – so'z) "bir-biri bilan kesishadigan so'zlar yig'indisi", lug'aviy ma'nosiga ko'ra esa "kataklarni xarflar bilan to'ldirib, shu kataklarga yashirilgan, ishlanayotgan so'zni topish o'yini¹⁶", - mazmunini anglatadi.

Rebus. Lug'aviy ma'nosiga ko'ra ("lotincha" narsa, buyum, narsalar bilan, narsalar vositasida) tushunchasi "voqea, hodisa, harakat ma'nosi mavxum so'zlar, teskari, chalkash ifodalar yordamida ifodalash¹⁷", demakdir. Ushbu vositalardan foydalanish dars samaradorligi va refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishda asos bo'la oladi. O'yin - inson faoliyatining ko'rinishlaridan biridir. Murakkab va qiziqarli hodisa sifatida u turli kasbdagi kishilar diqqatini jalb etadi.

O'yin - inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin kattalar hayotida muayyan o'rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni "bolalikning hamroxi" ham deb atash qabul qilingan. U bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi, u mehnat va ta'lim bilan uzviy aloqada bo'lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ullanadigan ko'p jiddiy ishlar o'yin shaklida bo'ladi.

O'yinda shaxsdagi mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o'ylaydi. Bola shug'ullanadigan ko'pchilik jiddiy ishlar o'yin shaklida bo'ladi. O'yinda shaxsdagi mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o'ylaydi, o'yin jarayonida bolaning xotirasi faol ishlaydi, ta'sirchanlik va iroda sifatleri namoyon bo'ladi.

O'yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi. O'yinning pedagogik nazariyasini uning mohiyati va xususiyatlarini chuqurroq tushungandagina yaratish mumkin. O'tkazilgan tadqiqotlar o'yin nazariyasining asosiy masalalarini birmuncha chuqurroq yoritish imkonini beradi, chunonchi:

1.O'yinning mohiyati va o'ziga xosligi.

2.O'yinning bola tarbiyasidagi o'rni va uning bolalar bog'chasidagi pedagogik jarayonda tutgan mavqei. Pedagogikada bolalar o'yini o'zida kattalar harakati va ular o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi tarixan tarkib topgan faoliyat turi sifatida baholanadi. O'yin buyumli va ijtimoiy voqelikda harakat qilish va uni anglash ishiga yo'naltirilgandir. U o'zining kelib chiqishiga ko'ra ham, yo'nalishi va mazmuniga ko'ra ham ijtimoiy voqelik hisoblanadi. O'yinning turlari. Bolalar o'yinlari o'zining rang-barangligi bilan ajralib

¹⁶ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Konimex – Mirzo/ Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M.Aminov va boshq. 5-tom. T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyot, 2002.-418 b.

¹⁷ Rasulov I.M. talabalarning loyixalash madaniyatini kompyuter texnologiyalari vositasida rivojlantirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori ()...dis.-Toshkent:2018.-44-46 b.

turadi. Ular o'z mazmuni va tashkil etilishiga ko'ra, bolalarga ta'sir ko'rsatish darajasiga ko'ra, qo'llaniladigan buyumlarning turlariga, kelib chiqishiga ko'ra turlichadir.

Bularning barchasi bolalar o'yinlarini turkumlashtirishni favqulodda qiyinlashtiradi, biroq, o'yinlarga to'g'ri rahbarlik qilish uchun ularni, albatta, guruhlash zarur. Pedagogikada o'yinlarni ikki katta guruhga bo'lish juda keng tarqalgan: ijodiy o'yinlar va qoidali o'yinlar. Qoidali o'yinlar kattalar tomonidan yaratiladi va bola hayotiga olib kiriladi. Mazmuni qoidalarining murakkabligiga qarab, ular turli yoshdagi bolalarga mo'ljallangan bo'ladi. Tayyor qoidali o'yinlarning katta guruhni xalq o'yinlari tashkil etadi, ularning ko'plari avloddan avlodga o'tib, bizga yetib kelgan. O'yinning tuzilishi.

O'yin - bu bola faoliyatining turi. Shunday ekan, barcha faoliyatda bo'lgani kabi unga ham qator hislatlar: maqsadning mavjudligi, sabablar, amalga oshirish vositalarining rejali harakatlar, natijaning mavjudligi kabilar xosdir. Har qanday ko'rinishdagi o'yin tushunib olingan va maqsadga qaratilgan faoliyat tarzida kechadi. Har bir o'yinda bola uchun ahamiyatli bo'lgan maqsad mavjud: qizchasini ovqatlantirish, kosmosga uchish, quvlashmashoq o'ynayotganda o'yin qatnashchisiga qo'l tekkizish, "qopqondan" qutulib chiqish va hokazolar.

Bola o'yin mavzusi va mazmunini kelisha oladigan, rollarni taqsimlaydigan, o'z o'yin faoliyatini muayyan darajada rejalashtiradi. Boshqa faoliyat turlarida bo'lgani kabi o'yin jarayoniga bolaning butun shaxsiyati, uning psixik bilish jarayonlari, irodasi, hissiyoti va ta'sirchanligi, ehtiyoj va qiziqishlari jalb etiladi. O'yinda bola faol harakat qiladi, gapiradi, o'z bilimlarini qo'llaydi.

O'yin o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ular orasida sabablarning o'ziga xosligi asosiy hisoblanadi. O'yin - bu bolaning shaxsiy tashabbusiga ko'ra vujudga keladigan, o'zining faol ijodiy yo'sindagi, yuksak ta'sirchanlik ruhi bilan ajralib turadigan erkin va mustaqil faoliyati sifatida bola shaxsining tarkib topish darajasiga ko'ra kechadi. Bolalarning o'yindagi erkinligi va mustaqilligi shundaki, o'yinda amaliy ehtiyojlarga qaram bo'lmaydi, u o'zining bevosita ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqadi. Bola o'yindan zavq olish maqsadida foydalanadi.

Bola o'yinining asosiy sababi "voqelikning uning uchun ahamiyatli bo'lgan tomonlarini boshdan kechirish" hisoblanadi¹⁸. O'yin faoliyatining ijodiy tabiati. Haqiqiy o'yin doimo tashabbus, topqirlik, zukkolik bilan bog'liqdir.

O'yinda bolaning tafakkuri va xayoloti faol ishlaydi. O'yin bola uchun ermak, quvonch manbaigina emas, uning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini o'stirishga xizmat qiladigan vosita hamdir. Bola hayotida o'yin uning harakatga, ishga, atrofdagi hayot taassurotlarini tushunishga bo'lgan intilishini qondiradigan muhim faoliyat turidir.

Xulosa o'rnida, Talab darajasida rivojlanayotgan bola ko'p harakat qiladi va ishtiyoq bilan o'ynaydi. O'yinni bolalar hayotini tashkil etishning forma va ko'rinishlaridan biri deb bejizga aytishmaydi. O'yin bola hayotini qiziqarli mazmun bilan to'ldiradi, uning xulq - atvorini shakllantirib boradi. Ko'p va diqqat bilan o'ynaydigan bolalar kamroq sho'xlik qilishadi, barcha bilan mulqotga kirisha oladi.

Eng oddiy pedagogik texnika va harakatlarning boshlanishi, keyinchalik ular yanada murakkablashadi va murakkabroq o'qitish mahoratiga birlashtiriladi, bu esa o'z nomi

¹⁸ S. L. Rubinshteyn.

bilan integratsiya deyiladi. Shunday qilib, kichik yoshdan boshlab kichik yoshdagi o'quvchilarning xatti-harakati va faoliyatini kuzatish va tahlil qilish, ularning tarbiyasiga tashxis qo'yish, yosh bolalar rivojlanishining individual xususiyatlarini hisobga olish kabi pedagogik fazilatlarni shakllantirish rejalashtiriladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish qobiliyati, umumiy qilib aytganda, pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish – bu pirovard natijada umumlashtirilgan pedagogik qobiliyatni – kichik yoshdagi o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish qobiliyatini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anikeeva P. N. "Jamoada ruhiy muhit". Toshkent 1993 yil.
2. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin topshiriqlaridan foydalanish: Ped. fan. Nom. ...dos. –Toshkent, 2006.
3. Bepalko V.P. Pedagogika i progressivnie texnologii obucheniya. – Moskva. 1995
4. O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi. Konimex – Mirzo Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M.Aminov va boshq. 5-tom. T.: "o'zbekiston Milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyot, 2002.-418 b.
5. Rasulov I.M. talabalarning loyixalash madaniyatini kompyuter texnologiyalari vositasida rivojlantirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori Toshkent:2018.-44-46 b.
6. Qaytarova N.K. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi va unda boshlang'ich sinf o'qituvchisining roli./ "Ta'lim tizimidagi isloxtlar: olimlar va yoshlar nigoxdda" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya tuplami // Toshkent, 2022 yil 29 sentabr. 203- b.

Qirg'izboyeva Maxfuza Abdurayimovna,
Andijon Viloyati Asaka tumani
33-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTEGRATSION TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boshlang'ich sinfda olingan bilim keyingi bosqich uchun poydevor vazifasini o'taganligi sababli ta'lim sifatini oshirish pedogoglar oldida turgan eng dolzarb masalalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, tarbiya, takomillashtirish, globallashuv, didaktik o'yin, modernizatsiyalash.

Bugungi kunda butun dunyoda ro'y berayotgan globallashuv sharoitida mamlakatimiz barqaror taraqqiy etib borish uchun har tomonlama modernizatsiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo qilayotganligi munosabati bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli islox qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5538-son Farmonga ko'ra **O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi** tasdiqlandi, O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish borasida bir qancha ishlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va byudjetdan tashqari mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini

oshirish, yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta'lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish masalasi bugungi kunning eng dolzarb masalasi hisoblanadi.

Ilmiy jarayonda innovatsion ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish va loyihalashtirish, integratsion ta'limni rivojlantirishda boshlang'ich ta'limning o'rni, global ilmiy jarayonda filologik ta'limni rivojlantirish hamda tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda integratsion ta'lim yo'nalishlar bo'yicha talaygina ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Bilish jarayoni cheksizdir. Unda tabiat, jamiyat va inson tafakkuri qonuniyatlarining hali o'rganilmagan sohalari kashf etiladi. Maktabda bilim va malakani o'zlashtirish uzviy harakterga ega. Bugungi o'rganiladigan bilim oldin o'zlashtirilgan bilimlarni taqozo qilsa, kelajakda o'zlashtiriladigan bilimlar uchun asos sanaladi. Natijada ta'lim mazmunini o'quvchi tomonidan o'zlashtirilish darajasi, bilimlarning shakllanish doirasi, samarasi ham yangi ko'rinishga ega bo'ladi. Bilimlarni egallash bosqichlari har bir shaxsning psixologik hususiyatlariga tayanadi, ya'ni shaxsning ma'lumotlarini sezish, idrok etish, anglash, umumlashtirish, xulosa chiqarish va amalda qo'llash kabi hususiyatlari har xil bo'ladi. Bunda o'qituvchi quyidagi vazifalarni bajarishi lozim bo'ladi:

- o'quvchilar bilish qobiliyatiga asoslanib, o'qish uchun qo'zg'atuvchi sabablar (motivlar) yaratish;
- Berilayotgan ma'lumotlarni idrok etish uchun sharoit yaratish;
- Ta'lim jarayonida bolalar ongida mavjud bo'lgan bilimlarga va shakllangan Tajribalariga suyanib, ma'lumotlarni anglash, taqqoslab, tahlil etish va xulosalar Chiqarishga undash;
- o'quvchilarning olgan bilimlarini, amaliyotda qo'llash orqali ularda ko'nikma Va malakalarni hosil etish hamda ularni mustahkamlash va takomillashtirish;
- Bilimlar, ko'nikma va malakalarni doimiy amaliyotda qo'llanishini Ta'minlash;
- Ta'lim natijalarini tahlil qilish va o'quvchilarning keyingi istiqbolini tashhis Etish va rejalashtirish.

Ma'lumki, o'quvchilarning bilish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deyiladi. Didaktik o'yinli texnologiyalar o'quvchilarning bilim olish faoliyatini o'yin faoliyati bilan qo'shib olib borishdan iborat. Didaktik o'yinlar mu-sobaqa, raqobat, o'zaro yordam, hamkorlik tarzida olib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda integratsion ta'limni rivojlantirish borasidagi ishlarni amalga oshirishda barcha fanlarning o'rni muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'sib kelayotgan yosh avlodni hamda mahoratli pedagoglarni har tomonlama barkamol inson sifatida ko'rish, ularga o'z qiziqishlarini inobatga olgan holda qo'shimcha bilimlar berish hamda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda jamiyat ravnaqi uchun xizmat qilishlariga shart-sharoitlar yaratib berish maqsad qilib olingan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'yin ta'lim texnologiyasi asosida refleksiv ko'nikmalarini shakllantirish, o'yin – ta'limiy faoliyat sifatida, bola shaxsini rivojlantirishda didaktik o'yinlar mavzulari doirasida refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish masalalari haqida fikr yuritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi (1-2-3-4-sinflar) uchun.2021-2022-o'quv yili uchun.
2. "Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilimini baholashda xalqaro tajribalardan foydalanish: muammo va yechimlar" mavzusidagi vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliyanjuman.Buxoro-2020.
3. I.Azimova, K.Mavlonova, S. Quronov, Sh. Tursun. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2- sinfi uchun darslik. T.:2021.

*Inoyatova Z.X,
Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrası, katta o'qituvchisi.
Pirimqulova E'zoza, Ashirqulova Binafsha,
Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'lim
fakulteti talabalari*

BOSHLANGICH SINF O'QUVCHILARINI TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA VA TA'LIM MUASSASASI HAMKORLIGINI AMALGA OSHIRISH TAMOYILLARI VA BOSQICHLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" ni amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qilish xususida.*

Kalit so'zlar: *Oila, mahalla, maktab, hamkorlik, texnologiya, jamoatchilik, innovatsiya, bilim, ota-ona o'rtasidagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik.*

Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va maktab nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi.

Kelajagimiz egalarining ma'nan yetuk, jismonan sog'lom, yuksak salohiyatli, hech kimdan kam bo'lmagan holda kamolga yetishida oila – mahalla – ta'lim muassasasi hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli paviyishda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta'sir ko'rsatishga qodirdir va odatda ta'sir ko'rsatadi. Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatiishning chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa uni oliy darajada ta'sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shaxsni shakllantirish jarayonining zarur buguniga ham aylantiradi.

Ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

Shaxsning ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi, unda ma'naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishida oila tarbiyasi asosiy rolni bajaradi. Oilada

qaror topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir.

Oila mustahkam va totuv bo'lishi uchun oiladagi har bir shaxs o'z huquq va burchlarini yaxshi bilishi va ularga amal qilishi darkor. Oila tarbiyasida bolalar hayotini to'g'ri yuritish ularni vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishlarining asosiy garovidir. Bolalarning oiladagi vaqtini o'yin, mehnat va o'qish faoliyatlari bo'yicha to'g'ri taqsimlash nihoyatda muhimdir.

Oila jismoniy va psixologik jihatdan sog'lom, ma'naviy barkamol, mehnat, ijtimoiy hamda oilaviy hayotga tayyor shaxsni shakllantirib berishi lozim. Oila tarbiyasining mazmuni bolalarga ijtimoiy tarbiyaning mazkur yo'nalishlari – jismoniy, axloqiy, aqliy, estetik, mehnat, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy-g'oyaviy ta'lim berish, ularda faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Oila sharoitida uyushtirilayotgan suhbatlar alohida diqqatga sazovordir. Ommaviy axborot vositalari orqali aholi e'tiboriga havola etilayotgan huquqiy mavzulardagi maqolalar, ko'rsatuv, eshittirish, shuningdek, ommaviy-huquqiy adabiyotlar hamda ularda ilgari surilgan g'oyalar yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlar bolalarda huquqiy tasavvur, idrok, savodxonlik, tafakkur, faollik, mas'ullik, e'tiqod va salohiyatni qaror topishiga olib keladi. Oila muhitida bolalarga ularning burchlari to'g'risidagi ma'lumotlarni berib boshish, o'z navbatida, huquqlaridan foydalanish yo'llarini ko'rsatib berish bu borada yaxshi samara bera oladi.

Oila bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini hosil qiluvchi o'ziga xos maskan sanaladi. Bolalar "Vatan", "xalq" tushunchalarining mohiyatini dastlab shu maskanda o'zlashtiradilar. Binobarin, oilaning o'zi Vatanning bir bo'lagidir. Oila sha'nini himoya qilish, uni saqlash to'g'risida qayg'urishning Vatanning sha'ni, el-yurt manfaati uchun kurashish tuyg'ulari bilan uzviy bog'liq bo'lishiga erishish oilada tashkil etilayotgan ijtimoiy-siyosiy tarbiyaning asosi bo'lishi lozim¹⁹.

Yuqorida qayd etilgan tarzda oila tarbiyasini tashkil etish komil insonni tarbiyalab, voyaga yetkazish muvaffaqiyati uchun poydevor bo'ladi. Farzandlarning har tomonlama yetuk bo'lib voyaga yetishlarida ota-ona, oilaning boshqa a'zolarining dunyoqarashlari, hayotiy yondashuvlari va ma'naviy dunyosi o'ziga xos o'rin tutadi.

Oila ham jamiyatning bir bo'lagi hisoblanadi. Oilada bola tarbiyasini yo'lga qo'yish juda katta ahamiyatga ega.

Ota-onalarga pedagogik bilim berishni amalga oshirishda faqat bilim berib qolmasdan, ularni tarbiya sohasidagi amaliy malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ularning pedagogik faoliyatini uyg'otish mustaqil shug'ullanishga undash, maqsadga muvofiq oila ichki munosabatlarini yo'lga qo'yish g'oyat muhimdir. Ota-onalar yig'ilishlari ota-onalar bilan ish olib borishning an'anaviy tarkib topgan shaklidir. Hal qilinayotgan aniq vazifalarga bog'liq xolda sinf yig'ilishlarini tashkiliy, yakuniy chorak yig'ilishlarini mavzuga doir yig'ilish, ota-onalarning umumiy ta'limi bo'yicha sinf rejasiga ko'ra yig'ilish kabi yig'ilishlar bo'lishi mumkin.

Tashkiliy yig'ilishlarda ota-onalar qo'mitasi saylanadi, ish rejasi tasdiqlanadi. Pedagogik iqlim o'rnatish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqadi, jamoat topshiriqlari taqsimlanadi.

¹⁹ Hasanboyeva O. va boshqalar. Oila pedagogikasi darslik. –T.: Aloqachi, 2007. – 384 b.

di va turli ish yo'nalishlariga doir tashabbuskor ota-onalar guruhlari tuziladi, ota-onalar ishtirokida umummaktab tadbirlarini o'tkazish rejalari muvofiqlashtiriladi.

Ota-onalarning sinfdagi umumiy ta'limiy rejasiga ko'ra majlislar, avvaldan belgilangan reja, muayyan sistemaga muvofiq ota-onalarga pedagogik bilim berishning shakli hisoblanadi.

Yakka tartibdagi pedagogik suhbat-sinf rahbarining o'quvchilar ota-onalar bilan olib boradigan ishining eng ommalashgan, qulay va samarali shakli hisoblanadi. Suhbat yordamida vujudga keladigan masalalarni tez hal etish, ota-onalar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatish, oilaviy tarbiya sharoitlari haqida qo'shimcha ma'lumotlar olish, ota-onalarga pedagogik bilim berish, bolaning yakka tartibdagi rivojlanishi dasturini va birgalikdagi pedagogik harakatlar sistemasini ishlab chiqish ota-onalarning tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishlarini hal etish kabi keng ko'lamdagi ta'lim tarbiyasining vazifalari hal qilinadi. Mahalla, maktab, oila hamkorligining ijobiy tomonlari shundaki - bolaning dunyoviy bilimga ega bo'lish, fikrlarning keng bo'lishi, noto'g'ri ta'sirlarga berilmasligi, uyda, maktabda bo'sh vaqtini unumli o'tkazishni taminlashga va xalqiga, jamiyatga foyda keltiradigan shaxs bo'lib ulg'ayishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son qarori .
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarori
3. M.X.To'xtaxodjayevevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika darslik.T.: o'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010 y.
4. R.Mavlonova, O.To'raeva, K.Xoliqberdiev. Pedagogika. - T.: "o'qituvchi", 2002.
5. The Effectiveness of Advanced Educational Technologies in the Context of Innovative Development International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPST) ISSN :2509-0119 Inoyatova Z.
6. Khamdamovna, I. Z., R. Kamola, and J. Nigora. "Problems and Solutions for the Organization of Pedagogical Communication in the Educational Process of Future Primary School Teachers." European Multidisciplinary Journal of Modern Science 4 (2022): 413-416.
7. Inoyatova, Z. X., Po'latova, G. N., & Xojimurodova, D. (2022). Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Science and Education, 3(12), 795-800.
8. Primary Classes based on Media Technologies Perpresent an International Rating System for Teacher Control. International Journal of Psychosocial Rehabilitation ISSN: 1475-7192. Inoyatova Z.
9. EMJ C EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE
10. <https://emjms.academicjournal.io/index.php/> Volume: 4 20XX European
11. Multidisciplinary Journal of Modern Science MS 413 Problems and Solutions for the Organization of Pedagogical Communication in the Educational Process of Future Primary School Teachers. Inoyatova Zulfiya Khamdamovna Lecturer, at the Tashkent State Pedagogical University named after Nizam.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MAKTABGA HISSIIY MOSLASHUVI VA FANLARNI YAXSHI O'ZLASHTIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: Bugungi kunda ta'lim tizimiga e'tibor mamlakatimizda harch qachongidan ham kuchayib bormoqda. Bu borada maktablardagi boshlang'ich ta'lim tizimidagi o'quvchilarning ham ta'lim olishi va birinchi sinfdagi moslashuvchanlik esa o'z dolzarbligini yo'qotgan emas. Mazkur maqolada ham boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabga moslashuvining hissiy-emotsional, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida ilmiy mulohazalar o'ringan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, bilim, moslashuv, his-tuyg'ular, o'zlashtirish, sharoit, hamkorlik, tasavvur, o'qituvchi.

Maktabning boshlanishi har bir bola va uning ota-onasining hayotida muhim ahamiyatga ega. Odatda, 6-7 yoshdagi bolalar o'quvchi deb atalmish maqomiga qiziqish bildiradilar va bu rolga intilishga tayyor bo'lishadi. Biroq, bu tayyorlik va bolaga maktab bilan bog'liq bo'lgan barcha tasavvur va umidlar ko'pincha har bir yangi birinchi sinf o'quvchisi muqarrar ravishda duch keladigan stress devoriga qarshi sindiriladi. "Hayot sharoitida, kun tartibida, yetakchi faoliyat turida o'zgarish barcha tana resurslarining katta shafqatsizligini talab qiladi", - deydi yosh davrlar tadqiqotchisi D. B. Elkonin²⁰.

D. B. Elkonin to'xtalgan mazkur "shafqatsizlik" haqida biz ham bir qator tajribalarimiz shuni ko'rsatdi-ki, aynan boshlang'ich sinf o'quvchilari organizmida ham mana shunday katta o'zgarishlar ularning maktabga moslashuvi uchun reaksiya vazifasini o'tar ekan. Bunda esa ulardagi kun tartibining ota-ona va ustozlari orqali to'g'ri tashkil qilinishi muhim ekanligini ko'rsatishimiz mumkin bo'ladi.

Qolaversa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining syujetli rolli o'yinlar orqali darslarni tashkil qilish muhimligini ham unutmashimiz kerak bo'ladi.

Syujetli asosda o'tkazilgan darslar orqali o'quvchi "bola" ekanligini va talab juda katta emasligini ongosti soxasi orqali sintez qilar ekan, bu unga maktab va undagi o'qituvchi ana shu syujet ichidagi bir epizod vazifasini o'taydi.²¹ Germaniyalik olim ayol A. Anastaziyning yuqoridagi fikriga ko'ra ham biz o'tkazgan tadqiqotlar aynan bizning

²⁰ Karimova V.M., Akramova F. Psixologiya. T.2000.

²¹ Anastazi A. Psixologicheskoe testirov 2- tomox. M. 2012.

maktablarda ham qo'llanilib keladi faqat juda ham ko'p emas. Sababi, ayrim boshlang'ich sinf o'qituvchilari har qaysi fandan bilimli bo'lishi mumkin ammo dars o'tish uning yosh davrini hisobga olib ana shunday syujetli – rolli o'yinlar asosida tashkil qila olmasligi ayon bo'ldi. Agara o'qituvchi uning qanday o'tkazish tartibini bilmas ekan uning darsi "o'yin" darsiga yoki jismoniy tarbiya darsiga ham o'xshab ketishi mumkin.

Shuningdek, darslardagi boshlang'ich berilayotgan bilimlar o'quvchini to'laqonli olinga aylanishini kutish bu o'qituvchisining eng katta xatosi hisoblanadi, bu uchun o'quvchilarda yetarli tasavvurlar va ko'nikmalarni shakllantishsa kifoya.²² Biz ham o'tkazgan tadqiqotlarimizni E.G'.G'oziyevning bir qator ilmiy nazariy ma'lumotlari orqali olib borishda shu narsa ma'lum bo'ldi-ki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarni "qoniqarli darajada o'qiydimi demak u shunday uni o'zgartirib bo'lmaydi" kabi tushunchalar bilan dars o'tishiga guvoh bo'ldik va bir sinfdan ana shundan "qoniqarli" o'qiydigan o'quvchilar bilan olib borgan tajribalarimizda ularga Tabiiy fanlar darsligidagi tog'lar mavzusida aynan tog'larning ko'plab rasmlar va qiziqarli ma'lumotlar bilan tushuntirganimiz ularda mana shu mavzudan "a'lo" bahoda o'zlashtirishi mumkin ekanligini qayd etdik.

Psixologiya fanlari doktori U.Qodirov "Yosh davrlarining eng muhim bosqichi boshlang'ich sinf bosqichidir. Chunki endi bolaga muhim hayotiy va kelajak bilimlari beriladi. Qaror chiqarish va qarorlarni qabul qilish esa bu ham mana shu davr uchun muhim jarayonligini unutmaslik kerak. Qaror chiqarish va qabul qilish borasidagi ilgari surilgan mazkur mulohazani biz o'z tadqiqotlarimizning boshlang'ich sinf o'quvchilarida shu narsani ma'lum bo'ldi-ki, o'quvchi uchun qaror chiqarish bu o'ta qiyin masala ekanligi, ammo ayrim sho'x va tempramenti va xarakteridan kelib chiqib baxolash mumkinligi a'yon bo'ldi. Sangvinik va xolerik tempramentli o'quvchilar uchun qaror chiqarish juda ham tez va aniq bo'ladi. Ular nimani xohlashi va qiziqishini, nima yoqmasligini o'z vaqtida aytishi o'z tajribalarimizda uchratdik. Shundan kelib chiqib mazkur yuqoridagi mulohazadagi "qaror chiqarish" bu barcha o'quvchilar uchun deb belgilanishi biroz xatoroq ekan. Lekin kattalar tomonidan ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi tomonidan berilgan talablar so'zsiz ravishda barcha o'quvchilar uchun "qaror qabul qilishi" ga "majbur" qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anastazi A. Psixologicheskoe testirov 2- tomax. M. 2012.
2. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. Toshkent 2002
3. Karimova V.M., Akramova F. Psixologiya. T.2000.
4. R.Yu.Toshimov, E.G'.g'oziyev. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. T, 2004 y.
5. Sariboyeva U. Yosh davrlari psixologiyasi. O'quv uslubiy qo'llanma. Angren – 2005

²² R.Yu.Toshimov, E.G'.G'oziyev. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. T, 2004 y.

Inoyatova Z.X,
*Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrası, katta o'qituvchisi,*
Shermatova D.U,
*Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich
ta'lim fakulteti talabasi.*

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING BILIMINI BAHOLASHDA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING AHAMIYATI VA MEZONLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqola bugungi kunda xalqaro baholash tadqiqotlarining zamonaviy ta'lim tizimida egallayotgan o'rni to'g'risida, umumiy o'rta ta'limda baholash darajalarining ahamiyati va afzalliklari haqida fikr-mulohaza yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Xalqaro baholash dasturi, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, tadqiqot natijalari, boshlang'ich ta'lim.*

Hozirgi davrga kelib globallashtirish jarayoni jamiyatning barcha sohalarida avj olishmoqda va o'z navbatida fan va texnikaning rivojlanishiga, iqtisodiyotning yuqori darajada o'sishiga hamda ta'lim sohasidagi integratsiya jarayoning yanada chuqurlashishiga olib kelmoqda. Ya'ni butun dunyo bo'ylab har bir sohada globallashtirish va integratsiya jarayonlari o'z aksini ko'rsatmoqda. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar olib borilmoqda, Shu bilan birga ta'kidlash kerakki, ko'plab rivojlangan davlatlarda ta'lim sohasida baholashning PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS kabi xalqaro baholash dasturlari amaliyotga muvaffaqiyatli tarzda namoyish etilmoqda. Barchamizga ma'lumki, shu bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi ham Xalqaro baholash tizimi qatoriga kirgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida baholash orqali dunyo mamlakatlari bilan qiyosiy tahlillar olib borish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaror o'z tasdiqini topgan. Ushbu qarorda Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida bayon qilingan. Shu bilan birga Davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoyev tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonunda inson kapitalini shakllantirishning asosiy qismi bo'lgan tizimda amalga oshirilishi lozim bo'lgan maqsad va vazifalar belgilab berilgan ya'ni bular quyidagilar:

- Xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'qish;

- PISA, PIRLS, baholash dasturi yo'nalishidagi savollarni milliy bazasini yaratish va o'quv dasturlariga integratsiya qilish.

Tadqiqot natijalari. PISA- (The Programme for International Student Assessment) –o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur reytingida jahonning 30ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishga erishish vazifasi qo'yilgan. O'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini jahon davlatlaridagi maktab o'quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo'llay olish mahoratini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, asosiy maqsadi – 15 yoshli o'quvchilarning matematika, o'qish savodxonligi tabiiy fanlar bo'yicha test shaklida baholashdan iboratdir. o'quvchilarni ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi.

PISA da o'quvchilarning bilim sifati monitoringi 5ta yo'nalish bo'yicha aniqlanadi: -o'qish savodxonligi;

- Matematik savodxonlik;
- Moliyaviy savodxonlik;
- Kompyuter savodxonligi;
- Tabiiy- ilmiy savodxonlik

PIRLS- (Progress in International Reading and Literacy Study) boshlang'ich sinf o'quvchilarining berilgan matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Hozirgi kunda PIRLS dasturida 50 dan ortiq davlatlar ishtirok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning turli xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iboratdir. Ko'plab mamlakatlarda maktabga 6 yoshdan qabul qilishadi va 4-sinfni 10.5 yoshda tugatishadi. Tadqiqot har 5 yilda bir marotaba o'tkaziladi.

TIMSS- (Trends in International mathematics and science study) 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash dasturi bo'lib, bu tadqiqot 4 yilda bir marta o'tkaziladi, Dasturda qatnashayotgan davlatlar soni ham tobora ortib bormoqda, buni 2015-yildagi TIMSS tadqiqotida 57ta mamlakat qatnashgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich ortib, 60 dan ortiq davlatni tashkil etganida ham ko'rishimiz mumkin.

TIMSS dasturi o'zining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo'lib, 2019-yilga qadar har 4 yilda 1990-yil, 2003-yil, 2007-yil, 2011-yil, 2015-yil va 2019-yillarda tashkil etib kelindi. Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Yuqorida berilgan ma'lumotlardan xulosa qiladigan bo'lsak, Xalqaro baholash dasturida o'quvchilarimizda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratishdan iboratligi ko'rsatilgan. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Davlatimizga ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni
2. Assessing Reading ,Mathematics and scientific literacy:A framework for PISA 2009. OECD,2009
3. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining – O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2019-yil 28-apreldagi PF-5217sonli Farmoni.
4. Ш. Кулиева. О.Узоков. К. Холматова Талабаларнинг креатив қобилиятларини шакллантиришда технологик таълимнинг узвийлигини таъминлаш- педагогик муаммо сифатида Общество и инновации
5. Khamdamovna, I. Z., R. Kamola, and J. Nigora. "Problems and Solutions for the Organization of Pedagogical Communication in the Educational Process of Future Primary School Teachers." *European Multidisciplinary Journal of Modern Science* 4 (2022): 413-416.
6. Inoyatova, Z. X., PO'Latova, G. N., & Xojimurodova, D. (2022). Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. *Science and Education*, 3(12), 795-800.
7. Primary Classes based on Media Technologies Perpresent an International Rating System for Teacher Control. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation* ISSN: 1475-7192. Inoyatova Z.
8. THE NEED TO IMPROVE METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS INNOVATIVE RESEARCH IN MODERN EDUCATION Hosted from Toronto, Canada. 26-28 betlar. Inoyatova Zulfiya Khamdamovna.

*Shodiyeva Iroda Saidaxmadovna,
Farg‘ona viloyati Yozyovon tumani 12-maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Xalq maorifi a‘lochisi*

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIIY FANLAR DARSLARINI TASHKILLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Annotasiya: *Bu maqolada boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlar darslarini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlarga fikr yuritilgan. Dars mashg‘ulotlarini tashkillash, o‘quvchilarni mashg‘ulotlarga qiziqtirishda foydalaniladigan o‘yinlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Tabiiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar, Sinf qutisi metodi, Savdogar, Xarita o‘yinlari, Amaliy ish.*

O‘zbekiston ta‘lim tizimida ham 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab 1-6-sinflarda tabiiy fanlarni o‘zida jamlagan tabiiy (Science) fanlari joriy etildi. Tabiiy (Science) fanlarning afzalliklari va ahamiyati shundan iboratki, fan orqali o‘quvchi olamning yaxlit, ajralmas, bir butunligini anglaydi, ilmiy dunyoqarashi shaklanadi, tadqiqotchilik ko‘nikmalari rivojlanadi. Natijada TIMSS xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etish imkoniyati kengayadi.

Tabiiy fanlar ham asosiy fanlar sirasiga kiradi. Shuning uchun, darslarni qiziqarli va maroqli tashkil etish pedagoglarning oldida turgan muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Xo‘sh, darslarni tashkillashda qanday zamonaviy metodlardan foydalanish mumkin? Ushbu maqolada darslarimda foydalanib kelayotgan metodlardan namunalar keltirib o‘tmoqchiman.

Sinf qutisi o‘yini

O‘yin texnologiyasi: Sinf o‘quvchilarini dars mashg‘ulotlariga tayyorlash uchun, ushbu o‘yinni tashkillaymiz. Xonada quticha tashkillanadi. O‘quvchilar o‘zlarining bilim olishiga xalaqit beradigan, yomon odatlarini qog‘ozga yozib, qutichaga tashlaydilar. Ya‘ni, yomon odatlaridan voz kechadilar. O‘yin jarayonida o‘quvchilar o‘zlarining yomon odatlarini tan olishadi. Yaxshi va yomon odatlarni ajrata olishni o‘rganadilar.

Ushbu o‘yindan darsni tashkillash jarayonida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayon o‘quvchilarga psixologik ta‘sir qiladi va darsda faol ishtirok etishlariga sabab bo‘la oladi. Nima yaxshi-yu, nima yomonligini anglab yetadilar.

Savdogar o‘yini


O‘yin texnologiyasi: Bir o‘quvchi do‘konda “Savdogar”, qolgan 4 nafar o‘quvchi “Xaridor” vazifasini bajaradilar. Do‘konda har bir mahsulotga rebuslar yozib qo‘yilgan bo‘ladi. Mahsulot olmoqchi bo‘lgan “Xaridor” rebusni javobini topib, shundan so‘ng pulini to‘lab mahsulotni olishi mumkin bo‘ladi. Masalan, quyidagi rebuslar

mahsulotlarga yopishtirib qo'yilgan. Rebuslarni javobini topish uchun mantiqiy fikrlash talab qilinadi.

1



2




1-rebusning javobi: KOINOT. Koptok so'zidagi ko- bo'g'iniga -in va -ot bo'g'inlari qo'shilib, ko+in+ot so'zi hosil bo'ladi. 2-rebusning javobi: YULDUZ. Yo'l so'zidagi o' harfini o'rniga u harfini qo'yamiz va qunduz so'zidagi -duz bo'g'inini olamiz. Yul + duz so'zi hosil bo'ladi.

Bu o'yinda o'quvchilarni guruhlarga bo'lib olib, musobaqa shaklida olib borish maqsadga muvofiqdir. Qaysi guruh vakillari ko'p rebus yechib, ko'p mahsulot olgan bo'lsa, o'sha guruh g'olib bo'ladi. Afzalligi, 1-4-sinf o'quvchilari uchun ham foydalanish qulay. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Darsning tashkiliy qismida, o'tilganlarni so'rash vaqtida foydalanish mumkin. Rebuslarni esa, mavzuga moslab tuzish lozim.

Xarita o'yini

O'yin texnologiyasi: Sinf o'quvchilari guruhlarga bo'linadilar. Har bir guruh uchun O'zbekiston xaritasi va viloyatlarning xaritasi rasmi tarqatiladi. Viloyatlarni o'z o'rniga qo'yib chiqish topshirig'i beriladi. Viloyatlarning xaritasiga matematik amallar yozilgan bo'ladi. Amallarni to'g'ri bajarsa, viloyatlarning o'rnini topish oson bo'ladi. Qaysi guruh o'quvchilari birinchi bo'lib viloyatlarning joylashuvini to'g'ri bajarsa, g'oliblikni qo'lga kiritadilar.



Bu o'yinni o'ynash orqali O'zbekiston xaritasi bilan yaqindan tanishadilar. Nechta viloyat borligini, ularning geografik joylashuvini va maydoni katta-kichikligini bilib oladilar. Guruh bo'lib ishlaganda esa, o'quvchilar o'zaro bir-birlarini fikrlarini hurmat qilishni o'rganadilar. Afzalligi, 1-4-sinf o'quvchilari uchun foydalanish mumkin. Darsning tashkiliy qismida, dam olish daqiqasi paytida foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu o'yin o'quvchilarning aqlni charxlab, erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Amaliy ish: o'zimiz bajaramiz

Ishning tartibi: Maktab hovlisidan ekin ekish uchun qulay joy tanlanadi. Maxsus yerni yumshatib, unga turli xil urug' ekiladi va nazorat qilinadi.

Kerakli asboblari: Belkurak, ketmon, xaskash, suv purkagich, urug' solingan plastik idish va urug'lar.

Ishning borishi: Ekin ekish uchun avval belkurak va ketmonda yerni yumshatish lozim. Yerni yumshatib olib, unga yaxshi ishlov beriladi. Ishlov berilgan yerga bir qismiga bug'doy, bir qismiga loviya ekamiz. Suvga bug'doy va loviya urug'larini solib, saralarini ajratib olamiz. Ehtiyotkorlik bilan ishlov berilgan yerga qo'yib, ustiga tuproq tortamiz va xaskash bilan ustini tekislab qo'yamiz. Urug'lar tuproq bilan yaxshilab aralashadi. Suv purkagich yordamida suv sepiladi. Ekin maydoni nazorat qilib turiladi va kundalik daftarga yozib boriladi. Yer usti qurib qolsa, unga suv purkab turiladi. Unib chiqqan o'simliklarning farqini solishtirib kuzatuv natijalarini qayd etib boriladi. Bu amaliy ish bahor faslida bajariladi.

Bunday amaliy ishni 3-4-sinf o'quvchilar bajargan ma'qul hisoblanadi. O'quvchilarda amaliy ishlarni bajarish orqali mehnatsevarlik qobiliyatlari rivojlanadi. Dehqonchilik bilan qo'shimcha daromad topishga qiziqish uyg'onadi. Oilasi uchun tabiiy toza mahsulot yetishtirishni o'rganadi. Bu esa turmush tarzini yaxshilashga xizmat qiladi.

Tabiiy fanlar - insonni, koinotni, shuningdek butun atrof-muhitni: tuproqni, atmosferani, barcha jonli va jonsiz jismlarni tashkil etuvchi moddalar va ularning o'rganadigan fanlardir. Tabiatda ro'y berayotgan hodisa va jarayonlar, insoniyatning tabiatga bo'lgan salbiy va ijobiy ta'sirlarini ham ochishga yordam beradi. Shuning uchun tabiiy fanlar darslariga puxta tayyorgarlik ko'rish lozim. Har bir darsni san'at asari darajasida tashkillash pedagoglardan mahoratni talab qiladi. Har bir darsda yangidan yangi zamonaviy metodlardan foydalanib, o'quvchilarni puxta bilim olishiga zamin yaratish vazifamizdir. Boshlag'ich sinfda olingan bilimlar poydevor hisoblanadi. Poydevor mustahkam bo'lsa, imorat shunchalik chidamli bo'ladi. Shunday ekan, har bir darsga kreativ yondashuv bilan tayyorgarlik ko'rishni o'z oldimizga maqsad qilib olishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tabiiy fanlar ish dafatari 3-sinf. Toshkent-2023
2. Tabiiy fanlar darslik 3-sinf. Toshkent-2023
3. RTM konferensiya materiallari 2022-yil

KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA O'QITUVCHI KASBIY FAOLIYATIDA MUHIM INTEGRAL SIFAT

Annotatsiya: ushbu maqolada kommunikativ kompetentlikning o'qituvchi kasbiy faoliyatidagi ahamiyati, ta'lim islohotlari jarayonida uni rivojlantirish bilan bog'liq muhim vazifalar to'g'risida mushohada yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, kompetensiya, kompetentlik, kommunikativ kompetensiya, kommunikativ kompetentlik, kasbiy kompetensiya.

Yurtimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekiston ni ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-ma'naviy, huquqiy-siyosiy, ma'rifiy-dunyoviy jihatdan mustahkamlash uning hozirgi bosqichdagi maqsad va vazifalari Respublikamizning yangi tahrirda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston ning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida har tomonlama teran belgilab berilgan.

O'zbekiston uchinchi ming yillikda jamiyat hayotining turli sohalari jumladan, ta'lim tizimi sohasini tubdan isloh qilish jarayoniga qadam qo'ydi. Ta'lim har qanday jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi, ma'naviyati va madaniyati darajasining ko'rsatkichi shuningdek, taraqqiyotining asosidir.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi", degan g'oya asosida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshiramiz [1] deb ta'kidladilar.

Ta'lim sohasidagi doimiy o'zgarishlar yangi kompetensiyalar paydo bo'lishiga olib keladi, bu esa boshlang'ich sinf o'qituvchisiga o'zgaruvchan muhitda ota-onalar va maktab o'quvchilarining ta'lim ehtiyojlarini tahlil qilish, maktabdagi o'zgarishlar amalga oshirilishini baholash, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati samaradorligidan kelib chiqib, pedagogik yondashuv yonalishlarini takomillashtirishga alohida etibor qaratish lozim. Bu esa o'z navbatida o'qituvchidan o'z-o'zini rivojlantirib borishni talab etadi. Hozirgi davr taraqqiyot tendensiyalari o'z rivojlanishini boshqarish (o'zini-o'zi rivojlantirish) kompetensiyalarini ham yangilanib borishini taqazo etmoqda. Ta'lim sohasida ilm-fan va texnologiyaning mahalliy va xorijiy yutuqlarini o'rganish va amalga oshirishga, pedagogik mahorat komponentlarini takomillashtirishga, ta'lim subyektlariga ta'sir o'tkazish usullari va o'ziga xos yondashuvlarini, ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishish uchun

sinalgan metodikalarni o'zlashtirishga tayyorgarlik har bir zamonaviy o'qituvchining faoliyatida zaruriy kompetensiyalarga aylanib bormoqda.

Xo'sh, kompetensiya nima? Kompetensiya so'zi "to compete" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "musobaqalashmoq", "raqobatlashmoq", "bellashmoq" degan ma'noni bildiradi. So'zma-so'z tarjima qilinsa "musobaqalashishga layoqatlilik" ma'nosini bildiradi. Atamaning mohiyati shuningdek, "samaradorlik", "moslashuvchanlik", "yutuqlilik", "muvaffaqiyatlilik", "tushunuvchanlik", "natijalilik", "uquvlilik", "xossa", "xususiyat", "sifat", "miqdor" kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda [2].

Kompetentlik – bu faqatgina o'zlashtirilgan bilimlar va tajribalarning mavjudligi hamda salmoqli hajmi bo'libgina qolmay, balki, ularni kerak vaqtda qo'llay olish va o'zining xizmat vazifalarini bajarish jarayonida ulardan foydalana olish demakdir.

Kompetentlik - ijtimoiy amaliyot ko'rinishidagi bilim va ko'nikmalarning mavjudligi bo'lib, u ta'lim jarayoni natijalariga ijtimoiy-madaniy talablar va jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar kasbiy tajribalari shakllanganligining muayyan darajasi demakdir [3].

Ta'lim vazifalarini amalga oshirishda, belgilangan maqsadlarga erishish uchun kompetensiyalar muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunday kompetensiyalardan biri kommunikativ kompetensiyadir.

Kommunikativ kompetensiya muammosi jamiyatning yangi munosabatlar tizimiga qayta yo'naltirilishi munosabati bilan turli xil gumanitar fanlar vakillarining (faylasuflar, filologlar, tilshunoslar, sotsiologlar, ijtimoiy psixologlar, o'qituvchilar) e'tiborini tortadigan dolzarb masalalardan bo'lib bormoqda. Ta'im tuzilmalarini insonparvarlashtirishga, didaktik jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi sub'ekt-sub'ekt munosabatlarida kommunikativ kompetensiyaning mohiyatini va uning tarkibiy qismlarini aniqlash, o'rganish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda ta'lim tizimida, jumladan, o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy hamda amaliy asoslarini yaratishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

O'qituvchining kommunikativ kompetensiyasi bu kasbiy ahamiyatga ega, integral sifat bo'lib, uning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardir: hissiy barqarorlik (moslashuvchanlik bilan bog'liq); ekstraversiya (maqom va samarali yetakchilik bilan bog'liq); to'g'ridan to'g'ri va teskari aloqani loyihalash qobiliyati; nutq qobiliyatlari; tinglash qobiliyati; mukofotlash qobiliyati; noziklik; muloqotni "silliq" qilish qobiliyati [4].

Kommunikativ kompetensiya - bu murakkab muloqot qobiliyatlari va qobiliyatlarga egalik qilish, yangi ijtimoiy tuzilmalarda yetarli malakalarni shakllantirish, muloqotdagi madaniy me'yorlar va cheklovlarni bilish, urf-odatlar, aloqa sohasidagi odob-axloq qoidalarini bilish, odob-axloq qoidalariga hurmat, milliylikka xos bo'lgan kommunikativ vositalardan foydalanish layoqatidir.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish mezonlari asosiy funksiyalarga mos kelishi va quyidagi ko'nikmalarni aks ettirishi kerak:

- og'zaki va og'zaki bo'lmagan ma'lumotlar almashinuvini amalga oshirish, shuningdek, suhbatdoshning shaxsiy xususiyatlari va fazilatlarini diagnostika qilish qobiliyati;
- strategiya, taktika va texnikani ishlab chiqish, odamlar bilan muloqot qilish, muay-

yan ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarga erishish uchun ularning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish qobiliyati;

- o'zini suhbatdosh bilan tanishtirish, uning o'zini aloqa sherigi tomonidan qanday qabul qilinishini va unga empatik munosabatda bo'lishini tushunish qobiliyati.

O'qituvchining kommunikativ kompetensiyasining yuqori darajasi uning barcha tarkibiy qismlarini har tomonlama rivojlantirishni va muloqot qilish usullaridan foydalanishni nazarda tutadi. Kommunikativ kompetensiya - bu umumiy madaniyatni va uning kasbiy faoliyatdagi o'ziga xos ko'rinishlarini sintez qiladigan yaxlit sifatdir.

O'qituvchining kommunikativ kompetensiyasini tashkil etuvchi ko'nikmalar majmuasi kommunikativ vaziyatni tahlil qilish va baholash, maqsad qo'yish, rejani amalga oshirish va uni tuzatish vositalarini tanlash va ishlatish, natijaning samaradorligini baholash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

O'qituvchining samarali kasbiy faoliyati uchun kommunikativ kompetensiya darajasi quyidagi qobiliyatlardan iborat: muloqot qilish uchun kommunikativ vaziyatning ijtimoiy-psixologik prognozini berish; kommunikativ vaziyatning o'ziga xosligidan kelib chiqib, muloqot jarayonini dasturlash; muloqot jarayonlarini ijtimoiy-psixologik boshqarishni amalga oshirish; turli xil psixologik masofalarda aloqa o'rnatish; psixologik pozitsiyalarni o'zgartirishda moslashuvchanlik.

O'qituvchining muhim kommunikativ fazilatlariga qatoriga quyidagilar kiradi: odamlar bilan muloqot qilish, xushmuomalalik, nizolarni samarali hal qilish qobiliyati, og'zaki va og'zaki bo'lmagan aloqa vositalarida ravonlik, qulaylik, mantiqiy va aniq nutq, xushmuomalalik; hazil tuyg'usi va boshqalar.

Kommunikativ kompetensiyani egallashning asosiy manbalari quyidagilardir: muloqot tillarini bilish, ishbilarmonlik, kundalik va bayramona vaziyatlarda shaxslararo muloqot tajribasi; bilim, umumiy eruditsiya va muloqotni o'rgatishning ilmiy usullari. Ushbu manbalardan shaxsning kommunikativ kompetensiyasini tashkil etuvchi kommunikativ bilim va ko'nikmalarning murakkab majmuasi shakllanadi. Ushbu kompleks quyidagilarni o'z ichiga oladi: muloqot normalari va qoidalarini bilish; nutqni rivojlantirishning yuqori darajasi, bu odamga muloqot jarayonida ma'lumotni erkin uzatish va idrok etish imkonini beradi; og'zaki bo'lmagan muloqot tilini tushunish; odamlarning jinsi, yoshi, ijtimoiy-madaniy, maqom xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan aloqa o'rnatish qobiliyati; vaziyatga adekvat munosabatda bo'lish va o'z kommunikativ maqsadlariga erishish uchun uning o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanish qobiliyati; suhbatdoshga uni o'z tomoniga ishontiradigan, dalillarining kuchliligiga ishontiradigan tarzda ta'sir o'tkazish qobiliyati; suhbatdoshni shaxs sifatida, potensial raqobatchi yoki sherik sifatida to'g'ri baholash va ushbu baholashga qarab o'z muloqot strategiyasini tanlash qobiliyati; suhbatdoshda o'z shaxsining ijobiy idrokini uyg'otish qobiliyati.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, kommunikativ kompetensiya o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismidir. Kommunikativ kompetensiya bir tomondan inson qobiliyatlari bilan belgilansa, boshqa tomondan esa, u olingan bilimlar, ko'nikmalar va hatto qadriyatlar yo'nalaishlari bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Konstitutsiya qabul qilinganligining 28 yilligi munosabati bilan O'zbekiston xalqiga bayram tabrigi.
2. Ананьев,Б.Г. Человек как предмет познания / Б.Г.Ананьев. –Л.:Наука, 198. -180с.
3. Зверева Н.М. Преподавателю вуза: практическая педагогика: учебное пособие –Н.Новгород: НГПУ им.К.Минина, 2012.-162с.
4. Qosimov Sh.U. Kasb-hunar kollejlarda amaliy kasbiy ta'limni tashkil etishning metodik asoslarini takomillashtirish / Ped.fan.fal.dok. ...dis. – T., O'MKHTTKMOQTI, 2018. – B. 176.

Raximov Abdurasul Ravshan o'g'li,
Navoiy davlat pedagogika instituti "Musiqqa ta'limi va san'at"
yo'nalishi magistranti, Romitan tuman 1-IDUM
musiqqa fani o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSIQA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA "4K" MODELINI QO'LLASH

Annotatsiya: Bugungi kunda maktab ta'limida o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishda "4K" modelini qo'llash joriy etildi. Ushbu o'quv yilida ilg'or tajribalar asosida yaratilgan boshlang'ich sinf darliklari ham ta'lim oluvchilarda aynan ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Barcha fanlar barobarida musiqqa fani ham shu ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda musiqqa darslarini tashkil etishda 4K modelini qo'llash masalalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'lim, 4K, maktab ta'limi, musiqqa fani, kritik (tanqidiy) fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya, ko'nikmalar.

Har bir o'qituvchi zamon bilan hamnafas bo'lib, o'quvchilarini yangiliklardan o'z vaqtida boxabar qilmog'i lozim. Zamonaviy ta'limning maqsadi ham o'zida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantira olgan avlodni tarbiyalashdir. Musiqqa fani o'qituvchisi sifatida ushbu "4K" modeli bo'yicha tushunchalarimni va tajribamda qo'llaganlarimni o'z hamkasblarim bilan bo'lishmoqchiman.

"4K" – bu o'z nomi bilan 4 ta "C", ya'ni "Critical thinking" - kritik (tanqidiy) fikrlash, "Creativity" - kreativlik, "Coordinating with others" - kooperatsiya yoki kollaboratsiya, "Communication" - kommunikatsiya demakdik. Yanikim, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot kabi ko'nikmalar majmui.

Kritik (tanqidiy) fikrlash – o'quvchilarga berilgan ma'lumotlarni tahlil qilish, xulosa chiqarish, muammolarga yechim topishni o'rgatadi. Axborotni tanqidiy baholash, o'zini boshqara olish, o'z-o'zini tekshirish, o'z fikr-mulohazalarini shakllantirishga yordam beradi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash uchun misollar: Musiqqa ta'limida eng birinchi nazariya – tovush hisoblanadi. Tovushlar ikkiga bo'linadi: musiqiy va shovqinli tovushlar. Aniq balandlikka ega bo'lgan tovushlar – musiqiy, aniq balandlikka ega bo'lmagan tovushlar – shovqinli tovushlar hisoblanadi. Balandlik – bu sodda qilib aytganda biz bilgan notalar. Musiqiy tovushlarga insonning vokal ovozi va cholg'u asboblari misol bo'la oladi. Shovqinli tovushlarga esa tevarak-atrofdagi ovozlari, tabiat hodisalari tovushi va boshqa ko'plab tovushlar misol bo'ladi. Savol: Doira, nog'oraning tovushi qanday tovush? Musiqiy tovush desak, unda aniq balandlik bormi? Doira yoki nog'orada "do, re, mi, fa, sol, lya, si"ni ijro etib bo'ladimi?

Kompozitor va bastakor degan soʻzlarni koʻp eshitganmiz. Koʻpchilik kompozitor yevropacha soʻz, shu soʻzning oʻzbekcha tarjimai bastakor deb oʻylaydi. Lekin kompozitor va bastakorning vazifasi bir-biridan farq qiladi. Kompozitor chet el anʼanalari asosida ijod qiluvchi, bastakor milliy yoʻnalishda ijod qiluvchi ijodkordir. Muhammadjon Mirzayev - bastakor, u ashula, qoʻshiq, milliy cholgʻu asboblari uchun kuy yozgan. Mutal Murhonov – kompozitor, u opera, romans, syuita, kantata yozgan. Savol: Chet elning buyuk musiqachilari (kompozitorlari) Motsart, Betxovenlarning oʻzbek adabiyotlarida, manbalarda bastakor deya taʼriflanishi toʻgʻrimi?

Kreativlik – oʻquvchilarda qiziquvchanlikni oshirish, koʻproq bilishga intilish, mustaqil ishlash, tasavvur doirasini kengaytirish, gʻoyalarni rivojlantirish, yangi yechimlarni taklif qila olish, ijodiy fikrlash va yangilik kiritish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Musiqaning oʻzi ijodkorlik. Chunki u ijod etiladi. Kreativlik koʻnikmasi aynan estetik fanlar orqali rivojlantiriladi. Oʻquvchilar tomonidan notalarning chizilishi, cholgʻularning tasvirlanishi, musiqiy harakatlarning bajarilishi, musiqiy ertaklarning sahnalashtirilishi ijodkorlikning yorqin namunasidir. Oʻquvchilarda ijodkorlikni oshirish maqsadida bolalar cholgʻu asboblari (marakas, buben, treshotka, uchburchak, qoʻngʻiroqcha, shaqildoq va h.k.)ni kundalik mahsulotlardan qoʻlda yasashni va unda ijro etishni oʻrgatish mumkin. Avtomobilni yaxshi koʻrmaydigan bola boʻlmasa kerak. Musiqa nazariyasi (nota yoʻli va unda notalar joylashuvi)ni oʻrgatish uchun kichik mashinalarga nota nomlarini yopishtirib, ularni nota yoʻliga toʻgʻri joylashtirishni oʻrgatish mumkin.

Kollaboratsiya – oʻquvchilarga hamkorlikda ishlay olish, yetakchilik, jamoani shakllantirish, jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Oʻzaro hamkorlik qilish, samarali fikr almashish, muzokaralar olib borish va bir-birini qoʻllab-quvvatlash koʻnikmalarini oʻrgatadi.

Musiqa darslarida hamkorlikda ishlash juda zarur. Hamkorlikda ishlashga eng yaxshi misol jamoa boʻlib kuylashdir. Bu jarayonda oʻquvchi boshqa bolalarni tinglashi, ulardan ilgarilab yoki orqada qolib ketmasligi zarur. Xor ijrosida ham xuddi shu talablar mavjud. Jamoada ishlashni xor jamoalari, ansambllar, orkestrlar, raqs dastalari misolida tushuntirish mumkin. Musiqiy topshiriqlarni bajartirishda oʻquvchilarni jamoalarga boʻlib ishlash kerak. Bir jamoada past oʻzlashtiruvchi hamda yuqori darajada oʻzlashtiruvchi oʻquvchini birlashtirsak, hamkorlikda ishlashlari natijasida bilimlarni shakllantirishimiz mumkin. Buning natijasida siz bergan savollarga faqat “aʼlochi”lar javob bermaydi. Yoki “javobini bilgan oʻquvchilar jim oʻtirsin”, deyishga hojat qolmaydi.

Kommunikatsiya – oʻquvchilarni oʻzgalar bilan muloqotga kirishish, muloqotdan choʻchimaslik, savol berish, savollarga javob berish, suhbatdoshini tinglash, uni tushunish, suhbatdoshga moslashish, oʻz fikrlarini aniq va ravon ifodalashga, dalillashga oʻrgatadi.

Muloqot musiqada ham juda muhim ahamiyatga ega. Oʻquvchida muloqot koʻnikmalarini rivojlantirishning yana bir vositasi sahnalashtirish faoliyatidir. Bunda bola maʼlum bir obrazga kirib, muloqotdan choʻchimaydi, fikrini aniq, ravon bayon etadi. Kommunikatsiyaning nechogʻlik ahamiyatli ekanini xor va orkestrda dirijyorning vazifasi bilan ham koʻrsatish mumkin. Dirijyorning “muloqoti” har bir ijrochi uchun juda zarur. Mu-

siqa darslarida “Mikrofon” metodidan foydalanib, o‘quvchilarni faol muloqotga jalb etish mumkin.

Biz yuqorida ko‘rib chiqqan yangi yondashuvni qo‘llay olish asosan o‘qituvchilarga bog‘liq. O‘qituvchi izlansa, o‘z ustida ishlasa, o‘quvchilarda zamonaviy, hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga harakat qilsa, albatta, o‘z ishida natijani his qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musiqa fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar [Matn]: monografiya / Umurova Ma‘rifat Yoshiyevna, Raximov Abdurasul Ravshan o‘g‘li – Buxoro: “Sadridin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, - 2022. – 136 b.
2. “Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy metodikasi” dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo‘llanmasi. Toshkent – 2023

SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA MANTIQUIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada sinfdan tashqari mashg'ulotlarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning samarali usullari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: sinfdan tashqari mashg'ulotlar, qiziquvchi o'quvchilar, dastur, konsepsiyasi, kichkina guruhlar, didaktik o'yin, hayratlanish.

Sinfdan tashqari ishlar bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining ajralmas qismi bo'lishi bilan birga, o'quvchilarni bilimga va mehnatga bo'lgan havaslarini orttiradi, shuningdek, o'zlashtirish sifatini oshirishga va xulqini yaxshilashga ta'sir etadi.

Matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar deganda o'quvchilarni matematik bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida tashkil qilingan mashg'ulotlarni tushunamiz. Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to'ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi matematik bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iborat.

Sinfdan tashqari ishlarining ikki turini bir-biridan farqlash lozim. Birinchisi dastur materialini o'zlashtirishda orqada qoladigan o'quvchilar bilan ishlash, bunga qo'shimcha dars va konsultatsiyalar kiradi. Ikkinchisi, matematikani o'rganishga qiziquvchi o'quvchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlardir [1].

Ma'lumki, birinchi tur mashg'ulotlar hozirgi vaqtda barcha maktablarda mavjud. Bunda mashg'ulotlarni 3-4 o'quvchidan iborat kichkina guruhlar bilan haftada bir marta o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Odatda sinfdan tashqari ishlar deyilganda ko'proq ikkinchi turdagi ishlar nazarda tutiladi va ular asosan quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

1. O'quvchilarning matematikadan dastur bo'yicha bilimlarini kengaytirish;
2. O'quvchilarda matematika va uning tadbirlariga qiziqish uyg'otish;
3. Matematik fikrlash madaniyatini tarbiyalash;
4. O'quvchilarning matematikaning tarixiy-ilmiy qimmatini haqidagi, matematika maktabining dunyo fani orasidagi roli haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.
5. O'quvchilarni matematikadan ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish;

6. O'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish.

Maktab ta'limida matematikadan sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari uchraydi:

1. Qiziqarli matematika soatlari va minutlari;
2. Matematik to'garaklar uyushtirish;
3. Matematika gazeta chiqarish;
4. Ekskursiya tashkil etish;
5. Matematik burchak tashkil qilish;
6. Matematika kechalari o'tkazish;
7. Matematika olimpiadasi o'tkazish;
8. Turli xil tadbirlar: "Quvnoqlar va zukkolar", "Xotira" turneri, "Matematik bellashuv"lar;
9. Matematik olimlar bilan uchrashuvlar;
10. Matematik munozara va tanlovlar o'tkazish.

O'quvchilar yuqori sinflarda matematika, fizika, kimyo va boshqa fanlarni yaxshi o'zlashtirishlari uchun boshlang'ich sinflarda matematika fanini puxta egallashi va amaliy ko'nikmalar hosil qilishlari kerak [2].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ma'lumotini oshirish va darslarni o'zlashtirish darajasini ko'tarishga ko'maklashish uchun, boshlang'ich ta'limda sinf mashg'ulotlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarni ham o'tkazish zarur. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi. Sinfdan tashqari ishlar maktab ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini yo'lga qo'yish formalaridan biridir.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning turlari bolaga o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga, yordam beradi. Bolaning turli xil tadbirlarda o'zini sinab ko'rishini uning tajribasini boyitadi va o'quvchi amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi. Bu esa o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarning o'ziga xosligi shundaki, to'garak, klub dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o'smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ngillilik asosida tashkil qilinadi. O'quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlab olishadi va ularda mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan "Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar" konsepsiyasi 1993-yilda tasdiqlangan bo'lib unda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'qituvchining yo'naltiruvchi ta'siri ostidagi o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish asosiga qurilgan va fan kabinetlarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o'tkaziladigan mustaqil mashg'ulotlar yetakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda sinfdan tashqari ishda ta'limning moddiy bazasi: qo'shimcha va ma'lumotnoma adabiyotlari, laboratoriya uskunalari, ko'rgazmali qo'llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona foydalanish ko'zda tutiladi. Sinfdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga aktiv faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga

egaligi sababli unda ishtirok etish o'quvchilar qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ngillilik asosida mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishiga asoslanadi.

Ma'lumki, sinfdan tashqari ishlarning shakllari quyidagilardan iborat:

1. Og'zaki ish usullari: turli axborotlar, ma'ruzalar, kitobxonlar konferensiyalar, munozaralar, uchrashuvlar, radiojurnallar.

2. Amaliy ish olib borish usullari: turli joylarga sayohatlar, fanga doir musobaqalar, olimpiada, turli xil tadbirlar, to'garaklar, kechalar.

3. Ko'rgazmali ish usullari: videodarslar, ustoz va shogird xonasi, yangi kitoblar ko'rgazmalari, tarqatma va slaydlar, didaktik o'yinlar [3].

Ta'lim jarayonida turli usullardan foydalaniladi. Lekin, bir usul borki, bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi yaqinlikni ta'minlaydi, darsning mana shu jarayoni "o'yin" deb ataladi.

Bunda deyarli barcha o'quvchilar qatnashadilar va harakat qiladilar. Bu jarayonda o'quvchilar nimadir o'rganadilar. Bunda hamma harakat qiladi, a'lochi ham, o'rta o'quvchi ham, darsda passiv qatnashuvchi ham sergak tortadi.

Chunki sinfda o'tirgan bolajonlar yaqinida o'yinlar olamidan kelgan. Agar o'qituvchi ta'limiy o'yinlarni o'ylab qiziqarli qilib o'tkazsa bolada "hayratlanish" tuyg'usi uyg'onadi, ta'lim-tarbiyaning ana shu jarayoni o'quvchilarning yodidan chiqmaydi va o'yindan ko'zda tutilgan maqsad shakllana boradi.

Yuqoridagilarni amalga oshirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati beqiyosdir. Sababi o'yin faoliyati hamma yoshdagi o'quvchilarning asosiy sevimli mashg'uloti bo'lib, undan hamma rohatlanadi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'ynaladigan o'yinlarni shartli ravishda katta ikki guruhga bo'lsa bo'ladi:

1. Ma'lum mavzu bilan bevosita bog'liq bo'lgan o'yinlar;

2. Ma'lum mavzu bilan bevosita bog'lanmagan, ammo o'rni-o'rni bilan o'ynaladigan o'yinlar:

Quyida e'tiboringizga "**Tug'ilgan kun, oy, va yoshingizni topish**" degan didaktik o'yin tartibi bilan tanishamiz.

1. Tug'ilgan oyning tartib raqamini 100 ga ko'paytiring;

2. Ko'paytmaga tug'ilgan kuningiz sanasini qo'shing;

3. Chiqqan yig'indini 2 ga ko'paytiring;

4. Natijaga 8 ni qo'shing;

5. Chiqqan javobni 5 ga ko'paytiring;

6. Ko'paytmaga 4 ni qo'shing;

7. Natijani 10 ga ko'paytiring;

8. Javobga 4 ni qo'shing;

9. Yig'indiga yoshingizni qo'shing va menga so'ngi natijani aytsangiz bas....

Mohiyati:

1. Yanvarda tug'ilganman, bu oyning tartib raqami 1, uni 100 ga ko'paytiraman:
 $1 \times 100 = 100$

2. 20-yanvarda tug'ilganman, demak: $100 + 20 = 120$

3. 2 ga ko'paytiraman: $120 \times 2 = 240$

4. 8 ni qo'shaman $240 + 8 = 248$

5. Buni 5 ga ko'paytiraman: $248 \times 5 = 1240$
6. Bunga 4 ni qo'shaman: $1240 + 4 = 1244$
7. Natijani 10 ga ko'paytiraman: $1244 \times 10 = 12440$
8. Bunga 4 ni qo'shaman: $12440 + 4 = 12444$
9. Yig'indiga yoshim 15 ni qo'shaman: $12444 + 15 = 12459$
10. So'nggi natija 12459 bo'ldi.

Oxirgi natijadan har doim 444 ni ayiraman:

$12459 - 444 = 12015$ Bunga ko'ra 01-tug'ilgan oy: 20 tug'ilgan kun, 15 yoshni bildirib
"Men 20 yanvarda tug'ilganman. Yoshim 15 daligini anglatadi.

O'yinlar ikki xil ahamiyatga ega bo'lib, ular ta'limiy va tarbiyaviydir.

Ta'limiy ahamiyati shundaki, bolalarda o'qituvchi tomonidan berilayotgan bilim, ko'nikma, malakalar o'yin orqali o'zlashtiriladi. Bolalarga singdirilayotgan bilim, ko'nikma, malakalar orqali axloqiylik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi sifatlar shakllantiriladi va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Ta'limiy o'yinlarning bir necha turlari mavjud. Ular grammatik, deduktiv topishmoqli, muammoli o'yinlardir.

Hozirgi vaqtda izlanuvchan va tajribali o'qituvchilar bilish faoliyatini jadallashtirishda ta'lim jarayonini didaktik o'yin bilan uyg'unlashtirib samarali natijalarga erishmoqdalar.

Didaktik o'yinli dastur yangi mavzuni bayon qilish, mustahkamlash, bolalar bilimini sinab ko'rish va baholash jarayonida qo'llanilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarni yakama-yakka, keyinchalik guruhli o'yinlarga tayyorlashi, ular muvafaqqiyatli chiqqanidan so'ng ommaviy o'yin darslarini o'tkazishi kerak.

Chunki, o'quvchilar didaktik o'yin darslarida ishtirok etish uchun kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni egallagan bo'lishlari zarur.

Xulosa, bolaning o'qituvchini aytganini takrorlab loqayd o'tirganidan ko'ra, qanday bo'lsa ham fikr yuritgani mehnat qilgani ma'qul. Ana shuning uchun ham bolaga o'yin orqali bilim berishni amalga oshirish kerak. Bolalarga faqat jiddiy dars beraverish, ustma-ust nazariy bilimlar berish, qoidalar bilan qurollantiraverilishi ularni zerikishga olib keladi va bezillatib qo'yadi. Aqliy zo'riqishdan charchagan bola o'qimay qo'yadi. O'qimagan bola fikrlamasdan ham qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P.Мавлонова, О.Тўраева, К.Холиқбердиев. "Педагогика" Т., "Ўқитувчи" 2002.
2. А.А.Абдуҳодиров ва бoshq. "Та'limda innovatsion texnologiyalar". Iste'dod jamg'armasi, 2008.
3. А.Жо'rayev "Tarbiyaviy darslar o'tish". – Т.: O'qituvchi – 2010.

Uzoqova Hadicha Jalilovna,
*Toshkent shahar Olmazor tumani 326-xorijiy tillarga
ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYA FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK VOSITALARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan hamda tarbiyapula darslarini tashkil etishda didaktik vositalardan samarali foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, modernizatsiya, konsepsiyasiya, didaktik vosita, klassifikatsiya, fazilat, kompetensiya.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham keskin o'zgarishlar yuz bermoqda. Yangi O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-ma'naviy jihatdan mustahkamlash va takomillashtirish "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" tamoyili asosida kelajakda buyuk davlatga aylantirishning muhim omili bo'lib, uning hozirgi bosqichdagi maqsad va vazifalari Respublikamizning yangi tahrirda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6108-sonli "O'zbekiston ning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farnonida har tomonlama teran belgilab berilgan.

Milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim va ma'rifat egalari shuningdek, jismoniy-ma'naviy sog'lom insonlar qilib tarbiyalash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-sonli "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi shuningdek, 2020-yil 6-iyulda qabul qilingan 422-sonli "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlarida mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasida "Tarbiya" fani konsepsiyasi mazkur fanni davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo'lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo'naltirildi. Konsepsiya yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo'nalishlarni belgilab beradi.

Hozirgi kunda zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bunda o'quvchilarga muayyan bilimlarni yetkazib berish, ular faoliyatini nazorat qilish va egallagan bilim, ko'nikma, malakalarini baholashga alohida e'tibor qaratiladi. Tabiiyki, ushbu jarayon o'qituvchidan

yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni, ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, uni sifat jihatdan yangi pog'onalarga ko'tarish uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlardan keng va har tomonlama samarali foydalanishni taqozo etadi. Shu jihatdan Tarbiya fani darslarida o'quvchilarni fanga qiziqtirish maqsadida didaktik vositalardan o'rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik vositalar darslarni tashkil etish va ularning sifat-samaradorligini ta'minlashda o'qituvchi-pedagoglarning eng yaqin yordamchisi hisoblanadi. Tarbiya fani darslari uchun didaktik vositalar tayyorlashda o'qituvchi-pedagoglar muayyan talablarga amal qilishlari talab etiladi.

Bular quyidagilar:

- didaktik vositalar, nazariy mashg'ulotlarda o'quvchilarga yangi bilimlarni berish va mavzuga doir o'quv materiallarini tushuntirish, namoyish qilish, tahlil qilish imkonini beradigan;
- didaktik vositalar, amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarda mavzuga doir malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan mashqlar, savollar, topshiriqlarni bajarishda qo'llashda murakkablik tug'dirmaydigan;
- didaktik vositalar, nazorat mashg'ulotlarida o'quvchilarning bilimlarini baholash imkonini beradigan testlar va nazorat ishlarida foydalanish uchun mo'ljallangan;
- didaktik vositalar, sinf va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ham qo'llash imkonini beradigan talablar asosida tuzilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagog-olimlar didaktik vositalar klassifikatsiyasini uch yo'nalishga ajratib ko'rsatadilar. Bular didaktik materiallar, ulardan foydalanish uchun qo'llaniladigan didaktik vositalari, hamda didaktik materiallar va vositalar yordamida ta'limni amalga oshirish uchun loyihalangan majmualar. Har bir yo'nalish bo'yicha ularning tegishli turlari bor.




Tarbiya fanini o'qitishda dars mashg'ulotlarida didaktik vositalardan foydalanish muayyan tartiblarga rioya etishni talab qiladi. Nazariy mashg'ulotlarda o'quvchilarga yangi bilimlar beriladi va beriladigan materiallar barcha uchun umumiy hisoblanadi. Bunda ko'rgazmali va videomateriallardan keng foydalaniladi. Mashg'ulot uchun didaktik materiallar tayyorlanayotgan vaqtda biz mavjud didaktik vositalarni, sinflarning jihozlanganligini, namoyish qilishga ajratiladigan vaqtni, axborotlar takrorlanmasligi va oddiydan murakkabiga qarab joylashtirilishini hisobga olishimiz kerak.

Tarbiya fanida amaliy mashg'ulotlarida o'quvchilarning olgan bilimlari mustahkamlanadi. SHuning uchun bu mashg'ulotlarda qo'llaniladigan materiallar o'quvchilar bilan individual yoki kichik guruhlariga bo'lib ishlashga qaratilishi kerak. Bundan tashqari turli foto, televizion yoki video materiallardan ham keng foydalanish mumkin.

Tarbiya fanini o'qitishda didaktik vositalardan foydalanish o'zining samaradorligi bilan ajralib turadi. O'qituvchi-pedagoglar didaktik vositalarni tayyorlashda muayyan talablarga amal qilishlari lozim. Bular quyidagilardir:

birinchidan, Tarbiya fanida foydalaniladigan didaktik vositalarni ishlab chiqish va tayyorlashga qo'yiladigan talablar to'laligicha o'qituvchi-pedagoglar tomonidan anglab etilishi lozim;

Didaktik vositalarning klassifikatsiyasi.



ikkinchidan, o'quv-tarbiya jarayoniga mos kelishi kerak;
uchinchidan, o'quvchi tomonidan o'quv materiallarining to'liq o'zlashtirilishini ta'minlashiga alohida e'tibor qaratish kerak;

to'rtinchidan, didaktik vositalarni tayyorlashda sinf yoki o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi;

beshinchidan, shakllantirilishi lozim bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan bo'lishi lozim;

oltinchidan, ta'limning kundalik hayot va amaliyot o'rtasidagi bog'liqligini ta'minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirilishiga xizmat qilishi kerak;

Xulosa qilib aytganda, tarbiya fani darslarida qo'llaniladigan didaktik vositalar mas'ulotlarning sifat va samaradorligini oshiradi. Didaktik vositalar yordamida tegishli mavzu o'quvchilarning vizual, audial xotiralariga muhrlanib, fazilatlar, kompetensiyalarni shakllanishi hamda rivojlanib borishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M.“Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. 1-jild.-T.; “O‘zbekiston”. 2017.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059- sonli Qarori 2019-yil 31-dekabr

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-sonli Qarori 2020 yil 6 iyul

4. Ishmuhamedov R.J, Yuldashev. M “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”-T.; “Adabiyot uchqunlari”.2017.

Xasanova Nazokat Xolmuratovna,
Samarqand shahar 29-umum ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

KITOBXONLIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH – DAVLATIMIZ SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHLARIDAN BIRI SIFATIDA

Annotatsiya: Mazkur maqolada kitob ilm olish manbai ekanligi, mutolaa va kitobxonlik madaniyati, kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish sohalaridagi bir qator muammolar va bu muammolar yechimiga ba'zi taklif-mulohazalar bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: kitob; kitobxonlik; mutolaa madaniyati; me'yoriy-huquqiy hujjat; qaror; farmon; ma'naviy va axloqiy yuksalish;

S o'nggi yillarida O'zbekiston da ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarida tub islohotlar jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlat, jamiyat, millat uchun o'ta muhim hisoblangan yosh avlodning ta'lim va tarbiyasiga, intellektual salohiyatli, dunyoqarashi keng, ma'naviy yetuk, fazilatli inson bo'lib shakllanishiga oid sohalarida ham bir qator samarali amaliy ishlar olib borilmoqda.

Ma'lumki, ilm olish manbai kitobdir. Kitobning ilm olish manbai ekanligini asrlar osha hayotning o'zi isbotlab kelmoqda. Shuning uchun ham ko'p millatli xalqimiz, ayniqsa yoshlarning ta'lim-tarbiyasini zamon talablari darajasiga ko'tarish, ularning dunyoqarashini kengaytirish, innovatsion tafakkurini shakllantirish, tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, buyuk ajdodlarimizga munosib avlodni tayyorlash va tarbiyalashimizni davrning o'zi taqazo etmoqda.

Zero, har bir yaratilayotgan yangiliklarning, amalga oshirilayotgan islohotlarning ildizlari millatning tarixidan, boy ma'naviy me'rosidan ozuqa oladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev o'zining Oliy Majlisga murojaatnomasida, - "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta me'ros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir", - deb ta'kidladi [1].

Darhaqiqat, insonning ulkan, o'zgalarga qanchalik ulashsa ham aslo kamaymas boyligi – ilmu zakovatidir, ajdodlar, ota-onalardan eng katta meros- hayotda qoqilmaslik, jamiyatda o'zining munosib o'rnini topishining asosiy omili – yaxshi tarbiyalanganligidir va eng katta qashshoqlik – ilm ziyolarini ko'rishga to'sqinlik qiluvchi, hayot yo'llari mash'alasi yog'dularini ilg'amaslik – bilimsizlikdandir. Zero, inson aql-zakovatga, bilim-ga kitob vositasida, kitobxonlik orqali erishadi.

Bu masalaning dolzarbligi borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev - “Hozirgi paytda hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala, ya’ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi.” [2] deb ta’kidlaydi.

Shuningdek, Davlatimiz rahbari hozirgi davrni “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” deb e’lon qilganligining zamirida qat’iy ishonch va chuqur hikmat mujassam. Negaki, keyingi 10 yilligimiz asl yuksalish va taraqqiyot davri bo‘lishi muqarrar. Zero oxirgi yillarda qabul qilingan va albatta qilinajak qonunlar, farmon va qarorlar, amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar taraqqiyotning yangi ufqlariga asos bo‘ladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturlari” to‘g‘risidagi (PQ-3271., 13.09.2017y.), “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PQ-5040., 26.03.2021y.) Qarorlari xalqimiz o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e’tibor berilayotganligidan dalolatdir. Qayd etilgan normativ-huquqiy hujjatlar qatorida yana Prezidentimizning 2019 yilning 19 martidagi beshta muhim tashabbusining ahamiyatini alohida ta’kidlash joizdir. Mazkur besh tashabbusning to‘rtinchisi – “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish”, - xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz tomonidan qizg‘in kutib olindi. Yuqoridagi qarorlarning ijrosi bo‘yicha joylarda “Kitobxonlik haftaligi”, “Eng kitobxon maktab”, “Eng kitobxon mahalla”, “Eng kitobxon oila”, “Eng faol kutubxonachi” kabi turli ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilmoqda. Shahar va tumanlarda kitob do‘konlari, ko‘chma kitob yarmarkalari tashkil etilmoqda. Prezidentimiz o‘zi na’muna ko‘rsatib, viloyatlarga tashriflari chog‘ida badiiy kitoblar berish aksiyasini boshlab berdi va u qo‘llab-quvvatlanmoqda. “Ma’naviyat karvoni”ning viloyatlarga tashriflari an’anaga aylandi.

Davlatimiz rahbarining “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (PF-6208, 20.04.2021y.) Farmonida joriy yilning 1-iyunidan davlat oliy ta’lim muassasalariga 10 tagacha mahalla fuqarolar yig‘inlari birlashtirilib, ushbu mahallalarda yashaydigan uyushmagan yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish, shu jumladan ularni xorijiy tillar, kompyuter savodxonligi, sport, madaniyat va kitobxonlik to‘garaklariga jalb qilish choralari ko‘rilishi belgilab berildi. Darhaqiqat, yoshlar ma’naviy dunyoqarashini shakllanishida kitobxonlikning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Bu boradagi ishlarning to‘g‘ri tashkil etilishi o‘quvchi-yoshlarda mutolaa va kitobxonlik ko‘nikmasini shakllanishi bilan kechadigan jarayondir.

Mutolaaga qiziqishning susayishi, o‘z navbatida, aholi savodxonligi darajasi pasayishi, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi uchun katta tahdidlardan sanaladi.

Zotan, hayotda o‘z isbotini topgan “Kitob ilm va xikmat manbai” ekanligining qadriga yetgan har qaysi davlatning, millatning ilg‘or vakillari butun umrini kitob mutolaasiga baxshida etishganligiga hech shubha yo‘q.

Mutolaa madaniyati keng qamrovli tushuncha bo'lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob va u bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo'lishni, shuningdek, kitobdan to'la ravishda foydalanishga yordam beruvchi ko'nikma va malakaga ega bo'lishni taqozo etadi.

Mutolaa madaniyatini shakllantirish asosida "kitobxonlik madaniyati" tarkib topiriladi. Chunki aynan o'qish madaniyatini egallagan shaxsga nisbatan "kitobxon" atamasini qo'llash mumkin. Kitobxonlik madaniyati o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanib qolmasdan, balki u tushunib o'qish, o'qilgan kitobning ahamiyatini anglab yetish, o'z faoliyatida qo'llay olishga doir amaliy faoliyat tajribasini o'zida aks ettiradi. Ana shu sababli kitobxonlik madaniyati fan darajasiga ko'tarilishi, nafaqat kitob mutolaasini targ'ib etish, balki muntazam kitob o'qishga odatlanish, o'qish uchun kitobni to'g'ri tanlay olish, voqelik bilan dialogga kirishish asosida o'z-o'zini anglashga erishish o'ta muhimdir.

Haqiqatan, kitob ilmi orqaligina inson o'zining bilimini oshiradi, kashfiyotlar qiladi, dunyoqarashi kengayadi, axloqiy tarbiya topadi. Kitob o'qish bilan o'zi uchun yaratilgan dunyoni tafakkur etadi, anglab yetadi, uni avaylab asraydi, qadrlaydi.

Davlat tomonidan xalqimiz, ayniqsa yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, uni qo'llab-quvvatlash borasida aniq va maqsadli ishlarni bajarilishining me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilishiga qaramasdan joylarda bir qator muammolarga duch kelinmoqda:

- so'nggi yillarda umumta'lim muassasalaridagi o'quv darsliklarining sifati va dizayniga e'tibor kuchaytirildi. Xususan, Tarbiya, musiqa fanlari darsliklari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ammo badiiy adabiyotlarga kelsak, bizningcha, ularning jozibadorligidan ko'ra muhimroq bo'lgan - kitobning mazmuniga, g'oyasiga, axloqiy-tarbiyaviy jihatlariga e'tibor sust. Mazmunan sayoz, tarbiyaviy ta'sirchanligi past, yengil-yelpi kitoblar hamon chop etilmoqda;

- kitobxonlar istab-qidirib, topib o'qiydigan asarlar yaratilmayapti. Ayniqsa, yoshlarbop qiziqarli (fantastik, sarguzasht, detektiv, ommabop va boshqa janrlardagi) badiiy asarlar ko'rinmayapti;

- mavjud kitoblarning narx-navosini arzonlashtirish masalasi ham qayta ko'rib chiqish, yengilliklar yaratish choralari izlab topishga muhtoj;

- kitob o'qishga qiziquvchilar ehtiyoji, imkoniyatlarining monitoringini olib borishni tashkil etish lozim;

- mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kutubxonalar, axborot-resurs markazlari, ayniqsa umumta'lim muassasalari kutubxonalarining zamonaviy moddiy-texnika bazasi, kitob fondi talab darajasida emas. Ular ustidan birinchi rahbarlarning nazorati, qiziqishi va mas'uliyati yetarli emas va h.k.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ba'zi taklif-mulohazalar:

- mutassaddi tashkilotlar (tayyorlovchi, nashr etuvchi) tomonidan boy mazmunli, milliy mentalitetimizga mos bo'lgan badiiy asarlarni yaratish, adiblarni qo'llab-quvvatlash, toki, kitobxon kitobni izlasin, muallif o'quvchini emas!

- jahon adabiyotining eng sara kitoblarini o'zbek tiliga tarjimasini ko'paytirish;

- kitoblarning narx-navosi masalasi-davlat tomonidan, har bir tashkilot, muassasalar

kasaba uyushmalari hisobidan arzonlashtirish choralarini qayta ko'rib chiqish maqadga muvofiq bo'lardi;

- kitobxonlikni oshirishga qaratilgan ibratli tadbirlar, ko'pincha poytaxtda, viloyat, qo'ying-ki shahar va tumanlarda o'tkazilmoqda. Bu kabi amaliy ishlarni quyi bo'g'ing-larda, hattoki oilalarda jonlantirish mexanizmlarini izlab topish, bir so'z bilan aytganda - kitob o'qish fuqaro uchun "majburiy bo'lmasin", balki uning ijtimoiy-ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojiga aylansin!

Zero, muhtaram Prezidentimiz o'zining Oliy Majlisga murojaatnomasida, - "Uchinchi Renessansning...poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak",- deb ta'kidladi.

Darhaqiqat, davlatimiz tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Endilikdagi xalqimiz, millatimiz oldida turgan vazifa – buyuk ajdodlarimizga munosib yoshlarni tarbiyalashdir. Yoshlarimizning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish tufayligina bunday ulug'vor maqsadga erishiladi. Jamiyatda kitobxonlikning o'sishi, avvalo, shaxsning ma'naviy va axloqiy yuksalishi omilidir. Bu esa xalqimizning intellektual salohiyati o'sishiga, inson resurslari sifati oshishiga, respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy hamda innovatsion taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Шавкат Миромонович Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2017.

2. "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida".(PQ-3907., 14.08.2017y.)

3. "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida". (PQ-3271.,13.09.2017y.)

4. "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". (PQ-5040., 26.03.2021y.)

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbusi".(19.03.2019 y.)

6. Islom. Ensiklopediya: -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 295-bet.

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING REFLEKSIV KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy faoliyatda o'ta zarur bo'lgan reflektiv kompetentlikni oliy ta'lim darslarida integrative yondashuv asosida rivojlantirishning mazmuni haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi, integratsiya, integrative yondashuv, kompetentlik, refleksiya, reflektiv kompetentlik, reflektiv kompetentlikni rivojlantirish.

Hozirda bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentliligini shakllantirishning zamonaviy yondashuvni ishlab chiqish, integrativ ta'lim muhitini yaratishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga fanlarni o'qitishda integrativ yondashuvni shakllantirish asosida maktablarning ta'lim jarayonini yuqori darajaga olib chiqishni ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda[1]. Ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy dunyoqarashini kengaytirish hamda ularni bilim sifatini oshirish jarayonida integrativ yondashuvni pedagogik ta'lim mazmuniga keng tatbiq etish, shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ta'lim berishning samarali ko'rinishiga tayyorlash tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy ta'lim rivojlanishining asosiy tendensiyalariga: insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, intensivlashtirish, hamkorlik hamda integratsiya kirib ketadi.

“Integratsiya” atamasiga qo'yidagilar kiradi:

1. Alohida differensial tizimlar va tizimning funksiyalari, organizmning bir butunga bog'liqligi holatini, shuningdek, bunday holatga olib keladigan jarayonni anglatuvchi tushuncha.

2. Ularni farqlash jarayonlari bilan bir qatorda fanlarning yaqinlashuvi va aloqasi jarayoni.

Pedagogika fani uchun “integratsiya” atamasi nisbatan yangi, ammo, shunga qaramay, pedagogik adabiyotlarda pedagogikada bilimlarni integratsiyalash muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlar mavjud[3].

Dastlab ta'limda integratsiya g'oyasi pedagogika fanining klassiklari - Y.A. Komens-

kiy, I.T. Pestalotssi, A. Disterveg, K.D. Ushinskiy asarlarida tizimli va izchil o'rganish va ushbu maqsadlar uchun fanlararo va fanlararo aloqalardan foydalanish talablari shaklida asoslandi va rivojlandi.

Psixologlar va pedagoglar o'z tadqiqotlarida integratsiyaning ayrim jihatlariga bir necha bor murojaat qilganlar. Zamonaviy psixologik va pedagogik adabiyotlarda o'quv jarayonida integratsiyaning ayrim muammolari bo'yicha juda keng materiallar to'plangan:

– falsafiy adabiyotlarda: fanlar va ilmiy bilimlar integratsiyasi muammosini ochib beradigan fundamental asarlar (B.M. Kedrov, N.T. Kostyuk, M.G. Chepikov, B.G. Yudin va boshqalar.);

– psixologik va pedagogik adabiyotlarda: I.D. Zverev, V.K. Kirilova, V.N. Maksimova, M.N. Skatkin, Y.S. Tyunnikov, Y.K. Dik, V.V. Usanov, M.N. Berulava[5].

Refleksiya tushunchasi lotin tilidagi “reflexio” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “orqaga nazar, aks ettirish” degan ma'nolarni anglatadi. Refleksiv faoliyat har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o'z xatti-harakatlari va ularning qonuniyatlarini anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shakli hisoblanib, inson ma'naviy dunyosining o'ziga xos yashirin xislatlarini ochib beradigan o'z-o'zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir[6].

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida refleksiv kompetentlikni rivojlantirishning metodologik asosini mazkur jarayonni o'zaro aloqador, bir-birini to'ldiruvchi va davom ettiruvchi tarkibiy asoslardan iborat umumiy yaxlit pedagogik tizim sifatida talqin qilish imkonini beruvchi tizimli yondashuv tashkil etadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integratsiyalashgan darslarni o'tkazish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish talabalarning o'quv materiallarini idrok etish samaradorligini ta'minlaydigan turli xil o'quv shakllarini talab qiladi. Integratsiyalashgan darslarning paydo bo'lishi zarurati bir qator sabablar bilan izohlanadi:

- birinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'rab turgan dunyo ular tomonidan xilma-xilligi va birligi bilan tanilgan va ko'pincha bu bolalikning individual hodisalarini o'rganishga qaratilgan ta'lim siklining subyektlari butun hodisa haqida tasavvur bermaydilar, uni turli xil bo'laklarga ajratadilar;

- ikkinchidan, integratsiyalashgan darslar boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'z salohiyatini rivojlantiradi, ularni atrofdagi haqiqatni faol anglashga, sabab-oqibat munosabatlarini tushunishga va topishga, mantiq, fikrlash va kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga undaydi;

- uchinchidan, integratsiyalashgan darslarning shakli nostandart va qiziqarli hisoblanadi.

Dars davomida turli xil faoliyat turlaridan foydalanish talabalar e'tiborini yuqori darajada qo'llab-quvvatlaydi, bu esa darslarning yetarli samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[5]. Integratsiyalashgan darslar muhim pedagogik imkoniyatlarni ochib beradi. Bunday darslar turli tadbirlarga o'tish orqali o'quvchilarning charchoqlarini, ortiqcha zo'riqishini yo'qotadi, bilim qiziqishlarini keskin oshiradi, maktab o'quvchilarida tasavvur, diqqat, fikrlash, nutq va xotirani rivojlantirishga xizmat qiladi;

- to'rtinchidan, zamonaviy jamiyatdagi integratsiya ta'limda integratsiya zarurligi-

ni tushuntiradi. Zamonaviy jamiyat yuqori malakali, yaxshi o'qitilgan mutaxassislarga muhtoj. Ushbu yehtiyojni qondirish uchun quyi sinflardan ma'lumotli, yaxshi o'qitilgan mutaxassislarni tayyorlashni boshlash kerak, bu esa boshlang'ich sinflarda integratsiyalashuv orqali osonlashadi;

- beshinchidan, fanlararo aloqalarni mustahkamlash tufayli qo'shimcha amaliy mashg'ulotlar uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan o'quv soatlari ajratiladi;
- oltinchidan, integratsiya o'z-o'zini anglash, o'zini namoyon qilish, o'qituvchilarning ijodkorligi uchun imkoniyat yaratadi, qobiliyatlarni ochib berishga yordam beradi.

Xulosa qilishimiz mumkinki, integratsiyalashgan darslar o'quvchiga o'zi yashaydigan dunyo, hodisalar va obyektlarning o'zaro munosabati, o'zaro aloqasi, turli xil moddiy va badiiy madaniyat dunyosi haqida juda keng va yorqin tasavvur beradi. Asosiy e'tibor ma'lum bilimlarni o'zlashtirishga yemas, balki fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan.

Integratsiyalashgan darslar o'quvchilarning ijodiy faoliyatini majburiy rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi[4]. Bu barcha o'quv fanlari mazmunidan foydalanishga, atrofdagi hayot hodisalari va voqealarga murojaat qilib, fan, madaniyat, san'atning turli sohalari-dan ma'lumotlarni jalb qilishga imkon beradi.

Shunday qilib, integratsiyalashgan ta'lim bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyati uchun yangi shart-sharoitlarni yaratadi, bu o'zaro bog'liq fanlar muammolariga o'zlarini singdirishga yordam beradigan ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun zarur shart sanaladi.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining reflektiv kompetentligini rivojlantirishga doir empirik-analitik tadqiqot natijalari mazkur jarayonni tashkil etish modeli va pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish uchun asos sifatida xizmat qiladi. Navbatdagi paragraflarda mazkur masalalarga to'xtalib o'tamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T., 2017. – 18-son, 313-modda; 19-son, 335-modda; 24-son, 490-son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 637-son Qonuni. – T., 2020.
3. [Панфилов А.Н. Интеграция педагогического и психологического знания как основа профессионально-педагогической подготовки учителя: Методическое пособие.- Елабуга: ЕГПИ,2001]
4. [Педагогические технологии / Под общей редакцией В.С.Кукушина. М.-Ростов н/Д: MapT,2004].
5. Khayitov, A. I., Mirkholikova, C. K., Tursunova, M. B., & Baltamuratova, A. P. (2023). Pedagogical-Psychological Characteristics of Development of Reflective Competence of Future Primary Class Teachers. *Journal of Advanced Zoology*, 44(S-2), 1809-1818.
6. Психолого-педагогический словарь: Для учителей и руководителей образовательных учреждений. Авт. - сост. В.А. Мижериков. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1998. – 540 с.
7. HAYITOV, A. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi.

Abrorxonova K.A.,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Kasimova O.A.,
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANIB BORISHLARIDA PEDAGOGIK IMPROVIZATSIYANING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik improvizatsiya kompetensiyasi, ta'lim tizimidagi pedagogik improvizatsiyaning ahamiyati, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatida improvizatsiyani amalga oshirish yo'llari haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, improvizatsiya, pedagogik improvizatsiya, improvizatsiya xarakteri, pedagogik muloqot, pedagogik ijodkorlik, ijodkorlik, improvizatsiya mezonlari.

Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqat-hiligi, g'oyaviy e'tiqodliligi, o'z kasbini sevishi, bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqat o'qituvchini boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Chunki, uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi, faqat o'qituvchiga, uning kasbiy tayyorgarligiga bog'liq. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'zi o'qitayotgan fanlarni chuqur bilishi zarur. Predmeti va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqishini oshirib, o'qituvchi obro'sini ko'taradi. O'qituvchilar o'quvchi bilimining bu bilimlarni bolalarga yetkaza olish imkoniyatlarini qadrlabgina qolmay, balki uni shu fanga bo'lgan qiziqishini, uning fidoyligini ham taqdirlashadi. O'qituvchining yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. Hozirgi zamon o'qituvchisi milliy qadriyatlarni bilibgina qolmay, uni keng ota-onalar jamoatchiligi ichida, sinfda otashin targ'ibotchisi bo'lishi kerak.

Faoliyatning o'zgargan sharoitlari o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismlariga muvofiq, pedagogik improvizatsiya muayyan darsning maqsadlarini, o'quv materialining mazmunini, uslubiy qabul qilish va muloqotni maqsadga muvofiq ravishda aniqlashtirishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

V.N.Xarkinning fikricha, pedagogik improvizatsiya quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi [7, 264]:

- yaratish va bajarish jarayonlarining mos kelishi yoki ularning minimal bo'shlig'i;
- ularning bevositaligi;
- jamoat xarakteri;
- mantiqiylikning birligi, dastlabki tayanch tushunchasi.

L.Yu. Berixonovanning fikricha, pedagogik improvizatsiya tasodifiy hodisa emas, balki o'qituvchining ijodiy o'qitish faoliyatining tabiiy, ajralmas va juda muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'ylab topilgan narsani optimallashtirishning samarali usuli va pedagogik rejaga muvofiq pedagogik rejani tezkor tuzatish vositasi sifatida ishlaydi. [4,64]

V.I. Zagvyazinskiy ta'kidlaganidek, improvizatsiya yo'qdan paydo bo'lmaydi. Muvaffaqiyatli improvizatsiya faqat yaxshi tayyorlangan zaminda mumkin. Muvaffaqiyatli improvizatsiyaning asosi odatiy vaziyatlarni tahlil qilish tajribasi, qonunlar va tendentsiyalarni bilish, asosli gipoteza asosida bashorat qilishdir. "Ijodkorlik", deb ta'kidladi V. A. Suxomlinskiy, - bu hech qanday tarzda pedagogik jarayon tushunarsiz, faqat sezgiga bo'ysunadigan va oldindan ko'ra olmaydigan narsa degani emas. Faqat aksincha. Aynan nozik oldindan ko'ra bilish, pedagogik jarayonning ko'plab omillari va qonuniyatlari bog'liqligini o'rganish chinakam ustaga rejani bir zumda o'zgartirish imkonini beradi". [5, 196]

Ta'limni rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari, shaxsga qo'yiladigan kasbiy talablarning kuchayishi o'qituvchining ijodiy individualligini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, individual faoliyat uslubini rivojlantirish zaruratini oshirdi. Ijodiy faoliyatning tarkibiy qismlaridan biri pedagogik improvizatsiyadir. Tajribali o'qituvchilar o'z faoliyati davomida turli xil pedagogik muammolarni hal qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ko'plab texnikalarga ega. Ammo shunday vaziyatlar mavjudki, o'qituvchi tezda qaror qabul qilishi, sinfda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda nostandart vaziyatlarda moslashuvchan bo'lishi kerak. [1, 54]

Pedagogik improvizatsiya (lotincha improvisus - kutilmagan) – o'qituvchining yangi echimlarni ishlab chiqish, shuningdek, paydo bo'lgan pedagogik vazifalarga tez, moslashuvchan va aniq javob berish qobiliyati.

Barcha o'qituvchilar o'z darslarida ma'lum bir sxemadan foydalanadilar. Biroq, ular orasida o'zlarini improvizatsiya qilishga - darsning rejalashtirilgan kursidan chetga chiqishga, unga kutilmagan, tayyor bo'lmagan, to'satdan, shu erda va hozir paydo bo'ladigan narsalarni kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydiganlar ko'p. Improvizatsiya jarayonida (kutilmagan vaziyat yuzaga kelganligi sababli) o'qituvchilar uchun turli xil xatti-harakatlar mumkin:

- **tabiiy turi:** samarali improvizatsiya harakatlari o'qituvchi uchun psixologik va hissiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmaydi;

- **stress-transformatsion tip:** yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun shaxsning barcha resurslarini safarbar qilish mavjud;

- **ataylab qochish turi:** o'qituvchining kutilmagan pedagogik vaziyatni bartaraf etishdan ongli ravishda qochishi ("sezmaslik");

- **beixtiyor tormozlovchi turi:** chalkashlik va o'qituvchining harakatlarini to'liq his qilish;

- **hissiy buzilish:** o'qituvchi nazoratsiz, tasodifiy harakat qiladi, ziddiyatni kuchaytiradi, o'zini tuta olmaydi yoki his-tuyg'ularini yashira olmaydi;

- **noadekvat tip:** o'qituvchi o'z his-tuyg'ularini yashiradi, lekin ularni pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tajriba va harakatlarga aylantira olmaydi.

Pedagogik improvizatsiyani faollashtiradigan ichki mexanizm sezgi bo'lib, asosiy harakatlantiruvchi kuch - bu asl pedagogik g'oya va to'g'ridan-to'g'ri ta'lim yoki ta'lim jarayonida paydo bo'lgan yangi g'oya o'rtasidagi nomuvofiqlik, uni amalga oshirishning yanada samarali versiyasi va dars loyihasi (holatlar, hodisalar va boshqalar) va uni amalga oshirishning ob'ekt-sub'ekt shartlari. O'quv jarayonida pedagogik improvizatsiya o'quv aloqasini, uslubiy texnikani, o'quv materialining mazmunini, ta'lim yoki ta'lim maqsadlarini tashkil etish va aniqlashtirishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Pedagogik improvizatsiya mezonlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Ob'ektiv mezonlar

- to'satdan (to'siqning ajablanishi, kutilmagan vaziyatga yoki to'satdan o'zgargan vaziyatga javob berish tezligi, bu harakatning yangiligi, uning g'ayrioddiylik va kutilgan harakatlarga mos kelmasligi);

- zudlik bilan (harakatning darholligi) ;

- yangilik (o'ziga xoslik darajasi);

- oshkoralik (tomoshabinlar, improvizatsiya sheriklarining mavjudligi);

- pedagogik ahamiyati (ta'limga hissa qo'shish, shaxsni rivojlantirish).

2. Subyekt tomonidan improvizatsiyani amalga oshirish mezonlari

- fikr ishini namoyish etish;

- ruhiy va hissiy yuksalish;

- qoniqish hissi.

3. Tomoshabinlar tomonidan idrok etilishidagi improvizatsiya mezonlari

ajablanish (kutilmagan narsaga munosabat);

Ko'tarilgan qoshlar, porloq ko'zlar, beixtiyor imo-ishoralar, mulohazalar, kulish va boshqalar ko'rsatkich bo'lishi mumkin.

Pedagogik improvizatsiyada ijodiy dominantning tarkibiy qismlari diqqat, tasavvur va ilhomdir.

V.A. Kan-Kalik sinfda pedagogik improvizatsiyaning manbasiga qarab beshta variantni aniqladi:

1. Bilvosita induksiya qilingan improvizatsiya (amaliy fikrlash va hissiy barqarorlik muhim rol o'ynaydi);

2. "Ichkaridan" improvizatsiya (o'qituvchining individual ijodiy xususiyatlariga bog'liq);

3. Materialni taqdim etish mantig'idan kelib chiqqan improvizatsiya (pedagogik fikrlashning faol ishtiroki orqali amalga oshiriladi);

4. Introspektsiya va sinfiy idrokga asoslangan improvizatsiya;

5. Pedagogik kashfiyot bilan chegaralangan improvizatsiya ("pedagogik idrok" natijasi).

V.N. Xarkin pedagogik improvizatsiya to'rt bosqichda amalga oshiriladigan murakkab jarayon ekanligini ta'kidlaydi.[7,114]

1-bosqich - insight (insight). Bu bosqichda g'oyaning kutilmagan intuitiv kashfiyoti, original harakat, paradoksal fikr va boshqalar sodir bo'ladi. Ko'pincha tushuncha nostandart vaziyatda yoki hissiy ko'tarilish fonida paydo bo'ladi.

2-bosqich - g'oyani intuitiv va mantiqiy tushunish va uni amalga oshirish usulini tanlash.

3-bosqich - g'oyani intuitiv va mantiqiy tuzatish bilan ommaviy amalga oshirish.

4-bosqich - improvizatsiya natijasini bir zumda intuitiv-mantiqiy tahlil qilish. Improvizatsiya yoki qayta qurish faoliyatini davom ettirish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Biz pedagogik ijodning tarkibiy qismi sifatida pedagogik improvizatsiyaning xususiyatlariga qisqacha to'xtalib o'tdik. Ijodiy pedagogik faoliyatni o'qituvchining faoliyat sharoitiga, o'z ijodiy salohiyati va farovonligiga, o'quvchilar jamoasining kayfiyatiga, pedagogik rejani o'z vaqtida amalga oshirish va tuzatish qobiliyatisiz to'liq amalga oshirib bo'lmaydi ya'ni improvizatsiya qilishni maqsadga muvofiq va pedagogik jihatdan asoslash qobiliyatisiz amalga oshirish mushkul.

Demak, darsning pedagogik loyihasi va uni amalga oshirishning yangi, kutilmagan, to'satdan paydo bo'luvchi holatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilishning samarali vositalarini topishning tabiiy ehtiyoji mavjud. Bu pedagogik improvizatsiya bo'lib, u o'ziga xos "tartibga soluvchi" vazifasini bajaradi, u o'qituvchining g'oyalari uning ijodiy farovonligi va o'quv jarayonining haqiqiy sharoitlariga mos kelishini ta'minlashi kerak. Pedagogik faoliyatning improvizatsiyaviy tabiati o'qituvchining muvaffaqiyatga erishish, kasbiy va shaxsiy o'sish uchun axloqiy va psixologik ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, bu ham martaba o'sishi, ham mahorat va donolikning eng yuqori darajasiga ko'tarilish bilan o'lchanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, Sh. Ro'ziyeva D.I. Pedagogik diagnostika va korreksiya. Darslik.- T.: Fan va texnologiyalar, 2019.
2. Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество. М., 1987
3. Мягкая, Е. Б. Роль педагогической импровизации в процессе творчества будущего педагога / Е. Б. Мягкая. – Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2020. – № 42 (332). – С. 55-57.
4. Палтышев, Н.Н. Постигание педагогического мастерства / – Москва: Изд.центр АПО, 2002. – 64 с.
5. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.: Innovatsiya-ziyo, 2019.
6. Харькин В.Н. Педагогическая импровизация: теория и методика. М., 1992 г. - 264с.
7. Харькин В.Н., Импровизация... Импровизация? Импровизация!. Магистр, 1997 г., - 288 с.

BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI O'RGANISHGA DOIR O'QUV BILISH FAOLIYATINI BOSHQARISH

Annotatsiya: *Ushbu maqola boshlang'ich ta'lim tizimlarida ingliz tilini o'rganish bilan bog'liq o'quv faoliyatini samarali boshqarishni o'rganadi. U mavjud amaliyotlarni tahlil qilish uchun adabiyotlarni o'rganadi, qo'llaniladigan turli usullarni muhokama qiladi, muvaffaqiyatli amalga oshirish natijalarini taqdim etadi va boshlang'ich maktablarda ingliz tilini o'rganishni optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, ingliz tilini o'rganish, menejment, o'quv faoliyati, tillarni o'rganish, pedagogika, o'quv dasturlarini loyihalash, o'qitish metodikasi.*

Ingliz tilini bilish bugungi globallashtirilgan dunyoda hal qiluvchi mahoratdir. Boshlang'ich ta'lim sharoitida ingliz tilida mustahkam poydevor yaratish talabalar uchun juda muhimdir. Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tili ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan o'quv faoliyatini boshqarishga bag'ishlangan. Erta tilni egallashning ahamiyati ta'kidlanib, keyingi bo'limlar uchun zamin yaratmoqda.

Mavjud adabiyotlarni chuqur tahlil qilish yosh o'quvchilarga ingliz tilini o'qitishda qo'llaniladigan turli xil yondashuvlar va strategiyalarni ochib beradi. Tadqiqotlar nafaqat sinf mashg'ulotlarini, balki darsdan tashqari va hayotiy dasturlarni ham o'z ichiga olgan yaxlit til o'rganish muhitining muhimligini ta'kidlaydi. O'qituvchilarning roli, o'quv dasturlarini loyihalash va texnologiyaning integratsiyasi adabiyotda o'rganilgan asosiy mavzulardir.

Ushbu bo'limda boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'rganish faoliyatini boshqarishning samarali usullari ko'rsatilgan. U o'quv dasturlarini loyihalash, o'qituvchilarni tayyorlash, interfaol sinf faoliyati va texnologiyalarni birlashtirishni o'z ichiga oladi. Yoshga mos til o'yinlari, hikoyalar va interaktiv mashqlarni amalga oshirish o'rganilmoqda. Bundan tashqari, u o'quvchilarga yo'naltirilgan yondashuv, individual ehtiyojlar va turli xil ta'lim uslublari uchun muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalariga quyidagilar kiradi:	O'yin uslublarini o'rgatishda foydalanish texnologiyasi:
- rivojlanish;	- rol o'ynash, biznes va boshqa ta'lim o'yinlar turlari;
- muammolarni o'rganish;	
- ko'p bosqichli ta'lim;	- hamkorlikda ta'lim (jamoat, guruh ishi);
- kollektiv ta'lim tizimi;	
- ixtirochilik muammolarini texnologik o'rganish;	- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;
- o'qitishda tadqiqot usullari.	

Boshlang'ich ta'lim tizimida ingliz tilini o'rganish bilan bog'liq o'quv faoliyatini boshqarish o'quv dasturlarini loyihalash, o'qitish usullari, baholash strategiyalari va texnologiyalardan foydalanish kabi turli jihatlarni ko'rib chiqadigan yaxlit yondashuvni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'rganish faoliyatini samarali boshqarish uchun ba'zi asosiy fikrlar:

O'quv dasturlarini ishlab chiqish:

- Milliy yoki mintaqaviy standartlarga mos keladigan yaxshi tuzilgan va yoshga mos ingliz tili o'quv dasturini ishlab chiqish.

- O'qish, yozish, tinglash va gapirish kabi til ko'nikmalarining muvozanatini qo'shing.

- O'quv dasturiga madaniy jihatlar va Real hayotdan foydalanishni birlashtirish.

Talabalarga yo'naltirilgan faoliyat:

- Talabalarni til faoliyatida faol ishtirok etishga undaydigan interaktiv va qiziqarli o'quv muhitini yaratish.

- Tilni o'zlashtirishni yaxshilash uchun loyihaga asoslangan ta'lim, guruh faoliyati va tengdoshlar hamkorligini qo'shing.

Kasbiy rivojlanish:

- O'qituvchilarga tilni o'qitishning samarali usullaridan xabardor bo'lishlari uchun doimiy ravishda malaka oshirish imkoniyatlarini taqdim etish.

- O'qitish tilni o'rganish nazariyalariga, o'quv materiallaridan samarali foydalanishga va turli xil o'quv uslublarini boshqarish strategiyalariga qaratilishi kerak.

Baholash va mulohaza:

- Talabalarining tilni bilishini aniqlash uchun turli xil baholash usullarini, shu jumladan shakllantiruvchi va summativ baholarni amalga oshirish.

- Talabalarga kuchli tomonlarini va takomillashtirish yo'nalishlarini tushunishga yordam berish uchun o'z vaqtida va konstruktiv mulohazalarni taqdim eting.

Inklyuziv ta'lim:

- Turli xil o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish, shu jumladan turli xil o'quv uslublari, qobiliyatlari va lingvistik kelib chiqishi.

- Sinf ichidagi individual ta'lim ehtiyojlarini qondirish uchun tabaqalashtirilgan ko'rsatmalarni amalga oshirish.

Zamonaviy texnologiyadan foydalanish:

- Interfaol dasturiy ta'minot, til ilovalari va ta'lim veb-saytlari kabi til o'rganishni yaxshilash uchun texnologiya vositalari va manbalarini birlashtiring.

- O'rganishni yanada qiziqarli va haqiqiy qilish uchun multimedia resurslaridan foydalaning.

Ota-onalarning ishtiroki:

- Talabalarining uyda til o'rganishini qo'llab-quvvatlash uchun ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

- Ota-onalarga ingliz tilini rivojlantirishning ahamiyati va ular sinfdan tashqarida o'qishni qanday mustahkamlashlari haqida manbalar va ma'lumotlarni taqdim etish.

Madaniy muhofaza:

- Talabalarining til va uning global konteksti haqidagi tushunchalarini kengaytirish uchun ingliz tili darslariga turli xil madaniy istiqbollarni kiritish.

Doimiy baholash va takomillashtirish:

- Ingliz tilini o'rganish dasturining samaradorligini muntazam ravishda baholang va o'qituvchilar, talabalar va ota-onalarning fikr-mulohazalari asosida tuzatishlar kiriting.

- Til ta'limidagi eng yaxshi amaliyotlar haqida xabardor bo'ling va kerak bo'lganda yangi yondashuvlarni qo'shing.

- Talabalarga ingliz tilini haqiqiy kontekstda, masalan, tilga cho'mish dasturlari, til klublari yoki madaniy almashinuvlar orqali foydalanish imkoniyatlarini yaratish.

Ingliz tilini o'rganish faoliyatini boshqarishda ushbu jihatlarni hal qilish orqali boshlang'ich ta'lim tizimlari talabalar uchun qo'llab-quvvatlovchi va samarali o'quv muhitini yaratishi mumkin.

Munozara bo'limi madaniy kontekst, ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlar va turli xil ta'lim sharoitlarida usullarning moslashuvchanligi kabi omillarni hisobga olgan holda natijalarni tanqidiy baholaydi. U ingliz tilini o'rganish faoliyatini boshqarishda duch keladigan muammolarni o'rganadi va potentsial echimlarni taklif qiladi. Bundan tashqari, o'qituvchi va talabalarining o'zaro munosabatlari, tengdoshlarning hamkorligi va multimedia resurslaridan foydalanishning ta'siri tahlil qilinadi.

Xulosalar:

Adabiyotlar tahlili, usullari va natijalaridan olingan xulosalar boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'rganish faoliyatini boshqarishga kompleks yondashuvning ahamiyatini ta'kidlaydi. Asosiy topilmalar nazariy bilimlarning ham, amaliy qo'llanilishning ham muhimligini tan olib, an'anaviy va zamonaviy o'qitish usullarining muvozanatli aralashmasi zarurligini ta'kidlaydi.

Topilmalar asosida ushbu bo'lim o'qituvchilar, siyosatchilar va o'quv dasturlari dizaynerlari uchun amaliy takliflarni taqdim etadi. Tavsiyalar o'qituvchilar uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish, texnologiyani birlashtirish va qo'llab-quvvatlovchi o'quv mu-

hitini yaratishni o'z ichiga oladi. Jamiyatni jalb qilish va ota-onalarni qo'llab-quvvatlash muhimligini ta'kidlash ham taklif etiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'rganish bilan bog'liq o'quv faoliyatini boshqarish ko'p qirrali ishdir. Yaxlit yondashuvni qo'llash orqali maktablar ijobiy va samarali ingliz tilini o'rganish muhitini yaratishi, o'quvchilarni tobora o'zaro bog'liq bo'lgan dunyoda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur ko'nikmalar bilan jihozlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turdaliyeva G.N "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar"// 2020 .
2. Bekmuratova U.B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" // Toshkent 2012.
3. Toliboboeva, S.J. (2020). TEACHING INTERCULTURAL COMMUNICATION IN ENGLISH. ScienceandEducation, 1(SpecialIssue 2).
4. Толибобоева Ш. (2020). Ingliz tilini o'qitishdagi zamonaviy ta'lim texnologiyalari. YoungScientist, 19(309), 581-582.
5. Juldasheva N.N. (2020). Хорижий тилларни ўқитишда ахборот технологиялар ва инновацион методларнинг ўрни. Молодой ученый, (12), 332-333.
6. Ashirbaeva A. (2020). POSITIVE TRAITS OF TEACHING LANGUAGE THROUGH LITERATURE. ScienceandEducation, 1(SpecialIssue 2).
7. Umirova Z. (2020). IMPORTANCE OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES. International Scientific Conference of Students and Young Scientists "FARABI ALEMI".

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM MAZMUNI

Annotasiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematikadan milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning ilmiy-metodik asoslari haqida mulohazalar suningdek, Respublika ta'lim inspeksiyasi tomonidan milliy o'quv dasturi loyihasi muhokamasi haqida so'z yurutamiz.

Kalit so'zlar: Mulohaza, texnologiya, maqsad vazifa, o'quv dasturi, ta'lim standarti, boshlang'ich ta'lim, matematika, bilim va ko'nikma.

Matematika fanini o'qitishdan ko'zlangan zamonaviy maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

- jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

milliy, ma'naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa ta'lim tizimiga, jumladan, matematikani o'rgatish bo'yicha ham xalqaro tajriba va andozalarni joriy etish orqali ta'minlanadi.

Bundan ta'lim bo'yicha qator xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari ham dalolat bermogda. Shu o'rinda, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning 15 yoshli o'quvchilarning ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini baholashga qaratilgan PISA – o'quvchilar yutuqlarini baholash xalqaro dasturi tadqiqotlari natijalari e'tiborga molik.

Bundan tashqari, ta'limiy yutuqlarni baholash xalqaro uyushmasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan TIMSS –matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatining xalqaro monitoringi dasturini ham keltirish mumkin. Ushbu tadqiqot o'quvchilarning turli davlatlarda ma-

tematika va tabiiy fanlardan bilim darajasi va sifatini solishtirishga hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga ko'maklashadi.

Tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda matematika fanini o'qitishga xalqaro baholash dasturlarining mazmuni, baholash me'zonlari va mexanizmlari mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda joriy etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

STEAM (S – science - tabiiy fanlar T – technology - texnologiya, E – engineering – muhandislik, A – art – san'at, M – mathematics – matematika) ta'lim texnologiyasi aniq fanlar blok-modulida o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu texnologiyani amalga oshirishda o'quvchilar tomonidan turli texnik qurilmalarni yasash uchun loyihalar yaratish, loyiha asosida qurilmaning maketini yaratish va uni amaliyotda ishlatib ko'rish, kamchiliklarini topish hamda uni bartaraf etish kabi vazifalar bajariladi.

Matematik ta'limga kompetensiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko'rinishdagi malakalarni o'quvchilar tomonidan egallashni nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvda matematik ta'limning asosini amaliy, tabiiy yo'nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi.

O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish, kichik o'quv tadqiqotlarni bajarish orqali umumta'lim fanlarini o'rganishga qiziqishni kuchaytirish maqsadida fan o'quv dasturlariga amaliy mashq va tatbiq hamda loyiha ishi kiritildi. Bu holat nafaqat muayyan o'quv fani bo'yicha o'zlashtirish sifatini yaxshilaydi, balki fanlararo va faning kundalik turmush bilan bog'lanish imkoniyatlarini ochadi va ta'lim samaradorligini oshiradi.

Matematika darslarini tashkil qilishda nazariyadan ko'ra ko'proq amaliyotga e'tibor berish hamda o'quvchilarga tayyor o'quv materiallarini berishga asoslangan yondashuvdan ma'lum darajada voz kechish talab qilinadi. Matematika darslarida ko'proq keys, tadqiqot, loyiha, kichik o'quv kashfiyotlari kabi interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchilarda kichik tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda kuzatish, tajriba, o'lchashlar, analiz (tahlil) va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiya kabi ilmiy izlanish metodlaridan o'rnida foydalanish talab etiladi. O'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni shunchaki shakllantirib qolmasdan, ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyalarini ham tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu o'rinda loyiha ishlarining o'rni e'tiborga molik. O'quvchilar bir o'quv yilida o'zlari qiziqqan fani yoki ta'lim sohasidan faqat bitta loyiha ishini bajarishlari tavsiya etiladi. Loyiha ishi mavzulari o'qituvchilar tomonidan bitta yoki bir necha o'quv fanlari doirasida muammoli vaziyat yoki keys sifatida tanlanadi. Loyiha ishi mavzusi ustida o'quvchilar alohida-alohida yoki qiziqishlariga qarab 3-4 kishilik guruh bo'lib ishlashlari ham mumkin. Loyiha ishi o'quv yili oxirida o'tkaziladigan himoya bilan tugaydi. Himoyani

bitta yoki bir necha o'quv fanlari doirasida konferensiya tarzida o'tkazilishi mumkin. Loyiha ishi mavzusi ustida o'quvchilarning individual yoki guruhiy ishi quyidagi o'quv faoliyatlarni o'z ichiga olishi mumkin: o'z izlanish faoliyatlarini rejalashtirish, vazifalarni o'zaro taqsimlab olish, oldilariga o'quv maqsadlarini qo'yish, kerakli ma'lumotlarni izlab topish, mavzuga doir muammoli vaziyat yechimlarini qidirish, ulardan eng maqbulini tanlash va uni asoslash, zarur hollarda so'rovlar yoki tajribalar o'tkazish, loyiha ishi natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash, o'z faoliyatlarini tahlil qilish va baholash, loyiha ishi himoyasi uchun taqdimot tayyorlash va uni himoya qilish. O'quvchilar loyiha ishi muammosi bo'yicha izlanishlarini odatda darsdan tashqari mustaqil mashg'ulotlarda olib borishadi.

Matematika fanining boshqa fanlar bilan integratsiyasi Matematika fanini o'qitishda nafaqat uning bo'limlar orasidagi o'zaro ichki, balki tashqi, ya'ni turdosh blok-modullar tarkibiga kiruvchi fanlar bilan integratsiyasi ham katta ahamiyatga ega. Jumladan, quyidagi fan yo'nalishlari bilan o'zaro chambarchas aloqalari muhim hisoblanadi:

Ona tili va adabiyot, xorijiy tillar orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar matematika fanlarni o'qitishda o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda, yozma va og'zaki ravishda o'z qarashlarini ravon bayon etish malakalarini hosil qilishda, ilmiy atamalarni to'g'ri qo'llash hamda bahs-munozaralar jarayonida erkin muloqot qilishga o'rgatishda muhim o'rin tutadi.

Informatika va axborot texnologiyalari fani yordamida matematika fanini o'qitish jarayonining samaradorligini turli ko'rinishdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kompyuter texnikasidan foydalanish orqali oshirishga ulkan imkoniyatlarni yaratadi.

Fizika fanini o'qitishda o'quvchilar tabiat hodisalarini va asosiy fizik jarayonlarni anglash bilan birga, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishda matematik formulalarni qo'llashni o'rganadilar. Ko'pgina fizik masalalar tenglama yoki tenglamalar sistemasini tuzish va ular bilan ishlash ko'nikmasining shakllangan bo'lishini taqozo etadi. Fizika fanini o'qitishda matematika fani nafaqat hisoblash apparati sifatida, balki matematik mulohazalar yordamida voqelik, hodisaning xarakteri haqida fizik xulosalar chiqarishga hamda mazkur jarayonlar tadqiq qilish, matematik tenglamalarni yechish orqali fizik hodisalar haqida fikr yuritish imkonini beradi. Fizik masalalarni matematika darslarida tahlil qilish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati, aqliy rivojlanishi va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish barobarida olamning yagona manzarasiga oid tafakkurlarini rivojlantirish hamda egallagan bilimlardan hayotiy muammolarni hal qilish, kundalik faoliyatlarida foydalanish ko'nikmasini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Biologiya fani o'quvchilarda jonli tabiatning obyektini va tizimini his etishni, jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi aloqalarni shakllantiradi. Bir vaqtning o'zida atrofimizni o'rab turgan jonli tabiatga ijobiy munosabat, tabiiy rang-baranglikni saqlab qolish, shuningdek, javobgarlikni his qilgan holda mustahkam hayotiy faoliyat shakllanadi. Matematika darslarida jonli tabiatning biologik qonuniyatlari va modellari haqidagi hayotiy masalalarni tahlil qilish orqali bu ikki fan orasidagi integratsiya ta'minlanadi.

Kimyo fani o'quvchilarda organik va anorganik moddalar va tuzilmalarni tabiatning obyekt sifatida his etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Matematika darslarida moddalar va tuzilmalarning tuzilishiga oid geometrik, sifat va miqdoriy kattaliklarni tahlil qilish orqali ularning kimyoviy xususiyatlarini o'rganish, tadqiq qilish hamda xulosa chiqarish orqali bu ikki fan orasidagi uzviy aloqadorlik ta'minlanadi.

Geografiya fani o'quvchilarda tabiat in'omlari va insonning iqtisodiy faoliyati natijasida yaratilgan obyektlarni tizimli ravishda, birgalikda his etishni shakllantiradi. Matematika darslarida geografik ob'ektlarga doir hayotiy masalalar yechish va tahlil qilish orqali bu ikki fan orasidagi aloqadorliklar aniqlanadi.

Texnologiya fani orqali tarkib toptirilgan kompetensiyalar matematika fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularning texnik ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ijodiy loyiha tayyorlash malakalarini hosil bo'lishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Iqtisodiy bilim asoslari fanini o'rganish jarayonida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan muayyan hayotiy vaziyatlarda eng maqbul yechim topa olish va to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatishdan iborat. O'quvchilarda iqtisodiy masalalarning matematik modelini qurish va matematika fani yordamida iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish u asosida bashoratlar qilish ko'nikmalari rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlik asoslari fanini o'rganish o'quvchilarning kelajakdagi hayotiy tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishni ko'zda tutadi. Tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishda matematikaning o'rnini beqiyos bo'lib, tadbirkor mablag'lari va sarmoyasini iqtisodiyotga jalb qilish maqsadida ishlab chiqiladigan biznes reja matematik hisob-kitoblar yordamida asoslab berilishi lozim bo'ladi. Tadbirkor faoliyatida foyda, zarar va daromad hamda tavakkalchilik kabi muhim omillar borki, ular ham oldindan matematik hisob-kitoblar yordamida asoslanishi – tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini kafolatlashda muhim o'rin tutadi. Matematika darslarida iqtisodiy muammo va masalalarni yechish, matematika fani mazmunini hayotiy masalalar bilan boyitadi va o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishni oshishiga olib keladi.

Tarix fani matematika fani bilan ham bevosita bog'langan. Ilm-fan yutuqlarining ishlab chiqarish sohalari, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarining rivojlanishi va atrof-muhit holatiga ta'sirini ko'rsatishda tarixiy ma'lumotlarning ahamiyati kattadir.

Matematik ta'limga kompetensiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko'rinishdagi malakalarni o'quvchilar tomonidan egallashni nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvda matematik ta'limning asosini amaliy, tadbiriy yo'nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi.

O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish, kichik o'quv tadqiqotlarni bajarish orqali umumta'lim fanlarini o'rganishga qiziqishni kuchaytirish maqsadida fan o'quv dasturlariga amaliy mashq va tatbiq hamda loyiha ishi kiritildi. Bu holat nafaqat muayyan o'quv fani bo'yicha o'zlashtirish sifatini yaxshilaydi, balki fanlararo va fan-

ning kundalik turmush bilan bog'lanish imkoniyatlarini ochadi va ta'lim samaradorligini oshiradi.

Matematika darslarini tashkil qilishda nazariyadan ko'ra ko'proq amaliyotga e'tibor berish hamda o'quvchilarga tayyor o'quv materiallarini berishga asoslangan yondashuvdan ma'lum darajada voz kechish talab qilinadi. Matematika darslarida ko'proq keys, tadqiqot, loyiha, kichik o'quv kashfiyotlari kabi interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchilarda kichik tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda kuzatish, tajriba, o'lchashlar, analiz (tahlil) va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiya kabi ilmiy izlanish metodlaridan o'rnida foydalanish talab etiladi. O'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni shunchaki shakllantirib qolmasdan, ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyalarini ham tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to'g'risida. Uzbekiston Respublikasi prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori.

2. Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах. к Указу Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП-4947.

2. Дрига, В. И. Развитие профессиональной карьеры современного педагога в условиях креативного образования / В. И. Дрига // Стандарты и мониторинг в образовании. – 2012. – № 4. – С. 48–51

3. Локтионова Т.Е., Сергеева М.Г. Комфортная образовательная среда в образовательной организации: современный подход к проектированию. Профессиональное образование и общество . – 2018. – №3(27). – 43-106 с.

4. Жумаев М. Методика преподавания математики для начальных классов. Учебник. Туроникбол. Ташкент, 2016. 426 с.

5. Давыдов В.В. Психологическая теория учебной деятельности и методов начального обучения, основанных на содержательном обобщении. – Томск, 1992. – 112 с.

6. Фридман Л.М. Как научиться решать задачи. Москва.: Просвещение 2005. 132 ст.

7. Петерсон Л.Г. Моделирование как средство формирования представлений о понятии функции в 4-6 классах средней школы. Дис. на соиск. уч. степ. канд. пед. наук. – М., 1984. – 201с.

MUNDARIJA

1	Ismailov Abduvali Abdumalikovich. Kirish soʻzi	3
2	Ibraimov Xolboy Ibragimovich. Boshlangʻich taʼlim oʻqituvchisining dars jarayonida qoʻllaydigan metodi – taʼlim sifatining asosiy omilidir	5
3	Alkarov Elyor Maxmudovich. Uzlüksiz kasbiy rivojlantirish tizimida boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilarining malakasini oshirishni tashkil etish.	9
4	Ismailov Abduvali Abdumalikovich, Badalova Maksuda Umarovna. “4K” kompetensiyalarining mohiyati va baholash usullari.	12
5	Sanakulov Xamrakul Rizakulovich. Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishning asosiy yoʻnalishlari	16
6	Mamenov Turar Iriskulovich. Boshlangʻich taʼlimda bilim sifatini oshirish omillari	20
7	Darvishxoʻjayev Abdurashid Abdulxakimovich. Oʻqitish uchun sarflanayotgan vaqtning oʻquvchilar oʻzlashtirishiga taʼsir darajasini baholash	25
8	Botirov Hamid Hakimovich, Rejapova Dilafruz Akramovna. Boshlangʻich sinflarda taʼlim sifatini oshirishda oʻqituvchi va ota-onalar hamkorligini takomillashtirish yoʻllari	31
9	Ishanxodjayev Saidaxmad. Oʻzbekistonlik mehnat migrantlar farzandlari boshlangʻich taʼlim olishidagi ayrim masalalar	36
10	Tursunaliyeva Feruza Mirzaxmadovna. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida kompetensiyaviy yondashuv asosida ekologik madaniyatni shakllantirish	39
11	Gʻoyibnazarov Oʻtkirjon Nosiraliyevich. Mashgʻulot jarayonida jismoniy yuklamalarni belgilash	45
12	Djurayeva Perdegul Saidovna. Umumtaʼlim maktablarida inklyuziv taʼlimni joriy etishning differentsial yondoshuv samaradorligi	48
13	Davlatjonova Mohidil Ulugʻbek qizi. Boshlangʻich taʼlim tizimini takomillashtirishda ilgʻor milliy va xorij tajribalari	52
14	Aytmuratov Baxtiyar Turgʻanbayevich. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida anʼana va udumlarga qiziqish oʻrgʻatish orqali ularni mehnatga tarbiyalash	56
15	Pulatova Dildora Turgunovna. Life long learning paradigmasi boshlangʻich taʼlim sifatini oshirishda asosiy omil	59
16	Karimova Shaxloxon. Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining savodxonligini oshirishda yozma matn ustida ishlashning pedagogik imkoniyatlari	62
17	Tursinova Zoxida Sharabidinovna. Boshlangʻich taʼlimda kasbiy kompetentlik muammosi	67

18	Nigora Rustambekova. Boshlang'ich sinflardagi o'quv fanlari mazmunida o'quvchilarining ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari	70
19	Raximqulova Maxbuba Baxronovna, Raximqulova Komila Komilovna. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining ilmiy maqolalardan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish	74
20	To'rayeva Sanobar Sulaymonovna. O'qish darslarida o'quvchilar nutqini iboralar bilan boyitish usullari	79
21	Musoyeva Lobar Muslitdinovna. International assessment in primary education	82
22	Yusupova Mahbuba Bahodir qizi. Boshlang'ich ta'limda ingliz tili savodxonligini baholashning innovatsion usullari	86
23	Eshonqulov Allayor Abdusamatovich, Safarova Nurxon Abdusamat qizi. Inklyuziv ta'lim muassasalarida sifatli pedagogik muhitni yaratish va boshqarish	89
24	Alkarova Feruza Nazarbayevna. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida stem yondashuvni qo'llashning ahamiyati	95
25	Rayimova Farangiz Erkin qizi. Boshlang'ich ta'limda kiritilayotgan yangi usul va metodlar	98
26	Dadaboyeva Ozoda Abdubannoyevna. Boshlang'ich sinflarda ixtirochilik muammolari bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqish va ularni amaliyotga jalb etish	101
27	Nazarova Saida Aripovna. Dars samaradorligini oshirishda tavsifiy metoddan foydalanish	104
28	Xudoynazarov Egambergan Madraximovich, Urazova Nasiba Urazboyevna. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari	107
29	Otavaliyeva Odina Hamidullo qizi. Boshlang'ich ta'lim tizimida xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarish malayziya tajribasi asosida	110
30	Urazova Nasiba Urazboyevna. Boshlang'ich sinflarda turli didaktik o'yinlardan foydalanishning ahamiyati	113
31	Shodiyeva Iroda Saidaxmadovna. Boshlang'ich sinflarda matematika darslarini tashkillashda kreativ yondashuvlar	116
32	Ismatillaeva Latofat Ismatillaevna. Boshlang'ich ta'lim tizimini takomillashtirishning dolzarb masalalari	121
33	Abdiyeva Qo'ysintosh Azadovna. Boshlang'ich sinflarda 4K modeli asosida darslarni tashkil etish orqali o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishiga erishish	124
34	Mexmonov Ismat Toshpo'latovich. Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitishni takomillashtirishda STEAM yondashuvi	127

35	Karimova Fotima. Boshlang'ich sinflarda ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy va xorijiy tajribalarni darslarda qo'llash	131
36	Qodirova Zulxumor Toshmirzayevna. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatning kuchi va barqarorligini oshirish, tezkorlikka o'rgatish	134
37	Rustamova Naima Sobitovna. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatish	137
38	Qodirov Raxmon Karimovich. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish tamoyillari	139
39	Toshpo'latova Sevara. Boshlang'ich ta'lim jarayonida xorijiy tillarni o'qitilishining ahamiyati.	142
40	Amirova Lobar Usmon qizi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda ota-ona roli	146
41	Kamoldinov Muhammadsodiq Baxtiyor o'g'li. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun zamonaviy metodlar.	148
42	Eshmuminova Oybarchin Botirovna. Boshlang'ich ta'lim tizimini takomillashtirishning dolzarb masalalari.	150
43	Quchqarova Ziyoda Xoshimjonovna. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda husnixatga o'rgatishning dolzarbligini.	154
44	Baxromova Irodaxon Bobirxon qizi. The significance of early language learning in primary school	157
45	Boymirzayev Farhodjon Raxmatjon o'g'li. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarga matematika fanini o'qitishning zamonaviy usullari	161
46	Jalolova Gulnoza Atamirzayevna. Ta'lim jarayonida sinfdan tashqari mashg'ulotlarda birinchi sinf o'quvchilarning ijodiy faolligini rag'batlantirish	164
47	Uralova Matlyuba Jumabayevna. Boshlang'ich sinf o'quvchilari barkamolligida aqliy tarbiya masalalar	167
48	Abduvaliyeva Mohira Mirzohid qizi. Boshlang'ich ta'lim tizimini takomillashtirishda maktabgacha ta'limning ahamiyati	171
49	Isayeva Sitora Husniddin qizi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda boshlang'ich ta'limni yaxshilash	174
50	Usmonova Saida Akramjon qizi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini fanlarni o'zlashtirishda ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish	178
51	Xudayarova N.Sh. Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda pedagog kadrlar rotatsiyasining ahamiyati	180
52	Muradov Ikrom Turdiboevich. Boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda sinf o'quvchilarining optimal sonini belgilash	184
53	Musayev Murod Tashkentevich. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinflarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish mazmuni va metodlari	191

54	Kenjaboyeva Nigora Mamayusufovna. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ qobiliyatini shakllantirish uchun ularning reproduktiv madaniyatni rivojlantirishda pedagogning o'rni	196
55	Fidayev Firdavs Djuraboyevich. Innovatsion ta'limning rivojlanishi	199
56	Murodova Zulfiya Numanjonovna. Boshlang'ich sinflarda matematika darslarida zamonaviy metodikalardan foydalanish	203
57	Mirzaolimova Dilfuza Abduvohidovna. "Ta'lim to'g'risida"gi yangi Qonun va inklyuziya: qanday bo'lishi kerak?	208
58	Axrarov Baxtiyor Sagdullayevich. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot savodxonligini shakllantirish masalalari	210
59	Abidova Zarifaxon Qosimjonovna. Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlarning psixologik shart-sharoitlari	214
60	Qambarova Erkinoy G'ulomjon qizi. Boshlang'ich ta'lim tizimini takomillaashtirishning dolzarb masalalari	216
61	Matmurotova Raximaxon Fattoyevna. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni kasbga tayyorlash	219
62	Qirg'izboyeva Maxfuza Abdurayimovna. Boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda integratsion ta'limni rivojlantirish	224
63	Inoyatova Z., Pirimqulova E'zoza, Ashirqulova Binafsha. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari	227
64	Oqmurzayev Dilshod Jo'raqul o'g'li. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining maktabga hissiy moslashuvi va fanlarni yaxshi o'zlashtirishning ijtimoiy-psixologik asoslari	230
65	Inoyatova Z.X. Shermatova D.U. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimni baholashda xalqaro baholash tadqiqotlarining ahamiyati va mezonlari	232
66	Shodiyeva Iroda Saidaxmadovna. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarini tashkillashda zamonaviy yondashuvlar	235
67	Umarova Nilufar Xasanovna. Kommunikativ kompetensiya o'qituvchi kasbiy faoliyatida muhim integral sifat	238
68	Raximov Abdurasul Ravshan o'g'li. Boshlang'ich sinflarda musiqa darslarini tashkil etishda "4K" modelini qo'llash	242
69	Shixova Inobat Omonovna. Sinf dan tashqari mashg'ulotlarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning samarali usullari	245
70	Uzoqova Hadicha Jalilovna. Boshlang'ich sinflarda tarbiya fanini o'qitishda didaktik vositalarning ahamiyati	249
71	Xasanova Nazokat Xolmurotovna. Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish – davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida	253

72	Hayitov Anvar Isomiddin o'g'li. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining reflektiv kompetentligini rivojlantirish mazmuni	257
73	Abrorxonova K.A., Kasimova O. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanib borishlarida pedagogik improvizatsiyaning o'rni	260
74	Lobar Bozorova Amonovna. Boshlang'ich ta'lim tizimida Ingliz tilini o'rganishga doir o'quv bilish faoliyatini boshqarish	264
75	Djumayev Mamanazar. Nizomiy nomidagi TDPU professori	268



Maktabgacha
va maktab
ta'limi vazirligi



Abdulla Avloniy nomidagi Pedagoglarni
kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga
o'rgatish milliy-tadqiqot instituti

BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI

Тошкент – 2023

Техник муҳаррир: *А.Эргашов*
Саҳифаловчи: *Б.Бобожонов*

Босишга рухсат этилди 27.11.2023
Бичими 60×84 $\frac{1}{8}$. “PT Serif” гарнитураси.
Шартли босматабоғи: 33,5.